

Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov

O'ZBEK MUSIQASI TARIXI

I



O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Toshkent - 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov

O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI

(Darslik)

I

Toshkent - 2021

UO'S: 036.313.244

KBK: 85.313 (0)

Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov O'zbek musiqasi tarixi Darslik . « Fan Ziyosi » nashriyoti - Toshkent: 2021 y. – 266 bet

O'zbek musiqa tarixining eng qadim zamonlardan XX asrga qadar bo'lgan ulkan davrini o'z ichiga olgan mazkur darslik maxsus musiqa oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan. Unda o'zbek xalqining ko'p ming yillik madaniyati, xususan musiqa san'ati o'z ifodasini topgan bo'lib, mavzular bosqichma-bosqich davrlarga bo'lib yoritiladi. Darslikdan joy olgan mashhur allomalarning hayoti va ijodi, ularning hozirgi kunga qadar o'rganilib, tadqiq etilayotgan teran mazmun-mohiyatga ega qomusiy asarlari, musiqaga bag'ishlangan maxsus risolalari xususidagi zarur ma'lumotlar talabalar bilimini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mualliflar: Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov.

Mas'ul muharrir: san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor S.M.Begmatov

Taqrizchilar: san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

I.A. Ganieva

Glier nomidagi RIMAL "Musiqqa nazariyasi" bo'limi dotsenti Z.T.Tuychieva

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrda 1000-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7469-1-6

© «Fan ziyosi» nashriyoti 2021

KIRISH

O'zbek musiqa tarixining eng qadim zamonlardan XX asrga qadar bo'lgan ulkan davrini o'z ichiga olgan mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining besh ustuvor yo'nalishi"ni amalga oshirish yo'lida baholiquadrat bir ulushdir. 2017 yil fevral oyida chop etilgan "Harakatlar strategiyasi..."¹da ilm-fan va san'atning turli sohalarida yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratiga alohida e'tibor qaratiladi.

Yurtboshimizning "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari"² to'g'risidagi maxsus qarori esa aynan ushbu oliygohda o'zbek xalqining milliy musiqiy merosi va jahon musiqa madaniyati durdonalari negizida musiqa san'atini rivojlantirish va musiqiy ta'lim tizimini sifat jihatidan yanada ko'tarishga qaratilgan.

Shunga ko'ra, mazkur darslikda o'zbek xalqining ko'p ming yillik madaniyati, xususan musiqa san'ati o'z ifodasini topgan bo'lib, mavzular bosqichma-bosqich davrlarga bo'lib yoritiladi. Darslikdan joy olgan mashhur allomalarning hayoti va ijodi, ularning hozirgi kunga qadar o'rganilib, tadqiq etilayotgan teran mazmun-mohiyatga ega qomusiy asarlari, musiqaga bag'ishlangan maxsus risolalari xususidagi zarur ma'lumotlar talabalar bilimini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Fan mavzularini yoritish asnosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmali materiallardan unumli foydalanishga alohida ahamiyat berildi. Boisi, ushbu omillar orqali o'rganilayotgan mavzularning mazmun-mohiyatini batafsil ochib berish imkoniyati yanada ortadi.

¹ Mirziyoev Sh.M. Harakatlar strategiyasi... // Xalq so'zi. 8.02. 2017 y.

² Mirziyoev Sh.M. "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. // Xalq so'zi. 8.08. 2017 y.

Ta'kidlash joizki, O'zbek musiqasi tarixi kursini An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari, Xalq musiqa ijodiyoti, O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi, Maqom asoslari kabi fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda o'zlashtirish, milliy musiqa merosimizni atroflicha, batafsil o'rganish imkonini beradi.

Shunday ekan, bugungi kunning talaba yoshlari katta avlodga munosib voris bo'lishlari uchun bor kuch-g'ayrati va shijoatlari bilan bilimli, salohiyatli mutaxassislar bo'lib yetishishga intilishlari kerak. Zero, bu borada ularga hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilib, katta ishonch bildirilmoqda. Demak, O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shish, milliy musiqa san'atining rang-barang janrlari, ularning tarixi va nazariyasini yanada teranroq o'rganish va tadqiq etish yosh musiqashunoslar, ijrochi-ijodkorlarning kasbiy burchidir.

O'RTA OSIYO XALQLARINING MADANIY-MUSIQIY MEROSI

Mavzu rejasi:

1. Qadimgi davrlarga oid dastlabki ma'lumotlar.
2. Madaniyat, musiqa san'atining shakllanish bosqichlari.
3. Ilk musiqa cholg'ulari.

Qadimgi davrlar (eramizdan avvalgi)

Qadimgi davr madaniyatini o'rganish uchun tayanch manbalar

O'troq xalqlar hayoti

Qadimgi cholg'ularning paydo bo'lishi

Ko'rgazmali materiallar

Qadimgi marosimlarning paydo bo'lishi


Ko'chmanchi xalqlar hayoti

Tarixiy ma'lumotlar. Dunyoda insoniyat yaratilib unga eng oliy mukofot - ong va tafakkur in'om etilgan ekan, uning hayotiy jarayoni shubhasiz, rivojlanish tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ma'lumki, insoniyat yer yuzida paydo bo'lgandan so'ng rivojlanish jarayonida bir qator davrlarni bosib o'tgan. Bu davrlar ilm-fanda o'z mohiyatidan kelib chiqib, Temir asri, Bronza asri, Yangi tosh asri asri

(Eneolit, Neolit), O'rta tosh asri (Mezolit), Paleolit deb nomlanadi. Bular inson tafakkurining ma'lum darajada rivojlanib tarixiy jarayonlarni o'ziga xos aks ettirish, bayon etish, amaliyotga kirib kelgan ijod namunalari zikr etish va tarix xususida tadqiqotlar olib borilgandan so'ng muayyan davrlarga ajratish amallaridir.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilma ishlarining guvohlik berishicha, "... yer yuzida insoniyat paydo bo'lganiga million yildan ortiqroq vaqt o'tgan. Ana shu million yillik tarixning oxirgi bosqichida, atigi bundan 6 ming yil burungina yer kurrasining ayrim mintaqalarida yozuv paydo bo'ldi. Yozuv avval Nil daryosi bo'ylarida (qadimgi Misr), Tigr va Dajla daryolari havzalarida (Qadimgi Mesopotamiya) va nihoyat, Hind daryosi havzasida (shimoli-g'arbiy Hindiston) paydo bo'ldi. Jahon madaniyatining ana shu o'choqlari ta'sirida Oromiy xati asosida shakllangan qadimgi yozuv O'rta Osiyoga (aniqrog'i, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona va Parfiyaga) miloddan avvalgi III-II asrlarda kirib keldi"³.

³ Qarang: O'zbekiston xalqlari tarixi I, "Fan", T., 1992. 3- b.




San'at. Xususan, ibtidoiy jamoa tuzumi davri san'atining ilk namunalari hozirgi tipdagi odam paydo bo'lgan so'nggi paleolit davri (taxminan mil. av. 30 ming yilliklar)ga mansub. Ibtidoiy san'at ibtidoiy jamoa kishisiga dunyoni o'zgartirishda orttirgan tajribalarini avloddan avlodga uzatuvchi kuch, dunyo to'g'risidagi tushuncha va bilimlarini aks ettiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Tasvirlash ibtidoiy odam uchun o'z tushuncha va ma'naviy madaniyatini, tasavvurini ifodalashga xizmat qilgan. Shular zaminida asta-cekin inson faoliyatining turli shakl va ko'rinishlari yuzaga kelgan. San'atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich bo'ldi⁴.



1. Arfachi. Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asri. Afrosiyob. Ermitaj.

2. Udchi ayol. Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asri. Afrosiyob. Samarqand muzeyi.



3. Udchi ayol. Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asri. Afrosiyob. Ermitaj.

4. Arfachi. Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asri. Afrosiyob. Samarqand muzeyi.

⁴ O'z Milliy Ensiklopediyasi T., I-VII jild, 502 bet

Musiqqa ijodiyotining ilk ko'rinishlari ham ibtidoiy jamoa tizimi davrida, asosan ovchilik va temirchilik bilan kun kechirgan odamlarning mehnat va marosimlari jarayonida yuzaga keladi. Ommaviy o'yinlarning urg'u-zarbalari, afsun-jodu ohang iboralari, hayvonlar ovozigga taqlid sadolari, signal (darak beruvchi) qichqiriq-baqiriqlardan asta-sekin aynan musiqa xususiyatlariga ega bo'lgan ifodaviy vositalar qaror topadi. Ular asosan, odam tanasi (qo'l-oyoq) harakatlarini aks ettiruvchi ritmik tuzilmalar, usullar, shuningdek, odam ovozi, nutq intonatsiyasi ta'sirchanligiga asoslangan ohang iboralari tarzida rivoj topadi. Shu bilan birga tosh, suyak, yog'och, chig'anoq, shox kabi tabiat narsalari ilk musiqa cholg'ulari, "musiqqa qurollari" sifatida qo'llanila boshlaydi. Bulardan hozirgacha saqlanib qolgan turli shaqildoq, zuvilcha kabi idiofonlar, puflama (hushtak, burg'u, sibizg'a), urma (qayroq, dovul va h.k.) cholg'ularni ko'rsatish mumkin.

Dehqonchilik va chorvachilikka o'tish davridan oldin muayyan tartib hamda aniq balandlikka ega bo'lmagan tovush nisbatlari asosida tovushqator, parda tuzilmalari, o'lchov va vaznning ilk shakllari yuzaga keladi. Mazkur jarayonda oddiy (xususan, mavsum marosim) qo'shiqlar, muayyan mavzuli cholg'u kuylari qaror topadi.

O'rta Osiyoning tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Hozirgi Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston hududida yirik tarixiy voqeliklar bo'lib o'tgan va buning natijasida turli etnik guruhlarning o'zaro aralashib ketishi, madaniyatlarning bir-biriga ta'siri kuzatiladi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan bu xududda sinfiy jamiyat va davlatlarning shakllanish jarayonlari kechgan.

"O'rta Osiyo miloddan avvalgi VI-II ming yilliklarda ikki katta madaniy-tarixiy viloyatlarga ajraladi. Ular bir-birlaridan yashash tarzi va madaniy an'analari bilan farqlangan: ulardan birining aholisi o'troq dehqon va chorvador qabilalar bo'lsa, boshqasini, ko'chmanchi qabilalar edi. Qadim zamonlarda madaniyatning ham ikki xil

yo'nalishda rivojlanganligi ma'lum bo'ladi: bu dehqonlar, shahar sharoiti hamda ko'chmanchi qabilalar yo'nalishlaridir. Bu yo'nalishlar o'zaro kesishib, bir-biriga ta'sir o'tkazib kelgan bo'lsa-da, ammo keyinchalik ham o'zaro qorishib ketmagan. Bu esa badiiy ijodiyot (xususan musiqa) sohasida merosning turli qatlamlari shakllanishiga olib kelgan. Moddiy madaniy yodgorliklarda shahar madaniyati ko'chmanchi qabilalar madaniyatiga nisbatan ko'proq xajmda saqlanib qolgan. Bu esa ularning arxeologik va tarixiy tadqiqotlarda birdek yoritilmaganligidan dalolatdir"⁵.

Har bir davr tarixda o'ziga xos tarzda yoritilgan bo'lib, ijtimoiy hayot, turmush tarzi, madaniyat va ma'naviyati bilan izohlanadi. Xalqlar madaniyati va san'atining bizgacha yetib kelgan yodgorliklari qadim zamonlarga taalluqli ekanligini asosan arxeologik qazish ishlari jarayonida topilgan namunalardan bilib olamiz. Bu turli odam va hayvonlarning suyaklari, imoratlar peshtoqlarida aks ettirilgan turli tasvirlar, mis, sopol va turli idishlarga tasvirlari tushirilgan san'at namunalardir.

Ma'lumki, qadimgi davrlar tarixini o'rganishda uch asosiy manbaga tayaniladi:

1. Arxeologik yodgorliklar
2. Yozma manbalar
3. Xalq og'zaki ijodi

Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyo hududida ko'plab qadimiy xilma-xil madaniyat o'choqlari tarkib topgan va rivojlanganki, ular umumiy tarzda uchta yirik davr taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi: tosh asri bilan bog'liq ajdodlarimizning tabiat in'omi – exsonlari hisobiga kun kechirish davri; odamzotning o'zini-o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlashga kirishgan ilk dexqonchilik davri; avvalgi davrlarda to'plangan ishlab chiqarish va madaniy xo'jalik tajribalardan foydalanishga kirishilgan bronza davri. Bu davrda janubga yuqori darajada rivojlangan

⁵ История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., «Музыка», 1995, с.8

urbanistik jamoalarning kirib kelishi, shimolda esa ko'chmanchi chorvachilik xo'jaliklarining shakllanib borishi kuzatiladi.

Mezolit davri odamlarining diniy qarashlari va tasviriy san'at olamini tadqiq etishda O'rta Osiyoning ikkita xududida uchraydigan qoyatosh rasmlari nihoyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Bulardan Qo'hitang va Zardutkamar qoya tasvirlari O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan. Qoyatosh tasvirlarining boshqa bir guruhi esa Pomir tog'ida bo'lib, u ibtidoiy odamlarning ovchilik jodusi va san'atini aks ettiradi. Ta'kidlash joizki, musiqashunoslarga boshqa san'atlar tadqiqotchilariga nisbatan ancha qiyin. Agar tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati tadqiqotchilari bevosita badiiy obyekt, ya'ni moddiy yodgorlikni o'rganish imkoniga ega bo'lsa, musiqashunos bunday imkoniyatga ega emas. Sababi o'tmish musiqasi saqlanib qolmagan, va qadim davrlarni o'rganish arxeologik qazishmalar chog'ida topilgan cholg'ular, sozandalarning terrakota haykalchalari, devoriy tasvirlar va h.k. kabi bilvosita manbalar orqaligina amalga oshiriladi.

Teatrshunos olim M.Rahmonovning yozishicha “Kishilik tarixining ilk bosqichlarida musiqa ham pantomima va raqs san'ati bilan uzviy bog'liq holda maydonga kelgan. U O'zbekiston hududida yashagan ibtidoiy jamiyat odamlari hayoti va mehnat faoliyatining ajralmas qismini tashkil etgan. Ibtidoiy davrdagi eng ilk qo'shiqlar juda sodda bo'lardi. “Ov o'yini” va turli marosimlarda pantomim raqs o'yinlarini olib boradigan “musiqa” va “qo'shiqlar” asosan so'z va tovushni takror-takror qaytaruvchi ohang va rechitativlardan tashkil topardi”⁶.

Yunon tarixchisi Gerodot gulxan atrofida davra qurib o'tirib, so'ngra raqsga tushib, qo'shiq aytadigan massagetlar xaqida yozib qoldirgan⁷.

⁶ Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. “Fan”, T., 1975, 49-b.

⁷ Геродот. История. I, М., с.201-202

Ibtidoiy jamiyatning rivojlanishi bilan qadimiy O'zbekiston xalqlarining do'l (zarbli), puflab chaladigan va torli asboblari paydo bo'la boshlagan bo'lsa kerak. Saymali toshdan topilgan suratlardagi pantomim raqsiga tushayotgan kishilarning qo'lidagi do'l asbobi ham buni isbotlaydi⁸. Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi bilan qadimiy juda sodda ohang va rechitativlardan o'yin xarakteriga ega musiqalar, mehnat qo'shiqlari, turli marosim ashulalari, zafar va qahramonlik qo'shiqlari vujudga kela boshlagan⁹.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida qadimiy davrdan qolgan mehnat va marosim qo'shiqlaridan bir qancha namunalar keltiradi. Bu qo'shiqlar ibtidoiy va undan keyingi davrlardagi odamlar hayoti, ularning tirikchilik manbai bo'lgan ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik faoliyatlarini, mehnat jarayoni va insonning unga bo'lgan munosabatini, ibtidoiy jamoa an'alarini, tabiat injiqliklariga qarshi kurashda qabila a'zolarining hamjihatlikda mehnat qilishi va og'ir mehnatdan keyingi hordiq onlarini aks ettiradi¹⁰.

Xorazm va So'g'diyona xududida, shuningdek, halok bo'lib, so'ngra qayta tiriladigan Siyovush siymosiga sajda qilish ayniqsa kuchli bo'lgan. Siyovush xaqidagi qissa Firdavsiyning "Shohnoma" asaridan ham joy olgan.

Yunon-Baqtriya davlati O'rta Osiyo xalqlari iqtisodiyoti, madaniyatida o'z izini qoldirdi hamda sharqiy ellinizmni yuzaga keltirdi.

Tayanch so'zlar: tarix, arxeologik topilmalar, madaniyat, san'at, musiqa, folklor.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi davr madaniyati qanday manbalarga tayangan holda o'rganiladi?

⁸ Берштан А.Н. Наскальные изображения Саймали таш. //«Советская экономика», М., 1952, №2.

⁹ Раҳмонов М. О'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. "Fan", T., 1975, 50-b.

¹⁰ Bu xususda qarang. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T., 1963.


2. Qadimgi dunyo madaniyatini o'rganishda arxeologik topilmalarning ahamiyati haqida so'zlang.
3. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'atining ilk namunalari qaysi davrga to'g'ri keladi? Shu davr san'ati xususida gapiring.
4. Qadimgi dunyo madaniyatini o'rganishda xalq ijodiyoti namunalarining ahamiyati haqida so'zlab bering.
5. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qanday qadimiy qo'shiqlar keltirilgan?
6. Yunon-Baqtriya davlatining O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri xususida so'zlang.
7. Pantomima raqslar deganda nimani tushunasiz?
8. Qadimgi mehnat va marosim qo'shiqlari xususidagi ma'lumotlar qaysi adabiy-tarixiy manbadan o'rin olgan?

Allegory – is a story, poem, or painting in which the characters and events are symbols of something else. Allegories are often moral, religious, or political.	Borliqni badiiy tafakkur etish tamoyili.
Archeology – the study of man's past by scientific analysis of the material remains of his cultures.	Insoniyat jamiyatining tarixiy o'tmishini ashyoviy yodgorliklar orqali o'rganuvchi fan (mehnat qurollari, uy-joy qoldiqlari, qabrlar va hokazo).
Architecture – the art or practice of designing and constructing buildings.	San'at turi. Ushbu san'at turining maqsadi odamlarning ma'naviy-estetik talablariga javob beruvchi imoratlarni yaratishdir.
Art – consists of paintings, sculpture, and other pictures or objects which are created for people to look at and admire or think deeply about.	Tafakkur etishning shakllaridan biri bo'lib, uning asosida borliqni timsoliy aks ettirish g'oyasi yotadi.

Legendary – a traditional story sometimes popularly regarded as historical but unauthenticated.	Biror voqe`lik yoki biror kimsa haqida hikoyat.
Myth – a traditional story, esp. one concerning the early history of a people or explaining some natural or social phenomenon, and typically involving supernatural beings or events.	Qadimgi odamlarning dunyoning paydo bo`lishi va tabiat hodisalari, ilohlar va afsonaviy qahramonlar haqidagi aytimlari.
Petroglyph – a drawing or carving on prehistoric rocks.	Qadimgi odamlar tomonidan qoyatoshlarga chizilgan suratlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston xalqlari tarixi I, T., 1992.
2. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.,
3. История народов Средней Азии и Казахстана. М., 1995.
4. Rahmonov M. O`zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. T., 1975.
5. Берштан А.Н. Наскальные изображения Саймали таш. // Советская экономика, М., 1952.
6. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk. T., 1963.



Avesto – O`rta Osiyo xalqlarining qadimiy yozma yodgorligi

Mavzu rejasi:

1. Avesto yozma yodgorligining yaratilish tarixi xususida
2. Avestoda qayd etilgan bayramlar, urf-odatlarining hozirgi kunga qadar etib kelishi.
3. Avestoda keltirilgan musiqiy janrlar xususida.

Tarixiy ma`lumotlar. O`rta Osiyo xalqlarining Hindiston, Ossuriya, Eron mamlakatlarining harbiy va siyosiy ishlariga aralashuvi hamda ularning Yunoniston va Misr xududlariga kirib borishi mazkur xalqlarning madaniyatiga o`z ta`sirini o`tkazdi. Masalan, O`rta Osiyo xalqlari oromiy (mixxat) yozuvini joriy etdilar. Ammo shu bilan birga O`rta Osiyo halqlari tomonidan yaratilgan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” Eron va Shimoliy Hindistonda keng tarqaldi.

Ma`lumki, miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyo hududida zardo`shtiylik dini vujudga keladi. “Zardo`shtiylik an`analari sanalgan diniy marosimlar, bayramlar, urf-odatlar keyinchalik Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, xususan musiqa

san'atining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, zardo'shtiylarning muqaddas kitobi Avesto madhiyalari "Gatho" qismlarining muayyan qoidalar asosida ohanglar bilan ijro etilishi, ilk o'rta asrlardagi ibodat marosimlari jarayonida kasbiy musiqa janrlarining shakllanishini yaqqol tavsiflaydi"¹¹.

Avesto – otashparastlik dinining muqaddas kitobi bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, miloddan avvalgi I ming yillikning I-yarmida vujudga kelgan. Ushbu manbada keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Avesto - Eron hamda Turon xalqlarining qadimgi e'tiqodi, tili, adabiyoti, madaniyati tarixini o'rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

Mazkur manba uzoq vaqt davomida shakllangan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimiy qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri – 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda Avesto tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, ahloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va h.k. qo'shib borgan. Avestoni Zardo'sht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Asarning yozilgan joyi xususida turli fikrlar mavjud: bir guruh olimlar – frantsuz J.Darmsteter, ozarbayjon I.Aliev, "Avesto" hozirgi Eronning shimoliy-g'arbiy qismi bo'lgan "Midiya" va Ozarbayjonda yozilgan desa, ko'pchilik – V.V.Struve, S.P.Tolstov, F.Altxaym va boshqalar Amudaryo bo'yida joylashgan viloyatlarda, Balx va Xorazm oralig'ida yaratilgan, deb hisoblaydilar. Oxirgi fikr so'nggi vaqtlarda eronlik olimlar, masalan Ibrohim Pur Dovud tarafidan ham e'tirof etildi.

"Avesto" matni to'liq saqlanmagan. Bizgacha uning juda oz qismi etib kelgan xolos. Ma'lumki, "Avesto" Kayvoniy hukmdorlardan Gishtosp-Vishtosp zamonida kitob holiga keltirilgan. Rivoyatlarga ko'ra "Avesto"ning "gat"lar deb ataluvchi asosiy qismi Zaratushtra tomonidan yozilgan. Mas'udiy, Tabariy va Beruniylarning so'zlariga

¹¹ Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№997. 2003 y., 8-bet.

qaraganda manba 12000 ho'kiz terisiga oltin harflar bilan yozilgan. Iskandar Zulqarnayn "Avesto"ni yoqib tashlashdan oldin uning tib, astronomiyaga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan. "Avesto"ning uchta qo'lyozma nusxasi bo'lgan. Uning bir nusxasini Iskandar yo'q qilgan, ikkinchisi esa Yunonistonga yuborilgan. Uchinchi nusxani zardushtiylik e'tiqodiga sodiq kishilar saqlab qolganlar. Keyinchalik sosoniylar davrida (milodning III-VII asrlari) zardushtiylik rasmiy e'tiqod sifatida tanilgan. Xususan, sosoniy Shopur II (309-379) davrida "Avesto" tartibga solindi, izohlar va qo'shimchalar (zand) bilan boyitildi va to'liq kitob holiga keltirilib, asosiy qismlari pahlaviy tiliga tarjima qilindi. Bu kitob "Zand Avesto" nomi bilan mashhur. Afsuski, uning ham to'liq ko'rinishi bizgacha etib kelmagan.

Asarning bizgacha etib kelgan qismi, professor E.E.Bertelsning ma'lumotlariga qaraganda 83000 so'zdan iboratdir¹². U asosan to'rt qismdan – Yasna, Yashtlar, Vispered, Vendidadan tashkil topgan. Yashna tarkibiga kirgan "gat" deb ataluvchi qo'shiqlar "Avesto"ning eng ko'hna va qimmatli qismlaridir. Yashnaning har bir parchasini ho va hot deyiladi. "Gat"lar o'n yetti hot va etmish ikki hodan iborat. Hot bir necha banddan tashkil topgan. Vazni, she'riy shakllari jihatidan ular besh dastaga bo'linadi. Har bir dasta Gat deya atalib, u kuy ma'nosini bildiradi¹³.

Aytish joizki, o'sha davrlarda yaratilgan madaniyat va san'at yodgorliklarini keng ta'riflash juda mushkul. Zero, o'q-yoy, pichoq, xanjar, sopol buyumlar, turmush lavhalarini aks ettiruvchi ossuariylardagi o'yma naqshlar, Anaxit ma'budasi tasviri, baland poshna etik, cho'qqi qalpoq va chakmon kiygan erkaklarning xaykalchalari kabi sanoqli narsalar bunga imkon bermaydi.

¹² Бертельс Е.Е. История персидско-таджикской литературы. М., 1960. с.52

¹³ Bu xususda qarang: Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. O'zRFA "Yozuvchi", T., 2000, 4-32-betlar; Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T., 2008, 121-122-betlar; Qoraboev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. T., 2011, 48-56-betlar.

Qadimiy afsonalarda juda ko'p shaxslarning nomlari va ular bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Ayniqsa marosimlar, bayramlar haqida ma'lumotlar biz uchun qimmatlidir. Avesto kitobida qayd etilgan qadimgi bayramlardan Navro'z, shuningdek, Mehrjon, Dionisiy (A.Makedonskiy nomi bilan bog'liq)lar haqida gapirish mumkin.

Navro'z — yilning yangi kuni, ya'ni tabiatning qaytadan uyg'onishi. Bu albatta har tomonlama poklanish va yangitdan "paydo bo'lish" — yaratilish bilan bog'liq. SHu bois bo'lsa kerak bu jarayon eng ezgu niyatlarni hamroh qilgan, yaxshi niyatlar bilan yangi kunga qadam qo'yilgan. Insonlarning bir-birlariga bo'lgan adovatlari unutilgan. Xalqning keksalari ulug'lanib ularni duolari olingan va erga urug' sanchilgan. Bunday bayramlarda insonning ruhiyatini ko'taradigan, shod qiladigan musiqani ijro etish va yangi kunni eng chiroyli go'zal ohanglar bilan kutib olish odatiy tus olgan. O'z o'rnida bunday bayramlarni xususiyatiga mos bo'lgan asarlar yaratilgan, shunga xos an'analar shakllangan. Shunday sayllarni fayziga fayz qo'shadigan cholg'ular, ularning ijrochiligi va musiqasi yuzaga kelgan.

Mehrjon bayrami kuzdagi yig'im-terimdan so'ng o'tkaziladigan bayram bo'lib, bu bayramda ham musiqaning ahamiyati katta bo'lgan.

Dionisiy bayramining kelib chiqishi asli qadimgi Yunoniston bilan bog'liq bo'lib, uzum ilohi Dionisiy nomi bilan bog'liq. Bunda odamlar uzum hosili mo'l bo'lishi uchun uzum shoxlari, mevalari bilan o'zlarini bezab raqs tushib, qo'shiqlar ijro etishgan¹⁴.

Tayanch so'zlar: Avesto, Zardo'sht, Otashparastlik, Eron, Turon, qo'lyozma manba, gatlar, Navro'z, Mehrjon.

¹⁴ Bu xususda qarang: Массон М.Э., Пугаченкова Г.А. Парфянские ритоны Ниссы. Ашхабад, 1959, с.73-75; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927, с.6; Ремпель Р.И. Терракоты Мерва и глиняные статуи Ниссы. Т.1. Ашхабад, 1950; Труды Хорезмской экспедиции. Т. I-II; Рахмонов М. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. "Fan", T., 1975, 53-68 betlar.

Nazorat savollari:

1. "Avesto" yozma yodgorligining yaratilish tarixi xususida olimlarning fikri qanday?
2. "Avesto"ning tarixiy va ilmiy ahamiyati xususida so'zlab bering.
3. Mazkur manbada keltirilgan eng qadimiy ma'lumotlar qaysi davrlarga mansub?
4. Yasna, Yashtlar, Vispered, Vendidad deganda nimani tushunasiz?
5. "Avesto"da keltirilgan "Gat"lar nimani anglatadi?
6. "Avesto" kitobida qaysi qadimiy bayramlar haqida yozilgan?
7. "Avesto"da keltirilgan qanday bayramni biz bugungi kunda ham nishonlaymiz?
8. Mehrjon, Dionisiy nima?

Avesta – the sacred writings of Zoroastrianism, compiled in the 4th century AD.	Zardushtiylarning diniy kitobi, kadimiy eron adabiyotining yodgorligi.
Navruz – is the most ancient national holiday, in translation with Persian Navruz designates "new day". It is celebrated on March 21 st , it is considered the beginning of new ear.	Yilning yangi kuni, ya'ni tabiatning qaytadan uyg'onishi. Bu albatta har tomonlama poklanish va yangitdan «paydo bo'lish» — yaratilish bilan bog'liq. SHu bois bo'lsa kerak bu jarayon eng ezgu niyatlarni hamroh qilgan, Yaxshi niyatlar bilan yangi kunga qadam qo'yilgan. Insonlarning bir-birlariga bo'lgan adovatlari unutilgan.
Music – is the pattern of sounds produced by people singing or playing instruments.	Yunoncha kuy va ashulalarning ifodasi, arabcha – alhon

Mehregan – the holiday of crop. It is celebrated in the beginning of the harvest season, especially during the autumn.

Kuzda o'tkaziluvchi Xosil bayrami.

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. Qadimgi davr musiqiy cholg'ulari xususida referat tayyorlash.
2. "Avesto" kitobi haqida referat tayyorlash.
3. O'rta Osiyo xalqlarining afsonalari xususida ma'ruza tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. SITI Inv.№9, 2003
2. Бертельс Э. История персидско-таджикской литературы. М., 1960.
3. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. T., 2000.
4. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T., 2008

O'zbekiston antik davri musiqa madaniyati (miloddan avvalgi IV asr – milodning I asri)

Mavzu rejasi:

1. Antik davr musiqa madaniyatini o'rganishda arxeologik yodgorliklarning o'rni.
2. Farg'ona vodiysining Saymalitosh qoyalaridan topilgan devoriy tasvirlar xususida.

3. O'zbekiston antik davri musiqiy cholg'ularining guruhlanishi.



O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, xususan mehnat, kundalik turmush, to'y-tomoshalar, saroy va diniy marosimlarda musiqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qadim ajdodlarimizga beqiyos zavqu-shavq bag'ishlagan kuy-qo'shiqlar bizning davrimizgacha etib kelmagan. Ayrim musiqashunoslarning hozirgi zamon o'zbek folklori saqlangan arxaik misollar (masalan, Yor-yor, Yig'i, Sust xotin, bolalar qo'shiqlari va b.) ohanglarini va hatto, ayrim maqom qismlarini "Avesto" gatlari bilan bog'liq, degan fikr-mulohazalari faqat taxmin sifatida qabul qilinishi lozim¹⁵. Sababi - uzoq o'tmish, xususan antik davr musiqa madaniyati haqida biroz tasavvurga ega etuvchi yagona ishonchli dalil – bu arxeologik materiallar, ya'ni terrakota haykalchalari, devoriy rasmlar va boshqa ashyolarda tasvirlangan cholg'ular, sozanda va xonandalarning qiyofalaridir. Ayni paytda arxeologik topilmalar va boshqa ikonografik materiallar qadimgi O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati, xususan musiqiy cholg'ulari haqida keng va ishonarli

¹⁵Bu haqda qarang. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№997, 2-b.

ma'lumotlar bersa-da, cholg'ularning tuzilishi, parda tizimini o'rganish va tiklash uchun etarli, aniq manba bo'lolmaydi. Demak, qadimgi davrlar musiqa madaniyati va uning genezisini o'rganishda asosan arxeologik materiallarga tayanib mulohaza yuritiladi.



1. Naychi ayol . Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asri. Afrosiyob. ermitaj.

2. Udchi. Terrakota haykalchasi. Mil. V – VII asri. Afrosiyob. ermitaj.



3. Naychi. Terrakota haykalchasi. Mil. av. I a. – mil. III asrlari. Afrosiyob. ermitaj.

4. Nog'orachi. Terrakota haykalchasi. Mil. III – IV asrlari. Afrosiyob. Samarqand

muzeyi

Taniqli arxeolog R.Sadokovning “Muzikalnaya kultura drevnego Xorezma” nomli kitobida ilk bor Qadim Xorazm madaniyati va musiqiy cholg'ulari arxeologik, etnografik va ikonografik materiallar asosida tadqiq etiladi. Mazkur tadqiqot qator yutuqlari, xususan qadimgi Xorazm musiqiy cholg'ularining xilma-xilligini isbotlash, ijtimoiy hayotda musiqaning o'rni va h.k. bilan bir qatorda ayrim nuqson va kamchiliklardan ham holi emas. Ushbu tadqiqotda Xorazm cholg'ulari o'sha davrning So'g'd, CHag'oniyon, Baqtriya va boshqa hududlarida mavjud bo'lgan cholg'ulardan ayricha holda talqin etiladi. Holbuki, Xorazm qo'shni xalqlar va davlatlar bilan doimo yaqin madaniy-musiqiy aloqada bo'lgan. Asardagi kamchiliklar Xorazm cholg'ularining talqini, ularning tarixiy genezisi masalalari bilan

bog'liq bo'lib, bunda taqdiqotchining musiqashunos emasligi yaqqol seziladi¹⁶.

Musiqashunos olimi T.S.Vizgoning “Музыкальные инструменты Средней Азии”¹⁷ nomli tarixiy ocherklari cholg'ushunoslik va musiqiy ikonografiya sohalarida katta ilmiy ahamiyatga molik fundamental tadqiqot sifatida bugunga qadar o'z qiymatini saqlab kelmoqda. Mazkur asar ayniqsa ikonografik materiallarni musiqashunoslik nuqtai nazaridan professional talqin etishi hamda qiyosiy tahlil uslubi bilan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi. Olimaning mazkur kitobi chop etilganidan so'ng o'tgan 30 yildan ziyodroq vaqt mobaynida musiqashunoslik, tarix va arxeologiya sohalarida yangi topilmalar, ashyoviy dalillar bilan yanada boyidi. Ushbu materiallar musiqiy ikonografiya nuqtai nazaridan maxsus o'rganilishni, yangi zamonaviy, xususan tarixiy-qiyosiy va germeneytika uslublari vositasida talqin etilishni taqozo etadi.

Aytish joizki, “Antik davrga mansub cholg'ularning tasnifi masalasi ham musiqiy ikonografiyadagi murakkab uslubiy muammolar sirasiga kiradi”¹⁸. Ya'ni, qadimiy haykalchalar, devoriy suratlar va boshqa manbalarda mavjud bo'lgan cholg'ularning mutlaq aksariyati haykaltarosh yoki rassomlarning badiiy saviyasi, mahorati va, umuman asarning ijtimoiy funktsional vazifalariga ko'ra real konstruktiv kesimda emas, balki ijodiy yondashib, ko'pincha badiiy mubolag'a uslubida ifodalanadi. Bu holat ham qadimiy cholg'ularni hozirgi kunda o'zbek musiqa amaliyotida qo'llanilib kelayotgan sozlar bilan qiyosiy o'rganishni birmuncha qiyinlashtiradi. SHu bois musiqiy ikonografiyaga oid ilmiy fikr-mulohazalar asosan ilmiy taxminiy xarakterga ega.

Ta'kidlash joizki, “ellinizm (yunon) madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy musiqa an'analari bilan, xususan cholg'u

¹⁶ Садоков Р. Музыкальная культура Древнего Хорезма. М., 1970

¹⁷ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980

¹⁸ Назаров А. Антик давр musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. №997,5-b.

ijrochiligi sohasida ham mushtarak mazmunga ega edi. Ushbu madaniy mushtaraklik turli marosimlar (masalan, Dionisiy o'yinlari, Navro'z marosimlari, Mehrjon marosimlari va h.k.), mifologik ramzlar – siymolar (Afrodita – Zuhra sozandalar ma'budasi) musiqaning ijtimoiy tabaqalashuvi, funksional turlanishi (ommaviy xalq marosimlari, bayramlar, o'yinlar, saroy musiqa ijrochiligi, diniy musiqa an'analari va h.k.) va boshqa umumestetik tamoyillarida mavjud edi"¹⁹.

Ayni paytda ellinistik Yunon madaniyati Markaziy Osiyoda ko'rkona taqlid obyekti sifatida emas, balki ijodiy o'zlashtirish materiali sifatida qabul qilinadi. Bu xususan T.S.Vizgo shunday yozadi: "Ellinistik Yunoniston musiqasi O'rta Osiyoga "eksport" qilinmagan, u taqlid uchun "namuna"ga aylanmagan. ellinistik Yunoniston uchun xos bo'lgan na musiqiy ijrochilik shakllari, na musiqiy cholg'ular O'rta Osiyoga singib ketoldi. Qadimgi Yunonistonda etakchi cholg'u hisoblangan lira – O'rta Osiyo antik davri obidalarida umuman aks ettirilmagan. Va bu O'rta Osiyo xalqlari liradan foydalanmagan, deb o'ylash imkonini beradi"²⁰. Olimaning ta'kidlashicha, qadimgi So'g'd. Xorazm va Baqtriya davlatlarida musiqa amaliyotida keng tarqalgan tanbursimon, changsimon (arfa) cholg'u Qadimgi Mesopotamiya va SHumer madaniyatlari bilan bog'liq. Darhaqiqat, "Qadimgi Misr ehromlaridagi devoriy yozuvlarda tasvirlangan torli cholg'ular qator konstruktiv jihatlari bilan (cholg'u kosasining kattaligi, dastasining uzunligi, pardalari, ijrochilik uslubi va h.k.) o'zbek musiqa amaliyotida tarqalgan rubob yoki tanbur cholg'ularini eslatadi"²¹.

L.Pikken, G.J.Farmer, K.Zaks kabi dunyo miqyosida tanilgan olimlarning tadqiqotlarida qisqa dastali udsimon cholg'ularning asl

¹⁹ Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№997. 2003 y., 6-bet

²⁰ Vizro T.S. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980, с.46

²¹ Nazarov A. Antik davr madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№997. 2003 y., 7-bet

vatani – qadimgi (antik) O'rta Osiyo bo'lib, bu cholg'u keyinchalik milodning I asridan boshlab qo'shni davlatlar (Xitoy, Hindiston, Afg'oniston)ga turli nomlar bilan tarqalganligi aniq va asosli tarzda isbot etilgan.

G.J.Farmerning ta'kidlashicha, qisqa dastali udsimon torli cholg'uning Xitoy madaniyatiga kirib kelishi Xitoy imperatori Vu Tinning turk malikasiga uylanishi bilan bog'liq bo'lib, malika Xitoyga o'zi bilan birga "pipa" nomli cholg'u asbobi va Su Chi Po ismli sozandani ham olib keladi. L.Pikken "pipa" atamasi forscha "barbat" so'zining xitoycha o'zgartirilgan talaffuzidir, degan xulosaga keladi²².

Afrosiyob terrakota haykalchalarida tasvirlangan udsimon kalta dastali to'rt torli cholg'ular keyinchalik Hindiston madaniyatiga ham keng tarqaladi. Shimoliy Hindistondagi Gandxara naqshlarida tasvirlangan ayol sozandaning qo'lida aynan Afrosiyob udiga o'xshash cholg'uni ko'rish mumkin.

Antik davrga oid qator arxeologik topilmalar O'zbekiston hududida damli sozlarning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Xorazm vohasi (Qo'y qirilgan qal'a, Tuproq qal'a), Samarqand (Afrosiyob)da topilgan ko'plab terrakota haykalchalarida tasvirlangan sozandalar qo'lida turli o'lcham va shakllardagi vertikal va gorizontol holatda ushlangan naysimon cholg'ular aks ettiriladi. Afrosiyobda topilgan sozanda haykalchasi qo'lida vertikal nay tasvirlangan. Nayning pardalari va boshqa muhim sadolanish jismlari aniq ko'rsatilmagan, biroq, uning ba'zi joylaridagi bir-ikki bo'g'in qismlariga bo'linishiga qaraganda, u qamish yoki bambuk yog'ochidan tayyorlangan, deb faraz qilish mumkin.

Afrosiyob xarobalaridan topilgan gorizontol nay qamish yoki suyakdan yasalgan. Haykaldagi sozanda nay chalayotgan holatda tasvirlangan va bu nay bugungi amaliyotda qo'llanilayotgan naylardan

²² Pikken L. The origin of the short Lute. – The Galpin Society Journal, 8, 1955; Vizro T.S., s.18.

farq qilmaydi. Nay pardalarining soni ham zamonaviy naydagi kabi oltita, uzunligi 45-52 sm.²³

Afrosiyobdan topilgan yana bir cholg'u o'zining shakli, o'lchami va ijro etish uslubi jihatidan o'zbek xalq bolalar cholg'usi – shuvullak (hushtak)ni eslatadi. Yumaloq, ichi bo'sh, xum shaklida yasalgan Afrosiyob "shuvullaki" bitta teshik pardadan puflanib, turli balandlikdagi 2-3 qo'shimcha parda-teshikchalardan iborat.

"Miloddan avvalgi III asrga mansub arxeologik topilmalar shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyo madaniyati Iskandar Zulqarnayn istilosidan so'nggi davrda qadimgi Yunon an'analari ta'sirida rivojlangan. Ayniqsa, madaniyat markazlari hisoblanmish So'g'diyona, Marg'iyona, Chag'oniyon, Farg'ona vodiylarida gurkirab o'sayotgan shahar madaniyatida ellin an'analari mahalliy diniy marosimlar, musiqiy-she'riy janrlar bilan qorishib, o'ziga xos san'atning vujudga kelishiga zamin yasadi"²⁴.

Afrosiyobdan topilgan terrakota haykalchalari orqali tasvirlangan sozandalarning yuz tuzilishi va liboslari aynan Samarqand vohasi an'alariga xos, keyinchalik ham saqlanib qolgan belgilarga ega. Sozandalarning yuzlari yumaloqsimon shaklda, lablari yupqa va kichik og'izli. Aksariyat haykalchalar miloddan avvalgi III-I asrlarga taalluqli. Ularning qo'llarida tasvirlangan cholg'ularning nomlarini aniqlashning imkoniyati deyarli yo'q. SHu sabab, tadqiqotchi T.S.Vizgo ularni "lyutnya" deb, umumlashtirilgan nom bilan atagan²⁵. Terrakota sozandalarning cholg'ulari shakli, o'lchamlari, torlarining soni jihatidan bir-biridan ancha farqlanadi. Biroq ularda quyidagi umumiy xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

- sanam-sozandalarning deyarli barchasi tik holatda tasvirlangan;
- cholg'uning kosaxonasi sozandaning o'ng tomonida, dastasi esa chapda (ya'ni, o'ngdan chapga holatda);

²³ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980, с.25

²⁴ Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv №997. 2003 y., 11-bet.

²⁵ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980, с.17

- sanam-sozandalar o'ng qo'lida noxun (mediator) yaqqol ko'zga tashlanadi;

- aksariyat sozlar to'rt torga, ayrimlari uch torga ega;

- cholg'ularning korpusi yumaloqsimon shaklida, chap dasta tomon cho'zilgan;

- torlar ba'zi cholg'ularda xarrakka, ayrimlarida esa o'ng tomonda kosaxona ostiga biriktirilgan;

- cholg'ularning bosh qismi orqaga yo'naltirilgan;

- torlar dastaning bosh qismida 4 yoki 3 burag'ich qoziqchalar (quloqchalar)ga ulangan.

Tadqiqotchi olim A.Nazarov sozandalarning tik turgan ko'rinishda tasvirlanishini Markaziy Osiyo ijrochilik an'alariga xos bo'lmagan holat, deya ta'kidlab, buni yunon-ellin madaniyatining ta'siri deb baholaydi.

Xorazm vohasidagi mashhur Qo'yqirilgan qal'a va Tuproq qal'a topilmalaridagi chang cholg'usi tasvirlari Markaziy Osiyo hududida bugungacha aniqlangan changsimon cholg'ularning eng qadimiysi bo'lib, R.Sadokovning ta'kidlashicha ular miloddan avvalgi IV asrga mansub.

Afrosiyobdan topilgan yana bir haykalchada esa zamonaviy surnay ko'rinishidagi cholg'u tasvirlanadi. Ijrochi barmoqlarining asbob pardalari bo'ylab joylashishi, cholg'uni ushlab holati va cholg'uning uchi tomon kengayib ketganligi, uni o'zbek xalqi an'anasida keng qo'llaniluvchi surnayning (miloddan avvalgi I asrga mansub) qadimgi turi, deb baholashga imkon beradi.

Ma'lumki, jahon musiqa madaniyatida urma-zarbli cholg'ular sozlar tizimining eng ibtidoiy qatlamiga mansub bo'lib, umuman musiqaning paydo bo'lishiga turtki bergan muhim omil hisoblanadi. Zero urma cholg'ular ibtidoiy jamoaning ijtimoiy hayoti, turli marosimlari va tafakkur ko'lamini aks ettiruvchi ashyoviy dalildir.

Farg'ona vodiysidagi Soymali tosh qoyalarida 40 mingdan ziyod rasmlar saqlanib qolgan bo'lib, ularni olimlarimiz miloddan avvalgi 2-

ming yillikka mansub, deb baholaganlar. Rasmlarda ommaviy raqs manzarasi tasvirlangan; ishtirokchilar juft-juft bo'lib, bir-biriga muqobil holatda raqs tushayptilar. Ularning qo'llaridagi buyumlarning vazifasini aniqlash mushkul. Ammo qo'lidagi ulkan doyrani chalib turgan, rasmning markazida tasvirlangan kishi diqqatni o'ziga jalb etadi. Har holda Soymali tosh qoyalari suratlarida aks ettirilgan doyra bugun amaliyotda qo'llanilib kelayotgan doyraning eng qadimgi namunasi ekanligi shubhasizdir.

Miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub Qo'yqirilgan qal'a devoriy rasmlarida tasvirlangan va R.Sadokov hamda T.Vizgo tadqiqotlarida "kifara" deb belgilangan changsimon cholg'u o'zining shakli, torlarining o'rnatilish tartibi, ushlar tarzi bilan ellin madaniyatiga mansub kifaraga juda yaqin²⁶. Biroq sozandaning libosi, yuz tuzilishi va cho'kkalab o'tirishi ushbu cholg'uning mahalliy an'analarga singib, o'zlashtirilib ketganidan dalolat beradi.

O'zbekiston antik davri musiqa madaniyatiga oid ikonografik materiallar musiqa san'atining ijtimoiy hayotda muhim ma'naviy-estetik ahamiyat kasb etganligidan va yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Saroy bazmlari va diniy ibodat marosimlari tasvirlangan devoriy suratlar, sozandalarning terrakota haykalchalari miloddan avvalgi IV-III asrlarda musiqiy kasbiylik an'analari, ansambl ijrochiligi va o'ziga xos mahalliy cholg'ular tizimining to'la shakllanganligidan dalolat beradi.

Musiqashunos olim A.Nazarov O'zbekiston antik davri musiqa cholg'ularini ijtimoiy vazifasi va kelib chiqishi jihatlaridan quyidagi guruhlarga ajratadi:

- diniy marosimlarga mo'ljallangan cholg'ular (sanam-sozandalarning cholg'ulari);
- saroy muhitida vujudga kelgan cholg'ular (chang, ud, tanbur va b.);

- harbiy yurishlarda qo'llaniluvchi cholg'ular (nog'ora, karnay, surnay va h.k.);

- bolalar o'yinchoq cholg'ulari (shuvillak, ushllak va b.);

- dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan bog'liq cholg'ular (naylar, doyra, sibizg'a va b.)²⁷.

Keyingi ilk, rivojlangan va kechgi o'rta asrlar davrlarida turli saltanat va sulolalarning almashinuvi, turli estetik qolip va andozalarning muntazam o'zgarishlari va musiqa san'ati hamda san'atkorlarga munosabatlarning turlicha bo'lganiga qaramasdan, antik davr san'atida vujudga kelgan badiiy an'analari va cholg'ular so'nggi ikki ming yillik davr mobaynida yangidan-yangi musiqiy ijodiyot shakllari va turlarining yaratilishi va ravnaqida mustahkam badiiy zamin sifatida barhayot yashab keladi.

Tayanch so'zlar: o'zbek antik davri, musiqa madaniyati, musiqiy folklor, musiqiy ikonografiya, musiqiy cholg'ular, terrakota haykalchalar, ellinizm.

Nazorat savollari:

1. Farg'ona vodiysining Saymalitosh qoyalaridan topilgan devoriy tasvirlar xususida so'zlab bering. Ular nechanchi asrga mansub?
2. Miloddan avvalgi III asrda Markaziy Osiyo madaniyati qaysi qadimiy millat an'analari ostida rivojlangan?
3. Arxeolog olim R.Sadokovning "Muzikalnaya kul'tura drevnego Xorezma" nomli asarida qanday ma'lumotlar berilgan?
4. Afrosiyobdan topilgan sozandalar haykalchalarining umumiy va farqli tomonlarini ko'rsating.
5. Musiqashunos olim A.Nazarov O'zbekiston antik davri musiqiy cholg'ularini qanday guruhlarga ajratgan?
6. Diniy marosimlarga mo'ljallangan cholg'ular xususida so'zlab bering.

²⁶ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980, с.46

²⁷ Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№997. 2003 y., 23-bet.

7. Dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan bog'liq cholg'ular haqida bilasizmi?

8. Saroy muhitida vujudga kelgan qanday cholg'ularni bilasiz?

9. Musiqiy ikonografiya deganda nimani tushunasiz?

Archeology – the study of man's past by scientific analysis of the material remains of his cultures.	Insoniyat jamiyatining tarixiy o'tmishini ashyoviy yodgorliklar orqali o'rganuvchi fan (mehnat qurollari, uy-joy qoldiqlari, qabrlar va hokazo).
Art – consists of paintings, sculpture, and other pictures or objects which are created for people to look at and admire or think deeply about.	Tafakkur etishning shakllaridan biri bo'lib, uning asosida borliqni timsoliy aks ettirish g'oyasi yotadi.
Bas-relief – is a technique of sculpture in which shapes are carved so that they stand out from the background.	Barelef – rast relef. Xaykaltaroshlikdagi bo'rtib chiqqan relefning turlaridan biri.
Pan flute – It is always used in folkloristic groups. The pan flute originated from the ancient Inca and Maya civilizations.	Pan iloxining sibizg'asi – damli cholg'u. Aerofon.
Lute of Afrasiab – The compromised name of stringed instruments that found in Afrasiab.	Afrosiyob udi – Afrosiyobda topilgan uzun dastaklik udsimon torli cholg'ularning umumlashtiruvchi nomi
Cithara – an ancient Greek and Roman stringed musical instrument similar to the lyre.	Kifara – Qadimgi Yunoniston torlichertma musiqiy cholg'usi.
Aulos – an ancient Greek and Roman musical instrument.	Avlos – Qadimgi Yunonistonning damli cholg'usi.

Terracotta – a type of fired clay, typically of a brownish-red colour and unglazed, used as an ornamental building material and in modelling	Terrakota – kuydirilgan loy va undan yasalgan anjomlar.
---	---

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. Antik davr arxeologik yodgorliklari xususida ma'ruza tayyorlash.
2. Antik davr musiqiy cholg'ulari xususida referat tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. Qo'lyozma. SITI Inv.№9, 2003
2. Массон М.Э., Пугаченкова Г.А. Парфянские ритоны Ниссы. Ашхабад, 1959
3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927
4. Садоков Р. Музыкальная культура Древнего Хорезма. М., 1970
5. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980

Kushon saltanati davri musiqa madaniyati

(milodning I-IV asrlari)

Mavzu rejasi:

1. Kushon saltanati davri musiqa madaniyati xususida
2. Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Tuproqqal'adan topilgan madaniy yodgorliklar.
3. Kushon xonligi davrida madaniyat, musiqa san'ati rivojiga sabab bo'lgan muhim omillar.
4. Kushon xonligi davriga oid musiqiy janrlar va cholg'ular xususida.

Tarixiy ma'lumotlar. Yunon-Baqtriya davlati emirilgach O'rta Osiyo hududida Kushon xonligi nomi bilan yangi davlat barpo etiladi. Xitoy manbalarida yozilishicha Daxya, ya'ni Baqtriyaga ko'chib o'tgan massaget (yuechji)lar beshta vassal hokimlikka bo'lingan bo'lib, ulardan biri Guyshtuan deb nomlangan²⁸.

Guyshtuan so'zi "kushon" atamasining xitoycha transkripsiyasi bo'lib, u o'sha davr yodgorliklari hisoblangan tangalardagi yozuvlardan ma'lumdir.

Markaziy Osiyoning janubi va shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab-yashnaganidan darak beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va ko'hna Termizda o'tgan asrning 30-yillarida ochilib, ularni o'rganish ishlari 60-yillarda ham davom ettirilgan. Keyinchalik ko'hna Termiz yaqinida Qoratepa buddaviylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi ko'hna shaharlar xarobalari, va nihoyat darajada yuksak kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'lganligi o'z tasdig'ini topadi.

Kushon davlatiga rasman asos solgan hukmdor Kujula Kadfiz to'rtta qabilani o'ziga bo'ysundirdi va uni Kushon bekligi deb e'lon qildi. Bu davlatning dastlabki hukmdori 30 yil podshohlik qildi.

²⁸ Bu xususda qarang: O'zbekiston tarixi I. "Fan", T., 1992; O'zbekiston tarixi. "Universitet", T., 1997; O'zbekiston tarixi. "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", T., 2002.



Kushon xonlarining eng mashhuri Kanishka edi. U (78-123) hukmronlik qilgan davrda Kushon mamlakati juda qudratli davlatga aylanib, zamonasining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turardi. Hukmdor davlat poytaxtini ham Dalvarzintepadan Peshavorga ko'chiradi.

Kanishka hukmronligining oxirgi yillarida Kushon davlati juda katta hududni o'z ichiga olgan. Uning chegarasi g'arbda Orol va Kaspiy dengiz bo'ylarigacha, janubda Hind daryosining quyi oqimigacha, Sharqda esa Sintszyanning Xo'tan shahridan Gang bo'ylaridagi Banorasgacha cho'zilgan²⁹.

Budda diniga qattiq e'tiqod qilgan podsho o'z davlatida mazkur dini rasmiy ravishda davlat dini sifatida e'lon qiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida bu davrda katta siljishlar bo'ldi. Ya'ni, juda ham ulkan markazlashgan davlat vujudga keldi, shaharlar soni ko'paydi, savdo-sotiq aloqalari xalqaro darajaga ko'tarildi; jonli savdo hayoti savodni va yozuv (xat)ni keng tarqalishiga imkon yaratdi: "III asrga taalluqli mashhur "so'g'd yozuvi"dagi namuna

²⁹ Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi "O'zbekiston", T., 1999. 88-b

aynan Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan bo'lib, u Samarqandda istiqomat qiluvchi onaning Druan (Dunxuan)da yashovchi qiziga yo'llagan xatida yaqqol isbotini topgan. Bu xat o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajadagi madaniy hayoti, jumladan, ayollarning savodliligi va mustaqilligidan dalolat beradi³⁰. Bu davrda kushon yozuvi ham paydo bo'lib, u yunon alifbosiga asoslangan edi. Mazkur yozuvni o'sha davrning tangalari, muhrlari va turli buyumlarida uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, bir necha yozuv tizimining mavjud bo'lgani (oromiy, sug'diy, xorazmiy, yunon, kushon) – Kushon xonligi tarkibiga kiruvchi xalqlarning yuksak darajadagi madaniyatining yana bir karra isbotidir.

Hind teatri qadimiy hind yozuvlari yodgorliklarining guvohlik berishicha, diniy marosim, diniy qissa va hikoyalardan, diniy raqs, pantomima va xalq o'yinlaridan kelib chiqqan. Xudoga, miqlarga, braxmanlarga bag'ishlangan madhiyalar ma'lum ohanglarda kuylanib, turli muqomga tushib, imo-ishoralar bilan olib borilar edi³¹.

Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, miloddan avvalgi III asrda hind imperatori Ashok tomonidan buddizm davlat dini sifatida tasdiqlangandan so'ng yanada kuchaydi.

Umuman Kushon madaniyati, qadimiy tomirga ega joylarda, yangi omillar yangi odamlar ta'sirida rivojlangan Yunon-Baqtriya xonligi madaniyatining davomchisi hisoblanadi.

Shuni ham aytish kerakki, o'z navbatida kushon san'ati boshqa xalqlar madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, bu xalqlarda, xususan Hindiston madaniyatida o'zi ham chuqur iz qoldirdi (Taksila va Matura yodgorliklari). 1932-yili qadimshunoslar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida Termiz yaqinidagi milodning I-II asrlariga mansub Ayritom shaharchasidagi ibodatxonaning peshtoqlariga o'rnatilgan, sarg'ish oqtoshdan ishlangan haykallar topilgan edi.

³⁰ O'zbekiston xalqlari tarixi I. "Fan", T., 1992 y., 52-b.

³¹ Никитина Н.Б., Позднеева Л.Д., Редер Д.Г. Литература древнего Востока. М., 1962, с. 282-287.




1. Arfachi ayol. Ayritom peshtoqi. I-II asrlar.

2. Udchi ayol. Ayritom peshtoqi. I-II asrlar.

Ayritom peshtoqida tasvirlangan ansamblning 2ta torli cholg'usi - kichik burchakli, to'qqiz torli (balki 13 torlidir) arfa va to'rt torli udsimon cholg'u, shuningdek, bitta qo'sh avlos va 2ta zarbli cholg'u – nog'ora (baraban) va kimvalsimon asbob. Bu erda qat'iy ansambl uslubi saqlanganligi shubhasiz, ya'ni cholg'ularning barcha asosiy (torli, damli, zarbli) guruhlaridan foydalanilgan. Shuni ham aytish joizki, har bir guruhda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va murakkab, jozibali ohanglarni taratuvchi turli xil cholg'ular jamlangan.



Musiqachilar. Ayritom peshtoqlari. I-II asrlar



Torli cholg'ular tarkibiga kirgan yana bir soz - arfa esa musiqashunos olimi T.S.Vizgo ta'kidlaganidek, qadimgi Misr yoki Hindiston madaniyatlariga mansub arfa shakllaridan sezilarli ravishda farq qiladi³².

Damli cholg'ular tarkibini asosan naysimon cholg'ular tashkil etadi. Bunda ko'proq "bo'ylama" (uzunasiga ushlab chalinadigan)

³² Вызго Т.С. Изображение музыкантов в коропластике Далварзинтепе //Далварзинтепе – Кушанский город на юге Узбекистана. Т., 1978.

naylar va hatto qo'shnay shakliga ega cholg'ularning bo'lgani e'tiborni tortadi.

Shuningdek, zarbli cholg'ular guruhi doira va nog'orasimon cholg'ulardan iborat bo'lgan. Aftidan aynan zarbli cholg'ular ijrosi girlyandalar bilan bog'liq bo'lib, ular harakat, yurishni anglatgan.

Girlyandalar – shunchaki bezak bo'lmay, balki butun kompozitsiyaning ma'lum ma'nosini anglatadi. Ya'ni, girlyandachilar musiqiy cholg'ular sadosi ostida odimlaganlar. Va aftidan bu yurishlarda raqs unsurlari ham qo'llangan. Bunday tantanani boshqarish harakatini tartiblashtirish uchun esa bir qator qo'l bilan ijro etiluvchi, shaklan uncha katta bo'lmagan zarbli asboblari zarur edi. Mana shunday musiqa sadolari ostida girlyandalar bilan yurish an'anasi Ayritom peshtoqlarida o'z ifodasini topgan.

Yana bir hudud bo'lmish Xorazm vohasining bu davrga oid tarixi juda noaniq. Ammo bu davrda Xorazm shohlarining tangalari o'rnini kushonliklar tangasi egallashiga qaraganda Xorazm Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan, deya faraz qilish mumkin. Milodning III asri Xorazm vohasida mahalliy shohlarning tangalari zarb qilinishi va kushon tangalarining siqib chiqarilishi Xorazmning ilgarigiday mustaqillikka erishganligini ko'rsatadi.

Kushon imperiyasi davrida din, me'morchilik va san'at sohasida ro'y bergan o'zgarishlar Xorazm madaniyatiga ham ta'sir etdi. SHuningdek, qadimgi Baqtriya (Ayritom yodgorligi), Toxariston (Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Bolaliktepa yodgorligi) madaniyati ham gandaxar san'ati an'alarining bevosita ta'siri ostida taraqqiy qilgan. Natijada Xorazm diyorida uchraydigan kushon davri haykalchalarining ko'rinishi ancha o'zgaradi. endilikda haykalchalardagi kiyim va bezaklar kangyuy davrinikidek serhasham bo'lmay, unda gandaxar san'atining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Yangi turdagi haykalchalar kiyimlarining hind liboslari kabi ancha eri ochiq bo'lib, bu hol ularning budda obrazlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xorazmning kushon davriga oid ma'naviy-madaniy yodgorliklari juda boy va ajoyibdir. Jumladan, milodning III-IV asriga oid Tuproqqal'a saroyining 1945-1950 yillar mobaynida olib borilgan qazish ishlari vaqtida juda ko'p sonli devoriy yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida uchta musiqiy cholg'uning tasviri ham aniqlangan. Bular: olti torli kichik arfa, ikki torli kichik udsimon cholg'u va qumsoat shaklidagi ikkiyoqlama zarbli cholg'u hamda shu uch sozga monand uchta musiqachi ayollar tasviri.

Sozandalardan biri bo'lmish arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur bo'lsa, qolgan ikkitasi esa deyarli hech qaerda chop etilmagan.

Sopol idishlarga tushirilgan tasvirlarda sakkizta cholg'u ushlab turgan sozandaning qiyofasi va sopol xumdon devorining bir tomoniga bir relyefli tasvirlar ishlangan. Barcha haykalcha va relyeflar turli davrlarga mansub bo'lib, miloddan avvalgi IV-III asrlardan milodning I asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Har bir haykalchaga bittadan musiqiy cholg'u tasviri to'g'ri kelib, relyeflarga ham shunchadan tasvirlar tushirilgan. Shunday qilib, jami 9ta cholg'u asbobi mavjud ekanligi aniqlanadi. Ularning barchasi turli cholg'ular guruhiga mansub. Torli guruhlarda to'qqiz torli, burchakli arfa, besh torli kifara, to'rt torli udsimon cholg'u va oltita, dutorni eslatuvchi shakli bo'yicha ikki kichik guruhga bo'linuvchi sozlar mavjud.

1909 yilda Xorazm atrofidan topilgan Anikov kumush idishini esa bir qator tadqiqotchilar qadimiy Xorazm torevtikasi asarlariga oid deb hisoblashadi. Mazkur idishda o'limga mahkum etilganlar qal'asi, ossuriyadan olib chiqilayotgan muqaddas Siyovush hoki tasvirlangan. Bu marosim esa roga (shoxsimon cholg'u) sadolari ostida kechayotgani ham ma'lum bo'ladi. Sozandalar etti kishidan iborat bo'lib, ularning uchta bir tomonda, to'rtta ikkinchi tomonda joylashgan. Ular chalayotgan damli cholg'ularning barchasi chaqiruvchi (signal) bo'lib, ularning hajmi, tuzilishi, ijro etish

uslublari ham bir xil. SHu tariqa, qadimiy Xorazm musiqa cholg'ularining 19 ta turi tasvirlangan: 11 ta torli, 7 ta damli va 1 ta zarbli sozlar.

Birinchi guruh cholg'ulari keng va turlicha namoyon etilgan. Bu guruhga kiruvchi musiqiy cholg'ular tarixan ikkita aniq tabaqaga ajraladi. Ular o'zining kelib chiqishi bilan janubiy erli, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi tumanlarga tegishli turi va adirli ko'chmanchi qabilalarning cholg'ular turiga ajraladi.

Birinchi tabaqa cholg'ulardan eng ommalashgani – bu katta va kichik burchakli arfalar bo'lib, ular qadimda Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan, ammo keyinchalik muomaladan chiqqan.

Antik davrda Xorazmning burchakli arfasi ikki toifaga bo'lingan: katta burchakli va kichik burchakli. Markaziy Osiyo (burchakli) arfalarining mashhur bo'lgan barcha turlari, jumladan Ayritom peshtoqidagi arfa (miloddan avvalgi II asrdan milodning I asriga qadar bo'lgan davrga oid) va Tuproqqal'a arfasi (milodning III asriga mansub) kichik burchakli arfalar toifasiga kiradi. Qo'yqirilgan qal'adagi katta burchakli arfa tasviri (miloddan avvalgi IV-III asrlar) – Markaziy Osiyoda hozirgi kungacha topilgan yagona namunadir. Bundan tashqari, tasvirlardagi cholg'u umuman Markaziy Osiyo arfasining eng qadimiysi hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, har ikki holatda ham Xorazmning yuksak musiqa madaniyatiga ega bo'lgan mamlakat ekanligi birinchi o'rinda turadi.

Katta va kichik arfalarining tuzilishi (konstruktsiyasi) bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu erdagi farq, cholg'uning hajmi, ijro etish uslubi, akustik sifatlari va aniq bir vaziyatda u yoki bu arfaning qo'llanilishidir.

Markaziy Osiyo arfalari, xususan katta va kichik, burchakli (arfa)larning musiqiy sozi haqida aniq bir dalilni ko'rsatish qiyin. Ammo bu sozni aniqlashning yagona imkoniyati bu A.V.Machinskiyning qadimgi Misr arfalari bo'yicha o'tkazgan

ishonarli dalillar asosidagi tadqiqotidir³³. Ya'ni, bu olimning ishlariga tayangan holda muayyan aniqliklar kiritish mumkin; jumladan, katta va kichik burchakli Xorazm arfalarining korpusi ikki qismdan iborat edi: rezonator va torlar mahkamlanadigan maxsus joy bo'lib, ular bir-biri bilan bir tekisda, bir burchak ostida birlashgandir. CHolg'ular faqat yog'ochdan yasalgan. Rezonator – to'rtta uzun, silliq tayoqchadan iborat bo'lib, o'z navbatida bu tayoqchalar qiyshiq, uzun qovurg'alar bilan shunday qo'shilganki, natijada to'rtburchakli korpus hosil bo'lib, uning pastki, ingichka qismiga sim(tor)larni ushlagich mahkamlangan. Qarama-qarshi tomonlari esa rezonatorning ichki dekasiga birlashtirilgan. Rezonator va sim (tor) ushlagichning qo'shilish uslubi haqida bir narsa deyish qiyin.

Bu cholg'ular sim(tor)larining umumiy soni 9 ta va 6 ta bo'lgan: Qo'yqirilgan qal'adan topilgan arfa tasvirida ular 9 ta bo'lsa, Tuproqqal'a arfasida 6 tani tashkil etadi. Ayritom arfasidagi 9 ta tor yaxshi tasvirlarda berilgan; Shopurning (eramizning III asri) katta, burchakli arfasida torlar soni 6 tadan iborat.

Torlar ichakdan tayyorlangan. Arfalarining tovush tembri bir xil bo'lmagan: kattalari – qattiq va past (registrli), kichiklari – jarangdor va yuqori (registrli) tovushli edi.

Arfalar o'tirgan, tik turgan va yurgan holatlarda ijro etilgan. Hamma vaziyatda ham cholg'uni ushlab holati bir xil bo'lgan. Ya'ni, arfa rezonatorining enli tomoni doimo yuqoriga qaratilgan holda ijro etilgan. Tik turib ijro etish vaqtida arfani oldinda, burchagini belga tiragan holda yoki o'ng qo'l bilan ushlab, chap yonga qistirgan holatda ijro etilgan.

Arfani o'tirgan holda ijro etish uslubi biroz boshqacharoq: bunda cholg'u odatda ijrochining chap yoniga qo'yiladi va chap qo'l bilan

³³ Qarang: Мачинский А.В. К вопросу о музыкальном строе древнеегипетских музыкальных инструментов. // Сборник кружка по изучению Древнего Востока при Гос. Эрмитаж, №2. Л., 1935 г., с.11-25

ushlab ijro etiladi. Cholg'u korpusi chap yonga va chap elkaga tiralib turadi.

Kichik arfani odatda chap tomondan yuqoriga ko'targan holda (bunda cholg'u chap qo'l bilagi bilan chap yonboshga tiralgan holatda) ijro etiladi.

Ma'lumki, musiqiy cholg'ular o'zlarining nihoyatda bejirim tashqi ko'rinishlari bilan ajralib turgan. Mabodo cholg'u juda kamtarona ko'rinishda bo'lsa, u holda sozni turli bo'yoqlar bilan bezatishgan. Bu uslubni cholg'uning nafaqat tomoshabinga estetik zavq berishi uchun, balki o'zgacha maqsadlarni ko'zlab ham qo'llashgan. Masalan, avvalambor cholg'uning akustik sifati yaxshilangan; qolaversa, cholg'u materiali (yog'och) tez urinmagan va bu bilan cholg'uning umrini uzaytirish kabi muammo echimi ham topilgan deyish mumkin.

Tuproq qal'aning kichik, burchakli arfasi qizg'ish-jigarrangga bo'yalgan. Xuddi shu tarzda Panjikent arfalari ham bo'yalgan. Dalil tariqasida ayrim manbalarni keltirish mumkin. Jumladan, Tan davrida yashagan xitoy shoiri Bo Tszyuyi o'zining "Chjehji raqqosasi" ("Chjehji" – Markaziy Osiyo, aniqrog'i toshkentcha raqs bo'lib, u Xitoyga keltirilgan) nomli she'rida aynan turli bo'yoqlarga bo'yalgan cholg'u haqida ma'lumot beradi³⁴.

Umumiy xulosa shuki, kushonlar hukmronligi davri Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirdi va katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sharq va G'arbga qatnab turgan elchilar va karvonlar bilan birga madaniy an'analar ham kirib keldi. Bu an'analar mahalliy madaniy jarayonlar bilan aralashib, o'ziga xos Kushon madaniyati va san'atining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Musiqashunos olim O.Ibrohimov ta'kidlaganidek, bu davrda "Musiqqa sohasida xalq ijodi bilan bir qatorda kasbiy musiqqa qatlami yuzaga keldi. Yakkanavozlik va ansambl ijrochiligi amaliyotga joriy

³⁴ Рифтин Б.Л. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая. // Проблемы востоковедения, 1960 г., №5, с. 131.

etildi. Mazkur davr musiqa an'analari kelajakda mumtoz musiqa, maqom tizimlari shakllanishida ma'lum ahamiyat kasb etdi"³⁵.

Kushon madaniyati o'z navbatida qadimgi Sharq va G'arb madaniyatida chuqur va o'chmas iz qoldirdi.

Kushon saltanatining inqirozi III asrdan boshlanib, natijada ikkita siyosiy markaz – biri Peshavorda, boshqasi So'g'dda paydo bo'ldi.

V asrning yarmida esa Markaziy Osiyoda Kushon xonligining o'rniga kelgan mahobatli eftalitlar saltanati shakllanib bo'ldi.

Tayanch so'zlar: Kushon xonligi, arxeologiya, Xorazm, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Dalvarzintepa, Ayritom peshtoqlari, ossuriya, musiqiy cholg'ular.

Nazorat savollari:

1. Kushon saltanati nechanchi asrlarda hukmronlik qilgan?
2. "Guyshuan" so'zi nimani anglatadi?
3. Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa kabi madaniy yodgorliklar O'zbekistonning qaysi hududidan topilgan?
4. Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a singari madaniy obidalar Respublikamizning qaysi viloyatiga tegishli?
5. Kushon saltanati davrida madaniyat, xususan musiqa san'atining rivojlanishiga sabab bo'lgan muhim omillarni ayting.
6. Kushon xonligi davrida mavjud bo'lgan musiqiy cholg'ular tasviri qaysi madaniy yodgorliklarda aks ettirilgan?
7. Kushon saltanati davrida mashhur bo'lgan cholg'ular xususida so'zlang.
8. O'sha davrda ommalashgan cholg'ulardan bizning davrimizgacha etib kelganlari bormi?

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. Kushon davri musiqiy cholg'ulari xususida referat tayyorlash.

³⁵ Ibrohimov O. Kushon podsholigi davri musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi inv.№993. T., 2003. 37-b.

2. Ayritom arxeologik yodgorliklari xususida prezentatsiya tayyorlash.

3. Dalvarzintepa arxeologik yodgorliklari xususida ma'ruza tayyorlash.

Culture – the total of the inherited ideas, beliefs, values, and knowledge, which constitute the shared bases of social action.	Madaniyat – Inson hayotining turli jabhalarida o'z ma'no-mazmuniga ega bo'lgan tushuncha (tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlanish, hurmat qilish).
Airtam – is the oldest Buddhist monastery cities with Caravansarais and temples in Uzbekistan. Situated 18 km from Termez on the banks of the Amu Darya.	Ayritom – Termez yaqinidan topilgan qadimiy qo'rg'on. M.E.Masson tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.
Kushan empire – was a syncretic empire, formed by Yuezhi, in the Bactrian territories in the early 1 st century.	Kushonlar saltanati – O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, SHimoliy Hindiston hududida joylashgan qadimiy davlat (er. I-IV asrlari).
Cithara – an ancient Greek and Roman stringed musical instrument similar to the lyre.	Kifara – Qadimgi Yunoniston torli-chertma musiqiy cholg'usi.
Aulos – an ancient Greek and Roman musical instrument.	Avlos – Qadimgi Yunonistonning damli cholg'usi.
Frieze – a broad horizontal band of sculpted or painted decoration, especially on a wall near the ceiling.	Friz – Gorizontal yo'lka yoki lenta ko'rinishidagi dekorativ kompozitsiya, arxitektura qurilmasining u yoki bu qismini yakunlovchi element.
ensemble – is a group of musicians, actors, or dancers who regularly perform together.	Ansaml – Frantsuz tilidan "birgalikda" deb tarjima kilinadi. Ushbu tushuncha arxitektura, musiqa sohalarida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. T., 1999
2. Ibrohimov O. Kushon podsholigi davri musiqa madaniyati. Qo'lyozma. SITI №993, T., 2003
3. Вызго Т.С. Изображение музыкантов в коропластике Дальварзинтепе // Дальварзинтепе – Кушанский город на юге Узбекистана Т., 1978
4. Никитина Н.Б., Паевская Е.В., Позднеева Л.Д., Редер Д.Г. Литература Древнего Востока. М., 1962

IV-VII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati

Mavzu rejasi:

1. Turk xoqonligi davrida musiqa madaniyati.
2. O'sha davr musiqiy cholg'ulari xususida.
3. Ilk o'rta asrlar musiqiy-madaniy hayotini o'rganishda arxeologik topilmalarning o'rni.



Tarixiy ma'lumotlar. Milodning IV asriga kelib Markaziy Osiyoda quldorlik tuzumi asta-sekin feodal tizimiga almashadi. Va Markaziy Osiyoda yashagan turkiylar o'z davlatini hoqonlik deb atay

boshladilar. Ana shu davrdan e'tiboran, turkiylar bilan mahalliy Sharqiy eron xalqlarining bir joyda yashash jarayoni boshlandi.

IV-VII asrlargacha bo'lgan davr, Varzrud (Movaraunnahr)ning arxeologik va yozma manbalari guvohlik berishicha, madaniyat va san'at turlari, jumladan, musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan ta'riflanadi. Qolaversa, o'sha davrlarda hukmdorlararo tortiq sifatida yuboriladigan sovg'a-calomlar sirasida musiqiy cholg'ularning to'la jamlanmasi, boz ustiga bularga yana katta guruhdagi musiqachilarning "ilova qilinishi" an'ana tusini olgan³⁶. Chunonchi, manbalardan ma'lum bo'lishicha, madaniy aloqalar Sosoniylar hukmronligi davrida ancha jadallashgan. Shoh Ardasher I xonanda va sozandalarni alohida tabaqa sifatida ajratgan bo'lsa, Bahrom Go'r (420-438) hind hukmdori Shinkaldan o'z saroyi uchun musiqachilarni yuborishini so'ragan³⁷.

Qadimiy Panjikent, Samarqand va shu kabi boshqa shaharlarning uylari va saroylari devorlarida Varzrud (Movaraunnahr)ning islomgacha bo'lgan davriga mansub ud, rubob, nay, karnay va arfa cholg'ularida ijro etayotgan musiqachilar qiyofasi tasvirlangan. Xususan, Panjikent sag'analaridan birining devorlarida arfa chalayotgan ayol xudo tasviri tushirilgan.

Umuman bu davrga mansub ud, rubob, nay va g'ijjak chalayotgan ayol ilohlar tasvirlari tosh haykallar, kumush idishlar, xumdonlar va terrakotalarda aks ettirilgan.

Qolaversa, To'rtqo'lli ayol ilohning Panjikentdagi devoriy tasviriga binoan u dafn etish marosimi sahnasida ishtirok etayotganligi ma'lum bo'ladi. Va umuman musiqa shartli ravishda barcha dafn marosimlarida doimiy jo'r bo'lgan.

³⁶ Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1967. с.19.

³⁷ Сипанта С. Эпоха Борбада, его произведения и особенности музыки //Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе, 1990. сс. 65-67.



Qadimiy cholg'ulardan kifara, arfa, ud chalayotgan musiqachilar. Milodning II-VII asrlari

Qolaversa, To'rtqo'lli ayol ilohning Panjikentdagi devoriy tasviriga binoan u dafn etish marosimi sahnasida ishtirok etayotganligi ma'lum bo'ladi. Va umuman musiqa shartli ravishda barcha dafn marosimlarida doimiy jo'r bo'lgan. Qolaversa, motam yig'ilari hozirgi kungacha o'zbek xalq musiqasi janrlaridan biri sifatida saqlangan. Shuningdek, qadimda motam raqslari ham keng tarqalgan bo'lib, ularning unsurlari yaqingacha Samarqand va Yuqori Zarafshon vodiysi tojiklari an'analarida saqlangan edi.



1. Nog'orachi. Terrakota haykalchasi. Mil. V – VII asrlari. Afrosiyob. Samarqand muzeyi.
2. Urma cholg'u (likobchalar) ijrochisi. Terrakota haykalchasi. Mil. V – VII asrlari. Afrosiyob. ermitaj. Samarqand muzeyi.
3. Damli cholg'u ijrochisi. Terrakota haykalchasi. Mil. V – VII asrlari. Afrosiyob. ermitaj.
4. Kifarachi. Terrakota haykalchasi. Mil. V – VII asrlari. Afrosiyob. ermitaj.

Arab istilosigacha bo'lgan davr O'rta Osiyo musiqa madaniyati haqidagi ma'lumotlar o'rta asrlar Xitoy manbalari orqali bizgacha nisbatan to'liq etib kelgan. Ushbu boy materiallar o'z davrida B.L.Riftin tomonidan o'rganilga³⁸ bo'lib, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'rtaosiyolik san'atkorlar mahorati xitoyliklarni hayratga solgan.

Mavjud manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Movaraunnahrning musiqa va raqs san'ati Xitoyda ham juda mashhur bo'lgan. Xitoylik san'at ustalari Movaraunnahrlik san'atkorlarga

³⁸ Рифтин В.Л. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая (II в до н.э. – VIII в. н.э.) //Проблемы востоковедения, 1960, №5.

hattoki hasad qilishar ekan. Xususan, So'g'd musiqachilari o'z kasbining ustalari sifatida doimo izzat-ikromda bo'lganlar. Buxorolik sahna tomoshasi ustalari, samarqandlik naychi, xo'tanlik surnaychi va toshkentlik raqqos shular jumlasiga kiradi; shuningdek, Xitoy imperatori Syuan-Szuna saroyida darvazalik, kesh (shaxrisabz)lik, maymurg'lik va samarqandlik qizlardan "G'arblik qizlar" nomli ansambl tuzilgan bo'lib, hukmdor ularning raqsini juda sevib tomosha qilari ekan. Uning ayoli Yani Rokshan esa bu raqslarni qiziqib o'rgangan ekan. Raqslar zarbli cholg'ular, ud va naylar jo'rligida ijro etilgan ekan³⁹.

Manbashunoslar Movaraunnahr san'atkorlarining bir necha raqslariga ta'rif berganlar: jumladan, "Chapdastlar" raqsi bir guruh raqqoslar tomonidan ijro etilgan bo'lib, bu raqs o'zining nafis harakatlari bilan ajralib turgan; ikkinchi raqs "G'ayratli, shijoatli" deb nomlansa, uchinchi "G'arbcha sakrama raqs" deb atalgan ekan. So'nggi raqs turini o'g'il bolalar ijro etishgan. Barcha raqslar milliy liboslarda namoyish etilgan.

O'smirlar va qizlarning qo'shiq jo'rligidagi zamonaviy lapar uslubiga yaqin raqslari ham bo'lgan ekan⁴⁰.

Daslab O'rta Osiyo xalqlari qo'shiq va kuylari, raqslarining nomlanishini xitoyliklar qanday eshitasalar, shunday ataganlar. Shunga muvofiq, Buxoroda mashhur bo'lgan qo'shiq ohangi "fusadanshi", raqs ohangi esa "mosiy" bo'lgan. 754 yilga kelibgina O'rta Osiyo xalqlari kuy-qo'shiqlari xitoycha nomlana boshlagan⁴¹.

B.Rifitin xitoy manbalaridan yiqqan materiallarning guvohlik berishicha, o'rtaosiyolik san'atkorlarni tasarruf etgan saltanatlarda musiqa va raqs kuchli taraqqiy etgan. Imperator Syuan-tszun huzuridagi bir necha ming xonandalar repertuarida O'rta Osiyo xalq

³⁹ Шефер Э. Золотые персики Самарканда. М., 1981.

⁴⁰ Якубов Ю. Музыкальная жизнь Хорасана и эпоха Борбада. Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе, 1990. сс. 109-112

⁴¹ Гонбов Г. Музыка и танцы народов Средней Азии до и после арабского завоевания // Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе, 1990. сс. 131-133.

musiqasi namunalari bo'lgan. Bu asarlarni ayol va erkak ijrochilar usulni oyoqlar bilan depsinib takrorlagan holda, ansambl tarzida ijro etganlar. Xitoyda VIII asrda keng tarqalgan raqslar xusyuanyu, xutenyu, chjehji nomlari bilan mashhur bo'lgan⁴². Zikr etilgan raqslarning birinchisi koptok (to'p) ustida ijro etilgan. Ayollar, ba'zida erkaklar tomonidan ijro etilgan ushbu raqs davomida raqqos koptok ustida shamoldek engil aylanma harakatlar ko'rsatishi lozim bo'lgan. 727-729 yillarda Samarqand, Kesh va Maymurg'dan xusyuanyuni ijro etuvchi raqqosalar keltirilgan. Chochdan Xitoyga erkak ijrochilar tomonidan ijro etiluvchi xutenyu ("xu" – o'zga yurtlik, "ten" – sakramoq), shuningdek, chjehji raqslari kelib qoladi. Chjehji bir tomondan Chochning xitoycha nomlanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan "chochiy" – Choch san'atiga mansub raqsni anglatadi⁴³.

B.Rifitting ma'lumotiga ko'ra, Xitoy hukmdorlari saroylariga raqqosa va musiqachilar O'rta Osiyoning boshqa hududlari – Ustrushana, Kumed va Xuttaldan ham taqdim etilgan hamda bu jarayon arab istilosiga qadar va arab istilosi davrida ham davom etgan⁴⁴.

1984 yilda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari jarayonida o'tgan mayitlar hoki saqlanadigan ossuariy (xonqa)lar topilgan edi. U (ossuariy) to'g'ri to'rt burchakli quti shaklida bo'lib, eramizning VI-VII asrlariga taalluqli ekanligi aniqlandi. Ossuariy Markaziy Osiyoda islom davrigacha bo'lgan dafn marosimlaridan darak beradi. Ossuariy devorlariga to'liq bir kompozitsiyani namoyon etuvchi relyef shaklidagi tasvirlar tushirilgan. Bu tasvirlar juda qiziqarli bo'lib,

⁴² Shu maqola.

⁴³ Гонбов Г. Музыка и танцы народов Средней Азии до и после арабского завоевания. // Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе, 1990. сс. 131-133.

⁴⁴ Рифтин В.Л. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая (II в. до н.э. – VIII в. н.э.). // Проблемы востоковедения, 1960, №5.

Markaziy Osiyodagi ilk o'rta asrlar musiqiy ijrochiligi xususida tasavvur uyg'otadi.

Ossuariyadagi arkalar ostida to'rtqo'lli erkak va ayol ilohlar raqsga tushayotgan holat tasvirlangan. Ya'ni, bunda qo'lga quyoshli disk va yarim oyni ushlagan ayol qiyofasi hamda torli cholg'uda chalayotgan erkak siymosi aks ettirilgan bo'lib, u (erkak)ning yuqorgi qo'llari esa qandaydir qush qo'ndirilgan temir xalqa va doiraga o'xshash disk ushlagan holatda. Taxmin qilish mumkinki, bu ilohiy juftlik Markaziy Osiyoda o'sha davrlarda juda ardoqlangan.

Tasvirdagi erkak ilohning qo'lidagi musiqiy cholg'u uzun ingichka dastali va kichkina bodomsimon ko'rinishdagi kosaxonaga ega bo'lib, torlarining soni aniq emas. Bu cholg'uchining oyoq tomonida, o'ng tarafdin burchakda qo'lga udsimon cholg'u ushlagan sozanda ayol tasvirlangan. Uning yuzi dumaloq, bodomqovoq ko'zli, to'g'ri burun va kichkina dudoqli. Chap qo'lida pastga qarata cholg'u ushlagan, o'ng qo'lida esa noxun tasvirlangan. Tasvirdagi ud kosaxonasining quyi qismi yumaloq bo'lib, qattiq tortilgan, go'yoki oxirgi qismiga qaytarib birlashtirilgandek. Cholg'uning ikkita tori aniq ko'rinadi. Ossuariyaning chap tomonidan burchakda ayol iloh oyoqlari ostida musiqachining kichkina qiyofasi tasvirlangan. U ayol ilohga qarab o'tirgan holatda. Musiqachining egnida yaktak va shalvar, u damli cholg'u ushlagan bo'lib, cholg'uning ko'rinishi kichik karnayni eslatadi. Musiqachi sozni chap qo'lining ustki qismiga yaqin ushlagan. Og'zining yaqinida esa o'ng qo'lining kafti bilan ikkinchi cholg'uning mundshtuk qismini ushlab turibdi. Asbobning oxiri kengaytirilgan shoxsimon ko'rinishda. Aftidan sozanda bu asboblarda navbatma-navbat ijro etadi. Ayol ilohning oyoq tomonidan o'ngda esa boshqa sozanda joylashgan bo'lib, u chordana qurib o'tiribdi. Bir-biriga mahkamlangan ikki nog'ora bo'lib, ularning biri sozandaning tizzasi to'g'risida, ikkinchisi esa ko'kragi to'g'risida joylashgan. Musiqachi bu cholg'uni ikki qo'l barmoqlari bilan chalmoqda.

Erkak iloh qo'lidagi cholg'uni udsimon sozlar guruhiga mansub deyish mumkin. Uning kosaxonasi juda kichkina (kaftdek) bo'lib, dastasi uzun va ingichka. O'ng qo'l sozni sadolantirish holatida, dastaning yuqorgi qismi chap qo'lning ochiq kaftida.

Juda uzun dastali, kichik kosaxonaga ega udlarni (masalan, Nisodan topilgan Parfiya ritonlari peshtoqlaridagi tasvirlar) taniqli musiqashunos olim T.S.Vizgo tanbursimon cholg'ularga oid degan.

Udning bunday turi kelib chiqishi jihatidan juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ammo ularda torlar soni ikkita. Tasvirlarda aks ettirilgan mashshoqlar qo'lidagi bu cholg'u ko'rinishlari hozirgi tanbarga ham mutlaqo o'xshamaydi. Sozandalar qo'lidagi uzun dastali, g'ijjak kosaxonasiga o'xshash yumaloq rezonatorli cholg'ular tasviri Xorazmning Tuproqqal'asidan topilgan edi.

Uzun ingichka dastali, kichik kosaxonali chertma tanbur bizning davrgacha saqlangan.

Markaziy Osiyodagi ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan torli-chertma sozlar toifasining rang-barangligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlangan. Ossuriya tasvirlaridagi cholg'ular esa qadimiy sozlarning yana bir turidir.

Tasvirdagi ilohning yuqorgi qo'llaridan birida doira tasvirlangan. So'g'dda doiraning VII asrdan boshlab qo'llanilishi, xitoylik sayohatchi ma'lumotlaridan ayon bo'ladi.

Musiqachi ayolning qo'lida ud cholg'usining boshqa turi tasvirlangan. Cholg'uning noksimon shakldagi kosaxonasi, uni 4, 3 yoki 2 torli So'g'd udlari (tadqiqotchi R.A.Sadokov bu guruhni So'g'd-Baqriya-Marv guruhi deb ataydi) guruhiga mansub deyishga asos bo'ladi.

Udchi sozandalar So'g'd terrakotalarida ayniqsa keng miqyosda o'z ifodasini topgan. Bu vaziyatda ular cholg'uni qo'l bilan va noxun bilan chalayotganlari ko'rsatilgan.

Ud ijrochiligining Qashqadaryo vohasida ham keng tarqalganligiga bu erdan topilgan udchi sozanda ayol haykalchasi

guvohlik beradi. Ayol cholg'uni Ossuariya tasvirlaridagi kabi kalta noxun bilan chalmoqda.

Yuqorida qayd etilgan tasvirlardan biri, ya'ni bir vaqtning o'zida 2ta musiqa asbobini (to'g'ri va shoxsimon cholg'ular) ushlagan sozandalarning bu cholg'ulari, aftidan karnay turiga mansub bo'lsa kerak. Boisi ularda parda teshikchalari mavjud emas.

Surnay, karnay singari damli cholg'ular tasviri Markaziy Osiyo san'atining turli yodgorliklari orqali mashhurdir. Shox karnay yoki shoxsimon karnaylar kamroq uchraydi. Ular Annikov idishi orqali mashhurdir.

Nog'ora singari zarbli cholg'ular esa Markaziy Osiyo va hind antik davri hamda ilk o'rta asrlar san'atida keng tarqalgan bo'lib, ular ikkiyoqlama qumsoat shakliga ega. Ammo ularning tuzilishi turlicha bo'lgan. Ya'ni, ular bir yoqlama, idishsimon va xumsimon shaklda bo'lgan.

Ossuariyada tasvirlangan nog'oralar rezonatorini tiklashning iloji yo'q. Boisi, tasvirda ularning faqat ustki tekisligi ko'rsatilgan. Ularni qo'sh nog'oralar toifasi deyish mumkin. Bunday nog'ora turi ossuariyadan tashqari boshqa manbalarda ham, tasvirlarda ham uchramaydi.

Aftidan bu o'ziga xos, qo'sh urma cholg'u bo'lib, u ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo musiqa madaniyatida birinchi marta namoyish etilganidir.

Shoxsimon karnay va nog'oralar ochiq havoda ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, sport o'yinlari, ov qilish, bola tug'ilishi haqida xabar berish uchun; shuningdek, shodlik hamda havotirli vaziyatlardan ogoh etishda qo'llanilgan. Karnay, surnay, nog'ora cholg'ularidan an'anaviy ansambl sifatida ham keng foydalanilgan.

Ansamblning boshqacha ko'rinishini ossuariya tasvirlaridan ham kuzatish mumkin. Bu tarkib ud, tanbur va doira kabi cholg'ulardan iborat bo'lib, ularga erkak xudosining raqsi jo'r bo'ladi. Aftidan, ayol

xudolarga erkak musiqachilar jo'r bo'lishadi, erkak xudolarga esa sozanda ayollar jo'mavozlik qilishadi.

II-IV asrlarga oid Tuproqqal'a devoriy tasvirlarida qanotli musiqachilar aks ettirilgan (ular qo'llariga burchakli arfa, g'ijjak, kimvala, chang, doira va nog'ora ushlagan holatda) bo'lib, taxminlarga qaraganda ular joylashgan bino marhum hukmdorlarni xotirlash marosimlarini o'tkazishga mo'ljallangan; shuningdek, bu erda o'lib, yana qayta tiriluvchi xudolar obrazi bilan bog'liqlik mavjud bo'lib, mazkur vaziyatda cholg'ular diniy marosim timsoli sifatida ifodalangan. T.S.Vizgoning fikricha bu, foniy dunyoga chaqirilgan musiqachilar timsoli, ularning epik qahramoni va mifologik xudolar kabi juda qadrlanganidan dalolatdir.

Bayon etilayotgan ossuariyadagi musiqachi, bu urush xudosining o'zi bo'lib, qo'lidagi cholg'ular uning timsollaridir. Tasvirda xudolar raqsiga ularning oyoq tomonlarida joylashgan musiqachilar jo'r bo'lishmoqda. Xudolarning raqs holati ikki xil ma'noni anglatadi: ya'ni, tabiatning abadiy almashinuvi bilan bog'liq xudolikning koinot raqslari va shuningdek, motam marosimi bilan bog'liq raqslarni.

Shunday qilib, Qashqadaryo vohasidan topilgan ajoyib ossuariyada go'yoki ikki xil ansambl tasvirlangan. Musiqachilar qo'lidagi cholg'ular esa shubhasiz, musavvir yashagan davrdagi sozlardir. Mazkur san'at obidasi ilk o'rta asrlar davrini namoyon etib, musiqiy ansambllar cholg'ularini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u qadimiy Markaziy Osiyo musiqa madaniyati tarixiga yangi chizgilar kiritadi.

Musiqashunos olimi I.Dadajonova ta'kidlaganidek, ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo musiqa madaniyati tarixida antik davrda shakllangan barcha turdagi musiqiy cholg'ularning keyingi takomilini namoyon etadi. Qayd etish lozimki, mahalliy musiqiy an'analarning rivojlanishida shahar va ko'chmanchi aholining hissasi birdek bo'lgan. O'sha davr madaniy yodgorliklari torli (ud, chang), damli (naylar, surnay, karnay), zarbli (nog'ora) cholg'ularning to'la shakllangan

tasvirlarini saqlab qolgan. e'tiborga molik jihati - xonanda-yu, sozandalar mahorati O'rta Osiyo sarhadlaridan tashqarida ham qadrlangan⁴⁵.

Yuqorida ta'riflangan madaniy yodgorliklardan ma'lum bo'ladiki, bu davrda mifologiya, dostonchilik an'analari ham keng tarqalgan. Xususan, Abulqosim Firdavsiyning jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lmish "Shohnoma" asarida tarixdagi dastlabki shohlar – Qayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid, Zahhok haqidagi qissalar; Zol va Rudoba haqidagi romantik doston, Suhrob va Siyovushlarning qahramonlik qissalari, Rustami Dostonning ajoyib sarguzashtlari; shuningdek, Kayxusrav podsholigi, Bejan va Manija dostoni, Isfandiyorning etti jasorati, Iskandar haqidagi doston, Bahrom Go'r, Xusrav Parvez va uning saroy musiqachisi Borbad haqidagi qissalar bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: ilk o'rta asrlar, tarix, madaniyat, san'at, arxeologik topilmalar, musiqa, qissa, doston, cholg'ular.

Nazorat savollari:

1. IV-VII asrlarga kelib Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati qay darajada rivojlandi?
2. Ushbu davrdagi Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining o'zaro ta'siri xususida so'zlang.
3. Qadimiy Samarqand, Panjikent kabi shaharlardan topilgan madaniy obidalardan musiqa san'atiga oid qanday tasvirlar aniqlangan?
3. O'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud, rubob, g'ijjak, nay, karnay va arfa cholg'ulari haqida gapiring.
4. Xitoylik san'at ustalarining Movaraunnahrlik musiqachilarga munosabatlari qanday edi?

⁴⁵ Dadajonova I. Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston musiqa madaniyati (V-VIII asrlar). Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. №994. T., 2003, 25-b.

5. Xitoy imperatori Syuan-Szuna saroyidagi "G'arblik qizlar" ansambli haqida nima deya olasiz?

6. Bu davrda raqs san'ati qay darajada rivojlangan edi?

7. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidan topilgan ossuariy - musiqa san'atini o'rganishda muhim arxeologik manba.

8. Ilk o'rta asrlarga oid musiqiy cholg'ularning tarixiy ahamiyati xususida so'zlang.

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. Eftalitlar davri madaniyati xususida ma'ruza tayyorlash.
2. Turk xoqonligi davri madaniyati xususida referat tayyorlash.
3. Tuproqqal'a, Xolchayon, Fayoztepa, Kampirtepa arxeologik yodgorliklari xususida prezentatsiya tayyorlash.

Ossuary – a container or room in which the bones of dead people are placed.	Xonqa, quduq. Odam suyaklari saqlanadigan idish.
Bas-relief – is a technique of sculpture in which shapes are carved so that they stand out from the background.	Barelef – rast relef. Xaykaltaroshlikdagi bo'rtib chiqqan relefning turlaridan biri.
Hephthalite empire – was a confederation of peoples in Central Asia who expanded their domain westward and southward during the 5 th century.	eftalitlar – erta urta asrlardagi qabilalar birikmasi (IV-VI asrlar). Uning xududiga Sugdiyona, Baktriya, Afg'oniston va Gandxara kirgan.
Toprak-kala – Ancient town with an area of 120 that is located in the Republic of Uzbekistan.	Tuproqqal'a - 120 ga maydonga ega bulgan kadimiy shaxarcha, O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan.
Pan flute – It is always used in folkloristic groups. The pan flute originated from the ancient Inca and Maya civilizations.	Pan iloxining sibizgasi – damli cholg'u. Aerofon.

Lute of Afrasiab – The compromised name of stringed instruments that found in Afrasiab.	Afrosiyob udi – Afrosiyobda topilgan uzun dastaklik udsimon torli cholg'ularning umumlashtiruvchi nomi
--	--


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1967.
2. Борбад и художественные традиции народов Центральной Азии: история и современность. Душанбе, 1990.
3. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. М., 1981.
4. Рифтин В.Л. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая (II в. до н.э. - VII в. н.э.). // Проблемы востоковедения, 1960, №5.

Borbad va uning ilmiy-ijodiy merosi


Mavzu rejasi:

1. Sharq mumtoz musiqasi asoschisi Borbad hayoti va ijodi.
2. Borbad davrida mashhur bo'lgan cholg'ular.
3. Borbad turkumli asarlar ijodkori.
4. Borbadning sharq musiqasi rivojiga qo'shgan hissasi.



Butun Sharqqa tanilgan va keyinchalik sharq adabiyoti namoyandalari asarlarida tasvirlangan Markaziy Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, yuzlab kuylar ijodkori Borbadning nomi musiqa olamida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borbad VII asr boshlarida eron sasoniylari sulolasidan bo'lgan shoh Xusrav Parvez saroyida xizmat qiladi. Bu tarixiy davrda mahalliy aholi turklar musiqiy hayotining ba'zi unsurlarini meros qilib olganlar. Natijada esa xalq ijodi va mahalliy ustozona an'analar kelajakda og'zaki an'adagi yirik mumtoz asarlar yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik tarqalgan ayrim maqom kuy tuzilmalarining turkiycha, masalan "avji turk" deb atalishi ham bejiz emas.



Borbad

Shunday qilib, bu davr musiqa san'ati kelajak avlodlarga bebaho ma'naviy durdonalarni meros qilib qoldirdi.

Markaziy Osiyolik buyuk san'atkor, xonanda, sozanda va bastakor, shoir va nazariyotchi, ustozona mumtoz musiqa asoschisi Borbad, taxminan eramizning VI asri 80-yillarida tavallud topgan. Mavjud manbalarda yozilishicha, u Xurosonning qadimiy va markaziy shaharlaridan biri hisoblangan Marvda istiqomat qilgan, ammo bu

erda tug'ilmagan. Taxminlarga ko'ra, san'atkorning tug'ilgan joyi Xurosonning shimoliy qismidagi Niso shahri bo'lib, u tog' va cho'l oralig'ida joylashgan ekan.

Xuroson – hozirgi eron davlatining shimoliy-sharqiy qismini, Afg'onistonning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismini va hozirgi Turkmanistonning janubiy vohalarini o'z ichiga olgan tarixiy viloyatdir. Borbad zamonidayoq bu viloyat o'zining qadimiy xo'jalik va madaniy an'analariga ega bo'lib, umuman insoniyatning taraqqiyot markazlaridan biri edi.

Xuroson aholisi eroniy tillar guruhiga mansub bo'lgan parfyan tilida so'zlashgan. Ammo, Borbad davriga kelib bu til, forsiy-doriy tilining keng tarqalganligi sabab, muomaladan chiqib ketgan.

Fors tili esa Xurosonda parfyan tili bilan, Toxaristonda baqtriy tili bilan, Buxoroda, So'g'dda, Ustrushanada so'g'd tili bilan birgalikda yashagan bo'lsa, keyinchalik u barcha yonma-yon yashayotgan tillar ustida "g'alaba" qilib, X asrda Movaraunnahr, Xuroson va Shimoliy Afg'onistonning asosiy adabiy tili bo'lib qoladi.

Borbad istiqomat qilgan Marv shahriga kelsak, uning VI-VII asrlardagi holati haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. Shu sababli Borbadning yoshligi va o'smirligi haqida biror gap aytish mushkul.

Manbalardan shu narsa ma'lumki, Borbad musiqa ilmini Marvda olgan va yigitlik davridayoq el og'ziga tushishga ulguragan.

Tabiiyki, bu davrda bir qator musiqa targ'ibotchilari, xonanda va sozandalar, shuningdek, musiqa nazariyotchilari etishib chiqadilar. Bular, Sarkash, Bamshod, Nekisa, Romtin, Fitna, Navogar, Sarkab, Robust va Borbad kabi san'at namoyandalaridir.

Aytish joizki, xususan Borbad haqida biografik ma'lumotlar kam. Ko'pgina yozma manbalarda ma'lumotlar turlicha berilgan. Lekin shunga qaramay, Borbad hayotining umumiy manzarasi qisqa bo'lsa-da, mavjud.

Taxminlarga ko'ra "Borbad" taxallus bo'lib, bu nom san'atkorga Xusrav Parvez II saroyida berilgan.

Eron musiqashunoslarining ilmiy farazlari bo'yicha VI asrda "barbat" nomli cholg'u o'z nomini buyuk ijodkordan olgan emish. Ammo bu taxmin tez orada rad etiladi. Boisi, tarixiy manbalardan ma'lum bo'ladiki, barbat cholg'usi ancha avval paydo bo'lgan. Barbat atamasi haqida quyidagi faraz haqiqatga yaqinroq: san'atkor Borbad aynan shu cholg'uning mukammal ijrochisi bo'lganligi sababli unga shu nom berilgandir.

Borbadning asl ismi Falaxbod Marvaziydir. Muhammad Tusiyning "Ajoyib ul-mahluqot va g'aroyib ul-mavjudot" asarida Borbadning ismi uch xil tarzda berilgan: Falaxbod, Faloxand, Faxlobod. Abdurashid al-Boquviyning "Kitab talxis ul-asar va ajoyib al-malik ul-qahhor" asarida ismning arabchasi keltirilgan: Balaxbod. Falaxbod ismi ko'pgina manbalarda keltirilganligi bois, shu varianti qabul qilingan. Aytish joizki, Saolabiydan tashqari, Borbad haqida ma'lumot beruvchi boshqa manbalarda yozilishicha, u hozirgi SHerozdan uncha uzoq bo'lmagan Jaxram (yoki Jaxrum) degan joydan ekan. Muallif Saolabiy esa Borbadni marvlik, deya yozib qoldirgan.

Mumtoz fors-tojik lug'atlarida: "Farhangi Dehxudo", "Farhangi Rashidi", "Farhangi Burhoni Qote", "Farhangi Onandiroch"larda ma'lumot berilishicha, Borbad 360 ta kuyning muallifi hisoblanadi. Abulqosim Firdavsiy va Abu Mansur Saolabiy: Borbadning musiqiy ijodiga shuningdek, "Sabzandaroz", "Partaviy Farxor", "Paykorigurd", "Yazdonofarid" nomli asarlar mansubdir, deya ma'lumot berishadi.

Ushbu mualliflarning yozishlaricha, Borbad Xusrav Parvez saroyida juda katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan. Shohning o'zi ham Borbad roziligini olmay turib a'yonlarga topshiriq bermas ekan. Bu borada manbalarning barchasi quyidagi misolni keltiradi: Shoh Xusrav juda ham kelishgan odam bo'lib, uning vaznini har qanday ayg'ir ot ham ko'taravermas ekan. Shu bois hukmdor o'ziga Shabdiz nomli bir otni tanlab, faqat uni suyib minar ekan. Bu otga

shohning mehri shu qadar baland ekanki, u: "...agar kimda-kim shu otimni nogahon o'ldi, deya xabar bersa, shu odamni kulini ko'kka sovuraman", - degan ekan. Ammo kunlarning birida Xusrav sevimli otining kuni bitib o'lganini ko'rgan otboqar dahshatga tushadi va darhol Borbad huzuriga yordamga chopadi. Borbad esa bu xabarni o'ta ehtiyotkorlik bilan, ishora tarzida shohga etkazadi. Bu xabarni eshitgan shoh: "...oh bechora SHabdiz, nahotki u o'lgan bo'lsa", deya ingrab yuboradi. SHunda Xusravga javoban Borbad: "Otning o'lganini birinchi bo'lib shohimning o'zlari aytdilar", deydi. Borbadning o'tkir zehni va farosatiga yana bir bor qoyil qolgan hukmdor: "...yaxshi, sen donoliging bilan o'zingni ham, boshqa odamning hayotini ham saqlab qolding", - degan ekan.

Ushbu misol Borbadning haqiqatdan ham shoh Xusrav Parvez oldida katta hurmat-e'tibor egasi bo'lganligidan dalolat beradi.

"Mumtoz fors-tojik lug'atlari va o'sha davrning tarixiy manbalarida yozilishicha, Xusrav Parvez saroyida Borbadning paydo bo'lishiga qadar, Sarkash degan odam saroyning bosh musiqachisi hisoblangan. Borbad kelgandan so'ng esa Xusrav Parvez asosan unga katta e'tibor berayotganligini ko'rib, oqibatda Borbadni zaharlagan ekan"⁴⁶, degan taxminlar ham yo'q emas.

Mashhur musiqachi Borbad haqida o'tmishda Sharq mumtoz she'riyati namoyandalari tomonidan ko'plab she'rlar ham bitilgan. Jumladan, fors-tojik mumtoz adabiyotining zabardast vakillari Firdavsiy, Unsuruiy, Manuchehra, Hofiz va boshqalar ijodiga mansub she'rlarda Borbad ovozi bulbul ovoziga qiyoslanadi.

Jumladan, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida Borbad haqidagi qissa quyidagicha boshlanadi: Xusrav Parvez 28 yildan buyon taxtda o'tirib, ogohlik bilan yurtni odilona boshqarayotgan vaqtlar. SHoh saroyida Sarkash nomli mashhur saroy musiqachisi faoliyat yuritishi haqidagi xabarni eshitgan Borbadning tinchi

⁴⁶ Саркоров Н. Образ Борбада в "Шахнамэ" Абулкасима Фирдоуси // Борбад и художественные традиции Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе. 1990, с. 99.

yo'qoladi. U shu kundan boshlab, qanday bo'lmasin Xusrav Parvez saroyiga borish va shohga o'z san'atini namoyish etish ishtiyoqi bilan yashaydi. Hech narsaga muhtojligi bo'lmasa-da, Borbad Xusrav saroyiga borish niyatidan qaytmaydi va yo'lga o'tlanadi⁴⁷. Ammo muallif Borbadning shoh saroyiga qaysi manzildan kelganini yozmagan.

Borbadning kelgani va Xusrav Parvez e'tiboriga tushish istagini bilib qolgan Sarkash sarosimaga tushib qoladi. SHundan so'ng saroyning eshik og'asiga pul berib, Borbad kelsa saroyga qo'ymaslik va'dasini oladi.

Firdavsiy bu holatni, inson tabiatida hasad shunday joylashganki, u albatta kishi fe'l-atvoriga ta'sir etmay qolmaydi, deya izohlagan.

Sarkashning bezovta bo'lishiga sabab, u Borbad qiyofasida juda kuchli raqibni ko'radi.

Xullas, Borbad shoh saroyiga yaqinlashgach, uni kiritmasliklarini tushunadi. eshik og'asiga har qancha yalinib-yolvormasin, u ko'nmaydi. Noumid qolgan Borbad ne qilarini bilmay, qo'lida sozi bilan bog' tomon yuradi va maqsadini hamda hozirgi ahvolini bog'bonga tushuntiradi. Shundan so'ng u insofli bog'bon Mardo'y yordamida Shoh Xusrav bog'iga kirishga muvaffaq bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, har Navro'z chog'ida hukmdor bu boqqa kelib, o'n to'rt kun bazmu jamshid uyushtiradi. Borbadning tashrifi esa aynan shunday vaqtga to'g'ri kelib, u shu kuni yashil libosda, qo'lida shashtor nomli sozi bilan sarv daraxti ustiga chiqib yashirinadi, va bazm boshlanib, go'zal gulandom qiz Shoh Xusravga sharob to'ldirilgan billur qadahni uzatgach, Firdavsiy yozganidek,

Sarv uzra bir nag'ma taraldi go'zal,
Har bandi ko'ngilga payvand bir g'azal

⁴⁷ Firdavsiy. SHohnoma. 3-kitob. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1977, 558-b

Sehrli navoni eshitib nogoh,
Hayratga tushgandi saodatli shoh.

Mayin ovoz bilan boshlab xonishin,
Hofiz ifodalar yurak yonishin.

Bundan lol edilar bor ahli majlis,
Har kimda har tusda, andisha-yu his.

Bu navo Sarkashni ayladi noxush,
Tanib kuy egasin, bo'ldi ko'p xomush.

Faqat Borbad chalar bu taxlit sozni,
Pahlaviy avjida qo'yib ovozni.

Shunda sehrli ohanglardan hayratga tushgan Xusrav bu ovoz egasini darhol topib kelishni buyuradi. Hamma yoqni qarab chiqqan a'yonlar esa mayus bo'lib, shoh huzuriga quruq qaytadilar. Shunda:

Jahongashta Sarkash so'zga ochdi lab,

Dedi: "Shoh baxtidan emas bu, ajab,

Gulu sarv mug'anniy bo'lmog'i mumkin...

Tojing obod qilsin bu olam mulkin!"⁴⁸, - deya Xusravni fikridan chalg'itmoqchi bo'ladi. SHu payt gulandom billur qadahda, shohga yana may uzatganda:

Mutrib yangi kuyga solib sozini,

Boshladi qo'shiqning eng mumtozini.

Nomi bu ohangning "Paykorgurd" erdi,

Jang-jadal suronin ifodalardi.

Bu g'aroyib holdan hayron bo'lgan, ham zavqlangan hukmdor, qo'shiq egasini topib kelishga qat'iy buyruq beradi. Ammo xizmatkorlar bu safar ham quruq qaytishadi.

⁴⁸ Firdavsiy. Shohnoma. 3-kitob. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1977, 561-562 b.

Uchinchi bor Shoh Xusrav may ichishga chog'langanida Borbad o'z sozi shashtor jo'rligida yana kuylay boshlaydi:

Kuy nomin "Sabzdarsabz", deya biturlar,
Mardlarni shu tahlit afsun eturlar.

Parvez eshitgan choq yangi navoni,
Dedi: "Tuting tezroq mayi sahboni!"

Dedi: "Bu farishta bo'lsaydi agar,
Borlig'i bo'lurdi mushk ila anbar"⁴⁹.

Shohning bu so'zlarini eshitgan Borbad daraxtdan tushib, uning oldiga keladi va ta'zim qiladi. Va kim ekanligini so'ragan hukmdorga boshidan o'tganlarni hamda niyat-maqсадlarini so'zlaydi.

Borbadning so'zlaridan saroyning bosh musiqachisi bo'lgan Sarkashning qora niyati-yu, xusumatini bilgan Xusrav Parvez,

Sarkashga dediki: "Ayo, badhunar,
Sen achchiq oshqovoq, bu esa shakkar!

Nechun uzoq tutding, ayt uni mandan,
Sozin darig' tutding bul anjumandan?"; - deya g'azablanadi.

Shunday qilib, mohir san'atkor Borbad:

Mutriblar shohi deb etildi tayin,
Nomdorlik shuhrati ortdi kun sayin.

Shu erur mug'anniy Borbad qissasi
Yaxshilik keltirgay qissa hissasi⁵⁰

⁴⁹ Firdavsiy. SHohnoma. 3-kitob. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1977, 563-b.

⁵⁰ Firdavsiy. SHohnoma. 3-kitob. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1977, 564-b.

kabi misralar bilan Firdavsiy o'zining buyuk san'atkor haqidagi qissasini yakunlaydi.

O'z navbatida shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Xusrav Parvez o'z saltanatiga qarashli barcha san'at namoyandalarining rahnamosi bo'lib, uning barcha tantanalari musiqasiz o'tmas edi. Shu sababdan ham hukmdor saroyiga turli hududlardan musiqachilar yig'ilgan edi. Jumladan, Borbad ham VI asrning 90-yillarida, ya'ni 28 yoshida Xusrav huzuriga keladi. Uning san'ati nafaqat Xurosonda, balki butun Turon va eronda ma'lum va mashhur edi.

Raqibi Sarkash tomonidan nafratga duchor bo'lgan bo'lsa-da, ammo o'z maqsadi sari dadil intilib, Xusrav Parvez oldidagi ilk chiqishi bilan odil shoh farmoniga binoan saroydagi ikki ming musiqachiga rahbar etib tayinlanadi.

Mavjud manbalardagi ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, Borbad juda katta, boy musiqiy meros qoldirgan. Uning asarlarida forsiyazon xalqlarning musiqa nazariyasi va amaliyoti bo'yicha erishgan barcha yutuqlari jamlangandir. Borbad birinchilar qatorida ko'p asrlik musiqiy an'analarga yangiliklar kiritgan. U O'rta Sharqda kasbiy musiqa asoschilaridan biridir.

Borbad yirik hajmli asarlar yaratishga katta hissa qo'shgan. Ushbu asarlar 12 davrga bo'linib, bu tizim o'z ichiga katta va kichik shaklli asarlarni jamlagan va keyinchalik Sharq xalqlari tomonidan maqomlar shaklida qabul qilingan.

Musiqashunos olim R.Yunusov ta'kidlaganidek, "Shuningdek, Borbad musiqaning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda ham jiddiy kashfiyotlar qilishga musharraf bo'lgan. Uning ulug'vor ijodiy-ilmiy salohiyati ko'p xalqlar musiqa merosida salmoqli joy oldi, u yaratgan ijod va ijro yo'llari keyinchalik yangi-yangi an'analarga ulanib, boyib bordi"⁵¹.

Umuman san'atkorning musiqiy-nazariy merosi IX-XVIII asrlar mobaynida yaratilgan bir qator risolalarda yozib qoldirilgandir.

Jumladan, Borbad qalamiga 7 ta "Xusravoniy", 30 ta lahn va 360 ta qo'shiq mansub bo'lgan. Bu qo'shiqlar yilning ma'lum bir kunida ijro etilgan. Ushbu "musiqiy yilnoma" o'z o'rnida 12 musiqiy davraga bo'lingan. 12 davra esa 12 oyga to'g'ri keladi. Har bir davra 30 qismdan iborat bo'lib, bu qismlar janr va shakl jihatlarini bilan bir-biridan farqlanadi.

Xulosa qilib, "koinot turkumi" aynan Borbad ijodiga mansub ekanligini ta'kidlash mumkin. "Koinot turkumi" yoki "Duvozdah davra" 12 yulduz davriga to'g'ri keladi.

Bu erda birinchi davra Hamalga, ikkinchi davra Savrga, uchinchi davra Javzoga, to'rtinchi davra Saratonga, beshinchi davra Asadga, oltinchi davra Sunbulaga, ettinchi davra Mezonga, sakkizinchi davra Aqrabga, to'qqizinchi davra Qavsga, o'ninchi davra Jadiyga, o'n birinchi davra Dalvga, o'n ikkinchi davra Hutga to'g'ri keladi. Har bir davra ma'lum oyda ijro etilgan.

Falaxbod Marvaziy – Borbad nomi uning vafotidan so'ng, bir necha yuz yildan keyin ham Yaqin va O'rta Sharqda mashhur bo'lib ketdi. Borbad qiyofasi tasvirlangan o'rta asr miniatyuralarini ko'plab uchratish mumkin. Aksariyat hollarda san'atkor Xusrav Parvez II bilan yoki hukmdorning ayoli SHirin bilan tasvirlanadi.

Borbadning musiqiy merosi undan keyingi avlodlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan. Jumladan, arab olimlari ham bu buyuk san'atkor merosini alohida e'tibor bilan o'rganganlar. Fors-tojikcha «Laxni Borbad» atamasi arab tiliga «al-gina al-faxlizi» tarzida tarjima qilinib, Borbad Marvaziy musiqiy merosining majmui degan ma'noni anglatadi. Quyida Nizomiy, Manuchexr va boshqa Sharq mumtoz shoirlari asarlarida nomlari uchragan 30ta laxn nomini keltiramiz:

⁵¹ Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T., 2000 y., 16-bet.

1. Ganji bod ovard	16. Sarv saxi
2. Ganji gov	17. Nushin boda
3. Ganji soxta	18. Ramish xon
4. Shodirvoni marvarid	19. Sozi Navro'z
5. Taxti Tokidi	20. Mashkuya
6. Nokusi	21. Mexrgoniy
7. Ovrangi	22. Marvinak
8. Xakka kovus	23. Roxi shabdiz
9. Moxi bar kuxon	24. Shabi farax
10. Mushkidona	25. Faraxruz
11. Oroyish	26. G'uncha kabikdori
12. Nimro'z	27. Naxchirgon
13. Sabz dar sabz	28. Kini Siyovush
14. Kafli rumi	29. Kini eraj
15. Sarviston	30. Bog'i Shirin

Shuningdek, alohida arab olimlaridan (asli eronlik) mashhur musiqachi Ibrohim al-Mavsiliy (742-804)ning o'g'li Ishoq al-Mavsiliy (767-865) ham ajdodi merosini mukammal o'rganib, unga tenglashishga harakat qilgan.

903 yili Isfaxonda bo'lgan Ibn al-Fahix al-Xamadoniy ham bu shaharda Borbad merosining juda keng tarqalganligini ta'kidlaydi. X asrning birinchi yarmida Buxoroda yashagan Abu Bakr Narshaxiy Borbadning 28-laxni hisoblangan "Kini Siyovush" (ya'ni, "Siyovush uchun o'ch")ning mahalliy aholi tomonidan sevib ijro etilishini e'tirof qilgan.

932 yili Borbadning vatani hisoblangan Marvda bo'lgan Abu Ishoq Istariy bu shaharda Borbad musiqiy an'alarining hamon davom etayotganini aytsa, buyuk "Shohnoma" muallifi Firdavsiy Borbad qo'shiqlarining X asrda ham zamonaviy qo'shiqlar singari ommaviy bo'lganidan darak beradi.

Saolibiy (vafoti 1038 y.) ham o'zining "Gurar axbar muluk al-furs" nomli asarida bu xususda yozib, shuni qo'shimcha qiladiki,

uning zamonida Borbadning "Xusravoniy" nomi bilan mashhur bo'lgan ko'p qismli musiqiy turkumlari hatto hukmdorlar qabulida ijro etilgan ekan.

Borbad an'analari yohud "Laxni Borbadi" (al-gina al-faxlizi)ning davom etayotgani xususida Somoniylar davlati ag'darilgandan so'ng to mo'g'ullar bosqiniga qadar o'tgan vaqt mobaynida Abu Ali ibn Sino, Mujallodi Gurgoniy va Azraxi Xiraviy kabi mualliflar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Muallif Avfiy Buxoriyning yozishicha, XIII asrda Buxoroda va Samarqandda Borbadning nafaqat kuylari, balki she'rlari ham juda ommalashgan ekan.

Qolaversa, dalillar shuni ko'rsatadiki, Borbad davridagi Xurosonning musiqa madaniyati juda yuqori darajada bo'lgan. Jumladan, keyinchalik SHashmaqom turkumi tarkibiga kirgan ko'pgina maqom yo'llari ham o'sha davrda Borbad va uning zamondoshlari tomonidan Xurosonda yaratilgan, degan taxminlar mavjud: "...buni hozirgacha xalq musiqasi durdonalari qatorida saqlanib qolgan "Husravoniy", "Navro'zi Buzurg", "Navro'zi Kuchak", "Navro'zi Xoro", "Navro'zi Ajam", "Zirafkand", "Jomadaron" ohanglari misolida ko'rish mumkin"⁵². SHuningdek, "mavrigixonlik maktabi" ham shu davrda tashkil etilgan bo'lib, u erdan keyinchalik, Buxoroga keltirilgan bo'lsa ajab emas. Qolaversa, kasbiy malakali musiqachi va raqqoslarni tayyorlovchi maxsus maktablar ham bo'lgan.

Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, umuman so'g'dlik va baqtriyalik san'atkorlar xitoyliklarga musiqa va raqsdan saboq berganlar.

Sharq mumtoz musiqasining asoschisi Borbad ilmiy-ijodiy merosini o'rganish zamondosh mutaxassislar tomonidan ham izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, musiqashunos olim

⁵² Dadajonova I. Ilk o'rta asrlar O'zbekiston musiqa madaniyati (V-VIII asrlar). San'atshunoslik instituti. Qo'lyozma T., 2003, 13-bet.

V.S.Vinogradovning “Eron musiqasining mumtoz an’analari” nomli kitobidan o‘rin olgan buyuk san’atkor haqidagi ma’lumotlar, 1990 yili Borbadning 1400 yillik tavallud sanasiga bag‘ishlab Tojikiston Respublikasining poytaxti Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Xalqaro simpozium fikrimizga yorqin dalil bo‘la oladi.

Tayanch so‘zlar: Sosoniylar, Borbad, Xusrav Parvez, Firdavsiy, “Shohnoma”, “Xusravoniy”, “Duvozdahdavra” barbat, ud, kasbiy musiqa

Nazorat savollari:

1. Sharq mumtoz musiqasi asoschisi Borbad haqida so‘zlab bering.
2. Borbad ijodiga mansub qanday asarlarni bilasiz?
4. Borbad qaysi shoh saroyida xizmat qilgan?
5. Borbad davrida mashhur bo‘lgan musiqiy cholg‘ular xususida so‘zlang.
6. Musiqa qaysi davrdan boshlab diniy va dunyoviy yo‘nalishlarga ajratilgan?
7. XIII asrga kelib Borbad ijodiga mansub asarlar qaysi shaharlarda ommalashgan?
8. Borbad haqidagi qissa qaysi dostonida keltirilgan? SHu asar xususida so‘zlab bering.

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. Barbat cholg‘usi haqida ko‘rgazmali ma’ruza tayyorlash.
2. “Shohnoma” asaridagi Borbad qissasi bo‘yicha ma’ruza tayyorlash.
3. Borbad – Sharq kasbiy musiqasining asoschisi mavzusida ma’ruza tayyorlash.

Singer – a person who sings, especially professionally and as a job.	Xofiz – Qur’anni yod biluvchi go‘zal ovoz sohibi. Maqom ustoz.
Composer – a person who writes music, especially as a professional occupation.	Bastakor – kuy ijod qiluvchi, kuyga yangi she‘r bog‘lovchi; oddiy kuy yoki ashulaga boshqa kuy jumllarini bog‘lovchi.
Sassanian empire – relating to a dynasty that ruled Persia from the early 3rd century AD until the Arab Muslim conquest of 651.	Sosoniylar – eroniy shoxlar sulolasi.
Barbat (lute) – is one of the oldest instruments in the world, and probably originated in Central Asia in the 1 st century.	Barbat (cholg‘u) – torli-chertma-plektorli cholg‘u. Ud toifasidagi cholg‘ular oilasiga mansub.
Merv – is the oldest and best-preserved of the oasis-cities along the Silk Route in Central Asia.	Marv – O‘rta Osiydagi mashhur qadimiy shaharlardan biri.
Melody of Borbad – The compromised name of the ancient classical music.	Borbad kuylari – qadimiy mumtoz kuylarning umumiy nomlaridan biri.
Davr – continuous and inseparable part of the musical performance.	Davr – sozandalar tilida ijro jarayonining uzluksiz bir bo‘lagi.

Alhon – The plural form of the word “Lahn”. The expression of musical compositions – song, melody and et.c.	Alhon –“ Lahn” soʻzining koʻpligi; musiqa asarlarining ifodasi – kuy, ashula va boshqalar.
Instrument of Shashtor – Musical instrument.	Shashtor – sholgʻu sozi.
Husravoni – The type of the ancient eastern music that performed in extravagant ceremonies.	Xusravoniy – Shoxona. Shoxona marosimlarda chalinadigan kuylar.


Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Firdavsiy. Shohnoma. 3-kitob. T., 1977.
2. Борбад и художественные традиции Центральной и Передней Азии: история и современность. Душанбе, 1990.
3. Yunusov R. Oʻzbek xalq musiqa ijodi. T., 2000.
4. Dadajonova I. Ilk oʻrta asrlar Oʻzbekiston musiqa madaniyati (V-VIII asrlar). SITI. Qoʻlyozma. T., 2003
5. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Том I. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2015.

Arab xalifaligi davrida musiqa madaniyati (VII-X asrlar)

Mavzu rejası:

1. Arab xalifaligi davrida musiqa madaniyati.
2. Islom va musiqa xususida.
3. “Soflik birodarlari...” tashkilotining faoliyati.



Tarixiy maʼlumotlar. VII asr boshida Arabiston yarim orollarida yirik Arab davlati tashkil topdi. Davlatning voħa va shaharlar aholisi kam boʻlgan va ularni bir-biridan Arabiston sahrosi ajratib turgan. U jugʻrofiy jihatdan qulay joylashgan boʻlib, qadimdan Sharq va Gʻarbdagi turli mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar oʻrnatishga intilib kelgan. Atrofda boʻlayotgan barcha siyosiy voqealar arab xalqlari taqdiriga taʼsir etmay qolmadi. Qadimdan qabila boʻlib yashab kelayotgan arablar ittifoqi mustahkam emas edi.

Ular goh birlashib, gohida esa parchalanib ketar edilar. Bu narsa arablar siyosati va diniy ta'limotida ham o'z aksini topdi.⁵³

Aholi orasida ko'p xudolik – butparastlik urf edi (xususan Ka'bada 360 ta but haykali bo'lib, ularning eng yiriklari Xubal va Lut bo'lgan). Shunday bir vaziyatda Islom to'g'ri va haq yo'lni ko'rsatuvchi din sifatida yuzaga keldi. Islom – bu Alloh yagona deya e'tirof etib, unga bo'ysunmoqlik va butun qalbi bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Islom “itokat”, “bo'ysunish” ma'nolarini bildiradi. Ushbu din targ'ibotchisi Muhammad payg'ambar (570-632) makkalik Abdulloh degan kishining o'g'li bo'lgan. Uning bobosi Abutolib quraysh qabilasining boshlig'i bo'lgan⁵⁴.

Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng (632 yil) uning tomonidan tuzilgan ittifoq arab qabilalarini birlashtiruvchi yanada katta markazga aylandi. Madinadagi bu ittifoq boshida Ollohning noiblari, xalifalar turar edi. Sun'iy mazhabdagi musulmonlarda asosan dastlabki to'rt xalifa alohida ahamiyatga ega. Bular – Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Hazrati Ali bo'lib, ularning vakilligi tan olingan.

Xalifalar yil sayin g'oya va e'tiqod sifatida Islom ta'limotini takomillashtira bordilar. Ularning himmati bilan Madinada 114 suradan iborat “Qur'oni Karim” tartib topdi. Xalifa Usmon davrida Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ta'lim va o'g'itlari 50 yil deganda yozuvga tushiriladi.

Yana bir muqaddas kitob, bu Muhammad payg'ambar hayoti, faoliyati va o'g'itlari haqidagi hadislardir. Hadislar to'plami IX asrda vatandoshlarimiz Buxoriy va Muslim kabi muhaddislar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zaro tenglik va mustahkam e'tiqod dini bo'lgan islomni birinchi navbatda kambag'allar qabul qila boshladilar. Islom dinining ko'p

⁵³ Qarang O'zbekiston xalqlari tarixi, I-jild, “Fan”, T., 1992 y., 70-b.

⁵⁴ Bu haqda qarang: O'zbekiston tarixi. “Universitet”, T., 1997 y., 113-b.

jihatdan afzalligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyati, arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo'ldi.

Maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur'on va shariat ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Olloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Islomning xalqparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ya'ni, “Islom ta'limoti, Qur'oni Karim g'oyalari negizida tarkib topgan musulmonchilik ahkomlari va ruknlarining o'lkamizga yoyilishi islomni qabul qilgan o'tmishdoshlarimizning Olloh buyurgan olijanob amallariga rioya etib, ruhiy-ma'naviy poklanish sari harakatlanishi, shubhasiz, jamiyat hayoti va uning asosiy tamoyillarining sog'lom negizlarida rivojlanib, takomillashib borishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi”⁵⁵. Shu ma'noda Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov: “Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini bo'lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzot ruhiy dunyosida imon-e'tiqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o'rni va ta'sirini yuksak baholaymiz”⁵⁶, deya ta'kidlaganlari bejiz emasdir. Zero o'lkaning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, odamlarning bir-biriga qon-qardoshligi, hamjihatligini mustahkamlashda muhim omil bo'lgan asriy bebaho qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan islomiy ahkomlarning bugungi kunda ham hayotimizda o'z munosib o'rnini topayotganligi islomning jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil ekanligidan dalolatdir.

Islom dini va musiqa

Ma'lumki, Islom dini ilmiy va badiiy ijodiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu fenomenni tafakkur etishda mavjud manbalarga asoslanib fikrlar (ilmiy farazlar, taxminlar) bildirilgan va yozilgan. Har bir tegishli manbada an'anaviy musulmon madaniyati o'ziga xos

⁵⁵ O'zbekiston tarixi, I-qism. “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, T., 2002, 104-105 betlar.

⁵⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. “O'zbekiston”, T., 1999, 300-b.

tarzda talqin etilgan. Islom va musiqa muammolarini chuqur o'rganishda ba'zan manbalar va materiallarning talab darajasida emasligi (ya'ni, masalalar echimiga qoniqarli javob beruvchi ma'lumotlarning etishmasligi) ham bu mavzuni atroflicha yoritish jarayonini murakkablashtiradi.

Musiqashunos olim A.Jumaev ta'kidlaganidek, Islom va musiqa muammosi mohiyatan ikki taraflamadir. Birinchisi "rasmiy" Islom, uning mazhablari va talqinlari, ikkinchisi esa shu din ichida vujudga kelgan tasavvuf oqimidir. Ana shu ikki dunyo miqyosida musiqa turli badiiy va falsafiy-estetik shakllarga ega bo'ldi. Bu, musiqa tinglash va uni o'rganishni man etilishidan tortib, toki musiqa yordamida "Ollohga etishish" kabi jarayongacha bo'lgan tushunchalar bilan belgilanadi.

Birin-ketin vujudga kelgan bu ikki dunyo asrlar davomida murakkab tarzda bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatib, bir-biri bilan "qorishib" ketgan⁵⁷.

O'rta asrlarda yashagan inson Islom qonunlarini "oddiydan – murakkab tomon" tamoyili asosida o'rgangan. Ya'ni, Islom asoslari, so'fiylik shariati, tariqati va hokazo. Tasavvuf Islom dini qonunlari, g'oyalari va timsollarini chuqur falsafiy, ramziy-estetik ma'no va mazmun bilan boyitadi.

Ma'lumki, "Qur'oni Karimda musiqa san'atiga bo'lgan munosabat to'g'ridan-to'g'ri (ochiq) bildirilmagan. Biroq unda keng qamrovli talqinga sabab bo'luvchi (xususan ishora ko'rinishidagi) musiqiy mavzular va syujetlar bor"⁵⁸. Musiqa mavzusi ko'proq hadislarida yoritilgan. Musiqa tarafdorlari va qarshilar aynan shu manbaga tayangan holda ish ko'rishgan.

Turli xil ilmiy izlanishlardan shu narsa aniqlanadiki, musiqaga bo'lgan qarshilikning ikkita asosiy sababi mavjud. Har bir sabab

⁵⁷ Джумаев А. Ислам и музыка // Музыкальная академия. М., 1992, №3, с. 24.

⁵⁸ Shu manba, с. 24.

ma'lum bir tarixiy davrga to'g'ri keladi va siyosiy-mafkuraviy hamda madaniy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Dastlabki musiqaga bo'lgan qarshilik, VII-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Islom dini xristianlik, yahudiylilik, zardushtiylikka nisbatan qarshiligi bo'lmasa-da, o'zining "ichki dushmanlari" bo'lmish "butparastlik", "ko'pxudolik"ka qarshi ayovsiz kurash olib borgan. Ana shu "unsurlar" arablarda (Islom dini joriy bo'lishidan avval) tovush, so'z, tasvir kabi materiallarda aks ettirilgandir. Masalan, musiqa butparastlar diniy marosimlarida qo'llanilib, ularning afsonalari bilan yo'g'rilgan. Mavjud ma'lumotlar (ilmiy farazlar, taxminlar)ga ko'ra aynan shu sababli Islom dini nozil bo'lganida musiqa man etilgan.

O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston hududlaridan topilgan imoratlar devorlariga chizilgan musiqa bilan bog'liq tasvirlar va musiqachilarning terrakota haykalchalari bu erlarda musiqa ancha yuqori mavqega ega bo'lganidan dalolat beradi. Zardushtiylik va buddaviylikda musiqadan keng foydalanilgan. Ular marosimlarda murakkab tizimli musiqiy timsollarga tayanishgan. Buddizm ramziga mashhur "Ayritom peshtoqlari"ni bog'lash mumkin. Bu davrda musiqa ham tasviriy san'at singari Islomdan bo'lak dinlarning ruhi va g'oyasini ifodalab, ularning timsollarini o'zida namoyon etgan.

Ammo musiqa va tasviriy san'atga nisbatan qo'llaniluvchi huquqiy tartibot o'sha paytda hali yo'q edi. Uning joriy etilishi VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Boisi, bu davrda hadislar joriy bo'lib, Islomning to'rt asosiy mazhabi – xanbaliy, molikiy, shofeiy va xanafiy tashkil topdi (ushbu mazhablar ularning asoschilari nomi bilan atalgan). Mazkur mazhablarning bevosita musiqaga doir fikrlari, keyinchalik yozib qoldirilgan qonunga oid, tasavvuf va ba'zan musiqashunoslikka oid manbalarga iqtibos tarzida kiritilgan.

IX-XI asrlarda Islom ahli madaniyatida "dunyoviy" rag'bat hukmronlik qila boshlagan. Shaharlarda musiqa etakchi o'ringa ega bo'ladi. Musiqa hissiyot rohati uchun vosita hisoblangan. Shuningdek,

u "dunyoviy" yashash tarzining boshqa jabhalari, ya'ni, may, ayollar, qimor o'yini kabilar bilan bir qatorida Islomning diniy-ahloqiy qadriyatlari va tamoyillariga qarshi chiqib, insonni oxiratga bo'lgan ishonchini susaytirgan. Musiqaning man etilishining bunday sabablari xususida "Soflik birodarlari" (X asr) jamoasining qomuschi olimlari ham guvohlik berganlar⁵⁹.

Ahloqan buzuq musiqachilarga musiqa san'atining yirik namoyandalari ham qarshi chiqishgan. Bunday toifa musiqachilarga o'z navbatida Alisher Navoiy ham "munosib ta'rif" bergan⁶⁰.

O'sha davrlarda qonunshunoslar inson hayotida musiqa bilan to'qnashadigan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda qonunlar ta'xis etardilar.

Asosan diniy va tasavvufga oid kitoblarda musiqaga bo'lgan munosabat 4ta diniy-ahloqiy qoidalar bo'yicha belgilangan: halol (shariatga muvofiq ravishda), harom, muboh va makruh.

Din bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni Qur'oni Karimni qiroat bilan o'qish, azon chaqirish, harbiy musiqa kabilar esa qonuniy ravishda ruxsat etilgan bo'lib, musiqa san'atining shakllari sifatida tan olinardi. Allomalardan biri Al-Faruqiyning ta'kidlashicha, "Islom hech qachon musiqa san'atiga qarshi bo'lmagan. Din faqat ayrim holatlardagina ma'lum bir shakllarni qabul qilmagan. Bu holatlar inson ahloqiga musiqaning salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liqdir"⁶¹.

Islom va musiqa muammosining keskinligi musulmon jamiyatining ijtimoiy tabaqalarga bo'linishi sabab qaysidir darajada yumshaydi. Din aqidalarining darajasi va teranligini anglab etish hamda ularga rioya qilishga mas'ullik ham ular (tabaqalar)ga muvofiq edi. Din tushunchasining o'zi jamiyatning turli tabaqalarida turlicha bo'lgan va shu ma'noda G'azzoliy kontseptsiyasiga muvofiq, dinning

⁵⁹ Музыкальная эстетика стран Востока. М., 1967, с. 271-272.

⁶⁰ Navoiy A. Махбуб ul-qulub. Т., 1970 у., 29-6.

⁶¹ L.I. al Faruqi. Unity and Variety in the Music of Islamic Culture, op. cit., p. 177-178

saralangan namoyandalari oddiy xalqqa qarshi chiqar edilar. Oxirgilari "dinda faqat uning tashqi tomonini ko'rar edilar"⁶².

Islom dinining musiqa masalalari bo'yicha nazariy ko'rsatmalari vaqti-vaqti bilan real jamiyat badiiy amaliyoti, jamiyatning u yoki bu qismi g'oyaviy intilishlari bilan to'qnasha boshladi. Bu ayniqsa XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga taalluqlidir⁶³. Demokratiya, ma'rifatparvarlik kabi harakatlar dinga nisbatan yangicha munosabatni yuzaga keltirdi. Odamlar siyosat, texnika, evropacha ilm kabi sohalarga intilib, dinning ko'pgina qonunlarini ba'zan ixtiyoriy, ba'zan ixtiyorsiz ravishda buzdilar. Bunday holat dinning ma'lum darajada islohotga uchrashiga sabab bo'ldi. Ma'rifatparvarlik harakati musiqa madaniyati sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, yangicha musiqiy qadriyatlarning kirib kelishi, musiqaning yangi turlari va janrlari, yangi cholg'ular, ijrochilik shakllari, musiqa haqidagi yangi bilimlar, musiqiy texnika vositalari (grammafona, plastinka)ning keng tarqalishi shu jumlagacha kiradi. Bularning barchasi Islom va musiqa muammosini yanada keskinlashtirib, uni jamiyat miqyosida ahamiyatli qilib qo'yadi. Musulmonlar oldida yana savol paydo bo'ldi: musiqaga qanday munosabatda bo'lish kerak? Muammo "yangicha" tafakkur etilib, echimini topishi kerak edi.

XX asr, Islom dinining ko'p asrlik ta'limotiga musiqa borasida o'zgarishlar olib keldi. "Musiqiy sekulyarizatsiya" (musiqani din ta'siridan xalos etish) jarayoni turli vaqtda, turli shakllarda islom dunyosining yirik markazlarida kecha boshladi (arab mamlakatlari, Turkiya, eron va b.).

Islom dinining ichki yo'nalishlaridan biri sanalgan tasavvuf oqimi, o'n asrdan ziyod tarixiy jarayonni o'z ichiga olgan holda butun musulmon dunyosida tarqalgandir.

⁶² Наумкин В.В. К вопросу о Хасса и амма (традиционная концепция «элиты» и «массы» в мусульманстве) //Ислам в истории народов Востока. М., 1981, с. 42.

⁶³ Джумаев А. Ислам и музыка //Музыкальная академия. М., 1992, №3, с. 27.

“Tasavvuf – bu ham falsafiy, estetik, diniy-ahloqiy ta’limot, ham hayot tarzidir. O’tmishda u jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borgan va shoir, musiqachi, me’mor, hunarmand yoki boshqa ijodiy kasb vakillarining badiiy tafakkuriga ta’sir o’tkazib, uni belgilab bergan”⁶⁴.

Xudoga va Haqiqatga erishishning ilohiy jarayoni (“shariat” – musulmonlarning diniy qonuni, tariqat – so’fiylik yo’li, haqiqat – Ollohga etishish) so’fiylik ta’limotida san’at bilan bog’liq.

So’fiylik ta’limotida musiqa, she’riyat va raqs san’atning etakchi turlariga aylandi.

San’at – shayxlarning o’zaro munozaralariga sabab bo’lgan. Ba’zilar Ollohga erishish yo’lida san’at vositasini qulay deb bilsalar, ayrimlar buning aksini aytar edilar. Masalan, bunday baxslar kiromiylar va qodiriylar tariqatlari o’rtasida olib borilgan. Kiromiylar Ollohga erishishda musiqaning o’rnini yuqori deb bilsalar, qodiriylar musiqa va baland tovush vositalarini umuman rad etganlar. Bu singari bahslar qanchalik ko’p bo’lmasin, so’fiylik ta’limoti aynan musiqa sababli o’z mohiyatini ko’rsata oldi. (Aynan san’at tufayli tasavvuf o’zining hayotiy qarama-qarshiliklarini echa oldi va odamzotning yashash sirlari echimini topa oldi).

Musiqa so’fiylarda “samo” (tinglash) atamasi bilan qo’llanilar edi. “So’fiylik yig’ilishlarining dastlabki davrlaridayoq shayxlar o’z majlislarida musiqani keng qo’llashgan (majlisi samo’). Majlislarda xalq aytimlari va she’riy shakllarini alohida so’fiycha mazmun bilan to’ldirib, ulardan foydalanishgan. Bu ko’pincha pand-nasihati va falsafiy-etik xarakterdagi ruboiy-taronalar bo’lardi”⁶⁵.

Markaziy Osiyoda tasavvufning ko’pqirrali dunyosi, darveshlar, qalandarlar, faqirlar tomonidan namoyon etilgan. Tasavvufning Markaziy Osiyo xalqlaridagi shomonchilik bilan genetik munosabati mavjud. Bu hudud xalqlarida “Yassaviyxonlik” tariqati ham keng

⁶⁴ Джумаев А. Ислам и музыка. // Музыкальная академия. М., 1992, №3, с. 27.

⁶⁵ Bu haqda qarang: Бертельс Э.Э. Суфизм и суфийская литература. М., 1965 г.

rivojlangan edi. Tariqat asoschisi Hoji Ahmad Yassaviy bo’lib, uning merosi og’zaki an’ana orqali bizgacha etib kelgan.

Hoja Ahmad Yassaviy turli nomlar bilan qayd etiladi: Xoja Ahmad, Hazrati Sulton, Hazrat, Piri Turkiston, Ota Yassaviy va hokazo.

Ahmad Yassaviy o’z ta’limotini turkiy xalqlarga bag’ishlagan edi. Yassaviy tariqati (yo’li) aynan undan boshlangan. Ushbu tariqat Markaziy Osiyo va Qozog’istonda yashovchi o’troq va ko’chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Yassaviydan “ota” deyilmish geneologik shajara boshlangan. Yassaviy ta’limoti o’z ta’sirini boshqa so’fiylik tariqatlariga ko’rsatgan: naqshbandiya, qodiriya, qalandariya kabilar shu jumlagi kiradi.

Hazrati Sultonning qilgan ishlarini musiqasiz tasavvur etish mushkul. Uning hikmatlari Markaziy Osiyo va Qozog’istondagi barcha diniy aytimlar qatlamidan o’rin olgan (qalandarlar, maddohlar, baxshilar, otinlar ijro bisoti shular jumlasidandir). Hikmatlarning ijro etilishi uslublari ko’lami ham ancha keng bo’lgan (sharhli deklamatsion-rechitatsiyadan, maqom san’atiga yaqin yuqori kasbiy darajadagi “xonish”). Xoja Ahmad va uning hikmatlari tarafdorlari “yassaviyxonlik” nomini olgan an’anaga asos soldilar.

Va nihoyat, Ahmad Yassaviy va uning hikmatlari so’fiylarda “zikri jaxriy”ning rivojlanishiga sabab bo’lgan.

“Ahmad Yassaviy hikmatlarining muhim mavzui – zikrdir. U to’g’ri ma’noda so’fiyning yuragida paydo bo’lib, so’ngra yig’i va iltijolar ko’rinishida tashqariga chiqadi. Yassaviy izdoshlari zikrni o’z tariqatlarining ramziga, asosiy tavsifnomasiga aylantirganlar”⁶⁶. Ular amaliyotda qo’llaydigan zikr “jaxriya” (baland ovozli zikr) deyiladi. Bu so’z tariqat nomiga aylandi (“yassaviy” atamasi vaqt o’tishi bilan o’z o’rnini “jaxriya” atamasiga bo’shatib bergan). Bu hol XVIII-XIX

⁶⁶ Джумаев А. “Туркестанский старец” Ходжа Ахмад Яссави и мусульманские духовные песнопения // Музыкальная академия. №1, 1997, с. 133.

asrlar mobaynida davom etgan. Zikrning boshqa turi “xufiya” deyilardi. “Xufiya” zikri oxista, yashirin tarzda o‘tkazilardi.

Yassaviya tariqatida ishlab chiqilgan “zikri arra” turida Yassaviyning o‘zi ham ishtirok etgan. Bu haqda Yassaviy hikmatlaridan bilish mumkin.

Yassaviy hikmatlarida “zikri ilohiy”, “zikri qalb” va “zikri sir” kabi zikr turlari haqida ham qaydlar bor. Yassaviy tariqatida zikrning o‘ziga xos yana bir turi “chaxor zarb” yoki “chor zarb” deyiladi.

“Chorzarb”ning o‘ziga xosligi “La ilaha illallah” tavhidining takrorlanishidadir. Chorzarb ochiq va baland ovozda, raqs jo‘rligida ijro etilgan. Chorzarbning so‘z andozasi – “La ilaha illa-lloh”dir. U to‘rtta bo‘g‘inga bo‘linib, to‘rt zarbli ritmik strukturaga ega bo‘lgan va har bir bo‘g‘in ma‘lum harakatlar yordamida aytilgan. Chorzarbning ritmik formulasi ham bo‘lgan (“yak zarb”, “du zarb”, “se zarb”, “chor zarb”). Ushbu usul-andozalar diniy ruhdagi boshqa aytimlarda ham qo‘llanilgan. Yak zarb, du zarb, se zarb, chor zarb deb nomlangan zikr kuylari va qismlari XIX asrning oxiri - XX asrning birinchi yarmida Toshkent va Farg‘ona vodiysida keng qo‘llangan.

Yak zarbda Ollohning nomi bir marta aytiladi;

Du zarbda Tangrining nomi ikki marta aytiladi;

Se zarbda Yaratganning nomi uch marta aytiladi;

Chorzarbda Xudoning nomi to‘rt marotaba aytiladi.

Yassaviy hikmatlari ikki asosiy yo‘nalishda qo‘llanilgan: so‘fiylik zikrida, 2) diniy aytimlarda (qalandarlar, maddohlar, otin oyilar, baxshilar ijro bisotida).

Xoja Ahmad Yassaviy siymosi va uning hikmatlari ayollar zikrida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

XII asrda tasavvuf yo‘nalishini “falsafiyashtirilish”ga moyillik paydo bo‘ladi. Bunda samo‘ va raqsning so‘fiylar marosimida qo‘llanilishi asosiy masalalardan biri bo‘lib qoldi. Bu davrda tasavvuf ta‘limotiga oid bir qator kitoblar yozilgan: bular Al-Kalobodiyning

“Kitab at-ta‘ruf”, Al-Qushoriyning “Risala ahkam as-sama”, Al-G‘aznaviyning “Kashf al-maxjub” kabi asarlaridir.

Yaratilgan kitoblarning har birida samo‘ga bag‘ishlangan bo‘lim mavjud bo‘lib, bu an‘ana asrlar davomida o‘zgarmagan.

Samo‘ ko‘pgina tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Samo‘ tarafdorlari ham, qarshilar ham o‘z savollariga javobni Qur‘on, Hadis, afsona va rivoyatlar bitilgan kitoblardan izlaganlar.

O‘rta asrlarda samo‘ muammolari juda ham ahamiyatli hisoblangan. Unda ayniqsa amaliy muammolar birlamchi bo‘lgan.

IX-X asrlarda samo‘ning uchta asosiy shartlari mavjud edi: zamon, makon va ixvan (jamo). Dastlabki uchta shartga Abulqosim Junaydiy-Bag‘dodiy tomonidan aniq ta‘rif berilgan. Tasavvufda “samo‘ ayimlari”da qo‘llaniladigan so‘z va atamalarga alohida e‘tibor berilgan. Ularning talqini risola va lug‘atlarda batafsil yoritilgan.

Tinglov va raqs zikr marosimida vaqt nuqtai nazaridan tartiblashtirilgan edi. Zikrning markaziy unsuri – vajd holatidir. Vajd holatidan so‘ng so‘fiy Haqiqatga erishadi.

Samo‘ marosimi haqida evropa va Rossiyalik sayohatchilar ham guvohlik berishgan. Ular Turkiya, eron kabi mamlakatlardan Markaziy Osiyoga XVII-XX asrlarda tashrif buyurgan sharqshunos olimlar, elchilar, sayohatchilar bo‘lib, ushbu marosimlarni ko‘rganlar va bu haqda yozib qoldirganlar.

Ba‘zi tariqatlarda musiqa cholg‘ulari keng targ‘ib qilingan. O‘ziga xos diniy ma’noga ega bo‘lgan kuylar muqaddimada, bo‘limlar orasida va zikr yakunida ijro etilgan.

Jaloliddin Rumiy asos solgan Mavlaviylar tariqatida (Turkiyada) nay ramziy cholg‘u sifatida qo‘llanilgan⁶⁷. Hatto cholg‘ularga bag‘ishlangan kitoblar ham yozilgan. Masalan, “Naynoma” (J.Rumiy),

⁶⁷ Mavlaviy tariqatining samo‘ va zikrlari xususida ko‘plab adabiyotlar yaratilgan. Qarang: Бертельс Э.Э. Вращающиеся дервиши // Персидский театр, Л., 1924, с.83-91; J.During. Le sama' de Mawlana Rumi et des derviches mevleviis // Musique et extase. L'audition mystique dans la tradition soufie, p.174-206.

“Rubobnoma” (taxminlarga ko‘ra bu asar J.Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad qalamiga mansub) kabi asarlar shular jumlasidandir.

Samo‘ va zikr amaliyoti xonaqo va qalandarxonalarni yirik diniy-musiqiy markazga aylantirdi. Bu erlarda o‘ziga xos shakllar va an’analar rivojlandi.

Musiqaning falsafiy qarashlarga jalb etilishi, so‘fiylar dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. So‘fiy musiqa yordamida Ilohiy uyg‘unlikka erishgan. Uning ko‘z oldida bixisht (jannat) paydo bo‘lib, undagi daraxtlarga qo‘ng‘iroqchalar ilingani namoyon bo‘lgan.

Samo‘ning ruhiy holatlari haqida IX asr mualliflari ham yozib qoldirganlar. Masalan, al-Xujviri: tarab, farax, g‘am, shavq xususida ma‘lumotlar bergan.

X-XI asrlarning tasavvufga oid kitoblarida maqomlar, ahvol, vajd haqida ma‘lumotlar keltiriladi. X-XV asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda esa maqomlar tavsifi o‘zgacha tarzda yoritilgan. Ularda so‘fiylik bilan bog‘liq ayrim qirralargina o‘z ifodasini topgan.

12 maqomning ruhiy holatga bo‘lgan ta’siri xususida Urmaviy, Omuliy, Marog‘iy, Jomiy, Xusayniy kabi mualliflar o‘zlarining asarlarida imkonqadar ma‘lumot berganlar. Ruhiy holatga bo‘lgan ta’sir dunyoviy-estetik xarakterga ega edi.

Ammo keltirilgan ma‘lumotlar samo‘ va maqomotning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari yo‘qligini tasdiqlamaydi. Maqomshunos olim O.Ibrohimovning ta’kidlashicha, xususan, “...O‘n ikki maqom tizimi (uning yuzaga kelishida Etti maqom asos bo‘lganligi taxmin qilinadi) o‘zagini “komil inson” (tasavvuf) ta’limoti g‘oyalari tashkil etishi ma‘lum bo‘lmoqda. “Maqom” so‘zi tasavvuf istilohida eng muhim tushunchalardan biri bo‘lib, uning vositasida, jumladan ma’naviy kamolot yo‘li (tariqat)ning ettita asosiy bosqichlari (bekatlari, darajalari) ifoda etiladi. Demak “maqom” deganda ma‘lum harakat jarayoni ham nazarda tutilib, bunda solik (yo‘lovchi, izlanuvchi murid)ning suluk (yo‘l) bosqichlari bo‘ylab safari va, shu asnoda o‘z maqsadi sari ma’naviy yuksalib borishi anglashiladi... O‘tmishda

maqomlarning ilmu-amali bilan asosan tariqat doirasida bo‘lgan so‘fiylar yoki tasavvufga aloqador (tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini qabul qilgan mutasavvuf) shaxslar shug‘ullanib kelganlar. “Musiqah ruh ozig‘idir”, tarzidagi tavsiflar ham asosan tasavvuf shayxul-mashoyixlari tomonidan berilgan”⁶⁸.

Maqomot va samo‘ning bir-biriga bo‘lgan ta’siri juda murakkab jarayon tarzida kechgan. Avvaliga so‘fiylar o‘z amaliyotlarida va musiqiy shakllarda maqomotdan foydalanganlar, keyinchalik esa maqomot tizimida so‘fiylar estetikasi va ramzi ustunlik qila boshladi.

So‘fiylarning musiqiy maqomotga murojaat etishlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar XIII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Mavlono Jaloliddin Rumi g‘azalida maqom nomlari sanab o‘tilgan (Isfaxon, Hijoz, Iroq, Ushshoq va b.).

Yuqorida ta’kidlanganidek, X-XI asrlarda samo‘ amaliyotida so‘fiylar musiqiy-she’riy janrlarning bayt, ruboiy, (ba’zida g‘azal) kabi kichik shakllariga murojaat etganlar. Bu davrda maqomlar tizimi ancha rivojlangan bo‘lib, saroylarda ijro etilardi. Bu san’at kasbiy darajadagi she’riyatga tayangan.

Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindistondagi so‘fiylik tariqatlari o‘zlarining marosimlarida maqomotning kuy matnidan foydalanganlar. eron dastgohlari va Ozarbayjon mug‘omlarida esa so‘fiylik qirralari mavjuddir.

Umuman tarixiy kesimda maqomotni 2 xil, ya’ni diniy va dunyoviy tarzda talqin qilish mumkin.

Shuningdek, Islom va musiqa muammosini badiiy-musiqiy va estetik nuqtai nazardan ko‘rib chiqish lozim.

Islom dini g‘oya va timsollari (o‘rta asrlarda) musiqa san’atining deyarli barcha shakllari va turlariga ta’sir ko‘rsatgan.

O‘rta asrlarda Qur’oni Karimni qiroat bilan o‘qishga bag‘ishlangan adabiyotlar juda ko‘p bo‘lgan. Ularni o‘qish jarayonida

⁶⁸ Ibrohimov O. Tasavvuf va musiqa (XV-XVII asrlar). Qo‘lyozma. San’atshunoslik instituti kutubxonasi. inv.№1031. T., 2006, 23-24-25 betlar.

musiqaning mavjudligi xususida nazariy va amaliy munosabatlar yozilgan.

Musiqiylik Qur'onni o'qish jarayoniga inson uchun zarur bo'lgan nafasat qirralarini kiritib, kitobning ahloqiy mohiyatini ochib berish kabi vazifani bajargan. Qur'on so'zlarining ma'no-mazmunini musiqiy ohang bosib ketishi mumkin emas.

Qur'onni qiroat bilan o'qish uchun "chiroyli ovoz" kerak bo'lgan. Chiroyli ovoz dindorlarni to'lqinlantirgan va ular bunday ovoz sohibiga yuqori baho berganlar. Xunuk ovoz esa musulmonlar uchun talafot kabi bo'lgan va, odatda eshak ovozigga qiyoslangan.

O'rta asrlarga oid nasriy asarlarda, xalq ijodiyoti namunalarida ana shu mavzu keng yoritilgan. Ya'ni azon muazzin (so'fi)lari, qiroat qilish masalasi va hokazo.

Qiroat qilish qonunlariga qattiq amal qilinganligi sababli Qur'oni Karimni o'qish san'at darajasiga ko'tarildi.

Qiroat bilan o'qish uchun eslab qolish qobiliyati hamda iste'dod juda zarur edi. Qiroat xususida so'z ketganda Abdulqodir Marog'iy nomini tilga olish maqsadga muvofiqdir.

O'rta asrlar manbalarida Qur'on o'qish uchun ma'lum maqom pardalaridan foydalanilganligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Azon aytishda ham maqom pardalaridan foydalanilgan. Masalan, arab masjidlarining birida azon har kuni har xil, Ushshoq, Rost, Segoh, Chorgoh va h.k. maqom pardalarida chaqirilar ekan.

Qur'on qiroatining musiqiy ohang negizlari hech qaysi musulmon millatiga tegishli emas, deyish noto'g'ri. Musulmon jamiyatida Qur'onni qiroat bilan o'qishning ikki asosiy shakli (uslub) mavjud bo'lgan: biri – rasmiy, qoidali, ikkinchisi – xalqchil, erkin. Birinchi uslubda kuy murakkabligi, ustozonaligi kuzatiladi. Xalqchil uslub kundalik hayotda keng ko'lamda uchraydi. Aynan shu uslubda kuylab milliy-mahalliy qirralar kiritilganligi va shevalarning o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Har bir musulmon halqining o'ziga xos diniy ayimlari mavjud. Ularning ba'zilari haqida ma'lumotlar deyarli yo'q (yoki saqlanmagan), ba'zilari haqida esa muayyan fikrlarga egamiz. ehtimol, bu ayimlar islom dinini xalqqa tushuntirish, targ'ib etish jarayonlarida yuzaga kelgandir.

Ko'plab musulmon xalqlarida diniy musiqaning janr tizimlari ham mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari diniy bayramlar bilan bog'liq bo'lsa (Ramazon, Qurbon hayitlari va b.), ba'zilari insonning dunyoga kelishi va ketishi munosabati bilan o'tkaziluvchi marosimlar bilan bog'liqdir. Mehnat va maishiy jarayonlarni aks ettiruvchi marosimlar, Olohga iltijo (munojot), falsafiy o'y-kechinmalar, diniy-ahloqiy pand-nasihatlar (hikmatlar, g'azallar), hadislar ham diniy janrlar tarkibiga kiritiladi.

Tasavvufda musiqa real hayotiy voqeliklarni tan olmaydi, musiqa albatta reallikdan yuqori turadi, deb hisoblangan.

Haqiqatga erishishga yordam beruvchi musiqani ham so'fiylar yoshlarga ishonib topshirmaganlar. Ular faqatgina yoshi ulug' ustoz shayxlargina musiqaning haqiqiy qadrini biladilar, deyishar edi. Haqiqatga erishish uchun musiqadan foydalanish faqatgina ustoz yordamida mumkin bo'lgan.

Tasavvuf musiqaning ijro etilish jarayoniga ham katta e'tibor bergan. Bu erda uchta shartga amal qilinishi lozim bo'lgan: bu vaqt, joy va birodarlardir. Faqat shundagina musiqa hissiy ma'noga, badiiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Musiqa muayyan "sozlanish"ni talab qiladi: joy, vaqt, birodarlar esa musiqiy "sozlanish" bilan hamohang bo'lishi kerak.

Musiqiy "sozlik" deganda odamning musiqani qabul qilishi uchun ruhan tayyorligi tushuniladi.

Joy, makon deyilganda, musiqa ijro etiladigan joy tushuniladi. U joy dilga xush yoqadigan bo'lishi kerak. Yovuz odamning uyi yoki g'amgin odamning uyi bunday ijrolar uchun mos kelmas edi.

musiqaning mavjudligi xususida nazariy va amaliy munosabatlar yozilgan.

Musiqiylik Qur'onni o'qish jarayoniga inson uchun zarur bo'lgan nafosat qirralarini kiritib, kitobning ahloqiy mohiyatini ochib berish kabi vazifani bajargan. Qur'on so'zlarining ma'no-mazmunini musiqiy ohang bosib ketishi mumkin emas.

Qur'onni qiroat bilan o'qish uchun "chiroyli ovoz" kerak bo'lgan. Chiroyli ovoz dindorlarni to'liqlantirgan va ular bunday ovoz sohibiga yuqori baho berganlar. Xunuk ovoz esa musulmonlar uchun talafot kabi bo'lgan va, odatda eshak ovozigiga qiyoslangan.

O'rta asrlarga oid nasriy asarlarda, xalq ijodiyoti namunalari ana shu mavzu keng yoritilgan. Ya'ni azon muazzin (so'fi)lari, qiroat qilish masalasi va hokazo.

Qiroat qilish qonunlariga qattiq amal qilinganligi sababli Qur'oni Karimni o'qish san'at darajasiga ko'tarildi.

Qiroat bilan o'qish uchun eslab qolish qobiliyati hamda iste'dod juda zarur edi. Qiroat xususida so'z ketganda Abdulqodir Marog'iy nomini tilga olish maqsadga muvofiqdir.

O'rta asrlar manbalarida Qur'on o'qish uchun ma'lum maqom pardalaridan foydalanilganligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Azon aytishda ham maqom pardalaridan foydalanilgan. Masalan, arab masjidlarining birida azon har kuni har xil, Ushshoq, Rost, Segoh, Chorgoh va h.k. maqom pardalarida chaqirilar ekan.

Qur'on qiroatining musiqiy ohang negizlari hech qaysi musulmon millatiga tegishli emas, deyish noto'g'ri. Musulmon jamiyatida Qur'onni qiroat bilan o'qishning ikki asosiy shakli (uslub) mavjud bo'lgan: biri – rasmiy, qoidali, ikkinchisi – xalqchil, erkin. Birinchi uslubda kuy murakkabligi, ustozonaligi kuzatiladi. Xalqchil uslub kundalik hayotda keng ko'lamda uchraydi. Aynan shu uslubda kuylab milliy-mahalliy qirralar kiritilganligi va shevalarning o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Har bir musulmon halqining o'ziga xos diniy aytimlari mavjud. Ularning ba'zilari haqida ma'lumotlar deyarli yo'q (yoki saqlanmagan), ba'zilari haqida esa muayyan fikrlarga egamiz. ehtimol, bu aytimlar islom dinini xalqqa tushuntirish, targ'ib etish jarayonlarida yuzaga kelgandir.

Ko'plab musulmon xalqlarida diniy musiqaning janr tizimlari ham mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari diniy bayramlar bilan bog'liq bo'lsa (Ramazon, Qurbon hayitlari va b.), ba'zilari insonning dunyoga kelishi va ketishi munosabati bilan o'tkaziluvchi marosimlar bilan bog'liqdir. Mehnat va maishiy jarayonlarni aks ettiruvchi marosimlar, Ollohga iltijo (munojot), falsafiy o'y-kechinmalar, diniy-ahloqiy pand-nasihatlar (hikmatlar, g'azallar), hadislar ham diniy janrlar tarkibiga kiritiladi.

Tasavvufda musiqa real hayotiy voqeliklarni tan olmaydi, musiqa albatta reallikdan yuqori turadi, deb hisoblangan.

Haqiqatga erishishga yordam beruvchi musiqani ham so'fiylar yoshlarga ishonib topshirmaganlar. Ular faqatgina yoshi ulug' ustoz shayxlargina musiqaning haqiqiy qadrini biladilar, deyishar edi. Haqiqatga erishish uchun musiqadan foydalanish faqatgina ustoz yordamida mumkin bo'lgan.

Tasavvuf musiqaning ijro etilish jarayoniga ham katta e'tibor bergan. Bu erda uchta shartga amal qilinishi lozim bo'lgan: bu vaqt, joy va birodarlardir. Faqat shundagina musiqa hissiy ma'noga, badiiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Musiqa muayyan "sozlanish"ni talab qiladi: joy, vaqt, birodarlar esa musiqiy "sozlanish" bilan hamohang bo'lishi kerak.

Musiqiy "sozlik" deganda odamning musiqani qabul qilishi uchun ruhan tayyorligi tushuniladi.

Joy, makon deyilganda, musiqa ijro etiladigan joy tushuniladi. U joy dilga xush yoqadigan bo'lishi kerak. Yovuz odamning uyi yoki g'amgin odamning uyi bunday ijrolar uchun mos kelmas edi.

Birodarlar deganda, musiqa ijrochisining oldida musiqani harom deb biluvchi odam o'tirishi, yoki fikrini jamlamasdan u yon, bu yonga qarab o'tiradigan odam, yosh insonlar bo'lishi imkonqadar man etilgan. Bulardan tashqari tasavvuf, musiqa ijrochisi va tinglovchidan ma'lum ruhiy tayyorgarlikdan tashqari, musiqa san'ati bilan oshno bo'lishini talab qilgan.

Ijrochilik mahorati muammosi so'fiylar tomonidan faqatgina Xudoga sig'inish bilan bog'liq bo'lmagan, ular bu muammoni badiiy-estetik muammo deb tafakkur etganlar.

Samo' (arabchadan – eshitmoq, tinglamoq) badiiy-ifodaviy ijrochilikka asoslanadi.

Mavjud yozma manbalarda samo'ning ta'riflari turlichadir. Jumladan, Bahouddin Hurrashohiyning "Sharhi Hofiznoma" asarida samo' quyidagicha ta'riflanadi: "Samo' – lug'aviy ma'nosi eshitish, uzluksiz tinglash. Tasavvuf istilohotida odob va so'fiyona ramzlardan iborat she'rlarni xush ovoz va musiqa bilan (raqs bilan yoki raqssiz) tinglashdir... Samo' ba'zi risolalarda do'stlik majlisidir, deyiladi. "Kashf ul-lug'at"da esa samo' – raqs tushmoq, deb berilgan"⁶⁹.

Zamonaviy tadqiqotlarda samo' tushunchasining paydo bo'lgan davri aniq belgilanmagan. "Harqalay u, Xalloyning lug'atiga kiritilgan, va demakki, Hijratning uchinchi asridayoq iste'molda bo'lgan"⁷⁰.

Mansur Xalloyning ta'rificha, samo' – bu Haqni ko'rish va uni tinglashdir⁷¹.

Samo' diniy-estetik marosim sifatida o'z ichiga badiiy ijrochilikning to'rtta qismini olgan:

1. Qur'on, hadislarning badiiy o'qilishi va ularning hissiy-ruhiy talqini;
2. Aytim;
3. Musiqiy (cholg'u) ijrochilik;

⁶⁹ Bahouddin Hurrashohiy. "Sharhi Hofiznoma", 1-jild, 557-b.

⁷⁰ Бертельс Е.Э. Суфизм ва суфийская литература. с.56

⁷¹ Dadajonova I. IX-X asrlar O'zbekiston xalqlari musiqa madaniyati. Qo'lyozma. San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№1005, T., 2004, 40-b.

4. Raqs.

Yuqorida keltirilgan to'rtta qism bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Samo' marosimi yarim tunda o'tkazilgan. Marosim o'tadigan joy keng, tinch va so'fiy bo'lmaganlarning ko'zidan yiroq bo'lishi kerak edi. Musiqa ijrochilaridan tovushlarning ifodaviyligi va kuylarning ilhomlantiruvchanligi talab etilgan.

Samo' vaqtida yangraydigan musiqa o'zining garmoniyasi, ichki ma'nosining boyligi bilan muridlarga ta'sir ko'rsatmog'i lozim edi.

Tasavvufning tarqalishi jarayonida ko'pgina iste'dodli xonandalar va sozandalar bu yo'lga kirgan edilar. Ular o'zlarining san'atlarini yuksak darajaga etkazib, yangi kuylar va yangi cholg'ular yaratdilar.

So'fiylik ta'limotida "vajd" deb nomlanuvchi holat mavjud. Vajd holatining shartlari tasavvuf nazariyotchilari tomonidan aniq belgilab berilgan.

Vajd holatida inson o'zligini unutishi, his etmasligi, ongini ishga solmasligi lozim. Aynan vajd holatida so'fiy baxtning eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Odam go'yoki, o'zligida Ollohni ko'radi.

Tasavvuf Ollohga erishish yo'lida inson barcha musiqiy cholg'ulardan foydalanishini talab qilgan: rubob, nay, doira (daf), g'ijjak, setor va hokazolardan. Murshidlar shunday deb muridlariga saboq berishgan.

X asrdan boshlab Markaziy Osiyoda tasavvuf g'oyalari ayniqsa keng tarqala boshladi. Tasavvuf asoschilari hisoblanmish Boyazid Bistomiy, Junayd al-Bag'dodiy, Mansur Halloj, Shahobiddin Suxravardiy kabi mutafakkirlarning ta'limotlari musiqiy-estetik mohiyat kasb etgan "samo" tushunchasiga katta e'tibor beradi. Musiqaning ilohiy ta'sir kuchi, uning yuksak estetik imkoniyatlari tasavvuf nazariyotchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilgan va musiqa san'ati ilohiy haqiqatga erishishning, Olloh bilan birlashishning yagona vositasi sifatida ta'riflangan. Shu bois X asrdan boshlab yozilgan tasavvuf risolalarining deyarli barchasida musiqaga, ya'ni "samo"ga bag'ishlangan fasl yoki boblar keltirilgan. Samo'ga oid

risolalarning eng qadimiysi Buxorolik tasavvuf ma'rifatchisi Abu Bakr bin Abu Ishaq al-Buxoriy al-Kalobodiyning (vafoti 994 y.) "Kitab ut-taarruf" asaridagi "Qavluhum fis-samo'" bobi sanaladi.

Buxoriy-Kalobodiy o'z asarining "samo'" bo'limida Qur'on, Hadis va boshqa diniy manbalarga asoslanib, musiqaning halol va harom jihatlari xususida rivoyatlar keltiradi. Kalobodiy birinchi bo'lib, musiqiy-estetik "vajd" tushunchasini falsafiy jihatdan asoslab beradi; uning ma'rifat va ilohiy muhabbat jarayonida tutgan yuksak vazifasini e'tirof qiladi.

Ixvanus-safo va xullan-ul vafo

(Soflik birodarlari va vafo do'stlari)

X asrda xalifalikning siyosiy va madaniy markazlarida turli diniy oqimlar va ilmiy doiralar orasidagi g'oyaviy ziddiyatlar nihoyatda keskinlashib, ushbu kurash natijasida ruhoniylar sinfi rasmiy davlat maqomiga erishadilar. Oqibatda ratsionalistik yo'nalishga mansub ko'pgina olimlar o'zlarining ilmiy faoliyatini maxfiy ravishda davom ettiradilar. "Soflik birodarlari" deya nom olgan yashirin ilmiy tashkilot xalifalikning turli shaharlarida istiqomat qiluvchi 50 dan ortiq ilm fidoyilarini o'zida birlashtirgan. Ular o'zlarining asarlarini bir-birlariga xat orqali yashirin tarzda etkazishgan. Ushbu maktublar keyinchalik jamlanib, juda katta hajmdagi yaxlit qomus shakliga keltirilgan. «Majmu' ar-rasaid» (Maktublar to'plami) deb nom olgan mazkur qomusiing 5-risolasi "Fil musiqa" (Musiqa haqida) deb ataladi. Qisqacha muqaddima bo'limida musiqaning kelib chiqishi, tovushlarning turlari, hayvoniy va g'ayrihayvoniy musiqaning estetik mohiyati masalalari muhohasa etiladi.

Musiqa san'atining muhim xususiyatlari haqida mushohada yuritar ekan, "Soflik birodarlari" musiqa xuddi bizni qurshab turgan olam kabi materiyadan iborat, deb hisoblaganlar: faqat u mutlaqo o'zgacha toifadagi musiqiy materiyadir, chunki, butkul ma'naviy substantsiyadan tarkib topgan. Ular Tovush va tonlardan iborat

musiqa o'zining aynan ma'naviy substantsiyasi sabab, insonlarning qalbiga ta'sir etishga qodir, deb bilganlar.

"Soflik birodarlari"ning g'oyalari qadimgi yunon musiqiy estetikasini tasavvufning Samo' ta'limoti bilan bog'lab turuvchi muhim xalqa hisoblanadi (Javhar ar-Ruhoniy tushunchasi). Shuningdek, "Soflik birodarlari" qadimgi yunonning "Falaklar uyg'unligi" nazariyasini yanada takomillashtirib, osmon jismlarining 4 falagi, Ud sozining 4 tori, insonning 4 mijozi, va tabiatning 4 elementi (havo, suv, olov, tuproq) orasidagi o'zaro mutanosiblik mavjudligini ilk bor e'tirof etishgan. "Soflik birodarlari" shuningdek, yunon musiqiy estetikasi va tasavvuf falsafasini o'zaro muvofiqlashtirishga intilishgan. Falsafa fanlari nomzodi, dotsent T.S.Rasulova ta'kidlaganidek, "Yunon, xususan, pifagorcha musiqiy estetikaning "Soflik birodarlari"ga ta'siri, ularning musiqa san'atini xuddi pifagorchilar kabi o'rganganlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, "Soflik birodarlari" va Sharqning ilk o'rta asrlarda yashagan boshqa mutafakkirlari musiqa san'atini sanoq nisbatlari bilan bog'laganlar. Bu sanoq nisbatlar ko'proq Koinotda yorqin namoyon bo'lgan ekan, u holda tabiiyki, ular Koinotni universal uyg'unlik (garmoniya), ya'ni butun Borliqqa tarqalgan uyg'unlik sifatida o'rgandilar, uning birmuncha yorqin ifodasi esa "Doiralar Uyg'unligi" bo'ldi"⁷².

Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur tashkilot vakillari o'zlarining "Maktub"larida butun bobni garmoniya (uyg'unlik)ni o'rganishga bag'ishlaganlar. Ular yuqori va past tovushlarning mavjudligi, agar yuqori va past tovushlar o'rtasida garmonik (uyg'un) munosabatlar bo'lsa, ular muayyan garmonik (uyg'un) yaxlitlikka birlashib, o'zlarining mutanosibliigi va muvofiqligi bilan tinglovchilarga haqiqiy huzur bag'ishlaydi, deya ishonch bilan ta'kidlaydilar.

⁷² Rasulova T.S. Falsafa (Etika, Estetika, Mantiq). Antik davr va o'rta asrlar faylasuflarining musiqiy-estetik qarashlari. Qo'lyozma. T., 2018, 78-b.

Ammo, agar yuqori va past tovushlar o'rtasida garmonik (uyg'un) munosabat bo'lmasa, u holda, ular muayyan yagona jarangga birlashmaydi, va o'zaro nomutanosiblikda, hatto, bir-biriga mutlaqo begona bo'lib qolaveradi. "Soflik birodarlari"ning fikricha, bunday ohangdoshliklar tinglovchilarga qandaydir lazzat bag'ishlashga qodir emas, ular inson qalbi va qulog'iga yoqimsiz bo'lib, noxushlik va nafrat uyg'otadi.

"Soflik birodarlari" shu bobning o'zida ta'kidlaydilarki, yuqori tovushlar qaynoq bo'lsa, past tovushlar esa sovuq bo'ladi. Momoqaldiroqqa o'xshash tovushlarni yunonlar dushmanlarga qarshi urushda, ularni vahimaga solish uchun qo'llaganlar, bunday tovushlar inson qulog'i uchun shu qadar kutilmagan bo'ladiki, uni hatto o'lim holatigacha olib boradi.

"Soflik birodarlari"ning fikriga ko'ra, musiqa san'atini ixtiro qilgan donishmandlar o'zlarining buyuk donishmandliklari sabab, keyinchalik oddiy insonlarni ham bunga o'rgatganlar, va shu tariqa musiqa san'ati butun er kurrasi bo'ylab tarqalgan.

Pifagor maktabi g'oyalarini qabul qilgan "Soflik birodarlari" va Sharqning boshqa mutafakkirlari, musiqa san'ati Koinot tizimining muhim ichki asosi va ichki mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblaganlari ajablanarli emas. O'z nuqtai nazarini asoslagan holda, ular musiqiy intervallar samoviy jismlar o'rtasidagi masofalarga o'xshaydi, deya uqdirganlar. Shuningdek, tashkilot a'zolari "diniy ibodat amaliyoti doirasida qoidaga ko'ra, insonlarning yuragiga tegib, qilgan gunohlariga afsuslanishga undovchi "g'amli" kuylardan foydalanilgani, qolaversa, urushda, dafn va to'y marosimlarida, og'ir jismoniy ishlarda, va hayvonlarga qarovchi cho'ponlar, xachir boquvchilar tomonidan kuylangan musiqa xususida ham batafsil hikoya qiladilar. Ular hatto ayollar tomonidan qo'llaniladigan

chaqaloqni allalash, uxlatishga mo'ljallangan alohida musiqiy kuylarni ajratib ko'rsatadilar"⁷³.

Ilk o'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlarining san'at turi bo'lgan musiqaning kelib chiqishi xususidagi tasavvurlari ham qiziqarlidir. Demak, agar antik davrga mansub yunon faylasuflari, musiqaning kelib chiqishi Ilohiydir, degan fikrda bo'lsalar, Sharq mutafakkirlari esa musiqa san'atining kelib chiqishida hech qanday Ilohiylik yo'q, u konkret shaxslar faoliyati bilan bog'liq, deb hisoblaganlar.

Tayanch so'zlar: Islom, ta'limot, tasavvuf, musiqa, samo', zikr, Yassaviy, qiroat.

Nazorat savollari:

1. Manbalardan olgan ma'lumotlaringizga asoslanib, "Islom va musiqa" muammosini yoritishga harakat qiling.
2. "Tasavvuf" nima? Uning musiqaga qanday aloqasi bor?
3. "Samo'" nima? Uning musiqaga aloqasini so'zlab bering.
4. So'fiylarning musiqiy maqomotga murojaati xususida gapiring.
5. Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosiy mavzusi?
6. Zikrning qanday turlarini bilasiz?
7. Islom dinining ichki oqimlaridan qaysi biri san'at bilan bog'liq?
8. "Ixvanus safo va hullanul vafo" nomli yashirin tashkilot faoliyati xususida so'zlab bering.
9. Bu tashkilotning maqsad va vazifalari qanday edi?
10. "Soflik birodarlari..." tashkiloti nima uchun yashirin faoliyat olib borgan?

⁷³ Rasulova T.S. Falsafa (Etika, Estetika, Mantiq). Antik davr va o'rta asrlar faylasuflarining musiqiy-estetik qarashlari. Qo'lyozma. T., 2018, 81-b.

Ajam – is a word used in Persian and Arabic literature, but with different meanings.	Ajam – arablardan tashqari xalqlar, shu xalqlarning musiqa asarlari; mashhur maqom uslubidagi cholg‘u yo‘llari.
Adab – in the context of behavior, refers to prescribed Islamic etiquette: “refinement, good manners, morals, decorum, humaneness”.	Adab – odob, axloqiy me‘yorlar, san’atkorlarning yurish-turish qoidalari.
Improvisation – something that is improvised, in particular a piece of music, drama, etc. created spontaneously or without preparation.	Badiha – birdaniga ijro jarayonida ijod etish; eksprompt, improvizatsiya.
Mutrib – secular musicians, singers of happiness.	Mutrib – dunyoviy sozandalar, shodlik kuychilari.
Singer – a person who sings, especially professionally and as a job.	Mug‘anniy - qo‘shiqchi.
Master – a person who has a perfection degree of proficiency in teaching and knowledge.	Ustoz – bilim va mahoratda etuklik timsoli.

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. VII-VIII asrlarga oid musiqiy cholg‘ular haqida prezaentatsiya tayyorlash.
2. “Diniy navolar” mavzuida referat tayyorlash.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston tarixi. T., 1997.
2. Джумаев А. Ислам и музыка //Музыкальная академия. М., 1992, №3.
3. Музыкальная эстетика стран Востока. М., 1967.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T., 1970.
5. Бертельс Э.Э. Суфизм и суфийская литература. М., 1965.
6. Джумаев А. Туркестанский старец Ходжа Ахмад Яссави и мусульманские духовные песнопения //Музыкальная академия. М., 1997, №1.

Somoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (IX-X asrlar)

Mavzu rejasi

1. Davr haqida tarixiy ma'lumotlar.
2. Somoniylar davri madaniy hayoti.
3. Somoniylar davri adabiyoti haqida.
4. Somoniylar davrida musiqa madaniyatining rivoji.



Somoniylar davlati xaritasi

Tarixiy ma'lumotlar. 873-yili Tohiriylar sulolasining qulashi Movarounnahrda Somoniylar sulolasi taxtni egallashlariga qulay sharoit yaratib berdi. 864/865-yili Ahmad ibn Asad vafotidan so'ng, uning o'rnini o'g'li Nasr egalladi.

Sulolaning nomi sarkarda Samanxudot bilan bog'liq bo'lib, u asli Balxlik edi. Samanxudot o'zining sulolasida birinchilardan bo'lib Islom dinini qabul qilgan, uning to'rtta nabirasi Nuh, Ahmad, Yax'yo, Ilyos Xurosondagi abbosiy xalifa al-Ma'munga hizmat qilganlar. Keyinchalik ularga Samarqand, Farg'ona, Shosh va Hirotda hokimlik qilish topshirilgan.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning ko'pgina qismi Somoniylar qaramog'iga o'tdi va natijada Somoniylar davlati qaror topdi. Mazkur davlatning birinchi hukmdori Nasr ibn Ahmad edi (864-892 yillar).

886-887 yillarda Nasr ibn Ahmad kumush dirxamlar chiqara boshladi, bu – mustaqil yangi davlat ramzi edi.

Nasr ibn Ahmadning ukasi bo'lmish Ismoil ibn Ahmad Samarqandni boshqarar edi. U sekin-asta Nasrga bo'ysunishdan bosh torta boshladi. Aka-ukalar o'rtasida nizo chiqdi va 888-yili jang bo'lib o'tdi. Nasr ibn Ahmadning harbiylari tor-mor qilindi va Movarounnahr Ismoilning qo'lga o'tdi. Nasr ibn Ahmad umrining so'ngi to'rt yilini Samarqandda o'tkazdi.


893-yili Ismoil ko'chmanchilarga qarshi kurashga otlandi, Torozni ishg'ol qildi va 10 ming askarli turk xonini qo'lga oldi.

900-yili xalif Ismoilning hukmronligini susaytirish maqsadida uni Xuroson hukmdori bilan to'qnashtirdi, ammo bu to'qnashuvda ham Ismoil yutib chiqdi. Bundan so'ng Somoniylar davlati yanada kuchaydi. Ismoil SHarqiy eron erlari hisobidan o'z hududini yanada kengaytirdi. Shunday tarzda IX asr so'ngida yirik feodal davlati paydo bo'ldi. Uning poytaxti Buxoro edi. Bu davlatni X asrning oxirigacha Somoniylar sulolasi boshqardi.

Somoniylar davlatida markazlashgan boshqaruv tizimi Ismoil Somoniy nomi bilan bog'liq. V.V.Bartoldning yozishicha, "Sharqiy musulmonlar siyosiy boshqaruv tizimida ikkiga bo'linish kuzatiladi. Bular dargoh (saroy) va devon (kanselyariya)"⁷⁴.

X asrda harbiy sarkardalar yirik yer egalariga aylana boshlaganlaridan so'ng, Somoniylar sulolasining tayanchi bo'lmay qoldilar. Shu va shunga o'xshash shart-sharoitlar sekin-asta Somoniylar davlatining siyosiy kuchini susayib borishiga sabab bo'ldi⁷⁵.

Somoniylar davri madaniy hayoti. Arablar bosqinchiligi O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Bosqinchilikning dastlabki pallasida eski dinlarga qarshi kurash olib borildi, islom dini targ'ibot qilindi. Ilm va madaniyat yodgorliklari yo'q qilindi. IX asr rivojlanish jarayonlari natijasi o'laroq Sharq madaniyati va san'atida yangicha yo'nalishlar, uslublar paydo bo'lishi kuzatiladi. "IX-X asrlarni Xuroson va Movarounnahrda islom san'ati va arxitekturasining dastlabki namunalari paydo bo'lgan davr deb hisoblash mumkin"⁷⁶, deb yozadi san'atshunos olim A.Xakimov. IX-X arslarda pishgan g'ishtlardan qurilgan imoratlar bizning davrimizgacha saqlanib qolganligini aytish joiz. Bular, Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, Sho'rchidagi Oq Ostona maqbarasi, Arab ota maqbarasi va boshqalar.



Buxorodagi Somoniylar maqbarasining hozirgi kundagi ko'rinishi

Qurilish san'atining rivojlanishi keng quloq yozib, me'morchilik san'atida bezash (dekor) yuqori pog'onalarga ko'tarila boshladi. Xom g'ishtdan pishgan g'ishtga o'tilishi, turli arkalar, gumbazlarning g'ishtini terishda chinakam mohirona iste'dod talab etildi. G'ishtni shaklga solib terish san'at darajasiga ko'tarildi. Chunki bunday terish texnikasi ustadan matematika, geometriya kabi bilimlarni talab qilardi. Bundan tashqari, ustaning didi, malakasi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

IX-X asrlar me'morchilik bezagida ikkita asosiy yo'nalish shakllandi. Birinchisini "umumxalifalik", ikkinchisini esa mahalliy uslublar asosida shakllangan deyish mumkin. O'rta Osiyoda monumental tasviriy san'at yo'nalishi me'morchilik paydo bo'lgan davrlardan shakllana boshlagan. Imoratlarning devorlari turli tasvirlar bilan bezatilgan. O'rta Osiyoda tasviriy san'at mavzuiy yoki naqshinkor (ornamental) turlarga ajratilgan. Somoniylar davrida

⁷⁴ http://otherreferats.allbest.ru/history/00216943_0.html

⁷⁵ История народов Узбекистана. Том I. – Т.: "Фан", 1992, s. 99.

⁷⁶ Хакимов А. "Искусство Узбекистана: история и современность" – Т.: "Санъат", 2010, с. 75.

saroylar va jamoat imoratlari ma'lum mavzuni ochib beruvchi (mavzuiy) devoriy suratlar bilan bezatilgan⁷⁷.

VIII asrning so'ngi IX asrning boshlarida kulolchilik (sirlangan soppol idish-tovoqlar) sohasining dastlabki namunalari paydo bo'ladi. Bu san'at turining keng rivojlanishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivoji bilan bog'liq.⁷⁸ Sopol anjomlar hunarmand ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan, ularning ustaxonalri katta mavzela tashkil qilardi⁷⁹.

Sopol idishlarning shakllari ko'paydi, o'ziga xos qirralari paydo bo'ldi, naqsh bezaklari boyitildi. O'zrta Osiyo badiiy kulolchiligida bir nechta etakchi yo'nalishlar paydo bo'lib, ularning asosiy markazlari Marv, Niso, Samarqand, Quva, Shosh kabi shaharlarda jamlandi. Bu davrning badiiy kulolchiligi o'rta asrlar rivojlangan jamiyatining talablariga javob berardi.

Har bir davr madaniyati tarixiy, memuar xarakteridagi asarlar, tazkira, risolalar yordamida o'rganiladi. Somoniylar davrini o'rganilishida ham o'sha davrda yashab ijod qilgan allomalar, olimlar, shoirlar asarlarining ahamiyati katta.

Aynan shu davrda O'rta Osiyo hududida ilm nafaqat xalifalik doirasida, balki umumjahon miqyosida keng rivoj topdi. X asrga kelib, O'rta Osiyo shaharlari etakchi madaniyat markazlariga aylanib, matematika, atronomiya va tibbiyot sohalarida yaxshi natijalarga erishildi.⁸⁰ Bu davrlarda yashagan ilm egalari o'ziga xos qomusiy olim bo'lib, o'sha davrlarda rivojlangan deyarli barcha ilmlardan bohobar bo'lganlar. Bunday olimlarni hakim deb atashgan.

Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Beruniy kabilarning asarlari X-XI asrlarda ilm nihoyatda yuqori darajada rivojlanganligining isbotidir. **Adabiyot.** Sharqda she'riyat qadimdan musiqa bilan

⁷⁷ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. "Очерки искусства Средней Азии". – М.: 1982, с. 145.

⁷⁸ Алиева С. "Художественная поливная керамика Узбекистана IX в. - начало XXI в." – Т.: "Санъат", 2009, с. 5.

⁷⁹ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. "Очерки искусства Средней Азии". – М.: 1982, с. 192.


⁸⁰ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960, с. 110.

bog'liklikda rivoj topgan. Islom dini qabul qilinganidan so'ng, ko'plab kitoblar arab tilida yozila boshlandi.

Buxoroda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy kabi shoirlar yashaganlar. **Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (858-941)** – shoir va olim, uni "fors-tojik she'riyatining otasi" deb ulug'laydilar.

Rudakiy 858-yili Panjikentning Panjrud qishlog'ida tavallud topgan (hozirgi Tojikiston hududi). Uning hayotiy yo'li haqida ma'lumotlar kam. Hayotining erta pallasi haqida "Lubob al-albob" asarida ma'lumotlar keltiriladi, sakkiz yoshida Rudakiy Qur'onni yod bilgan ekan.

Deyarli barcha manbalarda ma'lumot berilishicha, Rudakiy 913-943 yillarda hukmdorlik qilgan Nasr ibn Ahmad zamondoshi bo'lgan.



Rudakiy

Rudakiy dostonlar, qasidalar, g'azallar, ruboiylar muallifidir. Bizning davrimizgacha uning ijodiy merosidan 2000 misra etib kelgan⁸¹. Yoshlik davridanoq iste'dodi va yoqimli ovozi bilan nom chiqarib, "Chang cholg'uchisi (arfasimon cholg'u) ham bo'lgan va

⁸¹ History of civilizations of Central Asia. Volume IV. UNESCO 1998, Page 98.

shu jihatlari o'z zamonida mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan.⁸² Boshqa manbalarda Rudakiy rud cholg'usining ijrochisi bo'lganligi uchun, shunday taxallus olgan deyiladi⁸³. Saroyda Rudakiy musiqachi, hofiz va shoir bo'lib, etishib kelayotgan iste'dodli yosh avlod tarbiyasi bilan ham shug'ullangan.

Rudakiyning ijodida asosiy o'rin qasida janriga ajratilgan bo'lib, mazkur janr ham adabiyot, ham musiqa bilan bog'liq edi. Qasida quyidagi qismlardan iborat bo'lgan: birinchisi "nasib" (kirish qismi), vasf (tabiat va borliqni vasf etish) va faxr (shoir yoki boshqa biror kimsani olqishlash).

Ko'rib chiqilayotgan davrning yirik namoyandalaridan biri – **Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad Daqiqiy** edi (997-yili vafot etgan). SHoirning tug'ilgan eri haligacha aniqlanmagan. O'sha davrlarda hukmron shaxslar orasida qadimiy afsonalarni to'plash va o'rganish urf bo'lgan edi. Somoniylar ham qahramonlik mavzularidagi afsonalarni arab va paxlaviy tilida bitilgan manbalardan yig'ishga alohida e'tibor qaratdilar. Aynan shunday jarayon o'z davrida Abu Mansurning "SHohnoma" asarini yozishni boshlashiga turtki bo'lgan edi.

Daqiqiy yozgan "Shohnoma"ning ming bayti bizning davrimizgacha etib kelgan. Firdavsiy Daqiqiy yozib qoldirgan baytlarni o'z poemasiqa qo'shgan⁸⁴.

X-XI asrlar she'riyati qanchalik yuksak bo'lmasin, Firdavsiyning "Shohnoma"si bilan solishtirilganda, "Shohnoma" qanchalar darajada buyuk ekanligiga shubha qolmaydi.


"Firdavsiy"ning hayoti haqida ma'lumotlar kam", deb yozadi E.E.Bertels⁸⁵. Firdavsiy Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog'ida tug'ilgan (932-936 yillar oralig'ida).

⁸² Histori of civilizations of Central Asia. Volume IV. UNESCO 1998, Page 98

⁸³ История народов Узбекистана. Том I. – Т.: "Фан", 1992, с.101

⁸⁴ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960, с. 165.

"Shohnoma"da Firdavsiy ushbu asarini 35 yil davomida yozganligiga ishora qiladi. Firdavsiy bolalik davridan Qadimiy eron shohlari va qahramonlari haqidagi afsonlar va hikoyalarni bilar edi. "Shohnoma" yaratilishida muallif eroniy epik hikoyalardan foydalandi, jumladan xalq og'zaki ijodi namunalari ko'rinishida tarqalgan xalq afsonalarini qayta ishladi (she'riy shaklga soldi).



Firdavsiy

Shartli ravishda poemani uch qismga ajratish mumkin: afsonaviy (Qadimiy eron afsonalarining qayta ishlanishi); bahodirlik (bahodirlarning hayoti va ko'rsatgan qahramonliklari haqida); tarixiy (Sosoniylar sulolasi shohlari haqida).

⁸⁵ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960, с. 176.

“Shohnoma” asarida “musiqiy” lavhalar ham uchraydi. SHu sababli bu asarga murojaat qilinishi o‘rinlidir. Masalan, erta o‘rta asrlarda yashab, ijod qilgan mashhur bastakor, hofiz Borbad, qadimiy davr bayramlari, o‘sha davrlarda mavjud bo‘lgan musiqiy cholg‘ulari haqida ma’lumotlar keltirilib, bunday holat, albatta, o‘sha davr musiqiy hayotiga yanada oydinlik kiritilishiga yordam beradi.

Ushbu asarda musiqiy cholg‘ular funktsional vazifalariga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi: “kamer” toifadagi cholg‘ular, ya’ni yopiq xonada yoki bog‘da ishlatiluvchi va tantanavor chiqishlar, harbiy yurishlar jarayonida chalinadigan cholg‘ular. Birinchi guruhga arfa, lyutnya, fleyta (chang, ud, nay); ikkinchi guruhga esa truba, litavr, baraban, gong (karnay, nog‘ora, bong) kabilar kiritilgan⁸⁶.

Musiqqa. Somoniylar davridagi madaniyat rivoji albatta musiqa sohasida ham yorqin ko‘rindi. Masalan, Abu Bakr Narshaxiyning (959-yili vafot etgan) – “Tarixi Buxoro” deb nomlangan kitobida o‘sha davr musiqa san‘atiga doir ma’lumotlar keltiriladi. Arab tarixchilarining asarlarida yozilishicha, somoniylar saroyida ham ayol, ham erkak musiqachilar ijod qilganlar, ularning ayrimlari esa ijodiy maktablar ham yaratgan ekanlar.

Bu davr musiqa madaniyati rivojlanishida xalifa, amirlarning xizmatlari katta bo‘lgan. Ular o‘z atroflariga mashhur shoirlari, qo‘shiqchilar va cholg‘uchilarni jalb etib, ularga homiylik qilardilar. Davrning o‘ziga xos qirralaridan biri majlislar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday yig‘ilishlarda ilm ahli hamda ijodkor shaxslar jamlanib, ilm, adabiyot, musiqa sohasidagi yangiliklar muhokama qilardilar.



“Shohnoma”ga ishlangan miniatyura. XVI asr

⁸⁶ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М.: “Музыка”, 1980, с. 96.



“Shohnoma”ga ishlangan miniatyura. XV asr

Bunday majlislarining tashabusskorlari va ishtirokchilari hukmdorlarning o‘zlari bo‘lib, ularning ayrimlari kasbiy musiqachi sifatida tanilgan edi. SHunday hukmdorlardan biri Bahdod halifasi al-Vosiq (842-847) ud cholg‘usining mohir ijrochisi, halifa Ibrohim ibn al-Mahdi (817-818) esa arab qo‘shiqchiligi yo‘nalishlaridan birining asoschisi sifatida nom chiqargan edi.

Musiqaning amaliy yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan ko‘rsatmalar asosan ustozdan shogirdga o‘tgan bo‘lsada, yozma manbalar bo‘lmish amaliyot bo‘yicha qo‘llanmalar, qo‘shiqlar to‘plamlarida va ilmiy risolalarda muhrlanib qolgan.

IX-X asrlar saroy hofizlari sosoniylar davri musiqa an‘analarini davom ettirdilar. Ular asosan oldidan mavjud bo‘lgan cholg‘ulardan foydalandilar, qadimiy lادلarga tayanib, mavjud janrlarda ijod qildilar.

Ana shunday ko‘rinishdagi musiqa madaniyati Forobiyning “Katta musiqa kitobi”da o‘z aksini topgan.

Musiqa nazariyasi O‘rta Osiyoning buyuk olimlari Forobiy (870-950), Ibn Sino (980-1037), al-Xorazmiy (X asr) kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Keyingi asrlarda musiqa nazariyotchilari ularning olib borgan ishlariga tayangan holda ish olib borganlar.

Beruniyning “Osor-ul-boqiya”, “Hindiston” deb nomlangan asarlarida musiqaga oid qiziqarli ma‘lumotlar uchraydi⁸⁷.

Qomusiy asarlarda musiqa masalalari matematika bilan bog‘liq bo‘limlarda yoritilar edi. Fikrni matematik shakllarda bayon etish musiqani tushunishda muhim vosita hisoblangan. Chunki, musiqiy intervallarning aniqlanishi sonlar bilan bog‘liqdir. IX-X asrlarda yaratilgan risolalarga xos bo‘lgan mazkur an‘ana, keyingi davrlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Risolalarning tuzilishida ham o‘xshashlik qirralari kuzatiladi. Kirish qismida muallif o‘rganilayotgan predmet haqida fikrlarini bildiradi, so‘ngra musiqaning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq afsonalar keltiriladi, risolaning asosiy bo‘limida musiqiy tovushning tabiati, interval va tovushqator hosil qiluvchi tovushlarning o‘zaro munosabatlari va ketma-ketligi, tovushlardan kuy hosil qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Ritm (usul) ilmiga risolalarning katta bo‘limi ajratilgan. Jumladan, musiqa cholg‘ulari haqidagi ma‘lumotlar ham risolalarda ahamiyatli o‘rin kasb etgan edi.

Ko‘rib chiqilayotgan davrning etuk san‘atkorlari qatorida shoir va musiqachi Abu Nafs Sug‘diy – shohrud va musiqor cholg‘ularini yaratgan ekan. Shoir va bastakor Abu Solih (IX asr), Abu Tayyib Tohir al-Xurosoniy maqomlardan biri bo‘lmish “Husravon” ijrochisi, Lukari Changzan – taniqli chang ijrochisi, musiqashunos Abul Abbas Bahtiyor, nay va tanbur ijrochisi Alibegiy, yorqin ayol hofizalardan Sitt Zarin kabilarni ham nomlarini keltirish joiz. Jumladan, aynan shu davrda musiqa nazariyasining asoslari ishlab chiqilgan⁸⁸.

⁸⁷ История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М.: “Музыка, 1995, с. 28.

⁸⁸ History of civilizations of Central Asia. Volume IV. UNESCO 1998. Page 100.

Hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ikki toifadagi musiqachilar guruhlarini shakllandi. Bir guruh majlislar, bazmujamshidlarda ishtirok etsalar, ikkinchi guruh musiqachilari harbiy funksiyalar bilan bogʻliq boʻlib, ular ochiq havodagi ijro uchun moʻljallangan karnay, surnay, nogʻora ijrochilari edilar. Musiqachiga nisbatan “mutrib”, “musiqor”, “xuniyogar”, cholgʻu ijrochilariga esa “navozanda”, “sozanda” atamalarini qoʻllanilgan.

Bu davr musiqa sohasining eng yorqin namoyandalaridan biri Forobiy IX asrning ikkinchi yarmida Sirdaryoning Forob shaharchasida tavallud topdi. Uning toʻliq ismi **Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslugʻ ibn Tarxon al-Forobiy** (873, Forob shahri – 950, Damashq) edi. U Oʻrta Osiyoning ulugʻ mutafakkiri va qomusiy olimi.



Forobiy

Forobiy Sirdaryo sohilidagi Forob degan joyda tavallud topgan. Uning yoshligi oʻz vatanida oʻtgani va yigitlik chogʻlarida Toshkent, Buxoro va Samarqandda boʻlgani, bu erlarda tahsil koʻrgani maʼlum. Keyinchalik Forobiy oʻz bilimini oshirish maqsadida xalifalikning madaniy markazi Bagʻdodga qarab yoʻl olgan. U eronning Isfaxon,

Hamadon, Ray shaharlarida ham boʻlgan. Taxminan 940 yildan u Damashqda yashagan. Forobiy umrining keyingi yillari esa Xalab shahrida oʻtadi. 949-950 yillarda Misrda, soʻngra Damashq shaharlarida yashab, shu erda vafot etgan va “Bob as-sagʻir» qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Bertelsning yozishicha, u musiqa nazariyasi yoʻnalishida bir qator asarlar yaratgan boʻlib, bastakor sifatida ham nom chiqargan edi, maʼlumotlarga koʻra, oʻsha davr uchun yangi boʻlgan argʻanun deb nomlangan cholgʻusini ham yaratgan ekan⁸⁹. I. Rajabov “baʼzi manbalarda koʻrsatilishicha, Forobiy qonun cholgʻusini ixtiro etgan, oʻsha davrlarda mashhur boʻlgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan” deb yozadi⁹⁰.

Oʻrta asrlar manbalarida yozilishicha, Forobiy turli musiqa cholgʻularini chala olgan va hofizlik yoʻnalishida ham oʻz oʻmi boʻlgan. U yaratgan musiqiy asarlar oʻz zamondoshlari orasida mashhur boʻlgan. Umrining soʻngi yillari (940-950) u Sayfuddavla Xamadoniy saroyida hizmat qilgan. Forobiyning musiqiy isteʼdodi va ijrochilik mahorati borasida afsonalar ham paydo boʻlgan edi.

Forobiyning ilmiy merosi juda katta. U oʻz davrida rivojlangan barcha ilmlarni oʻrgangan: etika, siyosat, psixologiya, tabiatshunoslik, musiqa. Ammo u uchun birinchi oʻrinda falsafa turar edi. U Arastuning asarlariga izohlar yozgani uchun “ikkinchi muallim” taxallusiga ega boʻldi. Forobiyning faoliyati faqatgina izohlar bilan chegaralanmaydi. U koʻp sonli original asarlar muallifi hamdir. Forobiy matematika va tibbiyot ilmining bilimdoni boʻlgan, ammo tabib sifatida faoliyat yuritmagan.

Forobiy oʻrta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, evklid, Ptolemey,

⁸⁹ Bertels E.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960, с. 113.

⁹⁰ Rajabov I. Maqomlar. – T.: 2006. 15-b.

Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Aristotel' asarlari ("Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va b.)ni izohlab, murakkab joylarini tushuntira olgan, kamchiliklarini ko'rsata olgan va bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar ham yaratgan edi.

Olim san'atning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beruvchi, uning kelib chiqishi va mazmunini tahlil etuvchi ko'plab maxsus asarlar ham yaratdi. Uning estetika haqidagi ta'limoti alohida tezislar yoki san'at muammolari haqidagi alohida fikrlar ko'rinishida emas, balki fundamental asosga ega bo'lgan ilm sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi muallimning estetikaga bag'ishlangan maxsus asarlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: "She'riyat san'ati qonuniyatlari haqida risola", "She'riyat (san'at) haqida", "Ritorika", "Musiqqa haqida katta kitob", "Baxt-saodatga erishish haqida" va boshqalar.

Forobiyning estetik qarashlari shakllanishida qadimgi yunon faylasuflaridan Geraklit, Demokrit, Aristotel g'oyalarining ta'siri ham bo'lganligi qayd qilinadi manbalarda⁹¹.

Forobiyning musiqiy ijodiyoti uchta asosiy manbaga tayanadi:

1. Sharq xalqlarining qadimiy va boy musiqqa amaliyoti an'analariga tayanish.

2. Mahalliy musiqiy an'analar bilan bog'liq bo'lgan qadimiy ilmiy tasavvurlar va empirik bilimlar tizimiga tayanish.

3. Antik davr musiqqa ilmi natijalariga tayanish.

O'rta asrlarda yozilgan ko'plab musiqiy risolalarning shaklu-shamoyilida ma'lum o'xshashliklarni ko'rish mumkin. Bu hol ko'plab zamondosh musiqashunos olimlar nigohidan chetda qolmagan. Jumladan, san'atshunoslik fanlari doktori T.S.Vizgo o'zining "Maqomlarni o'rganish masalasiga doir" ("K voprosu ob izuchenii maKomov") nomli maqolasida o'rta asrlarda yozilgan musiqqa

⁹¹ Аль Фараби Трактаты о музыке и поэзии. – Алматы, 1993, с.15.

risolalarining yaratilishida nazira⁹² an'anasining kuchi borligi haqida asosli fikr-mulohaza bildirgan edi⁹³. Darhaqiqat, o'tmishga oid musiqqa risolalari tarixiy davr nuqtai nazaridan avvalroq yozilgan risola (yoki risolalar) asosida ma'lum o'zgarishlar bilan yaratilganligi ayon bo'ladi. Bunda risola muallifi ustoz-salafarga ergashgan holda ish tutganligining guvohi bo'lamiz.

Abu Nasr Forobiyning ilmiy faoliyati ham bunga yorqin misol bo'lishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, SHarq musiqqa ilmining qaror topishida qadimgi dunyo (yunon) musiqqa nazariyasi muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda yunonlarning musiqqa ilmini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki uning nazariy asoslarini Sharq musulmon estetikasiga muvofiq o'zlashtirilishi davr taqozosi edi. Bu jarayon dastlab Abu Nasr Forobiy ilmiy faoliyatida samarali amalga oshdi, zero alloma qadimgi yunonlarning ilmiy asarlariga ijodiy tayangan holda Sharq musiqqa nazariyasini yaratishga muvaffaq bo'lgan edi. O'z navbatida Forobiy erishgan ulkan ilmiy yutuqlar keyingi davr olimlar avlodi uchun munosib namuna bo'ldi. Bu haqda I.R.Rajabov shunday yozadi: "Abu Nasr Forobiyning musiqqa risolalari va kitoblari bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhuridan bo'lib, o'zidan so'nggi davrlarda yashab ijod etgan uning izdoshlari – musiqqa olimlari kitoblarining yozilishida asos bo'lib xizmat qildi. Uning shunday izdoshlaridan biri Abu Ali ibn Sino edi". Shuningdek, Urmaviy va Sheroziyalar ham Forobiy musiqqa nazariyasiga ilmiy izdosh bo'ldilar. SHu bilan birga har bir olim o'zi kashf etgan yangiliklar asosida musiqqa ilmini yangi ma'lumot va ma'nolar bilan to'ldirib borgan. Shu tariqa ilmi musiqiy rivojiga ulush qo'shilgan, musiqqa ijodkorligi uchun esa muhim zamin hozirlangan edi.

⁹² Arabcha "nazira" so'zi aynan "o'xshash", shuningdek, "ergashishi, taqlid qilishga munosib yuksak namuna va unga o'xshatma" kabi ma'nolarni anglatadi.

⁹³ Вызго Т. К вопросу об изучении макамов // История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана – М.: 1972, с. 396.

Forobiyning musiqiy qarashlari maxsus risolalar va boshqa ilmlarga

bag'ishlangan kitoblarning alohida boblarida yoritilgan. "Uning musiqa asarlari "Kitabul musiqiy al-kabir" ("Musiqqa haqida katta kitob"), "Qalam fil-musiqqa" ("Musiqqa haqida so'z"), "Kitabul musiqqa" ("Musiqqa kitobi"), "Kitabul fi-ihsa'-il-ulum" ("Fanlar tasnifiga doir kitob")ning musiqqaga bag'ishlangan qismi, "Kitabun fi-ihsa'il-iqo'" ("Musiqqa ritmlari – iqo' tasnifi haqida kitob") va boshqalar"⁹⁴.

Olim musiqa san'ati muammolarini turli aspektlarda yoritib beradi: musiqa nazariyasi, uning kelib chiqish tarixi, musiqani qabul qilish psixologiyasi, musiqaning texnik tomonlari, musiqiy asarlarni ijro etish bo'yicha ko'rsatmalar va hokazo.

Forobiy o'zining musiqashunoslikka oid asarlarida musiqaning davolovchi hususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirib, asoslab bergan, jumladan tarbiya yo'nalishida ham musiqaning alohida o'rni ta'kidlab o'tadi.

Forobiyning estetik qarashlarini tushunishimizda uning "Musiqqa haqida katta kitob" deb nomlangan asarining ahamiyati katta. Mazkur kitob o'rta asrlardayoq Evropada ma'lum bo'lib, musiqa nazariyasining rivojiga katta hissa qo'shgan.

"Musiqqa haqida katta kitob"i o'ziga xos qomusiy xarakterga ega bo'lib, unda borliqni bilish, mantiq, estetika, she'riyat, pedagogika, anatomiya, matematika, fizika, akustika, cholg'ushunoslik kabilarning muammoli masalalari qamrab olinadi.

Mazkur asar sharqshunos olim D'Erlanje tomonidan frantsuz tiliga to'liq tarjima qilingan. Asar muqaddima va uch kitobdan iborat. Muqaddimada kuy ta'rifi, nazariy va amaliy masalalar, kuyning paydo bo'lishi, janrlar, cholg'ular, kuylar ta'rifi, ijrosi, intervallar, tovushqatorlar, konsonans va dissonans sabablari haqida mulohazalar berilgan.

⁹⁴ Rajabov I. Maqomlar. – T.: 2006. 15-b.

"Forobiy "Katta musiqa kitobi"da yunon olimlaridan ko'plarining nomlari va asarlarini tilga olish bilan birga, qadim Sharq musiqa ilmining yirik namoyandalarini eslab o'tadi"⁹⁵.

Birinchi kitobda musiqiy akustika, nag'malar nisbati, intervallarning turlari, ularning hosil bo'lish qoidalari, ritmlar va boshqa masalalar yoritib beriladi.

Ikkinchi kitobda ud, tanbur, nay, rubob kabi musiqa cholg'ulari, ularning pardalari, torlari, diapazoni haqida fikr-mulohazalar beriladi.

Uchinchi kitob kuylar va maqomlarni hosil qilish, ritm, cholg'u va vokal musiqa, kuy bezaklari kabi masalalarga bag'ishlangan.

Sharqda nota yozuvi yaratilishi borasida ham Forobiyning o'rni bor. Bu jihatdan uning "Musiqqa haqida katta kaitobi"da keltirilgan jadval e'tiborlidir. Bu jadvalda X asrda ijro etilgan musiqa namunalarini aks ettiruvchi holatlar mavjud. Jadval o'sha zamonda ijro etilgan kuylar, shu jumladan maqom yo'llarida sodir bo'ladigan kuylarning harakat doirasini ko'rsatib beruvchi muhim dalildir. Forobiyning jadvali o'sha zamonlarda musiqa madaniyatining yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Jadval musiqa nazariyasining amaliyotda qo'llanishining yuksak namunasidir. Unda keltirilgan tovushqator namunalarining murakkabligi Forobiy zamonida ijro texnikasi yuqori darajada bo'lganligini tasdiqlaydi.

Forobiy o'z asarida arab cholg'ulari bo'lmish ud, rabab, bag'dod tanburi qatorida O'rta Osiyo va eron cholg'ularidan shoxrud, xuroson tanburini ta'rifi keltiradi.

Musiqa janrlaridan arab an'anaviy vokal va vokal-cholg'u janrlaridan "gina", "nashid" kabilarni, forsiy va turk cholg'u asarlaridan "davoshin" va "taroiq" haqida ma'lumot berib o'tadi.

Musiqa san'atining ko'p funktsiyali ekanligi haqidagi g'oya Forobiyga tegishli bo'lib, uning fikriga ko'ra musiqa nafaqat xordiq chiqarish yoki tinglash uchun, balki ma'naviy tarbiya yo'nalishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

⁹⁵ Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). – T.: 2008, 27-b.

Forobiyning fikriga ko'ra, musiqa nazariyasi o'z ichiga quyidagi besh qismni oladi: Birinchisi musiqa san'atining umumiy boshlang'ich asoslari va tamoyillarini o'rganadi; ikkinchisi – musiqa tovush elementlari va ularning o'zaro bog'lanish masalalarini o'rganadi; uchinchisi – musiqiy cholg'ularni o'rganadi, chunki ularning vositasida nazariya amaliyot bilan bog'lanadi; to'rtinchisi ritm asoslarini o'rganadi; beshinchisi kuy yaratish masalalariga qaratiladi.

Forobiyning musiqa ilmiga oid asarlarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi, xususan, "Katta musiqa kitobi"da o'rta asrlar SHarq musiqa terminlari tizimi shakllanishiga asos qo'yildi. Forobiyning ilmiy-nazariy asarlari zamonasi talablariga ko'ra arab tilida yozilgan bo'lib, SHarq musiqasi nazariyasining tub masalalarini sharhlab beradi. Uning musiqa risolalari va kitoblari musiqa haqida yozilgan asarning eng mukammali va eng mashhuri bo'lib, o'zidan so'nggi davrlarda yashab ijod qilgan uning izdoshlari, ya'ni musiqa olimlari kitoblarining yozilishida asos bo'lib xizmat qildi.

Bu davrning keng bilimli, peshqadam olimlaridan biri **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiy** (997 yili vafot etgan) haqida biografik ma'lumotlar kam.

Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan va Buxoroda ilm oldi. Uning mashhurligi 976-997 yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar shohi Nuh II ning vaziri Abul Hasan al-Utbiy (977-982) huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan.

Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari al-Kindiy, Forobiy, ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi.

Uning "Mafotihul-ulum" ("Ilmlar kaliti") asari bizning davrimizgacha etib kelgan yagona asaridir. Mazkur asar arab tilida yaratilgan birinchi qomusiy asarlardan bo'lib, o'z davrida rivojlantirilgan barcha ilmlarni o'z ichiga qamrab olgan va O'rta

Osiyo xalqlari fan va madaniyati tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir.



Xorazmiy

Birinchi bo'lib bu manbani o'rgangan va 1160 yildagi qo'lyozma nusxasi asosida uning aniqlangan matnini 1895 yilda nashr qildirgan olim, gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir.

"Ilmlar kaliti" o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir fan mazmunini asosiy atamalarini sharhlash yo'li bilan tushuntirib bergan.

"Ilmlar kaliti" ikki qismdan tarkib topgan. Jami 15 bobi bo'lib, musiqa ilmiga bag'ishlangan bob uch faslni o'ziga birlashtiradi. O'zidan oldin o'tgan olimlarning musiqa haqidagi ta'limotini davom ettirgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy uni riyoziyot ilmlari qatoriga qo'shadi.

Birinchi fasl musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan va bu erda 14 ta cholg'u sanab o'tiladi va ayrimlariga ta'rif beriladi. Mazkur fasl odatga ko'ra, avval "musiqa" so'zining kelib chiqishi, so'ngra Markaziy Osiyoda o'sha vaqtda qo'llanilgan turli musiqiy cholg'ular nomlari va ularning kelib chiqish joylari beriladi. U tanbur, surnay, chang, shohrud va boshqa cholg'ular shakllari va tuzilishi haqida fikr yuritadi. Ud tuzilishi haqida batafsil ma'lumot beradi, so'z etimologiyasi va tor nomlarini aytib o'tadi.

Ikkinchi fasl jamlarga bag'ishlangan bo'lib, unda ovoz, nag'ma, bo'd, jins va jamlar haqida fikrlar beriladi.

Uchinchi fasl ritm (iyqo) masalalariga bag'ishlangan va ettita ritm sanab o'tiladi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning "Ilmlar kaliti" asarining musiqaga oid bobi hozirgi zamon o'zbek musiqasining ayrim muammolarini hal etish uchun qimmatli manbadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, X-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotida katta o'rin egallagan yangi bir bosqich bo'ldi. Bu bosqichda O'rta Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining yirik markaziy o'choqlaridan biri bo'ldi. O'rta Osiyo olimlari jahon ilm-fanini o'z kashfiyotlari va ilmiy asarlari bilan boyitdilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir etdilar. Shu bilan birga, O'rta osiyo xalqlari madaniy hayotning arxitektura, tasviriy san'at, musiqa, naqqoshlik, o'ymakorlik kabi boshqa sohalarida ham benihoya katta yutuqlarga erisha oldilar.

Tayanch so'zlar: musiqa, ilm, risola, Forobiy, adabiyot, Rudakiy, qomusiy asar, al-Xorazmiy, me'morchilik, Firdavsiy, qasida, cholg'u.

Nazorat savollari

1. Somoniylar davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?
2. Somoniylar sulolasiga tegishli qaysi hukmdor davrida san'at turlari keng rivoj topdi?

3. Somoniylar davriga tegishla qaysi arxitektura yodgorliklarini bilasiz?

4. "Shohnoma" asari nima uchun Somoniylar davri musiqa san'ati mavzusi doirasida o'rganiladi?

5. Qasida janriga ta'rif bering.

6. Shoir Rudakiy haqida ma'lumot bering.

7. Al-Xorazmiyning musiqaga doir qaysi asarini bilasiz?

8. Forobiyning musiqa ilmiga doir asarlarini nomlarini ayting.

9. "Kitabul musiqiy al-kabir" asari kimning qalamiga mansub va qanday masalalar haqida bayonot beradi?

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. "Forobiy va uning musiqa nazariyasi" mavzusi bo'yicha besh minutlik ma'ruza tayyorlash.
2. "Somoniylar davri musiqiy-madaniy hayoti" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
3. "Somoniylar davri adabiyot olami" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr al-Forobiy. Kitabul-musiqa al-kabir. Arab tilidan tarjima va izohlar A.Nazarovniki. // Musiqa ijodiyoti masalalri. I. – T.: 1997, 5-20 b.
2. Аль-Фараби. Трактаты о музыке и поэзии. – Алматы: “Гылым”, 1993.
3. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – T.: “O‘zbekiston”, 1995.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960
5. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М.: 1980.
6. Даукеева С. Философия музыки Абу Насра Мухаммада аль-Фараби. – Алматы, 2002. Матякубов О. Фараби об основах музыки Востока. – Т.: “Фан”, 1986.
7. История народов Узбекистана. Том I. – Т.: “Фан”, 1992.
8. История музыки народов Средней Азии и Казахстана – М.: 1995.
9. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Том 1. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2015.
10. Музыкальная эстетика стран Востока – Л.: “Музыка”, 1967.
11. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995.
12. Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – T.: 2006.
13. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). – T.: 2008.
14. Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqi manbashunosligi. – T.: “Navro‘z”, 2017.


15. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность – Т.: “San‘at”, 2010.
16. Histori of civilizations of Central Asia. Volume IV, UNESCO, 1998.
17. Ergasheva Ch. Musiqiy risolalarda ilmiy naziraning o‘rni. // Globallashuv jarayonida xoreografiya san‘ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2012, 100-106 b.

Samanid empire – was a Sunni Iranian empire, ruling from 819 to 999.	Somoniylar – Xuroson va Movarounnaxrda 819-999 yillarda xumkdorlik qilgan sulola.
Qasida – also translated as an ode, is a poem that is usually written in praise of a particular person, thing, or event.	Qasida – shark she‘riyatdagi shakl. Suzning ma‘nosi: “maksadga yunalish”.
Nasib – is a lyric part of the “ode”.	Nasib – qasidaning lirik qismi.
Song – a short poem or other set of words set to music or meant to be sung.	Ashula – sozandalar shevasida paydo bo‘lgan ibora, aytim, qo‘shiq.
Tanbur of Bagdad – an instrument with a long neck, four strings, and no frets, originating in Southern or Central Asia.	Bag‘dod tanburi – Forobiy izohlagan ikki torli cholg‘u.
Science of advar – a combined knowledge of poetry, melody and practical performance.	Ilmi advor – o‘rta asr musiqashunosligida kuy, vazn, she‘riyat va amaliy ijroni birlashtiruvchi mushtarak ilm.
Science of rhythm – teachings of rhythm.	Ilmi iyqo‘ – ritm haqida ta‘limot.
Science of composition – aknowledge of harmony	Ilmi ta‘lif – nag‘malar ta‘lifoti haqida ilm.

Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XII asrlar)

Mavzu rejasi

1. Tarixiy ma'lumotlar.
2. Qoraxoniylar davlati madaniy hayoti.
3. Adabiyot.
4. Musiqa.



Tarixiy ma'lumotlar. Somoniylardan so'ng taxt tepasiga Qoraxoniylar sulolasi keldi. 992-yilda butun Movarounnahr Qoraxoniylar tomonidan egallandi. Qashg'ardan Amudaryogacha bo'lgan erlar Qoraxoniylar qaramog'iga o'tdi.



Qoraxoniylar davlati xaritasi

Asoschisi Abdulkarim Sotuq Bug'raxon Qoraxon (vafoti 956-yil), hukmdorlari Xorun Ibn Muso (992-996 yillar), Nasr I (996-999 yillar), Ibrohim (1046-1068 yillar), Arslon (1102-1180 yillar) va boshqalar.

“Qoraxon” atamasiga to'xtalsak, bunda “xon” ma'lum tushuncha, ya'ni “hukmdor” degan ma'noni beradi. “Qora”ning bir necha ma'noda qo'llanilishini ta'kidlagan holda, ko'rilayotgan misolda “buyuk”, “ulug'” tushunchasini beradi, deyilsa xato bo'lmaydi, ya'ni “Buyuk xon”, “Ulug' xon”⁹⁶.

Bu davlat o'z tarkibida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Janubiy Tyan-shan tog'lari yon bag'irlarini va Movarounnahrni birlashtiradi. Ibrohim ibn Nasr (Bo'ri Tegin) davrida (1052-1068) Movarounnahrning bosh shahri bo'lgan Samarqand Sharqiy Qoraxoniylarga bo'ysunmagan ichki va tashqi siyosat olib boradigan davlatga aylangan. Bu katta hoqonlikning poytaxti turli davrlarda Bolosog'un, Qashg'ar, O'zgan, Samarqand, Avliyoota kabi shaharlar bo'lgan. Nihoyat, XI asrning ikkinchi yarmida davlatni Saljuqiylar bosib olgach, Sulton Sanjar davrida (1118-1157) Qoraxoniylar

⁹⁶ <http://www.e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/365-qoraxoniylar.html>

ularning vassaliga aylanadi. 1102 yilda Qoraxoniylar xoni Qodirxon Jabroil Xurosonga bostirib kiradi. Ammo u Saljuqiylardan engilib, o'zi qatl etiladi. Shundan keyin Malik Sanjar Marvdagi Qoraxoniylardan bo'lgan qarindoshi Muhammad Arslonxon ibn Sulaymonni Samarqand taxtiga o'tqazadi. O'zaro ichki urushlar, nizolar natijasida zaiflashib qolgan bu davlat 1212 yilda o'sha davrning qudratli saltanatiga aylangan Xorazmshohlar davlati tomonidan bosib olinadi.

Qoraxoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlari hayotida bir qator ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qoraxoniylar bu hududlarni egallagach, somoniylar davridagi hokimiyatning markazlashgan boshqaruvini tugatdilar. Hamma erlar qoraxoniylar oilasining shaxsiy mulkiga aylantirildi va boshqaruv mahalliy-hudud tarzida amalga oshirila boshlandi, bu erlarning buyuk xoni asosan Qashg'arda, ba'zan Bolasog'unda yashar va hokimiyatni boshqarardi. Joylarda mayda feodal egaliklarda hokimiyatni boshqarayotgan ilekxonlarga katta huquqlar berib qo'yildi.

Qoraxoniylar davlati madaniy hayoti. O'rta Osiyo san'ati tarixida ko'rib chiqilayotgan davr qiziqarli tafsilotlarga boy. Bu davrda O'rta Osiyo hududida islom dini keng tarqalishi, uning estetikasi va ishlab chiqilgan badiiy uslublar bunga dalil bo'la oladi.

Qoraxoniylar davri madaniyat taraqqiy etishi va san'at turlarining gullab-yashnashi bilan belgilanadi. Islom dini badiiy hayotga katta o'zgarishlar olib kirdi.

Arxitektura yo'nalishidagi rivoj shaharlar qiyofasi o'zgarishida kuzatiladi. Masjid, minoralar, maqbaralar, madrasalar qurilishi arxitekturadagi yangiliklarni ochib beradi. Yangi shakl, yangicha bezaklar va hokazo. Masalan, qoraxoniylar davri me'morlik san'atining yorqin namunasi sifatida Samarqanddagi Shoxizindani keltirish mumkin (bu me'morlik majmuasining qurilishi XI asr boshlariga to'g'ri keladi), O'zgardagi qoraxoniylar maqbaralari (XII asr boshlari), Buxorodagi minorai Kalon (XII asr boshlari), Torozdagi

maqbaralar (XI asr), Vobkent minorasi (XII asr boshlari) va boshqalar.

XI asr boshlarida me'morlik bezak san'atida yangicha uslub paydo bo'ldi. Bu uslubda o'simliklardan naqsh bosh mavzu bo'lib, geometrik shakllar va arab yozuvlari bilan sintezlashtirila boshlandi. Bunday bezak berish uslubi islom san'atining eng yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, ko'p asrlar mobaynida o'z universalligini saqlab qoladi⁹⁷.

Qoraxoniylar davrida tasviriy san'at, hunarmandchilik o'z rivojini davom ettirdi. Afrosiyob, Quva, Axsikent, O'zgan, Varaxsha va Torozda shishadan mahsulot ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi (idish-tovoq, atir-upa idishlari va hokazo).

Bu davrdan qolgan yodgorliklar badiiy madaniyatning kasbiy va xalq yo'nalishlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Kasbiy darajadagi yo'nalishlar shahar rassomlari va ustalarining ijod namunalarida ko'rinadi. Bunda albatta ustadan matematika va geometriya sohasida bilimga ega bo'lish, xattotlikdan bohobar bo'lish kabi jihatlar talab etilgan. Xalq ustalari badiiy saviyasiga ko'ra nisbatan soddaroq ko'rinishdagi mahsulot ishlab chiqargan bo'lsalarda, bevosita umumiy rivojlanishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Adabiyot. Qoraxoniylar davri O'rta osiyo xalqlarining badiiy so'z san'ati taraqqiyotida muhim davr bo'ldi. Bu davrda xalq og'zaki ijodining xilma-xil asarlari paydo bo'ldi.

X-XII asrlar turkiy adabiy tillarning ravnaq topishida katta bosqich bo'ldi. Bunday holat turkiy xalqlarning, ya'ni o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, turkman va boshqa xalqlarning shakllanish jarayonining o'sishi bilan bog'liqlikda ko'rinadi. Turkiy qabila va elatlarning O'rta Osiyoga ko'chib kelishi qoraxoniylar davrida yanada kuchaydi.

Qabila tillarining mushtarak adabiy tilga aylanib borishida qabilalar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar bilan birga badiiy

⁹⁷ Гюль Э. Искусство эпохи Караханидов. // Сб статей Исламское искусство Узбекистана. – Т.: "Санъат". 2009, с. 37.

adabiyotning ahamiyati katta bo'ldi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni o'rganilayotgan davrning adabiyot olamidagi mashhur asarlardir.

Mahmud ibn ul-Husayn ibn Muhammadil Qoshg'ariy XI asrning birinchi yarmida Bolasog'unda tavallud topdi. Mahmud Qoshg'ariy bolalik davridanoq qunt bilan o'qidi. Qoshg'ar, Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv Bag'dod kabi shaharlarda tahsil oldi.

M.Qoshg'ariy tilshunoslikka doir ikki nodir asar – "Javohirun-nahv fi lug'atit turk" ("Turkiy tillarning nahv durdonalari, qoidalari") va "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar to'plami") asarlarini yaratdi. Ushbu asarlarning birinchisi bizning davrimizgacha etib kelmagan, ikkinchisi esa XX asr boshlarida Istambuldan topilgan.



Mahmud Qoshg'ariy

Mazkur asar faqat tilshunoslikka oid asar bo'libgina qolmay, balki qomusiy asar hamdir. Unda tarix, iqtisodiyot, geografiyaga oid ma'lumotlar ham bor⁹⁸.

"Devonu lug'atit turk" asarining adabiy qiymati nihoyatda baland. Unda uch yuzga yaqin she'r, maqol, hikmatli so'zlar jamlangan.

"Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning o'zi: "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim", – deydi"⁹⁹.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarining o'zbek musiqasi tarixini o'rganilishida o'z o'rnini bor. Ushbu lingvistik asarida muallif turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlash uchun badiiy adabiyotdan foydalangan. Unda XI asr adabiyoti bilan birga, qadim zamonlarda paydo bo'lgan va og'zaki tarzda avlodan-avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini keltirilgan.

"Devonu lug'atit turk" asaridagi mehnat qo'shiqlari chorvachilik, ovchilik, bog'dorchilik, dehqon hayoti, mehnat jarayonlarini, qadimgi odamlarning an'analarini aks ettiradi.

M.Qoshg'ariy ushbu asarida qabila bahodirlarining mardonavor kurashini tasvirlaydi. Bu kabi qo'shiqlar rajaz deb atalgan ekan. Bunday qo'shiqlarda bahodirlarning qahramonliklari bahodirlar tilidan kuylangan.

"Devonu lug'atit turk"da marosim qo'shiqlaridan ham misollar keltirilgan. Misollar marsiya janridan parchalar bo'lib, ular janglarda bahodirlarcha halok bo'lgan qahramonlarga bag'ishlangan.

Qo'shiq va she'rlarning bandi ko'pincha to'rt misradan, ba'zan esa ikki misradan iborat bo'lib, to'rtliklarning qofiyasi "a-a-a-b", "v-v-v-b" shaklidir. Qadimgi she'rlarning bu xususiyatlari hozirgi kun o'zbek xalq qo'shiqlarida saqlanib kelmoqda¹⁰⁰.


⁹⁸ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965, 105-106 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

⁹⁹ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965, 106-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹⁰⁰ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965, 64-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Og'zaki adabiyot namunalari orasida mavsumiy qo'shiqlarni ham uchratish mumkin. Bunday misollar qadim zamonlarda yashagan odamlarning tabiat haqidagi tushunchalari va tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatni ifoda etadi. Yuqorida aytib o'tilgan qo'shiqlardan tashqari "Devonu lug'atit turk"da lirik, didaktik mazmunga ega she'rlar va maqollar ham bor. Ular orqali biz qadimda yashagan avlodlarimizni yashash tarzi, o'ylagan o'ylari, hayotga munosabatlari, dunyoqarashlari bilan bog'liq ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

"Devonu lug'atit turk"da turkiy xalqlarda islomgacha ham iste'molda bo'lgan ko'p qadimiy musiqa sozlarining nomlari va o'zga musiqiy terminlar keltirilgan¹⁰¹.



Yusuf Xos Hojib

Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Uning "Qutadg'u bilig" asari bizning davrimizgacha yetib kelgan yagona asari bo'lib, unda tarixiy, enografiya, ilm-fan va boshqa sohalarga doir ma'lumotlar berilgan.

¹⁰¹ Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T.: "Navro'z", 2017, 17-b.

"Qutadg'u bilig" dostoni ("Saodatga yo'llovchi bilim") 1069-70 yillarda yozilgan va muallifning hayotiga doir ma'lumotlar beruvchi yagona manba hisoblanadi. Ushbu asarning yozilgan yilidan kelib chiqqan holda, Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillarida tug'ilganligi ma'lum bo'ladi. Uning vatani Bolasog'un yirik madaniy markazlardan biri edi. Yusuf Xos Hojib turkiy qabila va xalqlarning tilini o'rgandi.

"Qutadg'u bilig" dostoni Bolasog'unda yozila boshlandi va Qashqarda tugatildi, so'ngra qoraxoniylar hukmdorlaridan bo'lgan Tavg'ach Bo'g'raxonga taqdim qilindi.

"Qutadg'u bilig" xalq og'zaki ijodi zaminida turkiy xalqlar yozma adabiyotining taraqqiy eta boshlagani va dostonchilikda muvaffaqiyatga erishganini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda qoraxoniylar ijtimoiy-siyosiy hayot va madaniyatini o'rganilishida qimmatli manba hisoblanadi.

O'sha davrlar saroy musiqachilarining etika va kasbiga oid qoidalar **Kaykovusning "Qobusnoma"** asarida yoritilgan. XI asrning 82-83 yillarida G'arbiy eron podshoxining nabirasi Kaykovus o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab "Nasihatnoma"ni yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra, uni bobosi podshoh Shams-ul maoliy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb ataydi.

Bu asar 1702-1705 yillarda turk tiliga, 1786-1787 yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg'ur tiliga, 1881-yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga, shuningdek, XIX asrdayoq ingliz, frantsuz, nemis tillariga tarjima qilingan. 1935-yilda esa Tehron universiteti professori, atoqli adib Said Nafisiy "Qobusnoma"ni katta ilmiy sharh bilan nashrdan chiqardi. 1860-yilda atoqli shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

"Qobusnoma" muallifi Kaykovus o'z davrining qomusiy bilimlariga ega bo'lgan mutafakkirlaridan edi. Mazkur asarning fazilatlari ko'p: unda ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning hamma qirralari tahlil qilinadi.

“Qobusnoma” jami 44 bobdan iborat bo‘lib, ning o‘ttiz oltinchi bobi¹⁰² “Hofiz va sozandalik zikrida” deb nomlangan. Ushbu bobda muallif hofiz va sozandalik kasbini egalariga maslahat ko‘rinishida shu kasbga tegishli bo‘lgan etika qonun-qoidalarini bayon etadi. Masalan, “Ey farzand, agar hofiz bo‘lsang, xushfe‘l, quvnoq bo‘l...”¹⁰³.

36-bob davomida muallif musiqachilarga qimmatli nasihatlar qatorida, tinglovchilarning psixologik holatiga, tashqi fiziologik holatiga qarab turib, fe‘liga aniqlik kritgan holda kuylarni tanlashni maslahat beradi: “Bir majlisda o‘tirsang, majlis ahliga qaragil, agar eshitguvchi qizil yuzlik va moshguruch soqollik bo‘lsa, (kuyni) uzluksiz va nozik ovoz bilan chertg‘il; agar (tinglovchi) qora yuzlik, ozg‘in bo‘lsa, (cholg‘uni) ko‘proq uch tor bilan chertg‘il, agar (eshituvchi) oq semiz va rutubatli bo‘lsa, musiqani ko‘proq baland pardalar bilan chertg‘il, sababi bu rud (musiqasi)ni odamning to‘rt ta‘bi (toifasi) uchun muhayyo qilmishlar”¹⁰⁴.

Yana bir qiziqarli holat e‘tiborni tortadi. Bunda muallif musiqachiga quyidagicha nasihat qiladi: “Agar seni bir majlisga olib borsalar, unda ikki kishi nard o‘ynab o‘tirg‘on bo‘lsa, garchi sen nardboz bo‘lsang ham, hofizlikni tark etib, ularning ta‘lim va tomoshasiga mashg‘ul bo‘lma, chunki seni hofizlik uchun keltirmishlar, nardbozlik uchun keltirg‘on emaslar”¹⁰⁵.

“Agar hofiz bir majlisga borsa, unda ko‘rg‘on va eshitg‘on narsalarni o‘zga joyga borib aytmasan. Bunday mutrib hamisha aziz va arjumand bo‘lur”¹⁰⁶ so‘zlari bilan “Qobusnoma”ning 36-bobi yakun topadi.

Maslahatlardan biri she‘riyat bilan bog‘liq bo‘lib, bunda musiqachi she‘r va g‘azallarni ko‘p yod bilishi kerakligi va har vaqtga

¹⁰² Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 148-b.

¹⁰³ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 148-b.

¹⁰⁴ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 149-b.

¹⁰⁵ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 149-b.

¹⁰⁶ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 151-b.

munosib g‘azallarni tanlab o‘qimoqlikni tavsiya qiladi. Shuningdek, muallif musiqaga she‘r tanlash borasida ham quyidagi holatlarni nazardan chetda qoldirmaslik kerakligini uqdiradi: “Hofizlik qilsang, she‘r yozmoqni ham bilsang, o‘z she‘ringni aytmoqqa berilib ketmagil, sababi sening she‘ring o‘zingga xush kelsa ham, boshqaga xush kelmasligi mumkin, chunki hofizlar xalq she‘rini o‘qiguvchilardur, o‘z she‘rini o‘qiguvchilar emas”¹⁰⁷.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarini o‘qir ekanmiz, undagi pand-nasihatlar hozirgi kunda ham dolzarb ekanligiga amin bo‘lamiz. Musiqachiga berilgan maslahat va nasihatlar ham juda dolzarb deya xulosa qilish mumkin.

Musiqqa. Musiqqa san‘ati bu davrda ancha yuqori pog‘onalrga ko‘tarildi. Xalq sayllari, to‘y va boshqa marosimlar kuy va qo‘shiqsiz o‘tmas edi. Bu davrda rud, tanbur, barbat, daf, tabl, qo‘biz, rubob, nay, chag‘ona, surnay, karnay, arg‘anun, qonun kabi torli, zarbli va damli cholg‘ular guruhi taraqqiy etganligini manbalardan o‘qish mumkin.

Sharq musiqasiga bag‘ishlangan risolalardan ma‘lum bo‘lishicha, olimlar nota yozuvlari yaratish ustida urinib ko‘rganlar. Natijada XIII asrda nota yozuvi yaratishga muvaffaq bo‘lindi. Dastlab Forobiy musiqqa yozuvi yaratishga harakat qilib ko‘rdi. Forobiydan so‘ng Safiuddin Urmaviy nota yaratish ishiga o‘z hissasini qo‘shdi va notaning bir necha namunalarni ixtiro etdi.

XII asr ikkinchi yarmiga tegishli manbalardan biri **Faxriddin ar-Roziyning** (1149-1209) “Jome‘ al-ulum” (“Ilmlar to‘plami”)ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limidir. Mazkur asarning yaratilish tarixi ar-Roziyning Xorazmda yashagan davri bilan bog‘liq. Musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi to‘qqiz bobdan iborat bo‘lib, ularda asosan o‘sha davr musiqasiga tegishli bo‘lgan masalalar yoritilgan.

IX-XII asrlar musiqqa san‘ati haqida ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar asosan o‘sha davrlarda yaratilgan musiqqa risolalarida jamlangan.

¹⁰⁷ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, 149-b.

Risolalar asosan arab va fors tillarida yozilar edi. Ko'pgina risolalar qomusiy olimlar tomonidan yaratilganligi manbalardan ma'lum. Shu bilan bir qatorda o'sha davrda yashagan ayrim mashhur amaliyotchi-musiqachilar ham o'z risolalarini yaratgan edilar. Bu davr musiqa ilmining asosiy yo'nalishi maqomot masalalarini o'rganishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Jumladan, avvaldan rivojlantirilib kelingan iyqo, musiqiy cholg'ular, shakllar va janrlar masalalari turli darajalarda yoritilishini davom ettirdi.



Abu Ali ibn Sino

IX-X asrlar musiqa estetikasining rivojlanishida Ibn Sinoning o'ri katta. Forobiy tamoyillarining davomchisi bo'lmish Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga katta e'tibor qaratadi.

Abu Ali Xusayn ibn Abdulloh ibn Sino (980-1037) – Buxoroga yaqin Afshona qishlog'ida tavallud topdi. U buyuk tabib, faylasuf, tabiatshunos va musiqa nazariyachisi edi. U O'rta Osiyo va eronda yashagan va turli hukmdorlar qoshida vazir bo'lgan. Ibn Sino yaratgan risolalar Sharqda ham, G'arbda ham juda mashhur. Uning nazariy va klinik meditsina bo'yicha yaratgan qomusiy asari bo'lmish “Tib

qonunlari” ko'p asrlar mobaynida asosiy sohada qo'llanma vazifasini bajargan.

Manbalarda yozilishicha, Ibn Sinoning otasi asli Balhlik bo'lib, Nuh Abu Mansur hukmdorligi davrida Buxoroga kelgan ekan. Onasining ismi Setora bo'lib, u Afshonalik ekan.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshlaydi. 10 yoshidayoq Qur'oni Karimni yod o'qir edi. 13 yoshilaridan boshlab matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan SHarq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Evklid, Ptolemey, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham o'rganadi. 16-17 yoshlaridayoq u mashhur tabib sifatida nom chiqardi. 999 yilda Buxoro qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, 1000 yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va Xorazmga borda. Bu davrda Xorazm yirik madaniyat markazi edi. Bu erda u Beruniy, ibn Miskavayh kabi yirik olimlar bilan tanishdi. Ammo tez orada Xorazmdan ham ketishga majbur bo'ldi. U Isfahon, Ray, Hamadon kabi shaharlarda yashab o'zining ilmiy faoliyatini yuritadi. 1037 yilning 18 ibn kunida Isfahon shahrida vafot etadi.

Buyuk olimning fanning barcha sohalariga oid yaratgan asarlari soni 450 dan ortiq deyilsa ham, bizgacha etib kelgani 242 ta ekan¹⁰⁸.

Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan musiqaga doir asarlari qo'yidagilardan iborat:

1. “Shifo kitobi”ning musiqaga bag'ishlangan bo'limi – “Musiqa ilmi to'plami”.
2. “Najot kitobi” – ilmiy qomusiy asarning musiqaga bag'ishlangan qismi.
3. “Donishnoma” qomusiy asarining “musiqha haqida” deb atalgan qismi.

¹⁰⁸ Onpov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T.: “Navro'z”, 2017, 39-b.

Buyuk olimning bizning davrimizgacha etib kelmagan, ammo boshqa manbalarda qayd etilgan musiqaga doir asarlari ham mavjud. Bular:

1. "Musiqqa san'atiga kirish".
2. "Qo'shimchalar kitobi".
3. "Musiqqa haqida risola".

Ibn Sinoning musiqaga oid sarlari ichida mukammal va kattasi "SHifo" qomusiy asari tarkibiga kiritilgan. "Shifo" to'rt qismdan iborat:

1. Mantiq.
2. Fizika.
3. Matematika.
4. Ilohiyot.

An'anaga ko'ra, Ibn Sino musiqqa nazariyasini matematika bo'limiga kiritadi (ya'ni musiqqa matematikaning tarkibiy qismi hisoblangan). Muallif bu erda musiqqa nazariyasini atroflicha yoritadi. Musiqqa akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va jam'lar, maqomlar, ritmlar va kuylar masalasi sharxlab beriladi.

Estetika bilan bog'liq masalalarda Ibn Sino Arastuning yo'lini davom ettiradi, ya'ni musiqqa inson tomonidan qabul qilinishini hissiyot bilan bog'laydi. Alloma musiqani odamlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lanish vositasi deb ham talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra mukammal kompozitsiya hosil qilgan tovushlar inson ruhiyatini ko'tarishi mumkin, kuch berishi va aksincha. Musiqqa ayrim kassalliklarni davolashi mumkinligi haqidagi fikrlar ham ilgari surilgan. Ovoz bilan bog'liq ijrochilik esa inson salomatligini kuchaytiruvchi vosita deb aytilgan. Inson hayotida musiqaning ahamiyati va ta'siri haqidagi mulohazalari uning "Tib qonunlari" asarida keltiriladi.

Ibn Sinoning musiqiy estetik qarashlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Musiqaning davolovchi hususiyatlari

haqida, ayrim musiqiy namunalar inson ongiga yomon ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlar hozirda ham gapirilmoqda.

Ibn Sinoning musiqqa nazariyasi Sharqda ham G'arbda ham o'z davomchilarini topdi. Olimning musiqiy merosini chuqurroq o'rganish, targ'ib etish musiqashunoslarning vazifasidir.

Ko'rib chiqilayotgan davrning yana bir taniqli olimi – **Abu Mansur ibn Zayla** (-1049) Ibn Sinoning maslakdoshlaridan va shogirdlaridan biri bo'lgan. Uning tug'ilgan yili manbalarning birida 998 yil deb ko'rsatiladi. Ibn Zayla ko'plab asarlar muallifidir. Uning ijodiy merosidagi "Musiqaga oid to'liq kitob"i musiqashunoslar e'tiborini tortadi.

Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitobi"da musiqaga ta'rif, tovush hosil bo'lishi va uning sabablari, tovushning nafsga ta'siri, konsonans va dissonanslar, bo'd, jins, jam, iyqo, musiqqa turlari, musiqqa cholg'ulari kabi masalalar atroflicha yoritiladi.

XIII asrda yashab ijod qilgan buyuk musiqashunosi, sozandasi va hofizi **Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy al-Bag'dodiy** (1216-1294) katta ijodiy meros qoldirdi. U Urmiya shahrida tavallud topdi (hozirgi kunda G'arbiy Ozarbayjon). Yoshlik davrida Bag'dodga keldi va shu erda arab tili, adabiyot, tarix, xattotlikni o'rgandi. Mahmud Sheroziyning yozishicha, o'z zamonasining Sharq musiqqa nazariyasi bo'yicha tengsiz olim bo'lgan.

Urmaviy abbosiy xalifalarining oxirgisi Mustasim Billah (1242-1258) musiqachilarning rahbari, kutubxona mudiri, xalifaning kotibi bo'lgan. Urmaviy ud sozida ijro qilar, mug'ni va nuzxa kabi musiqiy cholg'ularni ratgan ekan. U turli fanlar bo'yicha bir nechta ilmiy asarlar yaratdi. Ular orasida ikkitasi musiqqa yo'nalishiga tegishli bo'lib, bular "Kitabul-advor" va "Risalatush-Sharafiya" deb nomlanadi.

Davrlar haqida ilmni o'rganishni boshlagan olim Urmaviydir¹⁰⁹.

¹⁰⁹ Матякубов О. Узбекская классическая музыка. 1 том. – Т.: "Yangi asr avlodi", 2015. 49-b.



Urmaviy

Safiuddin Urmaviy o'z salafлари ishini davom ettirdi. U Forobiyning asarlaridagi ko'p nazariy masalalarga tanqidiy munosabat bildirdi. Uning o'zi ham musiqiy risolalar yaratdi va bu risolalar X-XI asrlardan XV asrga o'tishda o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajardi.

Olimning o'z salafлари bilan qilgan munozarasi Sharq musiqa nazariyasidagi ko'pgina masalalarni aniqlanishida va rivojlantirilishiga sabab bo'ldi.

Urmaviy o'z risolalarida "O'n ikki maqom", "Ovoza" va "Sho'ba"lar masalasini birinchi bo'lib tizimlashtirib berdi¹¹⁰. "Kitabul-advor" o'n besh fasldan iborat bo'lib, ularda nag'ma ta'rifi, pardalarning bo'linishi, bo'dlar nisbatlari, ohangsizlikning asosiy sabablari, ohangdoshlik tuzilishi, davrlar va ularning nisbatlari, ud torlarini sozlash va undan davrlar chiqarish, mashhur davrlar, iyqo davrlari kabi va boshqa masalalar yoritilgan edi¹¹¹.

¹¹⁰ Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – T.: "SAN'AT", 2006. 20-b.

¹¹¹ Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T.: "Navro'z", 2017, 86-87 b.

Urmaviyning musiqa ilmiga bag'ishlangan ikkala asari ham arab tilida yozilgan va bizning davrimizgacha qo'lyozma ko'rinishida etib kelgan. Allomaning tizimi keyingi asrlarda O'rta Osiyoda musiqa ilmuni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'n ikki maqom tizimi deyilganda, 12 maqom, ularning ma'lum qismlari asosida yuzaga kelgan tovushqatorlarning turlari bo'lmish 24 sho'ba, 6 ovoz va murakkabot deb atalgan lad ko'rinishlari tushuniladi. Urmaviydan so'ng bu tizim XV asr musiqashunos olimlari tomonidan yanada mukammallashtirildi.

Safiuddin Urmaviy "o'z salafлари boshlab bergan ilmi musiqiyini yanada yuksak bosqichga olib chiqdi". Jumladan, uning "Kitab ul-advor" asarida musiqaning umumnazariy masalalari qatorida musiqiy davrlar masalasi ham yoritiladi. Olim Sharq ilmida birinchi bo'lib 12 doira (ja'm)ni tasnif etgan. Ammo uning asarlarida "maqom" atamasi iste'foda etilmaydi, balki bu o'rinda "ja'm", "doira" va "shudud" atamalari qo'llaniladi. Shuningdek, Urmaviyning advor ta'limotida O'n ikki maqom tizimiga mansub sho'balalar qatlami alohida guruh sifatida tasnif etilmagan edi.

Shu o'rinda "maqom" atamasiga to'xtalib o'tish joizdir. "Maqom" atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rni", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqada esa maqom – musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalaridir. Maqom deyilganda musiqa cholg'ularining ijro etiladigan kuyga mos qilib sozlanish ham tushuniladi. Hozirgi kunda maqom kuy va ashula yo'llari turkumi ma'nosini ifodalaydi.

Musiqa risolalarida mualliflar dastlab 12 maqom nomini sanab ko'rsatganlar: Ushshoq, Navo, Buslik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand va Buzurg.

"Ushshoq" iborasi arabcha "oshiq" so'zining ko'pligi, "oshiqlar" demakdir. Bu maqom lirik kayfiyatlarni ifodalagan. Sharq musiqa olimlari Ushshoqni eng qadimgi, ya'ni birinchi maqom, deb ataganlar.

Ushshoq maqomining tovushqatori miksolidiy natural ladiga mos keladi.

“Navo” soʻzi – kuy, ohang, mungli kuy maʼnolarida keladi. Navo ham qadimiy maqomlardan biridir. Bu tovushqator eoliy deb atalgan ladga mos keladi.

“Buslik” soʻzi, musiqa risolalarida koʻrsatilishicha Abu Salik ismidan olingan. Buslik maqomining tovushqatori frigiyladiga mos keladi.

“Rost” soʻzi oʻzbek, tojik xalqlarida rost, yaʼni mos keladigan maʼnoda ishlatiladi. Rost maqomi “ummul-advor”, yaʼni jam doiralarning onasi deb ham atalgan.

“Husayniy” soʻzi maʼlum shaxsning ismi. Hijoz – Arabistonda Makka va Madina hamda ular atrofidagi pasttekislikka ishora qilingan maqom nomi. Bu maqomning Oʻrta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjonda qoʻllaniladigan nomi Segohdir. Rahoviy – Rum shaharlaridan birining nomi, baʼzi mulohazalarga koʻra, u “rah” yoki “roh” – yoʻl maʼnolarida keladi. “Zangula” soʻzi tuya boʻyniga ilinadigan yoki doʻmbiraga bogʻlanadigan qoʻngʻiroq maʼnosida keladi. “Iroq” iborasi maʼlum mamlakatning nomi va unga nisbatan berilgan Oʻn ikki maqom va Shashmaqomdagi muayyan maqom nomidir. Isfahon eronning mashhur shaharlaridan biri. Zirafkand – pastga sakrash, tushish degan maʼnolarini beradi. Zirafkandning “uzzol” maʼnosi ham bor.

Buzurg – katta, ulugʻ maʼnolarida kelib, ulugʻ maqom demakdir. Shashmaqomdagi shaklida juda koʻp kuy va ashulalarni oʻz ichiga oladi.

Oʻn ikki maqom tizimiga ular asosida ishlangan **Ovoz** nomi bilan mashhur boʻlgan olti turli lad uyushmalari, maqomlarning shoxobchalari hisoblangan ularning 24 ta shoʻʼbalari kiradi.

Ovozlar: Navroʻz, Salmak, Gardoniyya, Gavasht, Moya va SHahnoz.

Shoʻʼba deyilganda maqomlarning shoxobchalari tushuniladi. Shoʻʼbalar XV-XVII asr risolalarida yigirma toʻrttadir. Ular Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashiran, Navroʻzi Arab, Mohur, Navroʻzi Xoro, Navroʻzi Bayotiy, Hisor, Nuhuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqaʼ, Rakk, Sabo, Humoyun, Zovuliy, Isfahonak yoki Roʻyi Iroq, Bastayi Nigor, Nihovand, Javziy, Muxayyar.

Safiuddin Urmaviy nota yaratish ishiga ham katta hissa qoʻshdi, notaning bir necha namunalarini ixtiro qildi. Urmaviyning birinchi nota yozuv tizimi harfli notatsiya edi. Urmaviy yaratgan nota yozuvi tizimining olamshumul tarixiy ahamiyati shundan iboratki, bu notatsiya maqom yoʻllarining oʻtmishdagi qiyofasini tasavvur etishga imkon yaratadi.

Bu davrning yana bir yorqin namoyandasi **Mahmud ibn Maʼsud Qutbiddin ash-Sheroziydir** (1234-1310). Ash-Sheroziy Sheroz shahrida tavallud topgan. Dastlabki bilimlarini oʻz otasidan olgan (tabib), undan soʻng mashhur Nasriddin at-Tusiy qoʻlida tahsil koʻrdi.

Uzoq muddat sayohatdan soʻng ash-Sheroziy Tabrizga qaytadi, dars berish bilan bir qatorda turli ilmiy asarlarga izohlar yozadi, bunday asarlar qatoriga Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari ham kiradi. Mahmud Sheroziy arab, fors tillarini yaxshi bilgan va oʻz asarlarini ham shu tillarda yozgan.

Olimning fors tilida yozilgan kitoblari orasida mashhur qomusiy asari “Durratut-toj li gʻurratid-Deboj” deb nomlanadi. Asarning musiqa soxasiga aloqadorlik tomoni mavjudligi sababli, shu davr musiqa sanʼati oʻrganilishi kesimida koʻrib chiqiladi.

“Durratut-toj li gʻurratid-Deboj” asarining alohida bobi musiqa ilmiga bagʻishlangan va “Musiqa ilmi haqida” deb nomlanadi. Mazkur bobda musiqaning turli masalalariga eʼtibor qaratilgan boʻlib, oʻsha davr anʼanasiga binoan bu bob matematika boʻlimi tarkibiga kiritilgan edi.

Mahmud Sheroziyning “Durratut-toj li g’urratid-Deboj”¹¹² (“Dar ilmi musiqiy” – “Musiqqa ilmi haqida”) asarida esa 12 maqomning turli (oktava, kvinta, kvarta) darajadagi ko’rinishlari, shuningdek 6 ta sho’ba va 4 ta ovoza turlari alohida tasnif etiladi. “Qutbiddin ash-Sheroziyning parda-tuzuk tafakkuri uning salaflariga nisbatan jam’-tizimlar nuqtai nazaridan ancha boyigan. Alloma lad qurilmalarini sinchiklab tahlil etarkan, o’zidan ilgari yaratilgan tadqiqotlardan iqtiboslar keltirib, ularni muqoyasa qiladi va o’z munosabatini bildirib o’tadi.

Birinchi maqola 10 fasldan iborat. Unda “savn”, “nag’ma”lar ta’riflanadi. Ikkinchi maqola ham 10 fasldan iborat bo’lib, unda musiqiy tovushlarning o’zaro nisbati, intervallar, mutanosib va nomutanosib (konsonans va dissonans) intervallar haqida ma’lumotlar beriladi. Uchinchi maqola 10 fasldan tarkib topib, uning mazmunida intervallarni bir-biriga qo’shish yoki ayirish, ularni turli qismlarga bo’lish, jinslar, ya’ni tetraxordalar hosil qilish yo’llari haqida fikr-mulohozalar yuritiladi. To’rtinchi maqola to’rt fasldan va xotimadan iborat va bu erda muallif jinslar (tetraxord va pentaxordlar), jam’lar (tovushqatorlar), maqomlar haqida bayonot beradi. Xotimada musiqqa cholg’u turlari, ularning tuzilishi haqida ma’lumot berilib, nazariy mashg’ulotlar uchun ud sozining qulayligini ta’kidlaydi. Asarning etti qismdan iborat bo’lgan beshinchi maqolasida ritm haqida fikrlar beriladi. Xotimada kuylarning yozuv usullari masalasiga to’xtalib o’tiladi.

Mahmud Sheroziyning musiqqa risolasi to’liqligi, chuqur nazariy asosi bilan e’tiborni jalb qiladi. Ushbu asarda Forobiy zamonidan to XIV asr boshlarigacha Sharq musiqqa nazariyasining taraqqiyoti o’z ifodasini topadi.

¹¹² “Durratut-toj li-g’urratid-deboj” – “Podsholar saltanat kiyimining toj durlari”. // Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati – T.: “O’qituvchi”, 1967.
 (“Deboj ko’rki uchun toj gavhari”. // Dadajonova I.A. Qutbiddin ash-Sheroziyning musiqiy ta’limoti. Nomzodlik diss. Avtoreferati. – T.: 2002. O’zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. 2002. M (a.r) D-12. 3.3.)

Mahmud Sheroziyning musiqqa ilmiga bag’ishlangan ushbu asari soha uchun qimmatli manbalardandir.

Qoraxoniylar davrida O’rta Osiyo xalqlari madaniy hayotda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu davrda O’rta Osiyo shaharlari ko’rkamlashdi, hashamatli binolar qurildi, naqqoshlik, tasviriy san’at, xattotlik, musiqqa, adabiyot va boshqa yo’nalishlar rivoj topdi. Jumladan, musiqqa rivojida yangi bosqichlar belgilandi, maqom atamasining musiqqa soxasiga kirib kelishi, o’n ikki maqomning tizimlashtirilishi kabi jihatlar keyingi asrlarda musiqqa ilmining asosiy mavzulari sifatida rivojlantirildi.

Tayanch so’zlar: san’at, madaniyat, musiqqa, risola, ilm, me’morchilik, adabiyot, Urmaviy, Sheroziy, Ibn Sino, estetika, cholg’u, folklor.

Nazorat savollari

1. Qoraxoniylar davri nechanchi asrlarni o’z ichiga oladi?
2. Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi musiqqaga doir bobi haqida so’zlang.
3. Safiuddin Urmaviyning musiqqa risolalari haqida so’zlang.
4. Mahmud Sheroziyning “Dar ilmi musiqiy” risolasi haqida so’zlang.
5. 12 maqom tizimi nima?
6. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida musiqqaga oid ma’lumotlar bormi?
7. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilig” asari haqida ma’lumot bering.
8. Abu Ali ibn Sinoning musiqiy-estetik qarashlari haqida.

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. “Qaykovusning “Qobusnoma” asarida musiqqaga oid mulohazalar” mavzusida besh minutlik ma’ruza tayyorlash.

2. “Qoraxoniylar davri musiqiy-madaniy hayoti” mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

3. “Safiuddin Urmaviy ijodi” mavzusida besh minutlik ma’ruza tayyorlash.

4. “Qoraxoniylar davri adabiyot olami” mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960

2. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М.: 1980.

3. Гюль Э. Искусство эпохи Караханидов // Сб. статей. Исламское искусство Узбекистана. – Т.: “Sanat”, 2009, с. 35-50.

4. Ibrohimov O. Maqom va makom. – T.: “Movarounnahr”, 1996.

5. История народов Узбекистана. Том I. – Т.: “Fan”, 1992.

6. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 1995.

7. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.

8. Музыкальная эстетика стран Востока. – Л., 1967.

9. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Том 1. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2015.


Voice – the sound produced in a person's larynx and uttered through the mouth, as speech or song.	Ovoz – inson bo‘g‘izidan chiqadigan tovush, qadimiy parda tizimlarining ma’lum toifasi.
Sho‘ba – the part of makam.	Sho‘ba – bo‘lim; maqom ichidagi maqomlar.
Makam – The classical genre of ancient music.	Makom – o‘rin, joy; Klassik musiqa janri.

Terracotta – a type of fired clay, typically of a brownish-red colour and unglazed, used as an ornamental building material and in modeling.	Terrakota – kuydirilgan loy va undan yasalgan anjomlar.
Rost – a series of makam.	Rost – maqom va turkum nomi.
Iraq – a series of makam.	Irok – mamlakat nomi; maqom va turkum nomi.
Ushshok – a series of makam.	Ushshok – oshiqlar; kuy va sho‘ba nomi.
Navo – a series of makam.	Navo – maqom va turkum nomi.
Zangula – could be translated into english as a “bell”. An ancient type of the makam.	Zangula – qo‘ng‘iroqcha; Qadimiy maqom yo‘llaridan biri.
Amal – An ancient form of melody.	Qadimiy kuy shakli.

XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning birinchi yarmi musiqa madaniyati

Mavzu rejasi

1. Tarixiy ma'lumotlar.
2. Adabiyot.
3. Musiqa.



Tarixiy ma'lumotlar. XI asrning boshlariga kelib qadimdan turklar bilan qo'shni bo'lib yashagan mo'g'ul qabilalarining tarqoq urug'lari birlashtirilib, o'zaro nizolarga barham berildi. Temuchin (Chingizxon) boshchiligida turk-mo'g'ul davlati tashkil topdi.

Mo'g'ullar 1219-1221 yillar davomida butun Markaziy Osiyoni istilo qildilar. Ushbu istilo davrida Turkistonga turli qabila va urug'lar kirib keldilar. XIII asrga kelib mo'g'ullar davlati har tomonlama kuchaydi, Chingizxon nomi nafaqat O'rta Osiyo, balki boshqa davlatlarda ancha ma'lum bo'lib qoldi.

XIII asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo hududiga Chingizxon qo'shinlari kirib keldi. 1221-yili Chingizxon avval Balxni, so'ngra Marvni qo'lga kiritdi. Urganch ham zabt etilgach, O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi qaror topdi. Bu davrda urushlar tufayli ko'plab talafotlar ko'rildi.

Mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq mardonavor kurash olib bordi. Misol sifatida Buxoro va uning atrofida Mahmud Torobiy rahbarligida 123-yilda bo'lib o'tgan shiddatli xalq qo'zg'olonini keltirish mumkin.

Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo aholisini nihoyatda kamaytirib yubordi, ishchi kuchining kismini barbod qildi, ko'plab odamlarni turli o'lkalarga boshpana izlab qochishiga sabab bo'ldi. Xo'jalik va madaniy hayotda juda uzoq davom etgan salbiy iz qoldirdi. Istilochilar nodir madaniyat yodgorliklarini, jumladan san'at va adabiyot asarlarini yo'q qilib tashladilar. Maktab va madrasalarning aksariyati yakson qilindi. Ilm-fan, san'at va adabiyot ahlining bir qismi janglarda halok bo'ldi, bir qismi asir olindi.

Chingizxon mo'g'ul xalqining ham iqtisodiy-madaniy tarqqiyotiga katta talafot etkazgan edi. Uning harbiy yurishlari Mo'g'uliston aholisini kamaytirib yubordi, yuz minglab mo'g'ullarning qirilib, tarqalib ketishiga sabab bo'ldi.

Madaniy hayot. Adabiyot. Bu davr madaniyat rivoji haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Olimlar, san'atkorlar va yozuvchilarning bir qismi boshpana izlab o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldilar. Bu davrda Hindiston osoyishta, madaniyati yuksak o'lka edi. Masalan, buxorolik shoir va adib Muhammad Avfiy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, nahshablik shoir Ziyo Nahshabiy kabilar Hind o'lkasidan panoh topib, o'sha erlarda ijodlarini davom ettiradilar. Madaniyat ahlining ayrimlari esa eron, Turkiya, Misr kabi mamlakatlarga yo'l oladilar. O'rta Osiyolik olimlar va yozuvchilar boshqa mamlakatlarda bo'lsalarda, o'z xalqlarining madaniyati va adabiyoti taraqqiyoti yo'lida ijod qildilar. Shu bilan bir qatorda o'zlari yashab turgan joylarining an'analarin o'rganib, o'zga yurtlar

madaniyati rivojiga ham hissalarini qo'shdilar. Asli balxlik bo'lgan Jaloliddin Rumiya faqat fors tilidagina emas, balki turk tilida ham asarlar yaratdi.

Jaloliddin Rumiyaning (1207-1272) ijodi ham O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lib, uning falsafiy qarashlari "Masnaviy"larida bayon qilingan. Rumiya ning uslubi xalq she'riyati va musiqasi bilan bog'liq bo'lib, xalq orasida mashhur edi¹¹³.

Muhammad as-Samarqandiy esa to'rtta tilni – turkiy, fors, arab va mo'g'ul tillarini yaxshi o'zlashtirdi. Bu davrda mulamma' – shirushakar (ikki yoki undan ortiq tilda asar yaratish) janri rivojlandi. Masalan, shoir Purbahoi Jomiy uch tilda – turki fors va mo'g'ul tillarida qasida yaratadi.

Bu davrda yashab ijod qilgan shoirlardan Pahlavon Mahmudni eslash joiz. Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod qilgan faylasuf shoirdir. U ilm-fan va badiiy adabiyot bilan shug'ullanadi. Umar Xayyomning izidan borib, fors tilida ko'plab ruboiylar yaratgan.


Chingizxon istilosining oqibatlarini, xalqning unga qarshi kurashi badiiy adabiyotda, xalq og'aki adabiyoti asarlarida o'z ifodasini topdi. Bosqinchilarga qarshi kurashni ifodalovchi afsonalar, ertaklar yaratildi. Vaqt o'tib, ularning ayrimlarigina bizning davrimizgacha etib keldi yoki katta hajmdagi boshqa asarlarning tarkibiy qismiga aylandi. Qahramonona kurashni ifoda etuvchi asarlardan biri "Guldursun afsonasi"dir.

Musiqqa. Ko'rib chiqilayotgan davrda musiqqa san'ati ham boshqa san'at turlari kabi rivojlanishdan deyarli to'xtagan edi. O'zga yurtlarga ketgan ayrim san'atkorlarga ijodini davom ettirgan holda, bu davrga tegishli bo'lgan musiqaga oid merosni bizga qoldirganlar.

Amir Husrav Dehlaviyning nomi adabiyot olamida mashhur. Ammo uning musiqqa sohasiga ham aloqadorligi bor. Mo'g'ullar istilosi davrida Husrav Dehlaviyning otasi Hindistonga ketadi. **Amir**

¹¹³ История музыки Средней Азии и Казахстана. – М., 1995, с. 63

Husrav Dehlaviy (1253-1325)ning ijodi nafaqat Hindiston, balki Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham mashhur. Uning to'liq ismi Yaminiddin Abul Hasan Amir Husrav ad-Dehlaviy.



Dehlaviy

Dehlaviy Gang daryosining bo'yida joylashgan Patyala hududida tavallud topdi (Shimoliy Hindiston). U Dehli sultonlari davrida yashab ijod qildi va ko'plab tarixiy voqealarning shohidi bo'lgan.

Husrav Dehlaviyning otasi avval o'g'lini hattot qilish niyatida hattot Sddinga shogirdlikka beradi. Lekin, uning hattotlikdan ko'ra shoirlikka moyilligi ko'proqligini sezgan ustozini Aziziddin shoirga bayon qiladi. Aziziddin uning qobiliyatini sinab ko'rib, uni o'ziga shogird qilib oladi. 12 yoshda Xusrav bir nechta tillarni, jumladan arab, fors, turk bir qancha hind shevalarini mukammal o'zlashtirgan edi.

Amir Husrav ma'lum bir davr Samoniyada yashaydi. So'ngra G'iyosiddinning ikkinchi o'g'li Muhammad Sulton taklifiga muvofiq Multonga keladi. 5 yil Muhammad Sulton saroyida hizmat qilib, Dehliga qaytib keladi va umrining oxirigacha shu erda yashab ijod qiladi. Buning natijasida "Dehlaviy", ya'ni dehlilik taxallusini oladi.

Keyinchalik esa Dehli hokimi Jaloliddin Firuzshoh Xusrav Dehlaviyga “Amir”lik unvonini beradi.

Amir Husrav Dehlaviy hayoti haqida tarixiy manbalar etarli bo‘lmaganligi sababli uning hayotini to‘liq yoritish imkoniyati yo‘q.

Shoir, olim va musiqachining ijodiy merosi nihoyatda kattadir. Amir Xusrav Dehlaviy o‘z davrining mohir sozandasi, bastakori hamda musiqaga oid risolalar yaratgan namoyanda ekanligi bir qator tarixiy manbalarda zikr etib o‘tilgan. Husrav Dehlaviy klassik sharq she‘riyatining deyarli barcha janrlarida sermahsul ijod qilib, ulkan adabiy meros qoldirgan. Shoirning boy adabiy merosida uning lirik devonlari muhim o‘rin tutadi. Husravning lirik asarlari qasida¹¹⁴, g‘azal¹¹⁵, qit‘a¹¹⁶, ruboiy¹¹⁷, tarji‘band¹¹⁸, muammolarni¹¹⁹ tashkil etib, ma‘naviy kamolotga erishish yo‘llariga asoslab nomlangan 5 devonga to‘plagan. Ular: “Tuxvat as-sig‘ar”, “Vasat al-hayot”, “G‘urrat al-kamol”, “Baqiyai naqiya” va “Nihoyat al-kamol”.

Amir Husrav Dehlaviy ijodi Xamsachilik, tarixiy dostonchilik va g‘azalchilikda O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyoti jarayonida muhim bosqinchilardan biri bo‘ldi. Amir Husrav Dehlaviy ijodining abadiyligi, uning ulug‘ Navoiy tomonidan “Hind sehrgari” deb nomlanishi hamda fors-tojik adabiyoti tarixda o‘chmas iz qoldirdi¹²⁰.

Dehlaviy “Xamsa” asarini yozganligi ma‘lum. Bu asar uch yil davomida (1299-1302) yozilgan bo‘lib, an‘anaga muvofiq besh dostonidan iborat:

¹¹⁴ Qasida- arabchadan “qasd” so‘zidan maqsadga qasd qilish manosini anglatadi.

¹¹⁵ G‘azal- arabchadan sevis, muhabbat izhor etish ma‘nolarini anglatadi.

¹¹⁶ Qit‘a- arabcha kesilgan, parchademakdir. Qism, bo‘lak ma‘nolarini anglatadi.

¹¹⁷ Ruboiy- arabchadan to‘rtlik ma‘nosini anglatadi. SHarqda keng tarqalgan she‘r turi, lirik janr. Ruboiy- arabchadan to‘rtlik ma‘nosini anglatadi. SHarqda keng tarqalgan she‘r turi, lirik janr.


¹¹⁸ Tarji‘band- arabchadan qaytarish, takrorlash, band ma‘nolarini anglatadi. Mumtoz adabiyotning lirik janrlaridan biri.

¹¹⁹ Muammo- arabchadan “a‘mo”, “ko‘r”, “ko‘r qilingan” degan ma‘noni anglatadi. She‘rshunoslikda biror so‘z, fikrni yashirib terishini ko‘zda tutadi.

Muammo- arabchadan “a‘mo”, “ko‘r”, “ko‘r qilingan” degan ma‘noni anglatadi. She‘rshunoslikda biror so‘z, fikrni yashirib terishini ko‘zda tutadi.

¹²⁰ Xamdanova N. “Amir Xusrav Dehlaviy va musiqi” mavzusidagi dissertatsiyasi materiallari. 1 bob, 3-bo‘lim, Husrav Dehlaviy – badiiy ijodkor.

1. “Matla’ ul-anvor” (“Nurlar barf urgan er”);
2. “Shirin va Husrav”;
3. “Majnun va Layli”;
4. “Oynai Iskandari”;
5. “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”).



Amir Husrav Dehlaviyning “Xamsa” asariga ishlangan miniatyura. Samarqand yoki Buxoro. 1603-1604.

Amir Husrav Dehlaviy forsiy tilda yaratgan adabiy merosi juda mashhur bo‘lib, yuksak badiiy shakli bilan, hind falsafiy fikrlash uslubini uyg‘unligidan iborat bo‘lgan hind uslubiga asos solgan shoirdir.

Hind xalqi musiqiy an‘analarini, san‘atini ma‘lum darajaga ko‘tarilishida katta hissa qo‘shgan o‘tmish namoyandalari orasida A..Dehlaviyning o‘rni beqiyosdir. U nafaqat hind musiqasi, balki Hindiston va O‘rta Osiyo musiqalarini o‘zaro bog‘lanishi yo‘lida hamda rishtalar mustahkamlanishida samarali ijodiy faoliyat olib borgan.

Hayotlik davridayoq Dehlaviy shoir, olim va musiqachi sifatida hurmat qozongan edi. Dehlaviyning ko‘p asarlari xalq orasida keng tarqalib, hozirgi kunda ham ko‘plab qo‘shiqchilar uning asarlarini ijro etadilar.

Hindavi tilida ko‘plab qo‘shiqlar yaratganligi va bugungi kunda mazkur asarlar zamonaviy hind qo‘shiqchilari tomonidan ijro etilmoqda.

Ko‘p qirrali olim Amir Husrav Dexlaviy nafaqat shoir, bastakor balki, musiqiy cholg‘ularni takomillashtirishda hamda usta ijodkor sifatida e‘tirof etiladi¹²¹. Yana shunday fikrlar borki, aynan Dehlaviy Hindistonga fors kuylarini olib kelgan, setor va tabla kabi musiqiy cholg‘ularni mukammallashtirgan ekan¹²². Amir Husrav ijodining eng yuqori rivojlangan cho‘qqilari Dehli sultoni Aloviddin Hiljiy humdorlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Dehlaviy hind klassik ragasini o‘rgangan. O‘sha davrlarda hind klassik musiqasida raganing uchta asosiy uslubi mavjud edi: Dxrupad, Dxamar va Hayal. Raganing uchinchi uslubi bo‘lmish “Hayal”ga Dehlaviy asos solganligi ma‘lum.

Husrav Dehlaviy ko‘pgina she‘rlarini musiqiy cholg‘ularga bag‘ishlagan. She‘rlarda cholg‘ularning o‘ziga hos qirralari, tashqi ko‘rinishi, ijrochilik usullari va cholg‘ularning funktsiyalari haqida ma‘lumot olish mumkin.


Dehlaviyning musiqashunoslik yo‘nalishida ham asari yaratilgan bo‘lib, “Musiqqa tinglash bo‘yicha tadqiqot” deb nomlanadi. Ushbu asarda muallif turli masalalar qatorida musiqqa nazariyasi va ijrochilik masalalariga e‘tibor qaratgan.

Hindiston va Pokiston tarixchi va musiqashunos olimlari “qavvali” – mumtoz vokal janrining asoschisi sifatida Amir Husravni tilga olganlar. Qavvali janri XIII asrdan rivojlana boshlagan. Amir Husravning ustozlari bo‘lmish Nizomiddin avliyoning fikriga ko‘ra,

¹²¹ Xamdamova N. “Amir Xusrav Dexlaviy va musiqqa” mavzusidagi dissertatsiya materiallari. I bob. 3-bo‘lim, Husrav Dexlaviy – badiiy ijodkor

¹²² Насуллаев З. Сведения о музыке в произведениях Амира Хусрава Дехлави. – Т.: 2008, с. 12.

“qavvali” janri musiqqa ilmidan bohabor bo‘lgan Dehlaviyning nazariy va amaliy izlanishlar natijasida yangicha shaklga ega bo‘lgan. U mavjud kuylarga turli bezaklar berib, yanada takomillashtirdi, xonandalikda esa yangicha uslub ishlab chiqdi, mazkur janrda ijro etiluvchi ko‘plab she‘rlar va g‘azallar ijod qildi.



Amir Husrav Dehlaviyning “Tarixi Xizrxon” asariga ishlangan miniatyura.

Buxoro. 1598 yil.



Amir Xusrav va uning shogirdlari
Xusayn Boyqaroning “Majlis al-Ushshoq” asariga ishlangan
miniatyura

“Qavvali” mumtoz shoirlarning gʻazallarini kuylash yoki guruhli ijro degan maʼnoni anglatadi. Qavvali ansamblining solisti “qavval” deyiladi¹²³.

Qavvali ansambli taxminan 15 ta ijrochidan tashkil topadi. Qavvali janrida asosan gʻazal yoki ruboiylar sheʼriy asos sifatida xizmat qiladi (fors, urdu va panjobi tillarida).

Qavvali shunday sanʼat turlaridan biriki, u otadan oʻgʻilga, ustozdan shogirdga oʻtib rivojlanib boradi. Har kim ham qavvali ijrochisi boʻla olmagan, chunki buning uchun albatta isteʼdod talab qilingan. Ijrochi 500 atrofida sheʼrlarni yod bilishi, jumladan kuy yoʻllarini mukammal bilishi kerak boʻlgan.

Amir Husrav Dehlaviy oʻz davrining adabiyot va musiqa sohalari rivojiga katta hissa qoʻshgan.

¹²³ Насуллаев З. Сведения о музыке в произведениях Амира Хусрава Дехлави. – Т.: 2008, с. 41.



Qavvali ijrochilari

Tayanch soʻzlar: Dehlaviy, qavvali, raga, Xamsa, doston, sheʼriyat, risola, cholgʻular, setor.

Nazorat savollari

1. Dehlaviyning hayoti haqida maʼlumot bering.
2. Dehlaviyning ijodiy merosi haqida.
3. Raga janri haqida.
4. Qavvali janri haqida.
5. Setor cholgʻusi haqida gapiring.
6. Tabla cholgʻusi haqida maʼlumot bering.
7. Dehlaviy yozgan qomusiy asarning nomini ayting.
8. Koʻrib chiqilgan davrda yashab ijod qilgan yana qaysi shoir, olimlarni bilasiz?

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. "Hind musiqa cholg'ulari" mavzusi bo'yicha prezentatsiya tayyorlash.
2. "Hind ragalari" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
3. "Amir Husrav Dehlaviy" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1995.
2. История народов Узбекистана. Том I. – Т., 1992.
3. Насуллаев З. Сведения о музыке в произведениях Амира Хусрава Дехлави. – Т., 2008.
4. Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – Т.: "Navro'z", 2017.
5. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi". Т., 1965. www.zivouz.com kutubxonasi.
6. Музыкальная эстетика стран Востока. – Л., 1967.
7. Хамдамова N.T. Amir Husrav Dehlaviy va musiqa. Magistrlik dissertatsiyasi. – Т.: O'zbekiston davlat konservatoriyasi axborot-resurs markazi. 2008.
8. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.: "Sanat", 2010.

Patiala – the town of the Punjab state.	Patiali - hind shtati, Panjobdagi shaxar.
Rehta –The type of song that performed with indian poems.	Rixta – aralashgan; hindcha she'rlar bilan ijro etiladigan ashulalar nomi.
Tarana – The short song or melody. Mostly, performed with quatrain.	Tarona – qisqa kuy, ashula; Ko'pincha ruboiylar bilan aytilib kelingan.

Temuriylar davri musiqa madaniyati

Mavzu rejasi:


1. Tarixiy ma'lumotlar.
2. Ilm-fan va madaniyat.
3. Adabiyot.
4. Musiqa



Tarixiy ma'lumotlar. O'rta Osiyo tarixi bir nechta buyuk shaxslarni biladi. Ular insoniyat sivilizatsiyasi rivojida muhim rol o'ynaganlar. Buyuk insonlar doimiy diqqat markazida bo'lib, turli tarixiy davrlarda ularga turlicha baho beriladi.

O'rta Osiyoda Amir Temurga o'xshash shaxs paydo bo'lishi tarixiy ehtiyojlardan edi. Negaki bu davrlarda mo'g'ullar istilosidan so'ng O'rta Osiyo har tomonlama tushkun ahvolda edi. Chingizxon qo'shinlari O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojini

nafaqat to'xtatib, balki yuz yillar orqaga qaytardi deyilsa, mublag'a bo'lmaydi.



Amir Temur taxt tepasiga kelguniga qadar Movarounnahr taxminan 150 yil zulmatda kun kechirdi. Amir Temur mohir harbiy va hukmdor edi. U jahon tarixini yangi yo'nalish tomon bura olgan tarixiy shaxsdir.

XIV asr 70-yillarining boshida Barlos begining o'g'li Amir Tarag'ay Bahodirning o'g'li Temur (1336-1405) taxt tepasiga chiqdi, ko'chmanchi mo'g'ullarni hududdan chiqardi, qabilalar o'rtasidagi nizolarga barham berdi, iqtisodiyotni tezkor ravishda ko'tarishni boshladi, markazlashgan davlat barpo etdi.

Yozma manbalar va arxeologik materiallar bu davrda ilm, madaniyat va iqtisodiyotda yuqori natijalarga erishilganligini tasdiqlaydi.

Amir Temur boshlab bergan ilm va madaniyatni himoyalab, rivojlantirish an'anasi keyingi davrlarda uning izdoshlari tomonidan davom ettirildi.

Ilm-fan va madaniyat. Amir Temur va Temuriylar davri o'rta asrlar tsivilizatsiyasida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning ta'siri nafaqat Yaqin va O'rta Sharqda, balki Rennensans davri Evropa madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatdi¹²⁴.

XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan davr O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi madaniyati, san'ati va adabiyoti tarixiy taraqqiyotining yangi va sermahsul bir davridir. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlari ilm-fan, me'morlik, tasviriy san'at, naqqoshlik, musiqa va boshqa sohalarda hamda badiiy adabiyotda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar, ulkan olimlar, san'atkorlar va shoirlarni etishtirib, jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shadilar¹²⁵.

O'rta Osiyo XIV-XVI asrlarda tabiiy va gumanitar fanlar sohasida bir qancha buyuk olimlarni etishtirdi, jahon fani taraqqiyotiga yangi hissa qo'shdi. Tabiiy fanlardan astronomiyaning yuksalishi, XV asrning birinchi yarmida Samarqandda yashab, tadqiqot ishlarini olib

¹²⁴ Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. –Т., 2010, с. 131.

¹²⁵ Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965. www.ziyouz.com kutubxonasi. 175-b.

borgan Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchi kabi buyuk olimlarning faoliyati bilan bog'liqdir.

Ulug'bekning astronomik jadvali va rasadxonasi fan yutuqlarining cho'qqisi bo'ldi.

Gumanitar fanlardan tarix, adabiyotshunoslik kabilar yuqori bosqichlarga ko'tariladi. Tarix yo'nalishida "Zafarnoma" muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy, "Matlausa'dayn" asarining muallifi Abdurazzoq Samarqandiy, "Ravzatus-safo" asarini yozgan Mirxond, "Badoe ul-vaqoe" muallifi Zayniddin Vosifiy, "Xulosatul-abror" muallifi Xondamir va boshqalar etishib chiqqanlar.

Adabiyotshunoslik sohasida tazkiralari, aruz nazariyasiga doir risolalar yaratildi.

Bulardan tashqari axloq, musiqa, harbiy ishlarga doir ilmiy asarlar ham yaratildi.

Me'morlik san'atida XIV asr so'ngida mahalliy va chetdan kelgan ustalar hamkorligida yagona badiiy maktab shakllana boshladi. Davrning eng noyob namunalari yaratila boshlangan: Go'ri Amir maqbarasi, Bibi-Xonim masjidi, Shoxizinda kompleksi va boshqalar.

San'at va hunarmandchilik yo'nalishlarining tan olingan markazlari sifatida Buxoro, Shahrisabz, Toshkent, Termez, Marv, Hirot, Mashhad kabi shaharlarni aytib o'tish lozim. Samarqand sopol, shisha, marmar, daraxt, suyakdan yasalgan buyumlar, qog'ozning sifati, ipak, paxta matolari bilan mashhur edi.

San'at va hunarmandchilik yo'nalishlarining tan olingan markazlari sifatida Buxoro, Shahrisabz, Toshkent, Termez, Marv, Hirot, Mashhad kabi shaharlarni aytib o'tish lozim. Samarqand sopol, shisha, marmar, daraxt, suyakdan yasalgan buyumlar, qog'ozning sifati, ipak, paxta matolari bilan mashhur edi.

Bu davrda temirga badiiy ishlov berish san'ati keng rivoj topdi. Movaraunnahr va Huroson shaharlari oltin, kumush, bronzadan ishlangan turli shaklli idishlar, qurol-aslahalar, zargarlik bezaklari ishlab chiqarish markazi edi.

Daraxtga ishlov berish yo'nalishi ham rivoj topdi. Sandiqlar, musiqiy cholg'ular, qutilar, xontaxtalar daraxtdan yasalar va chiroyli bezatilardi.

Bu davr san'atida shakllar nafisligiga, nozik did bilan ishlangan naqshinkorlikka intilish seziladi. Me'morlik bezagida marmar o'ymakorligi, ko'k va oltin ranglarning ishlatilishi keng urf bo'ldi. XIV-XVIII asrlarda tosh va daraxt o'ymakorligi ham keng rivoj topdi¹²⁶.

Temuriylar davrida devoriy tasviriy san'at ham keng ko'lamda rivoj topdi. Bun san'at turida turli uslublarning aralashmasi kuzatiladi. Chunki ko'plab ustalar o'zga yurtlardan kelgan edilar. Inter'yerlar bezagida peyzaj mavzusining paydo bo'lishi XIV asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Hoja Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar kabi iste'dodli rassomlar etishdi.

Miniatyura san'ati alohida e'tiborni jalb etadi. Sharqda miniatyura qo'lyozmalarni bezash san'atining tarkibiy qismi sifatida paydo bo'ldi, shu bilan birgalikda mazkur san'at turi o'zining mustaqil badiiy ahamiyatini saqladi.

Tasviriy san'at janri bo'lmish miniatyura haqida Temur va Temuriylar davriga tegishli manbalarda ma'lumot beriladi, ammo bu san'at turi bundan avvalgi davrlarda bo'lgan degan fikrlar ham mavjud.

XV asrning ikkinchi yarmida Hirot miniatyura san'ati yuqori bosqichlarga ko'tarildi. Hirot miniatyura maktabining yorqin namoyandasi **Kamolliddin Behzod** (1455-1535) yaratgan asarlari bilan dunyoga mashhur bo'ldi.

¹²⁶ Плутчинкова Г.А., Ремпель Л.И. Искусство Средней Азии. – М.: "Искусство", 1982, с. 35.



Kamoliddin Behzod (1455-1535)

Kamoliddin Behzod 1468-1506 yillarda Hirotida yashab ijod qilgan miniatyura san'ati ustasi. G'arbda "Sharq Rafaeli" nomi bilan mashhur. Tarixchilarni ma'lumot berishicha, Behzod ota-onasidan eta etim qolgan va xattot, tasviriy san'at ustasi Mirak Naqqosh Hurosoniy qo'lida tarbiya topgan.

Behzodning shaxs sifatida va dunyoqarashining shakllanishida buyuk shoir Alisher Navoiyning ta'siri katta bo'lgan. Behzod 1510-yillarga qadar Hirotida yashab, ijod qiladi. So'ngra Tabrizga ketadi va o'sha erda poytaxt kutubxonasi va va san'atkorlariga rahbarlik qiladi. U rassomlikda Hirot maktabi deb nom olgan yangi ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi va ustoz sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon tasviriy san'ati taraqqiyotiga hissa qo'shdi.

Bu davrda yaratilgan ko'pgina miniatyuralar syujeti orqali, o'sha davr hayoti haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Bunday holat musiqa sohasiga ham tegishli bo'lib, tasvirlangan majlislar, bazmlarda amaliyotda bo'lgan cholg'ularni ko'rishimiz mumkin.


A.Navoiyning "Xamsa" asariga ishlangan ko'pgina miniatyuralarda musiqiy cholg'ular tasviri bor.

XIV-XV asr miniatyuralarida torli cholg'ulardan chang, ud, tanbur, g'ijjak; damli cholg'ulardan nay; urma cholg'ulardan doyra tasvirlarini ko'rishimiz mumkin. Mazkur cholg'ular miniatyuralarda kichik tarkibli ansambllar ko'rinishida beriladi. Albatta, bunday tasvirlar o'sha davrdagi musavvirlar o'zlari ko'rib turgan hayotiy lavhalarni aks ettirganliklariga shubha yo'q.

Kamoliddin Behzod va uning izdoshlari tomonidan XV-XVII asrlarda yaratilgan kitobiy mo'jaz tasvirlarda adabiy mavzular, kompozitsion qoliplar hamda boshqa shakliy stereotiplar takrorlansada, lekin ular har gal yangi bo'yoqlar va rangin jilolar evaziga qayta "jonlanishini" ko'ramiz. SHuningdek, mutaxassislar amaliy bezak jabhasida ustozdan shogirdga meros o'tib kelayotgan aniq o'lchovli naqsh andozalari ham ustalarning ijodiy parvozigaga uzviy bog'lanishini va shu tarzda yangi jihatlar bilan boyitilishini qayd etadilar. Badiiy adabiyot misolida ko'rish mumkin bo'lgan namuna-nazira (invariant-variant) uslubini me'morlik, tasviriy va amaliy bezak san'atlarida ham anglash mumkin.

Temuriylar davri keng iqtisodiy va madaniy yutuqlar davri bo'ldi. Bu davr san'ati namunalari jahon tsivilizatsiyasi tarixida alohida zarvaraqdir.

Adabiyot. Musiqa san'atining rivoji she'riyat rivoji bilan bog'liqlik tomonlari bor. She'riyat musiqa taraqqiyotiga samarali ta'sir etganidek, musiqa ham she'riyat rivojiga samarali ta'sir qiladi, bastakor shoirning she'riga kuy yaratadi, shoir bastakorning kuyiga moslashtirib she'r yaratadi.



Bahrom gulgun qasrda. “Sab’ai sayyor”

Musiq va she’riyat o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rsatishda XV asr shoiri Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asari e’tiborni tortadi. Majoziy xarakterda yozilgan bu asarda sozlarning munozarasi hikoya qilinadi: Tanbur o’z san’ati bilan maqtanadi, ud tanburning maqtovarini rad etib, o’zini ta’riflashni boshlaydi. tanbur, ud, chang, qo’buz, rubob va boshqa sozlar o’zaro munozaralashadilar. Shoir bir tomondan sozlarning o’ziga xos fazilatini ko’rsatadi, ikkinchi tomondan esa majoziy ko’rinishda maqtanchoq, mutakabbir odamlarni qoralaydi.

XIV asr o’rtalaridan XVII asrgacha bo’lgan davr o’zbek adabiyoti shakllanishi va taraqqiyotining muhim davri hisoblanadi. Qutb, Sayfi Saroiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Jomiy, Bobur va

o’zbek klassik adabiyotining cho’qqisi Alisher Navoiy kabilar shu davr mobaynida yashab, ijod qilganlar. Bu davrda g’azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, qasida, noma, munozara, doston va boshqa janrlarda xilma-xil asarlar yaratildi.

Bizgacha etib kelgan adabiy yodgorliklar hamda turli manbalardagi ma’lumotlar bu davr o’zbek folklorining rivojida yangi va sermahsul davr bo’lganini ko’rsatadi. Bu davrda xalq yangi-yangi dostonlar, qissalar, ertaklar, afsonalar, latifalar, qo’shiqlar, maqollar va boshqa janrlarda asarlar yaratganlar. Xalq avvalda paydo bo’lgan adabiy yodgorliklarning ma’lum qismini ijodiy qayta ishlagan, bu davrda ko’plab xalq shoirlari va qiziqchilar etigan. Ochiq havoda odamlar davra qurib, yangi qissa va ertaklar tinglaganlar, ba’zi folklor asarlari musiqa va raqs bilan birga ijro etilgan, xalq teatri repertuari boyitilib, rivojlanib borgan.

XV asrning ikkinchi yarmida o’zbek adabiyoti yangi taraqqiyot bosqichiga ko’tarildi. Bunda ulug’ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning faoliyati salmoqli o’ringa ega.

Alisher Navoiy ilm-fan, san’at, adabiyot ahlining homiysi edi. U olimlar, san’atkorlar va shoirlarga yordam berar, g’amho’rlik ko’rsatar edi.

Navoiyning ulug’ zamondoshi, ustoz Abdurahmon Jomiy ham bu davr adabiyoti rivojiga katta hissa qo’shgan.

Musiq. O’rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar samarali natijalar berdi. Musiqa madaniyatining rivoji asosan Samarqand va Hirot shaharlari bilan bog’liq.

Temuriylar sulolasining deyarli besh asrlik hukmronligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning qatnashchilari bo’lib, xalq tomoshalari, bayramlar ularning ishtirokida o’tkazilardi.

Zamondoshlarining ko'rsatmalariga binoan Amir Temur saroyida o'tkazilgan tantanalarda doimo musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berini xush ko'rgan¹²⁷.

Amir Temur va temuriylar davrida urma cholg'ular harbiy unvon va daraja nishoni sifatida qo'llanilgan¹²⁸.




Amir Temurning musiqiy asboblarga bo'lgan mehrini uning harbiy yurishlari tasvirlangan ko'pgina miniatyuralar ham tasdiqlaydi. Temuriylar davrida, saroylarning bosh darvozalari tepasiga maxsus nog'oraxonalar qurish odat tusini olgan, bu hol musiqa san'atiga bo'lgan e'tiborning yana bir yorqin dalilidir. Ma'lumki, saroy musiqiy guruhlarining asosan karnaychi va nog'orachilardan iborat etakchilarini hukmdorning shaxsan o'zi tayinlar, ularni "mehtar" deb atashar edi.

Katta va kichik cholg'ular ansambli SHarafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sga, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda ko'p uchraydi. eng muhimi, ular

¹²⁷ G'ofurbekov T. Temuriylar davri musiqa madaniyati. // Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. – T.: 1996, 40-b.

¹²⁸ Saidiy Said Boltazoda. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular. – T.: "Musiq". 2008, 29-b.

umumiy bezak sifatida emas, balki faoliyatini ko'rsatish uchun tasvirlangan.




"Amir Temur saroyida". Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asariga ishlangan miniatyura. 1628 yil

Sohibqironning har bir jangida nog'oralar zarblari, burg'ular ohangi, karnaylarning sadosi qo'shinning jangovar ruhiyatini ko'tarar, ayni paytda dushmanning yuragiga qo'rquv solgan. Bundan tashqari nog'ora, karnay sadolari shaharga Temur, Ulug'bek va boshqa hukmdorlar kirib kelayotganidan aholiga xabar bergan.

O'rta asrlar an'anasi shahar aholisining kasbiga ko'ra, jamoa bo'lib yashashni taqozo qilar edi. Shunga ko'ra "xonandalar mavzesi", "sozandalar mahallasi", "bastakorlar ko'chasi" joriy etildi.

Amir Temur saroyida ko'plab olimlar, shoirlar, musiqachilar xizmat qilar edilar. Ana shunday musiqachilardan biri **Abdulqodir Marog'iy** edi (1353-yili Ozarbayjonning Marog'a shaharida tug'ilgan – 1435-yili Hirotda vafot etgan). Biografik ma'lumotlarga ko'ra Marog'iyning Samarqandda uzoq muddat yashaganligi ma'lum va bunday holat uning faoliyati O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati bilan bog'liq bo'lganining isbotidir.



Marog'iy

Marog'iy 1353 yil Marog'a shahrida ziyolilar oilasida tavallud topib, dastlabki umumiy va musiqiy tahsilni o'z otasidan oladi. U yoshlik davridanoq Qur'oni Karimni yod bilgan, 10 yoshidan otasi bilan olimlar va shayxlarning majlislariga borar va u erda murakkab musiqiy asarlarni ijro etardi. Marog'iy she'riyatdan ham bohobar bo'lib, bu yo'nalishda ham asarlar yaratgan. Xattotlikda ham yaxshi natijalarga erishgan edi.

Keyinchalik Abdulqodir Jaloyirlar poytaxti bo'lgan Tabriz shahriga ko'chib keladi va Sulton Jaloliddin Uvays, so'ngra

G'iyosiddin Ahmad saroyida nadim¹²⁹, saroy bastakori sifatida xizmat qiladi.

Amir Temur Bag'dod shahrini zabt qilgandan so'ng, bu shaharda vaqtincha istiqomat qilib turgan Hoja Abdulqodir Marog'iy ham boshqalar qatorida Samarqandga olib ketadi.

Shundan boshlab Marog'iy Samarqandda Temur va temuriylar saroyida istiqomat qilib, faoliyat yurita boshlaydi. Bu davr uning hayotida eng mahsuldor yillar bo'lib, natijada Abdulqodir "Maqosid-il alhon", "Jali-ul alhon" kabi asarlarini yaratadi. Alloma shuningdek, Samarqandda "Miyatayn zarb-ul fath", "Davri shohi" hamda qator yangi nuba (navbat) turkumlarini ham yozgan.

Musiqashunoslikka oid asarlarida musiqaning nazariy va amaliy masalalari haqida fikr yuritiladi. An'anaga ko'ra, Marog'iy o'z risolalarida Forobiy, ibn Sino, Urmaviy kabi olimlarning tadqiqotlarini davom ettirib, musiqa ilmida yangi pog'onalarni belgilaydi va o'zidan keyingi musiqashunos olimlar uchun salmoqli meros qoldiradi. "Maqosid-il alhon" asari muqaddima, 12 bob va xotimadan iborat. Asarning muqaddimada qismida "musiqa" atamasining ta'rif; musiqa ilmining mavzusi, uslublari, ilm va amaliyotning o'zaro munosabatlari haqida bahs yuritiladi.

1-bobda muallif savt, nag'ma, bo'd kabi tushunchalarga doir Urmaviy va SHeroziy ta'limotlarini tanqidiy bayon etadi.

12-bobda muallif harfiy nota yozuvi (tabulatura) vositasida o'z asarlaridan ayrim namunalar keltiradi.

Xotima 6 fasldan iborat bo'lib, xonanda va sozandalarning majlisda o'zini tutish odobi, majlislarining turlari, musiqani tinglash odobi va odatlari masalasiga bag'ishlangan.

O'tmishdoshlariga izdoshlik qilgan Marog'iy advor ilmini yangi qo'shimchalar bilan boyitdi. Masalan, Urmaviy tizimida doiralarning 84 turi, Sheroziyda esa 68 ko'rinishi qayd etilgan bo'lsa, Marog'iy

¹²⁹ Nadim – saroy lavozimi bo'lib, unga o'z davrining eng mashhur, she'riyat va san'atning barcha turlaridan yuksak mahoratga ega bo'lgan san'atkorlar tayinlangan.

ularning sonini 104 navgacha etkazgan edi. “Ritm doiralari ham ancha ko‘paytirildi. Bu hol esa zamonasidagi musiqa amaliyotida sodir bo‘lgan o‘zgarish va yangiliklar bilan bevosita bog‘liq edi”, – deya xulosalaydi maqomshunos olim I.R.Rajabov. Shuningdek, Abdulqodir Marog‘iy “Maqosid il-alhon” ilmiy asarining oltinchi bobida olimlar orasida birinchi bo‘lib sho‘‘balarni 24 ko‘rinishda tizimlashtiradi hamda ularning ud torlarida hosil qilinishini bayon qiladi.

Marog‘iy, Urmaviy va Sheroziylerden farqli ravishda usul, kuy, cholg‘uchilik muammolari va xonandalik ta‘limi haqida ham ancha to‘liq ma‘lumot beradi¹³⁰.

Bularning barchasi “o‘z salaflariga nisbatan olg‘a tashlangan katta qadam edi... Umuman, Xoja Abdulqodirning musiqa risolalari uning o‘z zamonasida va keyin yozilgan musiqaviy-nazariy risolalarning mundarijasi hamda mazmunini belgilab bergan edi”.

Amir Temur vafotidan so‘ng Marog‘iy Shohruh, Xalil Sulton va boshqa Temuriylarning saroyida xizmat qildi. Ma‘lumki, Marog‘iy bastakor sifatida 200 dan ortiq asar yaratgan¹³¹.

Hirod yirik madaniy markazga aylangan davrda o‘sha davrning buyuk shoirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati alohida e‘tibor talab qiladi.

Abdurahmon Jomiy va musiqa. Sharqning ulug‘ allomasi, shoir va musiqashunosi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy 1414-yilning 7 noyabr kunida Hirod yaqinidagi Jom shahrida tavallud topdi.

Jomiy yoshlik davridanoq zukkoligi bilan ajralib turar, ilm olishga intilishi kuchli edi. Jomiy o‘qishni erta boshladi. Ilmiy muhitda, ziyolilar davrasida tarbiya oldi.

1436-yili Samarqandga kelib Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi ustozlar qo‘lida tahsil olgan Jomiy Samarqandda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar bilan ham

¹³⁰ SHodmonov N. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000, 56-b.

¹³¹ G‘ofurbekov T. Temuriylar davri musiqa madaniyati. // Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san‘at. – T.: 1996, 44-b.

shug‘ullandi. Astronomiya, matematika, meditsina, musiqa kabi fanlardan ilm olgan Jomiy Hirodga olim sifatida qaytdi.



Jomiy

Jomiyning ijodiy faoliyati adabiyot, fan va san‘at sohalarida barakali bo‘ldi. U juda ko‘p ilmiy va adabiy kitob va risolalar muallifidi. Uning musiqashunoslikka oid “Risolai musiqiy” asari hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyati yo‘qotmagan. Mazkur risola musiqa nazariyasi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘sha davr musiqa sohasini o‘rganuvchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

“Risolai musiqiy” asari Navoiyning iltimosiga binoan Jomiyning keksayib qolgan vaqtida yozilgan edi.

“Musiqa risolasi”ning noyob qo‘lyozma nusxasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalar markazi jamg‘armasida, Jomiyning “Kulliyoti” (“To‘la asarlar to‘plami”) tarkibida mavjud (inv.№1331)¹³².

¹³² Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T. “Navro‘z”, 2017, 100-101 b.

Asar 1960-yili A.N.Boldirev tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, V.M.Belyaev tomonidan musiqashunoslik tahlili berilgan. "Musiqashunoslik risolasi" ikki bo'limdan tarkib topadi: kompozitsiya ta'limoti va ritm ta'limoti. O'z navbatida bu bo'limlar 22 faslga bo'linadi. Asar so'ngida xotima beriladi. Birinchi bo'limda nag'ma, interval, tetraorda, pentaxord, lad borasida fikr-mulohazalar yuritiladi. Ikkinchi bo'limda esa ritm masalalari, ritmik shakllarning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Jomiy "o'z fikrlarini o'rta tashlar ekan, oldingi davrlar musiqashunoslik ilmi hamda o'z zamondoshlari tajribasiga tayanadi"¹³³. Muallif Urmaviydan farqli ravishda "davriy" atamasi qatorida "maqom" tushunchasini keng ishlatadi. Jomiy risolasida ritm-iyqo masalasi to'liqroq yoritilgan, maqomlarning hissiy ta'siri haqida ham qiziqarli fikrlar bayon etilgan. Risolaning asosiy qismi O'n ikki maqom masalalariga bag'ishlangan. Asarda O'n ikki maqom tizimi va 24 sho'ba, ovozlariga tushuncha beriladi.

Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" asari XV asrda joriy bo'lgan maqomlarni o'rganishda, musiqashunoslik nazariyasi va amaliyoti masalalarini tushunishda noyob manbadir. Ushbu risola o'sha zamonda yaratilgan va bizgacha etib kelmagan boshqa musiqashunoslik risolalari mazmunini ko'rsatib beruvchi asardir.

Zaynulobiddin Mahmud Husayniy (1463-1519) – ko'rib chiqilayotgan davr musiqashunoslik olamining yana bir yorqin siyomosidir. Husayniyning hayotiga oid tavsilotlar bizgacha deyarli etib kelmagan, uning Hirotda tug'ilganligi, keyinchalik Sulton Husayn saroyida va Samarqandda yashaganligi haqida Navoiy ("Majolisun-nafois"), Xondamir ("Xulosatul axvor") va Vosifiylar ("Badoe-ul-vaqoe") ma'lumot berishadi. U – bastakor, sozanda va musiqashunos olimdir. Husayniy "Ixlosiya" madrasasida musiqashunoslik ilmidan Hoji Abdulloh Marvariddan saboq olgan. Umrining oxirlarida O'rta Osiyo Shayboniylar hokimiyati qo'liga o'tgandan so'ng Husayniy

Boburiylar bilan birga Afg'onistonga ketadi va 1520 yillarda Qandahor shahrida vafot etadi.

U yaratgan "Qonun" asari Husayniyning zo'r olim va musiqashunoslik nazariyotchisi bo'lganligiga isbotdir. Mazkur risolaning to'liq nomi "Musiqashunoslik ilmiy va amaliy qoidalari"dir va muallif uni Alisher Navoiyga bag'ishlaganligi ma'lum.

Husayniyning "Qonun" asari Navoiy buyurtmasi asosida yozilgan bo'lib, bu haqda muallifning o'zi muqaddimada, Navoiyga bag'ishlangan qasidada eslatib o'tadi (asar fors tilida yozilgan).

Risolaning Kirish qismida muallif risola haqida tushuncha beradi, ya'ni unda musiqashunoslik nazariy va amaliy masalalari yoritilganligi, matematika ilmining tarkibida ekanligi, do'stlarining iltimosiga binoan ushbu risola tuzilganligi haqida bayon qilinadi.

Asarda nag'ma, bo'd, jins, jam', maqom, iyoq masalalari yoritilgan. Ushbu risolada ham maqomlar masalasiga keng o'rin ajratiladi.

"Qonun" asari Jomiyning musiqashunoslik risolasi kabi o'sha davr maqomlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

XV asr ikkinchi yarmida yaratilgan ilmiy asarlardan Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" hamda Zaynulobiddin Husayniyning "Qonun ilmiy va amaliy musiqashunoslik"larining muhim manbalari qatorida Forobiy, Urmaviy va Marog'iyning ilmiy asarlari qayd etiladi. Xususan, Jomiy "o'z fikrlarini o'rta tashlar ekan, oldingi davrlar musiqashunoslik ilmi hamda o'z zamondoshlari tajribasiga tayanadi".

Jomiy va Husayniy risolalari o'zaro solishtirilganda o'xshashlik tomonlari ko'pligi aniqlanadi, ammo farqli jihatlari ham oz emas. Jomiy risolasida ritm-iyqo masalasi to'liqroq yoritilgan, maqomlarning hissiy ta'siri haqida ham qiziqarli fikrlar bayon etilgan. Husayniyning "Qonun"ida esa maqomlarning hissiy ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilmagan, balki 12 davr hamda sho'ba va ovozlariga

¹³³ G'ofurbekov T. Temuriylar davri musiqashunoslik madaniyati. // Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at – T.: 1996, 40-b.

alohida boblarda e'tibor berilgan. Shuningdek, musiqiy cholg'ulardan ud va dutor haqida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud¹³⁴.

Kamoliddin Binoiy va uning "Risola dar musiqa" asari. Mashhur fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiy Kamoliddin bin Ali bin Muhammad Binoiy XV asrning o'rtalarida Hirotida me'mor oilasida tavallud topgan. Yoshligidan Hirotning adabiy-madaniy muhitida ko'pgina shoir va bastakorlar bilan ijodiy munosabatda bo'lib, shoir va hattot sifatida mashhur bo'ldi. U o'zining she'rlari va musiqa ijodiyoti bilan tez orada Navoiy e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Biroq ayrim sabablarga ko'ra Sulton Husayn va uning saroy shoirlari bilan ziddiyatlar chiqaradi. Natijada Iroqqa Jaloyirlar saroyiga ketishga majbur bo'ladi.

Oradan ikki yil o'tgach, Kamoliddin Hirotga qaytadi, biroq yana ayrim kelishmovchiliklar tufayli bu erdan Samarqandga SHayboniylar poytaxtiga ko'chib ketadi. Va shundan so'ng Binoiy Shayboniyxonning saroy shoiri sifatida umrining oxirigacha Shayboniylar bilan birga bo'ladi. ("Shayboniynoma" dostoni Muhammad Shayboniyxonga bag'ishlangan).

K.Binoiy 1512 yil Zahiriddin Bobur va shoh Tahmasb tomonidan Qarshi shahrida amalga oshirilgan "qatlilom"da halok bo'ladi.

Binoiyning "Risola dar musiqa" asari muqaddima, 2 maqola va xotimadan iborat. Muallifning dastxati yagona nusxada eronda shaxsiy kutubxonalarning birida saqlangan bo'lib, Dari ush Safvad va Taqi Binesh tahriri ostida Tehronda nashr qilingan. Muqaddimada Urmaviyning nazariyasi asosida musiqa, nag'ma, savt, bo'd tushunchalarining ta'rifi keltiriladi.

1-maqola Urmaviyning an'anaviy ta'limotiga binoan 17 tovushqator tizimi jins, jam', davr va tabaqot, mutanofir va muloyimot masalalariga bag'ishlangan. Bunda Binoiy o'z davrida amaliyotda

¹³⁴ Ergasheva Ch. Musiqiy risolalarda ilmiy naziraning o'rni. // Globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanini materiallari to'plami. – T.: "Iqtisod-moliya", 2012, 100-106-b.

qo'llanilgan 12 maqom tizimi, 24 sho'ba va 6 ovozot tarkibini, shuningdek ud va inson mijozi (temperament) orasidagi mutanosiblik masalalarini batafsil bayon etadi.

Ayni vaqtda Binoiy Xuroson va Movaraunnahr xalqlari musiqasiga yangi kiritilgan, bungacha noma'lum bo'lgan Yangi asarlar xususida ma'lumotlar beradi: Navbahor, Visol, Guliston, Ramzudo, Bahor, Mehrijon mahshuq, Xushsaro, Xazon, Dilko'sh bo'ston, Majlisi affuz, Nasimiy, Jon fido, Zindarvud, Mujdagoniy, Nuhut, Vomiq kabi maqomot tarkibidagi asarlarning kuy tuzuklari (ladlari) va usullari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

2-maqola "Fi ilmil iyqo'" ("Iyqo' ilmi haqida") – ritmika masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda Binoiy o'z davri usullarini 3 guruh, ya'ni saqil, ramal va foxitij guruhlariga tasnif etadi. Shu bilan birga Binoiy o'sha davrlar musiqa amaliyotida keng qo'llanilgan G'uryona, Varashon, Raxiy Samo, Muxammas, Chorzarb, Davri Turkiy kabi usul doiralarini batafsil sharhlaydi. Bunda Binoiy janrlar tasnifiga ham katta e'tibor berib, ularni usul mezoni jihatidan 2 guruhga, ya'ni mavzui (usuli ma'lum usulda bo'lgan) va g'ayrimavzui (improvizatsiya shaklidagi usulsiz) asarlarga ajratadi.

Binoiy Urmaviyning harfiy kuy yozuv tizimiga tayanib o'zi ijod etgan "Nuhrang" deb nomlanuvchi naqsh janridagi asarini yozib qoldirgan. Umuman olganda Kamoliddin Binoiyning "Risola dar musiqa" asari Temuriylar va Shayboniylar davri musiqa madaniyatini o'rganishda noyob manba bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: musiqa, san'at, musiqa, ilm, risola, Amir Temur, cholg'ular, bastakorlik, Jomiy, ijodiyot, Marog'iy, miniatyura, me'morchilik, Husayniy, Binoiy.

Nazorat savollari

1. Temuriylar davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?
2. Qaysi sabablarga ko'ra Temuriylar davri "SHarqiy renessans" nomini olgan?
3. Temuriylar davri musiqa cholg'ulari haqida so'zlang.
4. Temuriylar davri musiqa san'atini o'rganilishida ikkilamchi manbalar qaysilar va ularning ahamiyati.
5. Jomiyning "Risolai musiqiy" asari nechta bo'limdan iborat va ular qanday nomlanadi?
6. Zaynulobiddin Husayniy va uning musiqa risolasi.
7. Abdulqodir Marog'iyning ijodi.
8. Dutor cholg'usi haqida dastlabki ma'lumot kimning asarida berilgan?
9. Abdurahmon Jomiyning musiqa risolasida qaysi masalalarga ko'proq urg'u beriladi?

Mavzuga doir mustaqil topshiriq

1. "Abdulqodir Marog'iy ijodi" mavzusida besh minutlik ma'ruza tayyorlash.
2. "Temuriylar davri musiqiy-madaniy hayoti" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
3. "Miniaturalardagi "musiqiy" lavhalar" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
4. "Abdurahmon Jomiy va musiqa" mavzusida besh minutlik ma'ruza tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том I. История персидско-таджикской литературы. – М.: 1960
2. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джамии. – М.: "Наука", 1965.

3. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М., 1980.
4. Ibragimov O. Ranglarda sadolangan maqomlar. // Shashmaqom saboqlari. (Maqola va ma'ruzalar to'plami). II jild. – T.: 2005, 50-70 b.
5. История народов Узбекистана. Том I. – T.: "Fan", 1992.
6. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1995.
7. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965.
8. www.ziyouz.com kutubxonasi.
9. Музыкальная эстетика стран Востока. – Л., 1967.
10. Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – T.: "Navro'z", 2017.
11. Пугаченкова Г.А., Ремпель Г.И. Очерки искусства Средней Азии. – М.: "Искусство", 1982.
12. Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – T.: "San'at", 2006.
13. Saidiy Said Boltazoda. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular. – T.: "Musiq", 2008.
14. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. – T.: "Sanat", 2010.
15. Histori of civilizations of Central Asia. Volume IV. UNESCO 1998.
16. Юсупова М., Рахимова З., Ибрагимов О. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV-XVII вв. – T.: "Sanat", 2010.
17. G'ofurbekov T. Temuriylar davri musiqa madaniyati. // Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at – T.: 1996.
18. Ergasheva Ch. Musiqiy risolalarda ilmiy naziraning o'rni. // Globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati sohasida milliylikni

saqlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: "Iqtisod-moliya", 2012, 100-106 b.

Timurid Empire – was founded by Tamerlane in the middle ages in the Central Asia.	Temuriylar – O'rta Osiyodagi sulola (o'rta asrlar).
Herat - a city in western Afghanistan.	Hirotda – Afg'onistonning shimoliy g'arbida joylashgan shahar.
Calligraphy - is the art of producing beautiful handwriting using a brush or a special pen.	Xattotlik – tasviriy san'atning yo'nalishlaridan biri. Xattotlik deb xusnixat san'atiga ham aytiladi.
Tabriz – the city of Iran.	Tabriz – Erondagi shahar.
Bozguy – similar repetitions during the execution process.	Bozguy – Kuy ijrosi jarayonida bir necha bor takrorlanadigan kuy jumalari ifodasi.
Hona – the expression of music row sentences.	Xona – Kuy jumla (satr)larining ifodasi.
Music science – The subject refers to musical compositions.	Ilmi musiqiy – musiqa asarlari haqidagi fan.
Interval – the distance between two sounds.	Bo'd – ikki musiqa tovushi va uning oralig'i, interval.
Rhythm – is a regular series of sounds or movements.	Iyqo' – ritm o'lchovi.

Alisher Navoiy va musiqa

Mavzu rejası:

1. Alisher Navoiyning hayotiga oid ma'lumotlar.
2. Alisher Navoiy ijodiy merosi.
3. A.Navoiy asarlarida musiqa o'ld atamalar.
4. "Majolis un-nafois" asarida musiqa o'ld ma'lumotlar.



Musiqa va she'riyat doimiy o'zaro uyg'unlikda rivojlanib kelgan. Buyuk Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy 1441-yilning 9 fevral kunda Hirotda tavallud topgan. Uning otasi G'iyosiddin kichkina temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor bo'lgan. Alisher kichik yoshlaridan temuriy shahzodalar bilan birga tabiyalandi. To'rt yoshidan o'qiy boshladi, ziyrakligi va qobiliyati bilan boshqa bolalardan ajralib turar edi.

Ota va ona Alisherning har tomonlama bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdilar. Alisher zamonasining mashhur musiqashunosi Xoja Yusuf Burhondan musiqa saboqlarini oldi. Shu bilan bir qatorda tarix, adabiyot, husnixat bilan shug'ullandi.



Navoiy

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning qobiliyatidan mamnun bo'lgan Jomiy uni ham shogird, ham farzand qatorida ko'rar edi. Ko'p o'tmay shogird va ustozning munosabatlari ikki ulug' shoir va mutafakkarning do'stligi va hamkorligiga aylandi.

1466-1469 yillarda Navoiy Samarqandda yashadi. Bu yerda ham madrasalarga qatnadi, ilm-fan, san'at va adabiyot ahli bilan yaqinlashdi, bilim saviyasi, iste'dodi bilan obro'-e'tibor qozondi.

Hirotda qaytgach, Husayn Boyqaro unga muhrdorlik vazifasini topshirdi. 1471-yili esa vazirlik vazifasiga tayinlandi.

Alisher Navoiy atrofiga olimlar, yozuvchilar, san'atning turli sohalaridagi kishilarni jalb qildi, ularga homiylik qildi, rahbarlik qildi. Mashhur rassom Kamoliddin Behzod, xattot Sulton Ali kabilar ham Navoiyning homiyligida kamolga yetganlar.

“Zahiriddin Muhammad Bobur” (1482-1530) “Boburnoma”da, Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1566) “Badoe' ul-vaqoe'” da, Muhammad Mirxond (1433-1498) “Ravzat us-safo”da, G'iyosiddin Xondamir (1480-1535) “Makorim ul-axloq” va Zaynulobiddin Husayniy (XV asr) “Qonun” da Hazrati Alisher Navoiyni ulug' musiqashunos sifatida ta'riflaydilar”.¹³⁵

Alisher Navoiyning ko'pqirrali ijodida musiqaga doir qator masalalar o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, Navoiy musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga doir maxsus asar yaratmagan. Faqat “Mahbub-ul qulub” asaridagi sozanda va xonandalarga bag'ishlangan qism bundan mustasno, uning musiqaga doir fikr-mulohazalari, musiqiy-estetik qarashlari adabiyot, tarixiy va ilmiy asarlarida tarqoq xolatda.

“Mahbub-ul qulub” falsafiy va ahloqiy ta'limiy asardir. “Mutrib va mug'anniy” deb nomlangan faslida Navoiy musiqa va qo'shiqqa katta e'tibor va baho beradi, turli xil sozlarni ta'riflaydi. Ayni chog'da u o'z san'atini pulga sotuvchi san'at ahlini tanqid qiladi¹³⁶.

“Majolis un-nafois” tazkirachilik yo'nalishidagi yangi asar sifatida vujudga keldi va o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi. Ushbu asar adabiyot dunyosiga tegishli bo'lsada, musiqa oid ayrim ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Navoiy davrida ko'plab yetuk musiqachilar yashab, ijod qilganliklari turli manbalardan ma'lum, jumladan “Majolis un-nafois”

¹³⁵ Oripov Z.T. Manbalarda Alisher Navoiy navolari. // Alisher Navoiy va musiqa mavzuidagi ilmiy konferentsiya materiallari (2011 yil 18 fevral). – T.: “MUMTOZ SO'Z”, 6-b.

¹³⁶ Mullaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. “O'qituvchi” 1965, www.zivouz.com kutubxonasi.

asarida ham Navoiy o'sha davrlarda ma'lum va mashhur bo'lgan musiqaga aloqador bo'lgan ijodkorlarning nomlarini zikr etadi: Mavlono Lutfiy, Xoja Sharbatiy, Xoja Yusuf Burhon va boshqalar: "Mavlono Sohob Balxiy – bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O'z g'azallarini o'z amallariga bog'labdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, "Chahorgoh" amalidirkim, mashxurdur"¹³⁷.

"Xoja Yusuf Burhon – ... va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko'proq o'z she'rig'a musiqiy bog'lar erdi. "Isfahon" amalini, bu baytig'a bog'labturkim:

Rasid mavsumi shodiyu ayshu tarab,
Agar gado ba murodi dile rasad chi ajab"¹³⁸.

"Mavlono Solimiy – ... sozlardin ud va tanbur ham o'rgandi va musiqiyda ham tasniflar bog'ladi"¹³⁹. Bastakorlardan Abdullo Marvarid, Hofiz Sharbatiy, xonandalardan Mavlono Ayniy, Hofiz Qozoq, Sozandalardan Xoja Abdulloh Sadr, Kamoliddin Udiy, musiqa risolalari mualliflaridan Jomiy, Binoiy kabilar haqida ma'lumotlar bor.

Musiqashunos T.G'ofurbekov Navoiyning "Xamsa" asari haqida quyidagicha yozadi: "Allomaning Qomusiy "Xamsa"sini, besh qo'shiq, deb idrok etish mumkin. Ya'ni "Hayratul abror" – falsafiy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan qo'shiq, "Farhod va Shirin" – jasorat va vatanparvarlik qo'shig'i, "Layli va Majnun" – betakror sevgi qo'shig'i, "Sab'ai sayyor" – vafodorlik qo'shig'i, "Saddi Iskandariy" – axloqiy qo'shiq deb atalishi mumkin"¹⁴⁰.

Musiqa haqida ma'lumotlar Navoiyning boshqa asarlarida ham uchraydi. Masalan, musiqiy cholg'ularning nomlarini olsak, "Saddi Iskandariy" dostonida ochiq havoda chalinuvchi karnay, urma


¹³⁷ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. 9-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹³⁸ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. 27-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹³⁹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. 45-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹⁴⁰ G'ofurbekov T. Temuniylar davri musiqa madaniyati. // Amir Temur va Temuniylar davrida madaniyat va san'at. – T.: 1996. 38-b.

cholg'ular haqida misralar bor. "Hazoyinul maoniy" asarida esa shoir qobuz va dafni eslab o'tadi.



A.Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoniga ishlangan miniatyura

Muallifning dostonlarida, devonlarida juda ko'p sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida, ud, nay, g'ijjak, tanbur, chang, rubob, qo'biz, qonun, rud, chag'ona, daf, nog'ora cholg'ularining nomi ko'p uchraydi.

Kamdur, ey gulruh mug'anniy husni savting janbida,

Yangi oy birla quyosh jirmidin o'lsa **changu daf**.

Mazkur baytda chang va daf cholg'ularining nomlari ifodalangan. "Ey gulyuzli mug'anniy, tovushing go'zalligi yonida yangi oy va quyosh jismidan bo'lgan chang va doiraning ovozi kamlik qiladi". Bu yerda Navoiy mug'anniyning ovozi daf va chang cholg'ularidan go'zal va mayinroq ekanligini aytib, inson ovozi eng mukammal cholg'u

ekanligiga ishora qilish bilan birga dafni quyoshga, changni yangi chiqqan oyga qiyoslash orqali cholg'ularning ko'rinishlarini tabiatdagi mavjud vositalarga mengzab tasvirlaydiki, bundan o'sha cholg'ular tashqi qiyofasi xususida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.¹⁴¹

Navoiy asarlarida kuylar va musiqiy shakllar masalasi ham ma'lum darajada aks etgan. O'sha zamonlarda bastakorlar ko'proq amal, savt, naqsh, peshrav, tarona shakllarida kuy va qo'shiqlar yaratganlar.

Allomaning ijodida musiqaning ba'zi nazariy va amaliy masalalari ham o'z ifodasini topgan. Masalan, "Mezonul-avzon" asari she'r o'lchovlarini asoslab beruvchi risola bo'lib, unda musiqa nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan qator holatlar bor. Navoiyning ko'rsatishicha she'r vaznlari sabab, vatad va fosila deyilgan uch xil ruklardan tuziladi. Musiqa risolalarida ham xuddi shunday. She'r o'lchovlari va musiqa ritm o'lchovlari bir xil asosga ega ekanligi ularning uzun-qisqa bo'g'inlardan tashkil topganligidadir. Mazkur asarida muallif vaznlarning turlari haqida gapirar ekan, oddiy xalq qo'shiqlari haqida ham ma'lumotlar beradi va ularga aytiladigan she'r matnlarini keltiradi.

Shuningdek, Navoiy bizga ma'lum va ma'lum bo'lmagan "tuyug'", "qo'shuq", "chinga", "Muhabbatnoma", "mustazod", "aruzvoriy", "budi-budoyi", "turkiy" kabi musiqiy janr va ashulalarga to'xtaladi hamda har biriga misollar keltirib tushuntiradi.¹⁴²

She'riyat va musiqa mavzusi haqida gapirilganda, albatta yorqin misol sifatida Alisher Navoiyning ijodiga e'tibor qaratiladi. Navoiy g'azallari u hayotlik davridayoq musiqiy asarlar matni sifatida musiqachilar tomonidan qo'llanilgan. Keyingi asrlarda ham Navoiy she'riyati namunalari musiqachilar amaliyotida keng qo'llanildi.

¹⁴¹ Jo'rayeva L. "Alisher Navoiy va musiqa san'ati: tarix, tahlil, o'tmishdan – zamonaviylikka" dissertatsiyasi materialidan. 1.3. XV asr musiqiy chokg'ulari va ularning hozirgi qiyofasi.

¹⁴² Jo'rayeva L. "Alisher Navoiy va musiqa san'ati: tarix, tahlil, o'tmishdan – zamonaviylikka" dissertatsiyasi materialidan. 1.2. Shoir ta'riflarida musiqiy janrlar va shakllar.

Bugungi kunda butun Shashmaqom turkumini notaga tushirgan akademik Yunus Rajabiy notaga olgan maqom namunalarning ko'pchiligi, g'azal mulkinging sultoni Hazrat Alisher Navoiy so'zi bilan ijro etiladi. Ayniqsa, Xorazm va Farg'ona – Toshkent maqom yo'llarida Navoiy she'rlari eng ko'p aytiladigan shoir. Chunki Navoiyning baytlari o'zining ohangi, o'ziga xos navosi bilan yaralgan. Bunga sabab esa shoirning musiqa ilmini, uning nazariy asoslarini, bastakorlikka oid jihatlarini puxta egallaganligidir.¹⁴³

Hozirgi kunga qadar bizgacha yetib kelgan mumtoz ashula yo'llari orasida ardoqli hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1868-1943)ning xalq orasida "Qaro ko'zum" yoki "Toshkent Ushshog'i" nomi bilan mashhur bo'lgan ashula yo'li o'zining betakror tarovati bilan bir necha yillardan beri tinglovchilar qalbidan o'rin olib kelmoqda. Bu mumtoz ashulaga hazrati Navoiyning quyidagi g'azali asos bo'lgan:

Qora ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,
Qo'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzing guliga qo'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovarigg'a bag'ir qonidin hino bog'la,
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang qo'ngullarni,
Sochingni boshdin-oyoq chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

¹⁴³ Jo'rayeva L. "Alisher Navoiy va musiqa san'ati: tarix, tahlil, o'tmishdan – zamonaviylikka" dissertatsiyasi materialidan. 3-bob. Alisher Navoiy va maqomot.

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, mani
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg‘il.

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshhoqlig‘ o‘qin sham‘i anjuman qilg‘il.

Yana bir misol sifatida “Chorgoh” kuyi uchun she‘riy matn sifatida kelgan Navoiyning “Zulfing ochilib...” so‘zlari bilan boshlanuvchi g‘azalini keltirish mumkin.

Musiqachilar she‘riyatning nafaqat g‘azal janriga, balki muxammas asosida ham bir qator ajoyb musiqiy asarlar yaratganlar. Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) ijodiy merosiga mansub “Guluzorim” Navoiyning muxammasi asosida yaratilgan:

Goh majnun elga, goh men sog‘ ilan teng o‘lmisham,
Hasratingdan lola yanglig‘ dog‘ ilan teng o‘lmisham,
Kim, xazon faslidagi yaprog‘ ilan teng o‘lmisham,
Yor ko‘yi ichkarim, tuprog‘ ilan teng o‘lmisham,
Ishq savdosi bu yanglig‘ poymol etmish meni...

Yuqorida berilgan misollarga o‘xshashlarini o‘zbek musiqa merosidan ko‘p topish mumkin.

XX asr o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida Navoiy asarlarining ahamiyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Navoiy dostonlari o‘zbek musiqali teatrining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. 20-yillarda musiqali drama janri shakllana boshladi. Dramaturg Xurshid sahnalashtirgan birinchi asar Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bo‘ldi (1922-yil). 1933-yili esa aynan shu asar musiqali drama janri ko‘rinishida tomoshabinlarga havola etildi. Nisbatan kechroq esa “Farhod va Shirin” operasi dunyoga keldi (V.A.Uspenskiy va G.A.Mushel hamkorligida). “Layli va Majnun” dostoniga ham ana shunday musiqiy hayot berildi.

“Sab‘ai sayyor” dostoni “Dilorom” operasi ko‘rinishida 1958-yili sahna yuzini ko‘rdi. Mazkur opera muallifi kompozitor Muxtor Ashrafiydir.

Buyuk shoir she‘rlari musiqa olamida romans janri ko‘rinishida ham talqin etildi. D.Zokirovning “Ko‘rmadim”, M.Burhonovning “Tabassum qilmading hech”, S.Yudakovning “Basandast”, T.Sodiqovning “Sarvi gul”, Ik.Akbarovning “Gul ichra” romanslarini misol sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Kompozitorlik ijodiyotining simfoniya janrida ham “Navoiy va musiqa” mavzusi o‘z o‘rniga ega. V.A.Uspenskiyning “Alisher Navoiy xotirasiga lirik poema”, M.Burhonovning “Alisher Navoiyga qasida”, G.A.Mushelning “Alisher Navoiy xotirasiga” simfoniyasi va boshqalar bunga misol bo‘la oladi.

“Navoiy va musiqa” mavzusining yoritilmagan sahifalari ko‘p. Bu masala zamonaviy musiqashunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi kunlarda ham, kelajakda ham hazrat Alisher Navoiyning asarlari yangi-yangi darajalarda o‘z talqinini topib boradi, negaki, uning ijodiy merosi cheksiz ummon kabidir.

Tayanch so‘zlar: adabiyot, musiqa, she‘riyat, mumtoz, tazkira, cholg‘u.

Nazorat savollari

1. Alisher Navoiy asarlarini nomlarini ayting.
2. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida musiqiy cholg‘ular haqida ma‘lumotlar topish mumkin?
3. Alisher Navoiyning qaysi asarida mutrib va mug‘anniylarga bag‘ishlangan bob bor?
4. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois asarida haqida qisqacha ma‘lumot bering.
5. “Majolis un-nafois” asarida muallif o‘z davrining musiqaga oid qanday ma‘lumotlar bor?

6. Alisher Navoiy so'zlari bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqiy namunalarni bilasizmi?
7. XX asr o'zbek musiqasida Navoiy syujetlari asosida yaratilgan qaysi sahnaviy asarlarni bilasiz?
8. Navoiy so'zlariga romans yaratgan kompozitorlarni ayting.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1. "Alisher Navoiy ijodi" mavzusida besh minutlik ma'ruza tayyorlash.
2. "Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga ishlangan miniatyuralar" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
3. "Majolis un-nafois" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
4. "Alisher Navoiy va teatr" mavzusida besh minutlik ma'ruza tayyorlash.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Alisher Navoiy va musiqa. Ilmiy konferensiya materiallari (2011 yil 18 fevral). – T.: "MUMTOZ SO'Z", 2011.
3. Баймухамедова Н. Алишер Навои о музыке. // История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – М., 1972, с. 376-386.
4. Bertels Ye.E. Navoiy va Sharq adabiyoti. // Jahon adabiyoti. №2. – T., 2006, 135-141 b.
5. Ibrohimov O. Hazrat Navoiy va maqom. // Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. II jild. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002, 53-64 b.
6. Ibragimov O. Ranglarda sadolangan maqomlar. // Shashmaqom saboqlari. (Maqola va mahruzalar to'plami). II jild. – T.: 2005, 50-70 b.
7. Каримова З.Г. Навои в музыке – Т., 1988.

8. Konrad N.I. Renessans va Navoiy. // Jahon adabiyoti. №2. – T., 2006. – 123-134 b.
9. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. "O'qituvchi", 1965.
www.ziyouz.com kutubxonasi.
10. Nabiyeva M. 1990 yillar kompozitorlik ijodida Alisher Navoiy nazmi. // Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. II jild. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002, 87-97 b.
11. Oripov Z. Navoiy davri musiqa risolalari haqida. // Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. II jild. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002, 47-52 b.
12. G'ofurbekov T. Temuriylar davri musiqa madaniyati. // Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va sanhat. – T.: 1996, 34-44 b.
13. Ergasheva Ch. Toshkent Ushshog'i. // Moziydan sado. №4. 2009, 44-45 b.

Vocal music – relating to the human voice.	Qavl – ashula; Inson tovushi bilan ijro etiladigan musiqa asarlari.
Metre – Poems, considered as a form of literature .	Vazn – she'riy va musiqiy o'lchov.
Kvinta – interval kvinta.	Zul xams – kvinta.
Tractat – Scientific and practical guide for musicians.	Risola – sozandalar uchun ilmiy va amaliy qo'llanma.
Kvarta – interval kvarta.	Zul arba' – kvarta.
Aruz – is a kind of poetic rhythm.	Aruz – uzun va qisqa bo'g'inlar munosabatiga asoslanuvchi she'riy vazn.
Scale – combinations of harmony.	Ja'm – lad birikmasi, jinslar yig'indisi.

XVI-XVII asrlarda madaniy-musiqiy hayot




XVI asrning boshida (1505 yil) Hirot Shayboniylar tomonidan ishg'ol etildi. Temuriylar imperiyasi Movaraunnahr, Eron va SHimoliy Hindiston (Boburiylar) kabi uchta yirik hududga ajralib ketdi.

“Boburiylar davri ijrochilik amaliyotida mavjud bo‘lgan cholg‘ularni biz aynan qiyosiy tomonlama o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilgan edik deb-yozadi musiqashunos olimi Munojat A‘zamova ilmiy maqolasida chunonchi, afg‘on rubobi va kashmir rababi, g‘ijjak va sarangi, dilruba va dilrabo, naqqara va nog‘ora cholg‘ulari aynan ikki xalq e‘tiqodi va ruhiyatining bir-biriga tutashgan va mos keladigan cholg‘ulari sifatida xalq ijrochilik amaliyotida mashhurlikka erishgan cholg‘u sozlardir. Boburiylar davrida yaratilib mashhur bo‘lgan cholg‘ular ko‘p bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Albatta ular orasida o‘zbekona nog‘ora, karnay,

surnay, dutor, tanburlar ham ilk davrlarda iste‘molda bo‘lgan bo‘lishi kerak. Davrlar o‘tishi bilan xalq an‘anasi, ommaviy mezon bilan qorishib ustuvor milliy mezonlar bilan uyg‘unlashib ketgan desak adashmagan bo‘lamiz”.

Boburiylar hukmronligi davrida cholg‘ularining ta‘siri ikki xalqning ijrochilik amaliyotida qo‘llanilgan. “Dilruba” xonandalar uchun jo‘rnovoz soz sifatida shakllandi. Cholg‘usining to‘rtta asosiy va 7 tadan 11 tagacha yordamchi torlari mavjud.




Dilrabo – o‘zbek musiqasi ijrochilik amaliyotiga yaqinda kirib kelgan cholg‘u asboblardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqi musiq madaniyati uchun bu hol unutilmas hodisalardan biri bo‘lib, tarixga muhlansa ajab emas. Dilrabo cholg‘usining kelib chiqishiga hind ijrochilik amaliyotida ommalashgan “dilruba” cholg‘usi sababchi bo‘lgan. U Andijonlik usta-muallif, Abdumalik Madraimov tomonidan qayta ishlangan, o‘zbek xalqida keng tarqalgan afg‘on

rubobi, ud va dutor baslarning uyg'unligida yaratilgan yangi cholg'udir.



“G'ijjak Boburiy” cholg'usining tarixi va yaratilishiga oid ma'lumotlar hozirgi kunga qadar aniqlanmagan. Bu cholg'u haqida cholg'ushunoslar, ijrochilar ham aniq bir ma'lumot keltirmaganlar. G'ijjak Boburiy cholg'usi o'tmishdagi torli cholg'ular, aniqrog'i “skripka” cholg'usi asosida yaratilgan desak xato qilmaymiz. G'ijjak Boburiy kamonli va chertib chalinadigan sozlarning miniatyura asarlaridagi tasviriga qarab ishlangani va u XVI-XVII asrlarda ishlatilgan sozlar turkumiga kirishi ushbu cholg'uning usta-mualliffi Abdumalik Madraimovning “G'ijjak Boburiy”¹⁴⁴ broshyurasida ta'kidlab o'tilgan. “T.S.Vizgo asaridagi sozanda surati biz uchun asosiy manba hisoblanadi.



¹⁴⁴ Abdumalik Madraimov “G'ijjak Boburiy” Yohud Temuriylar sulolasi davridagi o'zbek musiqa sozi Andijon, 1996.

Tarixning ana shunday murakkab burilish paytida temuriylar davri, xususan, Samarqand va Hirot boy madaniy an'analarining munosib vorisi sifatida Buxoro maydonga chiqdi. Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylangan Buxoroga zamonasining ko'zga ko'ringan ilmu ma'rifat, adabiyot va san'at ahli intila boshladi hamda unda yangi tarixiy sharoitlarda she'riyat, musiqa va tasviriy san'atning “Buxoro maktabi” deb nom olgan uslubi taraqqiy topdi.

Najmiddin Kavkabi Buxoriy – Buxoro ilm va san'at ahli orasida Hirot oltin davri ta'siri ostida shakllangan yirik olim va sozanda Najmiddin Kavkabi (1473-1533) ham bor edi.

Najmiddin Kavkabi, bizga ma'lum tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda Mavlono Gavhariy oilasida, tahminan 1473 yilda tavallud topgan. F.To'raev esa uni 1480 yilda tavallud topganligini aytib o'tadi¹⁴⁵. Manbalarga ko'ra u Buxoroda ulg'ayib, o'sha davrda madaniyat markazi bo'lmish Hirot shahrining madrasalaridan birida tahsil ko'rgan va turli fanlar sohasida, shu jumladan, musiqa nazariyasi, ritm va aruz qoidalaridan bahs etuvchi ilmiy risolalar yozgan, degan ma'lumotlar ham mavjud¹⁴⁶.

Kavkabi yoshligida astronomiya bilan shug'ullangan. Alisher Navoiy (1441-1501) “Majolis un-nafois”da uni munajjim bo'lganligini tilga oladi va shoir sifatidagi bitta baytini keltiradi. Navoiyning ta'kidlashicha, Kavkabi (yulduzli) taxallusini ham Najmiddin astronomiya bilan shug'ullangani uchun ortirgan. Navoiy bobomiz uni ko'rganligi va uchrashganligini tilga olmaydi. Hazratning yaqin do'stlari unga Kavkabi bilan uchrashganligini aytishgan ekan. “Majolis un-nafois”dagi mo'xtabar so'zlarga diqqat bilan razm solaylik.

«Mavlono Kavkabi – munajjim yigitdur va o'z fanig'a munosib taxallus ixtiyor qilibdur. Faqir andoq xayol qilurmenkim, oni

¹⁴⁵ To'raev F. Buxoro mug'anniyolari. – T.: Fan, 2008. 14-17-betlar.

¹⁴⁶ Ishoq Rajabov. Maqomlar. (Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov). – T.: “San'at” 2006. 35-bet.

ko'rmaymen. Ba'zi yoronlar derlarkim, ko'rubsen, xotirg'a kelmadi.
Bu matla' aningdurkim:

Be ruxash har qatrai xun bar sari mujgon maro,
Mash'ale boshad furo'zon dar shabi hijron maro"¹⁴⁷.

Alisher Navoiy uni eslay olmaganligiga bois "Majolis un-nafois" yozilgan paytlarda Kavkabiylar hali talaba bo'lib, xoslarning nufuzli majlislar doirasida emasligidan dalolat beradi. Bu paytda Kavkabiylar asosiy ixtisosi ilmi nujumga qiziqib, ba'zida ash'orlar bitib yurgan vaqtlari bo'lgan bo'lsa kerak. Keyinchalik Hirot musiqiy davralaridan bahramand bo'lgan Kavkabiylar musiqashunoslik sohasida ham kamolga yetdi. Bu matnning e'tibor beradigan muhim jihati shundaki, Alisher Navoiy Kavkabiylarni tazkiraning uchinchi majlisi yozilayotgan paytda, ya'ni tirik, qaynoq ijod bilan shug'ullanayotgan va buyuk alloma ta'biri bilan aytganda, "ba'zining mulozamatig'a musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramand" bo'lganlar, jumladan, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Binoiy kabi ulug'lar panohidagilar qatorida zikr qilganligidir. Demak, Alisher Navoiy yosh talaba bo'lmish Kavkabiylar bilan bevosita uchrashib, uning yorqin iste'dodidan xushnud bo'lgan deyishimiz ham mumkin. Kavkabiylar Ubaydulloxon (1533-1540) saroyida xizmat qilgan.

Hasanxo'ja Nisoriy Kavkabiylarning Kulliyotidan olingan o'n ikki maqom va olti ovoz ta'rifi to'rt baytda ifodalagan mashhur g'azalini keltirgandan keyin, uning mahoratli shoir sifatidagi bir g'azalining maqta'sini namuna ko'rsatadi:

Chun Kavkabiylar hayron, shodam bo g'ami xubon,
Ishq ast maro pesha, har kas xunare dorad.
Mazmuni:

Kavkabiylar yor g'amidin ersa shodman,

¹⁴⁷ Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. Majolis un-nafois. O'n ikkinchi tom. – T.: G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashri, 1966. 111-bet. Kavkabiylar baytining ma'nosi quyidagicha: (badiiy tarjimai) Kiprigim qonlarin qizil chirog'i, Mash'al bo'lib chaqnar hajring firog'i.

Ishq aro har kimda bir hunar boridin hayron.

Demak, Kavkabiylar shoir sifatida ham lirik g'azallar ijod qilganligi va devon tuzganligi aniq. Lekin, bu manba hali bizgacha ma'lum emas. Uning devon tuzganligini Darvish Ali Changiylar ham aytib o'tgan¹⁴⁸.

Ubaydulloxon saroyining ko'rki bo'lgan Najmiddin Kavkabiylar haqida Hasanxo'ja Nisoriy (1516-1597) "Muzakkiri ahhob" ("Do'stlar yodnomasi") asarida quyidagicha zikr qilib o'tgan:

"Va mullo Kavkabiylar musiqashunoslik sohasida Ubaydulloxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'rif va iyqo' haqida so'z yuritgan, hajm jinlar bahsini ham keltirib... O'n ikki maqomni olti ovozda nazm qilib manzumaga kulliyot bog'lagankim, musanniflar bir ovozdan bu dilqash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar va bu savt beg'asht dillarda o'zining latofati tufayli toshga o'yilgan naqshday saqlanib qoladi... Hiriylar Buxoroga qaytayotganida yo'lda shaxodat sharbatini tatigan¹⁴⁹.

Aytish joizki, Kavkabiylarning nafaqat tavalludi, balki o'limi bilan bog'liq ma'lumotlarda ham noaniqliklar ko'zga tashlanadi. Xususan, Ishoq Rajabov "Maqomlar" kitobi (T., 2006. 35-bet)da Mavlono Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy 1576 yilda jazolab o'ldirilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Nazarimizda ushbu xatolik Ubaydulloxonning hukmronlik davri (1533-1559)dan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. Aslida esa Ubaydulloxonning hukmronlik davri (1533-1540) yillarni o'z ichiga olib, Darvish Ali Changiylarning xabar berishicha Kavkabiylar aynan Ubaydulloxonning ruxsati bilan muborak Xaj safariga o'tlanadi va qaytishda Eron shohi Taxmasp tomonidan vahshiylaracha o'ldiriladi.

Najmiddin Kavkabiylarning "Risolai musiqiy"si birinchi faslda musiqashunoslik ilmining kelib chiqishi, musiqashunoslik so'zining ma'nosiga

¹⁴⁸ Darvish Ali Changiylar. O'zR FA SHI № 449. 71 a. varaq. Baxtiyir Ashurov tarjimai.

¹⁴⁹ Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. Ismoil Bekjon tarjimai. – T.: 1993, 140-141 betlar.

to'xtaladi¹⁵⁰. Shu yerda u ustozni Mavlono Najmiddin Kavkabiyning ushbu ruboiysini keltirgan.

On nag'maki, ruh qolibi inson buvad,
Hamroh ba-u savti xushi pinhon buvad.
Go'yandki, savt bud bo-jon hamroh,
Hamroh ba-jon mago'ki u xud jon buvad.

(Mazmuni: Inson jasadiga ruh puflanganda u, bilan birga hamroh bo'lib, yaxshi sas pinhon bo'lgan edi. Sas jon bilan hamroh edi, deydilar. Jon bilan hamroh edi, deb aytma, balki uning o'zi jon bo'lgan edi)¹⁵¹.

Risolaning ikkinchi faslida musiqaning tarkibiy jihatlari haqida gapirarkan, u haqda shunday deydi: "Bu bir ilmki, unda nag'ma(kuy, qo'shiq)lar ahvoli bir-birlariga nisbatan muloyimat (yoqimli, munosib tovushlar. Izoh B.Ashurovnik) va munofiratdir (nomunosiblik, yoqimsiz tovushlar haqidadir.

Bu ilmning mavzusi lahnlar bo'lib, muloyimat va munofirat jihatidan uning zotiy holatlaridan bahs yuritishdir. Chunonchi, bu yuqorida zikr etildi. Luqmonning shogirdi Fisog'uris hakim ushbu ilmni o'ylab chiqargan, deydilar. U ushbu ilmdan ogoh bo'lganligining sababi shuki, kechasi tushida bir kimsa uning oldiga kelganini ko'rdi. Unga: «Ertalab temirchilar bozoridan yurib o'tgin, shunda hikmat sirlaridan bir sir senga ochiladi», deyildi. Ertalab turib, sahardanoq o'sha aytilgan tarafga bordi. O'sha bozorda sirni ochish andishasida turdi. Shunda jismga oz-ozdan urilayotgan saslarni eshitdi, ular bir-birlariga shunday munosib ediki, undan qandaydir lazzat tuydi. U yerdan bir burchakka chiqib, og'ziga bir tola sochni oldi va tirnog'i bilan uni qimirlatdi. Undan ovoz chiqdi. Ammo bu

¹⁵⁰ Mazkur ma'lumotlar Baxtiyor Shokirovich Ashurov dissertatsiyasidan foydalanildi. N.Kavkabi. Risolai musiqiy. O'zR FA SHI. Inv. № 468/4. 64a varoq.

¹⁵¹ Tarjima Baxtiyor Ashurovnik.

tola zaif edi, uni ipakka alishtirdi. Bir asbob yaratib unga ipak bog'lashni o'ylab qo'ydi.

Bir kuni tog' etagidan o'tib ketayotgan edi, o'lgan toshbaqa yotgan ekan. Chirib, faqat kosa suyagi qolgan. Shu vaqt kuchli shamol turib qoldi. Undan ovoz chiqar edi. Uni ko'tarib oldi va (shundan keyinchalik) barbatni yasadi. Unga bir dasta bog'lab, uni takomillashtirishga, to'ldirishga harakat qildi. Barbat shu xilda kamolga yetdi. Alloh taolo bilguvchiroq!

Risolaning uchinchi faslida nag'ma ta'rifi haqida so'z boradi.

To'rtinchi faslida bo'ad, jins va jam'ning ta'rifi haqidadir.

Beshinchi fasl asliyi pardalar bayoni haqida.

Oltinchi fasli ovozlar va sho'abalar nisbati haqidadir.

Yettinchi fasli murakkabotlar bayoni haqidadir.

Sakkizinchi fasl naqra ta'rifi haqidadir.

To'qqizinchi fasl iyqo' ta'rifi haqidadir.

O'ninchi fasl advor az-zurublar haqidadir.

O'n birinchi fasl bir-birlaridan ajralib turish jihatidan sinflarga tasnif qilib taqsimlash haqida.

O'n ikkinchi faslda usul jihatidan bir-biridan ajralib turadigan qismlar haqidadir.

Kavkabiyning o'zi yaratgan «Kulliyot» navbasi mulohazalari haqidagi undan keyin yuzaga kelgan maqom tamoyillarini tushunishda alohida mazmun kasb etadi. Zero, Kulliyot umumiy tuzilishi Shashmaqomga o'xshaydigan va Buxoroda yaratilgan musiqa majmuasi. Bu haqda Kavkabi quydagilarni xitob qiladi: – «Bu faqir ba'zi ustozlar mulozamatida bo'lgan chog'larimda mazkur chegaralari belgilangan taqsimni ularga aytib berdim. Pisand qildilar va istehsonlar bildirdilar. Aytdilarkim, sen o'zing aytib bergan narsalarni boshqalardan eshitmadik. Ular sening ixtiroingdir».

Risolaning xotima qismi «Nag'malarning holati», ta'siri va ijro etish vaqtiga rioyat qilish» deyiladi. Unda sozandalar e'tiborga olishi lozim bo'lgan mutaorif tartib va nizomlar ko'zda tutiladi. Masalan,

majlis ahli taqvodor va solihlar bo'lsa, qavvol (xonanda) pandi nasihat va oxirat ishlaridan aytmoqi lozim. Agar musofirlardan bo'lsa vatan firoqi, yoru-do'st, hijroni va umr bevafoigidan aytmoq kerak.

Najmiddin Kavkabiylarning davrining ko'zga ko'ringan musiqashunoslaridan biri Mavlono Surudiy (XVI asr) edi. Uni Hofiz Surudiy deb ham ataganlar. U ko'proq Abdullaxon saroyida xizmat qilgan. Hirotida o'qigan. Kavkabiylar bilan qariyb tengdosh edi.

O'sha davrning yana bir sozanda va bastakori Bobo SHO'xiy Mutribidir. U musiqiy ilmida va ijodida shuhrat qozongan edi. Uning Savti SHO'xiy, Naqshi Bobo, Peshravi SHO'xiy kabi bastalagan kuylari san'atkorlar orasida mashhur bo'lgan¹⁵².

Yana bir mashhur sozandalardan Hofizi Kalon qorining nomini tilga olmasdan iloj yo'q. U asli Samarqandlik bo'lib, Buxoroda ijod etgan. Bu haqda Hasanxo'ja Nisoriy quyidagicha tavsir beradi: "Samarqandning mo'tabar sohibi vuquf hofizlaridan va yaxshi qiroatli qoriylaridan. SHayboniyxon huzurida to'la ishonchga erishgan kishi ekan"¹⁵³. Uning bastalagan kuylaridan: Amali Kalon, Naqshi Kalon, Savti Kalon singari kuylari juda mashhur bo'lgan. Fikrimizcha, amaldagi Shashmaqom turkumidagi Navo maqomidagi ikkinchi guruh sho'balaridan Savti Kalon muallifi aynan shu bastakor ekanligi shubha qoldirmaydi.

Mir Ahmad Xatib ham mashhur hofizlardan bo'lib, Hofizi Kalonning e'tiborli shogirdlaridandir. Darvish Ali Changiy aytishiga qaraganda butun umrini bu sharofatli ilmga bag'ishlagan, ahli amal oldida e'tibor topgan, bu san'atda ko'pgina asarlar ijod qilgan zot edi. Mir Ahmad Xatib – Peshravi Hisor nomli kuy tasnif qilgan bo'lib, u yetti qismdan iborat bo'lgan. Ruhiiy Tanburiy ham Buxoro, Samarqand va Hirotida shuhrat qozongan taniqli bastakor va musiqashunos bo'lgan. Qosim Qonuniy ham mashhur xonanda sifatida bir qancha kuylar bastalagan, irfoniy-tasavvufiy g'azallar

¹⁵² O'sha asar. 12-bet.

¹⁵³ Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Ismoil Bekjon tarjimasi. – T.: 1993, 159-bet.

bilan odamlarning dilini xushnud qilgan taniqli ijodkorlardan biri edi. Do'stmuhammad Udiy ham Savti Diljo', Amali Udiy, Qavli Murassa', Rehtai Navo, Kori Husayniy kabi kuylar ijod qilgan sozandadir.

Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy esa Hirot va Buxoro musiqiy sarchashmalaridan to'la bahramand bo'lgan va o'z davrining eng ko'zga ko'ringan musiqashunosi sifatida tarixda qoldi. Kavkabiylar haqida boshqalardan ko'ra batafsilroq ma'lumot bergan ham Darvish Ali Changiy bo'ladi. U o'zining "Risolai musiqiy" asarida nufuzli musiqashunoslar qatorida Najmiddin Kavkabiylar Buxoriyga alohida o'rin ajratgan¹⁵⁴.

Umuman olganda, Najmiddin Kavkabiylarning asarlari musiqa ilmining rivojlanishida alohida bir davrni tashkil etadi. Keyingi vaqtlarda Movarounnahr, Eron va Hindistonda ijod qilgan ko'pchilik musiqashunoslar o'zlarini Kavkabiylar maktabining davomchilari deb biladilar.

XVI asrda yaratilgan risolalar orasida Najmiddin Kavkabiylarning "Musiqai risolasi" O'n ikki maqom tizimini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Hasanxo'ja Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahbob" tazkirasida quyidagicha yozadi: "Mullo Kavkabiylar musiqa sohasida Ubaydulloxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'lif va iyqo' haqida so'z yuritgan, jam', jinslar bahsini ham keltirib, yettita bo'lgan birinchi tabaqa zarbidan va o'n uchta bo'lgan ikkinchi tabaqa zarbidan hosil bo'luvchi 12 maqomni 6 ovozda nazm qilib

¹⁵⁴ O'sha asar. 70 b. va 73 a. varaqlar.



(Risolaning asl nusxa ko'rinishi)

manzumaga kulliyot bog'lagankim, musanniflar bir ovozdan bu dilkash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar"¹⁵⁵.

Najmiddin Kavkabiyning 13 bobdan iborat "Musiqiy risola"si bir qarashda yuqorida ko'rib chiqilgan asarlardan deyarli farqlanmaydi, zero ularning mazmunida O'n ikki maqom tizimi tarkibiy guruhlarini – 12 maqom, 6 ovoz, 24 sho'ba, murakkabot va iyqo' masalalari tavsif etilgan. Shu bilan birga risolada farqli jihatlar ham mavjud. Jumladan, unda ud cholg'usining tori 17 qismga (tonga) bo'linishi haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Shuningdek, ovozlar va sho'balalar alohida guruhlar sifatida emas, balki maqomlarga birlashtirilgan holda tasnif etilgan. Kavkabiyning risolasi shu jihatlari bilan ham keyingi asrlarda yozilgan ilmiy asarlarga namuna bo'lgan edi.

¹⁵⁵ Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 140-b.

Darvish Ali Changiy – XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida Buxoroda yashab ijod etgan musiqashunos alloma, mohir sozanda va xonanda. Mirzaoliy Changiy oilasida tavallud topgan bo'lib, o'z davrining yirik musiqashunosi, ohangsozi, mutribi va shoiri bo'lib yetishdi. Darvish Ali Changiy dastlabki ma'lumotini Buxoro va Samarqand madrasalarida oladi. U juda yoshligidan musiqa havasmand bo'lib, qonun, nay, g'ijjak, ruhafzo va chang kabi musiqa asboblari chalishni Alido'sti Nayi, Xoja Ja'fari Qonuniy, Mirmasti, Mavlono Hasan Kavkabi, Husayn Udiy, Amir Fathi Toshkendi kabi zabardast ustozlardan o'rganadi va bu sozlarda xalq kuylarini o'ziga xos uslubda ijro etib, el orasida katta shuhrat qozonadi¹⁵⁶.

Darvish Ali Changiyning musiqiy merosi o'sha davrda mavjud Buxoro maqomlarining asl ildizlarini anglab yetishda, nazariy masalalarga oydinlik kiritishda butun Markaziy Osiy xalqlari tarixida katta ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Ishoq Rajabiy lug'atlarida quyidagilar bitilgan: "XV-XVII asr boshlarida Turkiston xalqlari musiqa madaniyati tarixiga doir boy ma'lumotlar keltirilgan"¹⁵⁷.

Najmiddin Kavkabiyning shogird va izdoshlari qatorida Darvish Ali Changiy alohida mavqega ega. Darvish Ali yigitligida Abdullohxon (uning otasi Iskandarxon davrida), keksaygan paytlarida esa Imomqulixon saroyida xizmat qilgan va ularning har biriga atab mustaqil risolalar bitgan. Ustozi Kavkabiyni o'xshab, u turli ilm sohalarini o'zlashtirgan shoir, sozanda, hofiz va olim sifatida shuhrat qozongan. O'z mavqega ko'ra Darvish Alini islom SHarqining atoqli musiqashunoslari silsilasining so'nggi namoyandalaridan biri deyish mumkin. Olimning mavzuga oid eng yirik asarlaridan biri "Risolai musiqiy" ("Musiqi risolasi") mazkur ilmning an'anaviy parda va usulga oid masalalarinigina yoritib qolmasdan, sozandalar hayoti va ijodiga tegishli tazkiraviy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu

¹⁵⁶ To'raev F. Buxoro mug'anniylari. – T.: "Fan", 2008. 24-bet.

¹⁵⁷ O'zR SI. R-12. № 954. I.Rajabov. Sharh musiqa atamalarining qisqacha lug'ati. – T.: 1997, (Mashinkada terilgan nusxa) 42-bet.

nuqtai nazardan “Risolai musiqiy” nazariy hamda tarixiy ahamiyatga molik risola hisoblanadi.

Darvish Ali Changiyning to‘liq nomi Hofiz Darvish Ali Changiyi Xoqoniy ibn Mirzo Ali Changiy ibn Abdulali Qonuniy ibn Amir Hoshim Qonuniy ibn Xoja Abdulloh Marvariddir. Uning otasi Mirzo Ali CHangiy Darvish Aliga changdan, musiqiyshunoslikdan dars bergan bo‘lib, u o‘z otasi haqida “Risolai musiqiy” asarida bunday degan: “Padar, oliy ustoz, fazilatli janob Mirzo Ali Changiy bo‘lib, *advor ilmida* zamona ajoyibotlaridan (‘ujuba-i ro‘zgor) edi¹⁵⁸.”

Oila silsilasining boshlig‘i Shahobiddin Xoja Abdulloh Marvarid Kirmoniy esa temuriylar davrining eng ko‘zga ko‘ringan munshiy va bastakor, musiqadonlaridan biri hisoblanadi. U buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning yaqin do‘stlaridan biri bo‘lgan hamda davlat arbobi sifatida sadr hamda vazirlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. U 922/1516 yilda vafot qilgan bo‘lib, Bayoniy taxallusi bilan ash‘orlar bitgan. Uning devoni hamda davlat hujjatlarini yuritish yo‘llarini o‘rgatadigan asari bizgacha yetib kelgan¹⁵⁹.

Darvish Ali Changiy “Changiy-i Xoqoniy” (Xoqonning changchisi) unvoni bilan saroyda obro‘ qozongan edi. U ilk bor shayboniylardan Iskandarxon (1583-1598) davrida saroyga jalb qilingan va bu davrda uning o‘g‘li Abdullohxon II ga bag‘ishlab, “Risolai musiqiy”ning ilk variantini yaratadi: *ابتدای تاریخ این رساله نهصد* “Bu risola tarixining ibtidosi 980 da edi”¹⁶⁰.

Darvish Ali Changiy yoshligidan o‘z davrining taniqli musiqa namoyandalaridan saboq olgan. Yuqorida aytganimizdek, u ilk saboqni o‘z otasi Mirzo Ali Changiydan oladi. So‘ng “Janobi Mavlono Husayn Gurba ning ustoz va mavlono sifatidagi nihoyasiz

¹⁵⁸ O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, № 468/I – V. 5^b.

¹⁵⁹ Qarang: Hasanxo‘ja Nisoriy Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi). / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasini. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 31-bet.

¹⁶⁰ 980 hijriy yil milodiy hisobda 1572 yil 14 maydan 1573 yil 3 maygacha davom etadi. Qarang: O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, № 468/I. – V. 3^a.


lutflari menga tushdi”¹⁶¹. Keyinchalik Darvish Ali Changiyga Ja‘far Qonuniy, Alido‘st Noyiy, Hofiz Mirakiy kabilar ustozlik qilganlar.

Bunga, jumladan, Darvish Ali Changiyning XVII asr birinchi yarmida yozilgan “Musiqiy risolasi” misol bo‘lishi mumkin¹⁶². Risola mazmunida, xu-susan, 17 pog‘onali tovushqator haqida umuman ma‘lumot yo‘q, maqom va sho‘balar nisbati esa Kavkabiylar islohiga ergashilgan holda tasniflangan. Ayni paytda Darvish Ali Changiyning 12 bobdan iborat mazkur ilmiy asari avvalgi risolalardan tuzilishi va mazmun jihatlari bilan anchagina farqlanadi. Unda musiqiy risola va tazkira janrlari o‘ziga xos uyg‘un etilgan. Chunki risola boblarining mazmunida (tazkiralarda bo‘lgani kabi) o‘sha davrlarda yashagan musiqachilar, bastakorlar, shoirlar va olimlarning hayoti va ijodiga oid qimmatli ma‘lumotlar ham keltiriladi.

¹⁶¹ O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, № 468/I. – V. 5^a.

¹⁶² Ushbu risola “Tuhvatus-surur” nomi bilan ham ilmda mashhur.

Чанги Дервиш Али. Трактат о музыке (пер. с перс.-тадж. Д.А.Рашидовой). Рукопись. – Т.: Биб-ка Института искусствознания АН РУз. № 879.



Darvesh Ali Changiy risolasi



XVI asr saroy musiqachilari

Tayanchi soʻzlar: musiqa, risola, Kavkabi, Changiy, oʻn ikki maqom, nazariya.

Nazorat uchun savollar

1. Shayboniy davri nechanchi asrlarni oʻz ichiga oladi?
2. Kavkabi yoshligida qaysi fanga qiziqqan va shugʻullangan?
3. "Boburnoma" qanday asar va nima uchun "Oʻzbek musiqasi tarixi" fanida bu asar oʻrganiladi?

4. Kavkabiyy musiqa risolasida qaysi masalalarga ko'proq urg'u beriladi?
5. Darvish Ali Changiy hayotiga oid ma'lumotlar.
6. Changiyning musiqa risolasi haqida.
7. Tuhfat-us-surur asarining lug'aviy ma'nosi?
8. Changiy risolasida musiqa cholg'ulari masalasi.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1. "Najmiddin Kavkabiyy va Darvish Ali Changiy" ijodi mavzusida ma'ruza matni tayyorlash.
2. "Shayboniylar davri musiqiy-madaniy hayoti" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
3. "Miniatyuralardagi "musiqiy" lavhalar" mavzusida prezentatsiya tayyorlash.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston tarixi. 1-qism. – T.: 1997.
2. I.Rajabov. Maqomlar. – T.: 2006.
3. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1995.
4. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М., 1980.
5. Музыкальная эстетика стран Востока. (общ. Ред. Шестакова). Л., 1967.
6. Семенов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). – Т.: 1946.
7. Рашидова Д. Наджмиддин Кавкаби Бухори. //История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – М., 1972.

8. Ashurov B. "Najmiddin Kavkabiyy va uning "Risolai Musiqiy" asarining o'zbek mumtoz musiqasi tarixida tutgan o'rin" magistrlik dis. – T.: 2009.
9. Ergasheva Ch. Musiqiy risolalarda ilmiy naziraning o'mi. // Globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: "Iqtisod-moliya", 2012, 100-106 b.
10. Чанги Дервиш Али. Трактат о музыке (пер. С перс.-тадж. Д.А.Рашидовой). Рукопись.– Т.: Биб-ка Института искусствоведения АН РУз. № 879.

"Navba" – Series of musical compositions.	Navba - turkumli musiqiy asarlar.
"Miyatayn" – The combination of 200 complicated musical composition.	Miyatayn – ikki yuz; 200 usuldan iborat murakkab cholg'u kompozitsiyasi.
"Naqsh" – Musical form.	Naqsh – musiqa shakli.
Kungura – is the indian musical instrument.	Kungura - hind cholg'usi.
Ruhavza – is the name of 6-string musical instrument. Mostly, used in China.	Ruxavza - ko'proq Xitoyda qo'llanilgan olti torli chertma musiqiy cholg'u.
Kulliyat (Persian) – is a collection of the poetry of any one poet.	Kulliyot – muayyan muallif asarlarining to'liq majmuasi; musiqada mavjud kuy va usullarning umumlashmasi.

XVIII-XIX asrlarda madaniy va musiqiy hayot



XVII-XVIII asr boshlaridagi xo'jalik va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'ziga xos xususiyatlar me'morchilikda sezilarli darajada aks etdi. Zodagonlar o'z nomlarini qoldirish, shon-shuhrat qozonish maqsadida ko'plab me'morchilik inshootlari qurdirishga qodir edilar. Yirik zodagonlardan biri Yalangto'shbiy bo'lib, u Samarqand registonida katta qurilish ishlarini boshlab yubordi va bu yerda hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan yodgorliklar qurdirdi.

Ashtarxoniylar davriga oid yana bir me'morlik yodgorligi Buxoroda bo'lib, u Abdulazizxon madrasasidir. O'zaro urushlarga qaramay, me'morlik san'ati ancha rivojlandi.

Bizgacha yetib kelgan XVI asr rassomlarining miniatyuralar bilan bezatilgan qo'lyozmalari unchalik ko'p emas. Shunga qaramay, O'rta Osiyo miniatyura maktabi XVI asr an'analari XVII asrga kelib davom ettirildi. Bu jihatdan Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sidagi miniatyuralar diqqatga sazovordir. Bu qo'lyozma 1624 yilda Samarqandda tayyorlangan va unda 12 ta miniatyura mavjud.

XVII asrning ikkinchi yarmida xo'jalik vayronagarchiligi, o'zaro urushlar, shahar va qishloqlarning buzilishi, xalq qo'zg'olonlari davri edi. Bu davrdagi badiiy va tarixiy adabiyot sohasidagi ilmlar birmuncha ko'zga ko'rinarlidir. Buxoroda va Balxda adabiy markazlar bor edi.

XVII asrda adabiy asarlardan tashqari tarixiy asarlar ham yaratilgan. Bu davr tarixchilaridan biri Mahmud ibn Vali bo'lib, uning "Axborotlar asosida sirlar dengizi" nomli tarixiy asari ma'lumdir.

Bu davrlarga oid tarixiy asarlar orasida Muhammad Amin Yaroqchining "Tarix ummoni" asarini ham sanab o'tish lozim. Muhammad Yusuf Munshiyning "Muhimxon tarixi" asari 1704 yilgacha bo'lgan ashtarxoniylar davri tarixiga bag'ishlangan va nihoyat, shu davrga oid eng qimmatli tarixiy asar Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asaridir.

XVIII asr boshlaridagi o'zaro urush Markaziy Osiyo hududida uchta mustaqil xonlikning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining mustahkamlanishi davlat tarqoqligini tamomila tugatolmadi. Bu davrdan boshlab mamlakatda xo'jalik muayyan darajada rivojlanganligi munosabati bilan Buxoro amrligining aholisi o'sa boshladi.

Buxoro amrligidagi shahar aholisining ko'pchiligini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etardi.

Markaziy Osiyo xalqlarini iqtisodiy yuksaltirishda ularning hududlari orqali o'tgan karvon savdosi muhim ahamiyat kasb etgan edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi salmoqli iqtisodiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo xonliklari bu vaqtda Rossiyaning siyosiy ta'siriga tushadilar va xalqaro savdo munosabatlari jarayoniga jalb qilindilar.

O'rganilayotgan davrda adabiyot va san'at, ko'p tarmoqli fan sohalari, me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanishi davom etdi. She'riyat yuksak pog'onalarga ko'tarildi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshidagi Qo'qon adabiy muhiti to'g'risida to'liqroq tasavvur beruvchi manba sifatida 1821 yilda tuzilgan "Majmuai shoiron" antologiyasini aytish mumkin.

Maxmur, Gulxaniy, Hoziq kabilar bu davrdagi taraqqiyparvar shoirlar edi. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari XIX asr birinchi yarmida Qo'qon adabiy nasrining yorqin timsolidir.

XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining rivoji navbatdagi rivojlanish bosqichlarini belgilab berdi. Buni o'ziga xos yorqin jihatlarga ega bo'lgan Buxoro maqomlari (Shashmaqom) qaror topganida ham ko'rish mumkin. Atoqli maqomshunos olim I.Rajabov – bu xusuda "Demak, XIX asrda Shashmaqom o'zbek va tojik xalqlari orasida tarqalgan, XVIII asrda uzil-kesil shakllangan edi" degan xulosa keladi¹⁶³.

Samarqand va Hirot madaniyatining bevosita merosxo'ri bo'lgan Buxoro maqomchiligining yuksak an'analari izsiz yo'qolib ketmadi. Ular musiqaning yangi navi bo'lmish Shashmaqom asoslariga singa boshladi. Oldingi maqom yo'llarining Shashmaqom turkumiga aylanishi shunchaki yuzaki holat emas, balki bu – qadimiy maqom an'alarini yangi ijtimoiy-madaniy muhitda ijodiy o'zlashtirish,

¹⁶³ Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – T.: "SAN'AT", 2006, 149-b.

ularni mahalliy kuy va ashulalarning o'ziga xosligi bilan to'ldirilishining murakkab jarayonidir.

Shashmaqom aynan O'n ikki maqom asosida yaratilgan deb aytishga aniq dalillar yo'q. O'n ikki maqom SHashmaqom shakllanganiga qadar (XIII-XVII asrlar davomida) amaliyotda joriy bo'lgan. Uning musiqasi – kuy va ashula yo'llari Shashmaqom turkumlarining asosini tashkil etgan. O'n ikki maqom va Shashmaqom yo'llari nomlanishidagi umumiylik va bastakorlik san'ati masalalari buning dalilidir.

Shashmaqom maqom janrining taraqqiy ettirilgan eng so'nggi shakli sifatida, bastakorlik san'atining va musiqa risolalarida ko'rsatilgan kuy turi va shakllarining rivojlantirilishi natijasida yaratildi.

Shashmaqomga Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari kiradi. Olti maqomning har biri juda katta hajmdagi turkumli asarlar bo'lib, ularning har biri tarkibida taxminan 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo'llari bor. Hozirda nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg'u va ashula qismlari 208 dan 250 tagacha boradi.

Shashmaqom xalq ijodiyoti bilan doimo o'zaro munosabatda bo'lganligi va shu asosda uzluksiz boyib, rivojlana borganligi musiqaning tarixiy manbalarida ham o'z aksini topgan. Maqomlarning ijro etilishida musiqa cholg'ularidan tanbur va doira yetakchi sozlardan hisoblangan.

Juda qadimiy, boy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazm musiqa sohasida ham yirik siymolarni yetishtirdi.

"Ma'lumki, XV asrdan boshlab ko'pgina xorazmlik musiqachi-bastakorlar Navoiy kabi adabiyot va san'at homiylari atrofiga to'planib, Xirot, Buxoro va Samarqandda katta ilmiy-ijodiy ishlar olib borganlar. SHular jumlasidan Xo'ja Abdulvafoi Xorazmiy,

Maxsumzoda Xorazmiy kabi shoir, sozanda, bastakorlarni eslatib o'tish mumkin"¹⁶⁴.

O'n ikki maqom yo'llari Xorazmda ham mashhur bo'lgan. Xorazmlik bastakorlar Shashmaqomni ijodiy o'zlashtirdilar va uning qiyofasiga katta o'zgarishlar kiritdilar. Xorazmning o'zida mavjud bo'lgan maqom kabi katta shakldagi kuy va ashulalarning ko'plari sozanda-bastakorlar tomonidan bu yerdagi maqomlar tarkibiga kiritildi, yangi cholg'u qismlar, ashula yo'llari bastalandi. XIX asr davomida Xorazm maqomlari kuy mavzusi ancha kengaytirildi va tarkibiy jihatdan ancha boyitildi. Xorazm maqomlari Buxoro maqomlaridan o'zining kuy mavzui, tuzilishi, kuy va ashula tarkibidagi unsurlari, takt-ritm va ashulalarga aytiladigan she'r o'lchovlari jihatidan tubdan farq qiladi.

XIX asrda ko'chirilgan to'plamlarda maqomlar quyidagicha tartiblanadi: Navo, Dugoh, Segoh, Rost, Buzruk va Iroq.

Mashhur Xorazm musiqachilaridan Matyusuf Xarratovning ko'rsatishicha, Xorazm maqomlari quyidagi tartibda sanaladi: Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Buzruk va Iroq. Xorazmlik maqomdonlar SHashmaqom tarkibiga Panjgoh nomli yettinchi maqom qo'shganlar. Bu maqom faqat cholg'u yo'llaridagina iborat bo'lib, yarim maqom hisoblanardi.

Xorazm maqomlari ham Shashmaqomdagi kabi ikki bo'limdan iborat. Xorazm maqomlari kitobida esa, cholg'u yo'llari chertim yo'li (yoki mansur), ashula yo'llari aytim yo'li (yohud manzum) deb ataladi.

"Shashmaqom yaratilgandan keyingi davrlarda Toshkent va Farg'ona vodiysida bir necha musiqa asarlari turkumi, yuzlab kuy va ashulalar maqomlarning ma'lum variantlari tarzida yuzaga keldi. Bu kabi maqom yo'lida ishlangan musiqa asarlari orasida kuy qiyofasi va

¹⁶⁴ Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – T.: "SAN'AT", 2006, 262-b.

tuzilishidagi xarakterli belgilari nuqtai nazaridan uch maqom turkumi alohida ajralib turadi"¹⁶⁵.



Farg'ona-Toshkent vohalarida yuzaga kelgan bir qisimli va turkum shaklidagi cholg'u va ashula yo'llari o'zbek maqomlari tizimidan, o'ziga xos tarkibi bilan alohida ajralib turadi. Aytish joizki, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari O'zbek musiqashunosligida nihoyatda munozarali va baxs talab etadigan mavzulardan biridir.

Mazkur ulkan musiqiy merosni ilmiy o'rganishda Ishoq Rajabov, Viktor Belyaev, Fayzulla Karomatli, Ilyos Akbarov, To'xtasin G'ofurbekov, Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov, Oqilxon Ibrohimov singari olimlarning olib borgan tadqiqotlari ahamiyatli bo'lmoqda. Xususan, nomlari tilga olingan musiqashunos olimlarimizning ilmiy ishlarida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga

¹⁶⁵ Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – T.: "SAN'AT", 2006, 285-b.

doir muayyan ma'lumotlarni ko'rish mumkin.¹⁶⁶ Toshkent, Farg'onada mashhur bo'lgan bu turkum asarlar asosan Bayot, Dugoh Husayniy, Chorgoh va Gulyori Shahnoz kabi maqom yo'llaridan iborat. Ular faqat ashula yo'llaridan iborat bo'lib, bunda Shashmaqomdagi kabi cholg'u yo'llar uchramaydi. Lekin sozandalar bu ashula yo'llarini cholg'u asarlari sifatida ham ijro etib kelganlar.

Toshkent-Farg'onada mashhur bo'lgan Bayot Shashmaqomdagi Bayot sho''balarining ma'lum varianti sifatida yuzaga kelgan.

Chorgoh yo'llari ham bir-biridan raqamlar vositasi bilan, Chorgoh I-II-III-IV-V tartibida ajratiladi.

Chorgoh I o'zining ulug'vorligi, yoqimlilik bilan Saraxbori Dugohning ma'lum kuy shakli sifatida yuzaga kelgan.

Toshkent-Farg'onada mashhur bo'lgan maqomlarning yana biri Dugohi Husayniydir. Bu Dugoh maqomining sho''balaridan – Husayniy Dugoh asosida yuzaga kelgan bo'lib, uning Shashmaqomdagi variantida hech qanday taronalar uchramaydi.

Toshkent, Farg'ona maqom yo'llaridan yana biri SHahnozi Gulyor bo'lib, o'z tuzilishi bilan mazkur maqomlardan butunlay farqlanadi. Bunday nom musiqa nazariyasiga oid eski risolalarda uchrasa-da, Shashmaqomda bu ibora bilan atalgan sho''balar yo'q. Shahnozi Gulyorning asosiy ashula yo'li Gulyor, ikkinchisi Shahnoz, uchinchisi Chapandozi Gulyor, to'rtinchisi Ushshoq, beshinchisi Ufari Gulyor nomlari bilan mashhurdir.

Shunday qilib, Toshkent, Farg'ona maqom yo'llaridan Bayot, Dugohi Husayniy va Chorgoh Shashmaqomning shu nomlar bilan ataladigan sho'balari asosida yaratilgan, Shahnozi Gulyor esa turli maqomlar sho'balari, xususan Rost va Segoh maqomlari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyoning bir qator shaharlarida madaniy hayot yangicha yo'llar orqali rivojlanganligi

tarixdan ma'lum. Yangicha yo'nalishlar rus ziyolilari, harbiylari, amaldorlarining faoliyati bilan bog'liq. Madaniy va ilmiy markaz sifatida Toshkent shahrining ahamiyati katta bo'ldi.

Toshkent va boshqa O'rta Osiyo shaharlarining musiqiy hayotida musiqachilarning kontsert dasturlari alohida o'rin egallaydi. Bu davrda musiqiy tanqidchilik yo'nalishi ham vujudga keldi. Mahalliy ro'znoma, oynoma va to'plamlarda Yevropa madaniyatining voqe'liklaridan tashqari Markaziy Osiyo xalqlarining musiqasi bilan bog'liq masalalar yoritilardi. Qozoq, qirg'iz, o'zbek musiqasiga bag'ishlangan alohida maqolalar ham chop etilardi. Shuningdek, musiqiy folklor sohasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Turkiston o'lkasi musiqiy folkloristika va etnografiyasining asoschilaridan biri Avgust Eyxgorndir. U 1870 yili Toshkentga kelgan va 1871 yildan boshlab musiqiy etnografiya bilan shug'ullangan. 1871-1883 yillar mobaynida u To'ytepa, Qo'qon, Farg'ona vodiysi bo'ylab musiqiy-etnografik sayohatlar uyushtirib, xalq musiqa ijodiga oid ko'plab materiallar yig'ib keldi.

A.F.Eyxgorn nafaqat o'zbek, balki qirg'iz va qozoq xalqlarining qo'shiqlari, cholg'u kuylarini ham to'plagan. SHu bilan birga A.Eyxgorn Markaziy Osiyo xalqlari musiqa sozlarini yig'ish, kolleksiya tuzish ishlarida ham faollik ko'rsatgan.

Chexiyalik harbiy kapel'meyster va kompozitor Frantisek Vatslav Leysek 1878-1935 yillari O'zbekistonda yashab, milliy kuy-qo'shiqlarni to'plash borasida ancha ishlarni amalga oshirdi. U Markaziy Osiyo xalqlari musiqasining 200 ga yaqin namunalari to'plagan.

Tayanch so'zlar: musiqa, Shashmaqom, turkum, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, folklor, etnografiya, Eyxgorn, Leysek.

¹⁶⁶ Ushbu mavzu yoritilishida tadqiqodchi A.R.Zokirovning "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining ijrochilik an'analari" mavzusidagi dissertatsiya materiallaridan foydalanildi. I bob, 1-fasl.

Nazorat uchun savollar

1. XVIII-XIX asrlar madaniy hayoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari va SHashmaqom turkumining farqli jihatlari qanday?
3. Qo'shiq, ashula, yalla, terma janrlarining etimologiyasini so'zlab bering?
4. SHashmaqom turkumi qachon shakllanib bo'lgan?
5. Xorazm maqomlari va SHashmaqomning farqli va o'xshash jihatlari?
6. A.Eyxorn va F.V.Leysekning ijodiy faoliyati haqida so'zlang.
7. Musiqiy folklor nima?
8. Musiqiy folklor janrlarini ayting.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1. SHashmaqom turkumi haqida to'liq ma'lumotlar yig'ish.
2. Folklor janrlaridan qaysilarini bilasiz? Ta'riflab bering.
3. Maqom turkumlari haqida so'zlab bering?

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati

1. Fitrat A. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". – T.: "Fan", 1993.
2. История музыки Средней Азии и Казахстана. – М.: 1995.
3. O'zbekiston tarixi. – T.: 1997.
4. I.Rajabov. Maqomlar. – T.: 2006.
5. O.Ibrohimov. O'zbek xalq musiqasi ijodi. 1-qism. – T.: 1994.


Daromand – Entry; Unit form in makam.	Daromad – kirish; Maqom yo'llarida shakl birligi; Boshlang'ich bo'lak.
SHashmaqam – means the six Maqams (modes) in the Persian language, with lyrics derived from	SHashmaqom – olti xil lad tovushqatoriga mos keladigan turkumli musiqasi asari.

Sufi poems about divine love.	
Suvora – the name of the Khorezmian makam.	Suvora – otliq; Xorazm maqomlarida sho'ba va taronalar nomiga qo'shib ataladigan ibora va shu nomli usulning ifodasi.
KattaAshula – The widespread uzbek traditional way of singing, especially in Fergana Valley.	Katta ashula – Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula yo'li.
Ethnography – the scientific description of peoples and cultures with their customs, habits, and mutual differences.	Etnografiya – yunon tilidan «etnos» - xalq, «grafo» - yozaman – tarixiy fanning qismi, etnos-xalqlarni o'rganuvchi fan.
Idiophone – an instrument the whole of which vibrates to produce a sound when struck, shaken, or scraped, such as a bell, gong, or rattle.	Idiofon – o'z tanasidan tovush chiqaruvchi musiqiy cholg'u.
Ethnomusicology – the study of the music of different cultures, especially non-Western ones.	Musiqiy etnografiya - xalq musiqasini o'rganishga bag'ishlangan fan tarmog'i.

O'zbek dostonchilik san'ati

Mavzu rejasi:

1. Dostonchilik san'atiga oid tarixiy ma'lumotlar.
2. Mashhur dostonchi-baxshilar.
3. Doston ijrochiligida mahalliy uslublar.



Dostonlar Sharq xalqlari og'zaki ijodiyotiga molik, asrlar davomida yaratilib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan so'z nutqi, she'riyat, ovoz, soz, ijrochilik va tomosha san'atini mujassamlashtiruvchi mushtarak bebaho badiiy namunalardir. Ularning har bir qirrasini bir butunicha kishilar ma'naviy ehtiyojlarni qoniqtirib kelgan qadimiy va navqiron san'at. O'zbek milliy

dostonchiligi esa ushbu serko'lam sohadagi umumturkiy madaniyatning bir bo'lagidir.

Zero qadimiy va doim barqaror dostonchilik an'alariga ega bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy bisotida mazmunan barkamol, shaklan va usluban xilma-xil asarlar hamda olam-olam badiiy qadriyatlar, ijodiy va ijroviy boyliklar, avloddan-avlodga o'tib, milliy meros tarzida e'zozlanib kelingan salmoqli adabiy-musiqiy qatlamni tashkil etadi. Ota-bobolarimiz ularni yaratish, aytish, kuylash va tinglash bilan uzoq asrlar davomida ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, kelajakka ishonch ruhi bilan yashab mehnat qilib kelganlar.

Zamonalar silsilasini birga engib dostonlarning boy an'alarini davom qildirgan holda bugungi kunning ma'naviy va ma'rifiy omili bo'lib maydonga chiqishini ta'minlaganlar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida yangicha ma'naviy tafakkurimizni tub ildizlariga borib taqaluvchi juda qadimiy chashmalardan ozuqa oluvchi dostonchilik san'ati hech bir zamonda bugungidek e'zoz va e'tibor topgan emas.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov konservatoriya yangi binosining ochilishida so'zlagan nutqida: "Odamzot yozish-chizishni, o'qishni bilmasligi mumkin, lekin shubha yo'qki, go'zal kuy, ohang va taronalarning hayotbaxsh ta'sirini har qanday vaziyatda ham sezadi. Ta'bir joiz bo'lsa, musiqa insonning yuragida, albatta, aks-sado beradi. Musiqaning beqiyos ta'sir kuchi faqat xursandchilik kunlarda emas, balki insonning boshiga turli sinovlar tushgan, yuragi g'am-g'ussaga to'lgan og'ir damlarda ham namoyon bo'lib, unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi" degan edilar.

Haqiqatan ham dostonlar va ularning qo'shiqlarida xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan muhim masalalar ko'tarilib, haqqoniy yoki ertaknamo voqealar, afsona va rivoyatlar shoir va baxshilar tomonidan to'qib bayon etilgan, o'zlashtirilgan, qayta ishlangan va kuylab kelingan. Ular o'zlarining ilhomi bilan insonlar qalb torining eng nozik rishtalarini qo'zg'atgan, ta'sir qilgan va ruhiy ozuqa bergan.

“Qadimiy dostonchilik an’analari muzey yoki qo’riqxonada saqlanadigan eksponat nusxasi emas, balki jonli meros, ma’naviy qadriyatga nisbatan bo’lgan munosabatdir. endilikda bunday merosga butun dunyo jamoatchiligi tomonidan qiziqishlar tobora ortib bormoqda”¹⁶⁷.

Urug’chilik jamiyatining emirilishi va sinfiy jamiyatga o’tish, Baqtriya, Sug’diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo’lishi, Ahamoniylarning harbiy-ma’muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigining vujudga kelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning IV asrigacha bo’lgan juda katta tarixiy davrni o’z ichiga oladi. Bu davr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo’lgan qadimgi og’zaki muzikali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir. Qahramonlik afsonalari, epik qo’shiqlar O’rta Osiyo xalqlarining o’z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo’yoqdor tasvirlari bilan to’la. O’z xalqining ozodligi yo’lida jonini qurbon qilgan cho’pon SHiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo’lgan muhabbati to’g’risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan.

Masalan, Rustam va uning janglari, malika Taxminaga bo’lgan muhabbati, tanimagan otasi qo’lida qatl qilingan o’g’li Suxrobning o’limi to’g’risida hikoya qiluvchi qo’shiqlar mustaqil marosim tomoshalariga aylanib ketgan. Keyinchalik bu qo’shiqlar tojik xalqining ajoyib dostonida – «Shohnoma»da o’z aksini topdi. Rustam, Siyovush va boshqa bahodirlar to’g’risida afsonalar turkumi yaratildi. Xudolarga sig’inish bilan bog’liq bo’lgan turli xil marosimlarda ham qo’shiq aytilgan. Bu haqda Avestoda bayon qilingan. Avesto gimnlari (yashtlar)ning o’zi rechitativ tarzida ijro etilgan. Gimnlar xor bo’lib aytish mumkin bo’lgan band va takrorlanuvchi naqoratli yarim nasriy, yarim vaznli rivoyatlardan iborat bo’lgan. Xudolarga sig’inish bilan bog’liq bo’lgan marosimlarda muqaddas olov atrofida qo’shiq

¹⁶⁷ Matequbov B. “Dostonnoma”.

aytilgan, raqs tushilgan. Xalqning bayram marosimlari, masalan, bahorda kun va tunning baravarlashuvi – Navro’z keng tarqalgan edi. O’rta asr yozuvchilari musiqaning mehnat marosimlaridagi roli, insonning musiqani olam tuzilishi bilan tabiatdagi o’lish va tirilish haqidagi ma’lumotlar bilan bog’lashga bo’lgan intilishlarini ham ko’rsatib o’tganlar.

O’zbek xalqining musiqa merosida dostonlar maxsus tarmoqni tashkil etadi. Ular mavzu jihatdan rang-barang bo’lib, mazmunlarining umumiyligiga binoan ma’lum turkumlarga birlashadi. Masalan, “Go’ro’g’li” dostonlar turkumi qirqdan ortiq to’la tugallangan hamda mustaqil ijro etiladigan ishqiy-romantik dostonlardan iborat bo’lib, ularda didaktik mavzu ham alohida ahamiyat kasb etadi. O’zbekistonda “Alpomish”, “Avazxon”, “Kuntug’mish”, “Ravshan”, “Oshiq G’arib” va boshqa ko’pgina dostonlar keng tarqalgan. Dostonlarni avlodan-avlodga og’zaki an’anada etkazib kelayotgan hamda o’z shoirona va musiqa ijrochilik qobiliyatlari bilan har bir doston ijrosiga yangicha tus bag’ishlab kelayotgan shaxslar xalq orasida baxshi (yoki shoir) deb nom olgan ma’lum maktab sohibi bo’lmish dongdor ustoz namoyandalardir. ergash Jumanbulbul o’g’li, Fozil Io’ldosh o’g’li, Po’lkan shoir, Abdulla shoir va boshqalar ana shunday doston ijrochilaridan edi.

O’zbek dostonlari boshqa ko’pgina xalqlardagi kabi faqat epik she’riy asargina bo’lmasdan, ularda nasr ham muhim o’rin tutadi. Syujet rivojida voqealarning borishini tasvirlovchi nasriy, ya’ni proza qismi janglar mazmuni, tabiat go’zalliklari, u yoki bu obrazning alohida e’tiborga loyiq fazilatlarini tasvirlovchi poetik qism bilan almashinib turadi. Dostonlar ijro etilganda nasriy (proza) qismi, odatda, hikoya tarzida ma’lum artistik mahorat bilan aytiladi va ba’zan rechitativ tarzida kuylanishi ham mumkin. Ammo she’riy bo’limlari doimo kuylanib ijro etiladi va bu erda baxshi (yoki shoir) ning ustaligi ishlatiladigan bir necha kuyning har birini mantiqiy rivojga mos keltirishida ham ko’rinadi. SHunisi diqqatga sazovorki,

O'zbekistonning deyarli barcha lokal (mahalliy) tumanlarida dostonlar maxsus bo'g'iq ovozda (Xorazmni mustasno etganda) do'mbira jo'rligida (Xorazmda dutor yoki an'anaviy ansambl jo'rligida) rechitativ deklamatsion (Xorazmda kuychan) ohanglar bilan ijro etiladi. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda ham doston aytib kelayotgan Qashqadaryo va Surxondaryoning yirik baxshilari va ular maktabiga sodiq yosh iste'dodlar ijrosida yorqin ko'rinadi.



Qo'rqut Ota

Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari. Ushbu voha dostonchiligi juda qadimiy, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an'alariga ega. U o'ziga xos adabiy-nasriy, she'riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlar bilan ta'riflanadi.

Doston voqealarining bosqichma-bosqich, salobatli bayon etilishi jarayonida so'zli va sof cholg'u kuylar katta o'rin tutadi. SHuningdek, uning ijrosi davomida muntazam ravishda aytiluvchi har-xil

mazmundagi qo'shiqsimon namunalar "noma" deb yuritiladi. Nomalar dostonchi tomonidan do'mbira cholg'usi jo'rligida yo'g'on, bo'g'iq tabiatli, shu boisdan "ichki" deb ataluvchi ovozda ijro etiladi¹⁶⁸.

Har bir doston o'nlab turlicha holat va kayfiyatlarni ifodalovchi noma va kuylardan tuziladi. Ijrochi muayyan voqelik vaziyatidan kelib chiqib, o'z ijro bisotida bor musiqiy namunalarni tanlab, o'rinli ishlatadi.

Doston tarkibidagi aksariyat kuy va nomalar kichik hajmli, oddiy tuzilmali shaklu-shamoyillardan iboratdir. Ularda foydalanilgan musiqiy tovushlar ko'lami, vazn-usullari jihatdan biroz chegaralangandek tuyulishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, doston ijrochisining badihago'ylik mahorati orqali bunday qadimiy musiqiy namunalarning rango-rangligi, ta'sirchan va ifodaviyligi ta'minlanadi.

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, bahodirlik, ishqiy dostonlardan "Alpomish", "Avazxon", "Rustamxon", "Go'ro'g'li" va boshqalarni tilga olish mumkin.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik xaqidagi ideallari bilan chambarchas bog'likdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi.

"Doston" so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqto'v ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida u, xalq og'zaki ijodida yirik xajmli epik asardir. Doston qadimda ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va o'troq turkiy elatlar o'rtasida, asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida paydo bo'lib, kasbiy badiiy ijodiyotning ilk ko'rinishidir. Bizgacha etib kelgan namunalarni mavzu mazmuniga ko'ra shartli ravishda bir necha toifaga taqsimlash mumkin. Ijro uslublari, shakllanishi, hududiy o'ziga xosliklari jihatidan esa turli maktab va baxshilik markazlariga ajratilgan.

Baxshilik san'atining qadimgi shamanizm bilan bog'liq tomonlari, umumiy xususiyatlari, farqlanishi, jo'rnavoz cholg'ularning qo'llanilishi, uslubi, mumtoz ashulalar va xorazm maqomlari bilan bir-biriga o'zaro ta'siri va ijrochiligini kuzatishga harakat qilindi.

Tizim atamasi ma'lum bir ijodiy yo'nalishda ishlatilganda ochiq va yopiq tizim tarzida qo'llaniladi. Yopiq tizim o'z qobig'ida shakllanib, bo'lgan bo'ladi. Ochiq tizim doimo o'zgarib turadi va unga ijodiy yondashish mumkin. Dostonlar o'zi yopiq tizim, ya'ni yangi bir kuyning dostonga ishlatilishi kamdan-kam hollarda uchraydi. Ammo dostonlarning nomalari qotib qolgan narsa emas. Ular doston mazmunini ifoda etish bilan birgalikda mustaqil qo'shiq sifatida ham qo'llaniladi. Badiiy ijod namunasi sifatida uning nimalaridir o'zgarib boradi. Bu narsa ko'proq tashqi omillarda ham namoyon bo'ladi. Masalan ansambl tarkibining turli cholg'ular bilan boyib borishi, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish, televidenie, radiopostanovka, sahnaga olib chiqish, kuy yo'llari kabi sifatlarida uning mag'zi saqlanib kelinmoqda. Bundan kelib chiqadigan xulosa doston an'anasida yangilanishga, rivojlanishga va badihago'ylikka moyillik mavjud, aksincha bo'lsa u hayotbaxsh bo'la olmas edi.



Oshiq G'arib

Xorazm dostonlari. Xorazm og'zaki ijodiyotining janri bo'lmish dostonlarda o'tmish zamon to'g'risida, turli qahramonliklar haqida hikoya va rivoyatlar hamda xalqimiz boshidan kechirgan kurashlarning badiiy bayoni aytilgan.

Xorazm dostonchiligining ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Markaziy Osiyo hududida ilk madaniyat o'chog'i bo'lmish bu diyorda dostonchilik an'analari miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq keng taraqqiy topganligiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud.

Jumladan, Zardo'shtlarning muqaddas "Avesto" kitobidagi "Yashta" deb ataluvchi xudolar va qahramonlar haqidagi doston va afsonalar, ularda Siyovushni Siyovarshin, Jamshidning esa Yima nomlari bilan aks etishi, "Vandadida" nomli diniy marosimlar va qoidalarning musiqiy ohanglar jo'rligida ijro etilganligi

“Qo‘yqirildiqal’a” topilmalarida o‘z aksini topgan. Gerodotning “Tarix” kitobida: “Araks” (Amu) bo‘yida yashovchi xalqlar, daraxtning quruq meva shoxlarini tutatib, bu tutundan mast bo‘lib o‘yinga tushadilar va sho‘x qo‘shiq aytadilar» deb yozilgan. Bu manbalardan tashqari ko‘hna doston namunalaridan bo‘lmish «Rustami doston» ayniqsa Siyovush xaqidagi afsonani Xorazm bilan bog‘lik tomonlari «SHoxnoma»da ham o‘z aksini topgan.

Milodiy VII-VIII asrlarda islom dini kirib kelishi bilan Xorazmda musulmonchilik urf-odatlariga moslashgan dostonchilik hamda shu tarzda bizgacha etib kelgan uslublar joriy etila boshlagan. SHariat asoslarini targ‘ibot qiluvchi islom dini, xususan, Kur‘oni Karim negizida har xil qissalar doston va doston sifat nomalar yaratilib keng tarqaldi. Masalan: “Me‘rojnoma”, “Bobo Ravshan”, “Payg‘ambarlar hikoyati”, “Sultonboyning me‘roji», “Juxud o‘g‘lon”, “Yusuf va Zulayxo”, “Kiyiknoma” kabilar musiqiy jihatdan boy dostonlar.

Xorazmda keng tarqalgan dostonchilik udumlari turkiy tilli qo‘shni xalqlar, ya‘ni Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalaridagi, xususan, O‘zbekistonda mavjud boshqa dostonchilik an‘analaridan sezilarli farq qiladi. Umuman olganda Xorazm dostonlari ko‘proq musiqiylashgan. Ularda voqealar bosqichma-bosqich bayon etilishi bilan bog‘liq she‘riy matnlar ham qo‘shiqchilikka ko‘proq moslangan. Dostonchi nomalarni yuqorida aytilganidek, “ochiq”, ya‘ni tabiiy ovozda kuylaydi. Unga ko‘pincha dutor, bo‘lamon, g‘ijjak va doira jo‘rlik qiladi. Ma‘lumki, ayrim xorazmlik dostonchilar so‘nggi 1970-1980 yil davomida ozarbayjon torida chalishni o‘zlashtirib, uni o‘z cholg‘u jo‘rnazozligi uchun qo‘llab kelishgan.

Turlicha mazmundagi doston nomalari ancha rivojlangan va tugal musiqiy shakllarga ega. Nomalarning ayrimlarini terma, qo‘shiq, boshqalarini esa xalq ashula janrlariga qiyoslash mumkin. e‘tiborli tomonlaridan biri shundaki, dostonlar tarkibidagi nomalarning aksariyati tinglovchilar orasida juda mashhur bo‘lib ketgan. Zero ularni nafaqat bevosita doston ko‘rinishida, balki ko‘p san‘atkor va

havaskor xonandalar tomonidan erkin, alohida-alohida ham kuylash Xorazmda odatga aylangan.

Xorazm dostonlari yuzasidan so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida yangi, e‘tiborga sazovor ma‘lumotlar topildi. Binobarin, mavjud doston nomalari o‘zining umummushtarak adabiy-musiqiy sifatlari qatori, ayni paytda, qisman sezilarli darajadagi ichki xilma-xillikni ham qamrab olgan ekan. Misol tariqasida, sof musiqiy uslubiyati va xislatlarini nazarda tutgan holda barcha Xorazm dostonlarini “Shirvoniy” yoki “Eroniy” nomli ikki asosiy yo‘nalishga, bir qator ijod va ijro “maktablariga” mansubligini qayd qilish mumkin.

Ushbu vohada o‘nlab turli mavzularga bag‘ishlangan katta-kichik dostonlar juda keng tarqalgan. Bulardan eng mashhurlari, jumladan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Avazxon”, “Boziryon”, “Xirmondali”, “Yusuf va Zulayho”, “Rustamxon” va boshqalardir.



Bola baxshi

Baxshilar va doston kuylash tartibi. Xalq og‘zaki ijodining yuksak professional san‘at turi doston va dostonchilikning paydo bo‘lishi taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog‘liqdir. Xalq ommasi madaniy-siyosiy hayotida ulkan o‘rin tutgan baxshilar, mehnatkash xalq o‘rtasida juda katta hurmat va e‘tiborga sazovor bo‘lganlar.

Olimlarimizning yozishicha: “baxshi” mo‘g‘ulcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib “ustoz” “ma‘rifatchi” degan ma‘nolarni anglatadi. O‘zbeklarda baxshi keng ma‘noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan-naslga o‘tkazuvchi san‘atkordir. Xalq orasida baxshi so‘zi turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo‘llangan. Doston aytuvchilar O‘zbekistonning har erida turli nomlar bilan yuritiladi. Masalan, Surxondaryo, Qashqadaryoda yuzboshi, Janubiy Tojikiston o‘zbeklari orasida sohi, sozanda, Farg‘ona vodiysida sanovchi, ayrim joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun deb ataladi.

O‘zbeklarda xalq dostonchilarini shoir deb ham atashadi. Og‘zaki nutqda shoir arabcha so‘z bo‘lib, adabiyot vakili, she‘riy asar ijodkori, ko‘chma ma‘noda hozirjavob, shirinsuxan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Xalq ijodida epik asar ijodkori va yangi doston yaratuvchilar-baxshilarni shoir deyishadi. Xorazmda doston kuylovchilarni baxshi deb kelganlar. “Baxshiy” so‘zi fors tilidagi “baxshidon” so‘ziga yaqin bo‘lib, “Baxshidon” so‘zini o‘zbekchaga o‘g‘irganda “bag‘ishlamoq” “in‘om qilmoq” ma‘nolarini bildiradi va Xorazmda baxshilar ijodiga mos keladi. Xaqiqatdan ham, baxshilar bir voqeaga bag‘ishlangan dostonlarni yoddan o‘z boshidan kechirganday qilib san‘atkorlik bilan ijro qilib kelganlar.

Xorazm baxshilari esa dostonlarni asosan dutor bilan ijro etganlar ularga gijjak, bulamon, doira sozlari jo‘r bo‘lgan. O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab Xorazm baxshilari dostonlarni asosan tor cholg‘usida kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar va ularning ansambl dastalari o‘ziga xosligi, musiqaviyligi bilan ajralib turadi. Bunga Bola baxshi Abdullaevning ijrochilik va ijodkorlik faoliyati misol bo‘la oladi. Xorazmda dostonlar, ko‘pincha ulardan parchalar garmon sozida ham ijro etilishi hollari mavjud. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm dostonchilik maktablari ijro uslublarining orasidagi farq shundaki,

Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilari tomoq orqali (bo‘g‘iq ovozda) kuylaydilar; Xorazm baxshilari esa ochiq ovoz bilan kuylaydilar.

O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Dostonchilik san‘ati xalqimizning o‘ziga xos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajagi xaqidagi o‘y-fikrlari mujassamlashgan.

Demak, doston va dostonchilikdan maqsad xalqning kayfiyati va ruhiyatini kuylash, shu ruh va kayfiyatga mos ajdodlar sabog‘i orqali baxshi bilan yuzma-yuz turgan tinglovchilar doirasining ko‘nglini ko‘tarish, ularda yanada ezgulik va olijanoblik tuyg‘usini kuchaytirishdir.

Xalq dostonlari milliy iftixor va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim g‘oyaviy estetik vazifani o‘taydi.

Tayanch so‘zlar: doston, baxshi, noma, san‘at, qahramonlik.

Nazorat uchun savollar

1. Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari haqida so‘zlab bering.
2. Xorazm dostonlari haqida so‘zlab bering.
3. Mashhur baxshilardan kimlarni bilasiz?
4. O‘zbekistonning qaysi xududida doston janri keng rivoj topdi?
5. Dostonlar qaysi cholg‘ular jo‘rligida ijro etiladi?
6. Doston qanday xajmdagi asar?
7. Doston ijrochilaridan kimlarni bilasiz?
8. Hozirgi kunda doston janri rivojlanyaptimi?
- 9.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yunusov R.. O‘zbek xalq musiqa ijodi. II jild. – T.: 2000
2. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Т., 2008.

3. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li. Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi". – T.: "Yozuvchi", 1998.

4. Matyoqubov O.R. "Maqomot". – T.: "Musiqi", 2004.

5. Musurmonova O. Telegenov A. Dostonlar tarbiya manbai. – T.: "Ma'naviyat", 1999.

6. "Boysun bahori". Ochiq folklor festivali. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. Boysun, 2002 yil, 23-28 may.

epos – a body of poetry in which the tradition of a people is conveyed, esp a group of poems concerned with a common epic theme.	epos – yunon tilidan tarjima qilinganda "so'z", "bayon qilish", "she'r" degan ma'nolarni anglatadi.
Dastan – (Persian for "story"). It is an ornate form of oral history from Central Asia.	Doston – "Doston" so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi.
Bakhshi – is the Mongolian word with the meaning of educator.	Baxshi – "Baxshi" mo'g'ulcha "baxsha", "bahsha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustoz", "Ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.
"The inner voice" – The way of singing with throat by bakhshi.	Ichki ovoz – baxshilarning tomoqda aytadigan ijro uslubi.
Roviy – the singer who sings only odes.	Roviy – qasidago'y shoirlar yonida ularning she'rini aytib yuradiganlar.

O'zbek xalq raqs san'ati


Mavzu rejasi:

1. Raqs san'ati tarixidan.
2. O'zbek raqs san'atida mahalliy uslublar.
3. Raqs san'ati namoyandalari.

O'zbek xalq raqs san'ati o'zining oddiydan mumtoz ko'rinishgacha bo'lgan turlarining keng qamrovliligi bilan kishini hayratga soladi. Rivojlangan xalq raqslarini yaxshi o'zlashtirgan ayrim xalqlarda taqlidiy pantomima to'g'risidagi esdaliklar nafaqat saqlangan, hatto milliy mumtoz raqs ham tarkib topmagan.

Mumtoz raqs o'ziga xos milliy meros sifatida ayrim Sharq mamlakatlari, xususan Hindiston, Indoneziya, Birma, Kambodja va Ispaniyada saqlanib qolgan.

Sharq mumtoz raqsi qadim zamonlarda, feodal jamiyat gullagan davrda paydo bo'ldi va shakllandi. Bu meloddan avvalgi so'nggi asrlar va melodiy XVI-XVII asrlarning oxiriga qadar mavjud bo'lgan davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar avj olgan bir davrda sodir bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mumtoz raqs bir ovoqli (modal) musiqa asosida bir necha yuz yilliklar mobaynida yuzaga keldi, shakllandi va rivojlandi.



O'tmishda O'zbekiston chigal tarixiy hodisalar, bosqinchilik urushlari uchun bir sahna bo'lib, kelgindi xalqlar changalida bo'lgan. Ikki ming yil muqaddam, meloddan avvalgi I asr o'rtalaridan melodiy XVI asrgacha hozirgi O'zbekiston ulkan imperiyalar hisoblangan Yunon-Baqtriya podsholigi, Kushon saltanati, Turk hoqonligi, Arab xalifaligi va nihoyat Temuriylar saltanati tarkibiga kirgan. Demak, o'zga xalqlar bilan aloqalar imkoniyati cheksiz bo'lgan. San'at yaratuvchilari bo'lmish vodiy va shaharlarning mahalliy aholisi o'zlarining badiiy asarlarida o'sha davr madaniy bilim darajasini aks

ettirmasligi mumkin emas edi. Shuningdek, madaniy markazlardan uzoq joylarda, tabiiyki shu joy aholisining madaniy saviyasini aks ettiruvchi badiiy asarlar saqlanib qolgan.

Raqsning eng qadimiy shakllari – bu hali tom ma'nodagi raqs emas, balki uning ibtidoiy shakllari, ya'ni ritmik pantomima faqat xalq ijodiyotida emas, balki masxarabozlar milliy an'anaviy professional teatr artistlari ijro dasturlarida ham saqlanib qolgan.

Raqsning professional raqqoslar va sozandalar mahsuli bo'lgan oliy shakllari professional raqqoslar ijro dasturida, shuningdek, professional raqqoslarga taqlid qiluvchi raqs havaskorlari doirasida saqlandi va rivojlandi.

Farg'ona professional raqs turkumini boshlab beruvchi murakkab ritmik-plastik syuita o'zbek xoreografiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. "Katta o'yin"da syujet yo'q, u o'nlab ritmik andoza – usullardan iborat, ularning har biri alohida ma'noga va muayyan harakatlar majmuiga ega. Ko'p hollarda ular muayyan usulning hissiy mohiyatini va kayfiyatini ifodalaydi. Usullarning nomlanishi va emotsional obrazlilik shundan dalolat beradiki, bugungi kunda biz, katta tarixga ega bo'lgan, harakatning shoirona ifodasi bilan hayot haqida mulohaza yuritayotgan raqsni ko'rib turibmiz. Ko'p asrlik umr kechirgan raqs san'ati bir paytlar madhiyalar va motam raqsleri to'plami bo'lganligi sezilib turadi. Bugungi kunda ko'p qismli Katta o'yin syuitasining har biri murakkab harakatlar vositasida ifodalanadigan o'ziga xos tuyg'ular dunyosini anglatuvchi ruboiy va nafis g'azallarga o'xshaydi. Raqsning murakkab tuzilishi, ko'p harakatlarning mutanosibligi, raqs mahoratining yuksakligi ularning ijodkorlari o'zbek xoreografiyasining yirik namoyandalari, xalq raqs madaniyatiningeng yorqin vakillari bo'lganligini ko'rsatadi.



O'zbek xoreografiyasining eng keksa vakili Yusufjon qiziq Shakarjonov va boshqa ustalarning aytishlaricha, "Katta o'yin" Iskandar (Aleksandr Makedonskiy – miloddan avvalgi III asr) mavjud bo'lib, u paytlarda asar 280 usuldan tarkib topgan.

O'zbek xoreografik merosining bilimdoni bo'lgan shoir Xislat "Katta o'yin"ni: "hech narsasini o'zgartirib bo'lmaydigan, hech narsa qo'shib yoki olib bo'lmaydigan" yagona asar sifatida ta'riflaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida raqs san'ati ustalarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, Katta o'yinni taniqli raqqoslar ijro etishgan.

"Katta o'yinning har bir usulini ijro etish uchun muayyan rangdagi liboslar bo'lib, raqs maydoni yonida raqqoslar kiyimlarini tez o'zgartirib olishlariga imkon bo'lishi uchun yordamchilar liboslarni ko'tarib turishar edi", - deya ma'lumot bergan edi raqs ustasi Mullo Shobarat.

Katta o'yin Rez usuli bilan ochiladi¹⁶⁹. Bu usulning nomi Dildir, ya'ni Tomchilar deb ham atashadi. Doira ohanglari sachrab turgan minglab tomchi donalarini eslatadi – raqqos ohangga monand tarzda mayda qadamlar bilan yo'rg'alab ketadi. Navbatdagi usul Titratma – bunda raqqosning har bir mushagi xuddi irmoqchalardek tovlanib titrab ketadi. Qo'shqars usulida raqqos qo'llarini birlashtirib, go'yo suvni sepib yuboradi va qaddini rostlaydi, yana qo'llarini tomchilar go'yo yaltirayotgan joyga uzatadi. Bu harakatlar Shox deb ataladi. Agar ushbu harakatni ijro etayotgan raqqosni qog'ozga tushirsak, rasm haqiqatdan ham buta shoxlari yoki kiyik shoxlarini eslatadi. Mana shunday muqaddimadan so'ng gullarga bag'ishlangan Gul o'yinga navbat keladi. Bunda raqqosning qo'llari yuqoriga ko'tarilib, tirsak engil bukiladi, so'ngra esa go'yo gul ochilayotgandek, ikki tomonga ochilib, yana qaytib pastga tushadi. Yo'rg'a usuli – yo'rg'a ot yurishini eslatadi. Sarbozi usulining ohangi esa xarbiy shijoatdan darak beradi. Ducharx va Yakkacharx usullari – charxning bir joyda turib aylanish sonini ko'rsatadi.

Bizgacha etib kelgan 48 usuldan ayrimlarigina taqlid ma'nosini anglatadi. Aksariyat usullar inson ruhiyatining holatini ifodalashga, turli xil tuyg'ularni ko'rsatishga yo'naltirilgan. Jumladan, Haqqoniy usuli – or-nomus, sadoqat, haqiqatparvarlikdan dalolat bersa, Orom usuli – dam olish ma'nosini bildiradi. Jilvoniy usuli – o'ynoqilikni, Soxta usuli – soxta taqlidni bildiradi. Sadr usulining bir necha ritmik andozasi dafn marosimiga bag'ishlangan bo'lib, raqqos boshini eggancha asta qadam tashlaydi, uning qo'llari beixtiyor ikki yonga tashlanadi. Bu harakatlar go'yo yakunlanmagandek, go'yo qo'llarni kerakli holatga keltirish uchun kuch etmayotgandek tuyiladi, qo'llar og'irlik bilan pastga tushadi, so'ng yana ko'tariladi va yana tushadi. Bunda nafas olish ham tezlashib, chuqur tin olinadi. Bularning barchasi benihoya hasratni, oldindagi quvonchga nisbatan

¹⁶⁹ Бахта И.Г., Романовская Е. Узбекский танец "Катта уйин". Архив АН РУз, Т(Б), Б-30, №247, Т(Ф), №398.

ishonchsizlikni emas, balki chuqur qayg'u, yo'qotilgan baxt haqidagi falsafiy mushohadalarni ifodalaydi. Ohang tobora taranglashib, intiluvchan bo'lib boradi. Raqqosning tanasi oldinga tobora ko'proq egilib, qadami tezlashadi. U go'yoki oldinga intilib chiqishga, qayg'u, g'am-alamni engishga urinadi.

Usullar orasida nomi bugungi avlodga tushunarsiz bo'lganlari ham bor. Boisi ularning ayrimlari lug'atdan ham joy olmagan. Masalan, Qora zang – qora qo'ng'iroq yoki Duchava – ikki tayoqcha. Bu ohanglar mazmunini qanday ifodalash mumkin? Shox, Katta Soma, Yallama – bu so'zlarning ma'nosi mavhum. Qaytarma ohanglari – Qaytish, Ilon, Mozor, Dupoya, Oqsatma kabi usullarning hissiy tizimini aniqlash mushkul. Ushbu usullarning barchasi betakror, go'zal harakatlarni ifodalaydi. Ular har bir raqqosda aynan unga yaqin bo'lgan tuyg'ularni ifodalay oladi.

Ohanglar nomlanishi – Jilvoniy, Dafn, Askar va Gullar – ketma-ket va yagona syujet chizig'iga ega bo'lishi ehtimoldan yiroq. Usullarning nomlanishi – asarning dastlabki nomi bo'lib, harakatlarning obrazli tuzilishini ifodalaydi va ritmik hamda plastik figuraning obrazli va qulay belgilanishini bildiradi.

Taxminlarga ko'ra, Jilvoniy usuli Siyovushning onasi tomonidan uni yo'ldan ozdirishga urinishi haqida; Sadr va Mozor usullari Siyovushni ko'mish marosimi haqida; Gullar va Lolalar esa Siyovushning bahorgi o't-o'lanlarda qayta tirilishi haqida hikoya qiladi. Katta o'yinda askarlar va otliqlar bor – ular Siyovush uchun kurashganmi yoki Afrosiyob tarafida jang qilganmi? Burch va Nomus usullari ham Siyovush ta'rifiga bag'ishlanganmi? Qaytarma usulichi? "Yarim ilohning qaytishi" haqida hikoya qiladimi? O'sma-surma usuli nimani anglatadi? Balki o'zini tuhmatdan tozalash uchun ulkan olovdan otda o'tib ketgan Siyovush xotirasi uchun ushbu olov kuli bilan qosh va kipriklarni bo'yash Siyovushni xotirlashga bag'ishlanganmi? ehtimol shu sababdan erta bahorda o'sma suvi bilan erkaklar va ayollar qoshlarini bo'yashlari - uning, ya'ni yosh va

barhayot ilohning "qaytishi" haqida xabar berishi tufaylidir? Balki Oqsatma usul nomi Siyovush otining uzoq masofalarni bosib charchaganligidan dalolat berar? Balki Siyovush otiga osilgan qo'ng'iroqning olovdan qorayib ketgani sababli usullardan biri Qora zang deb atalgandir... "Ufari soxta" usuli-chi? u nimani bildiradi – taqlidnimi, ko'zbo'yamachiliknimi? Balki u ayyor o'gay ona Sudoba yoki jahldor Afrosiyob haqidadir? Balki o'simliklar xudosi Xaoma turli hayvonlar va parrandalar (xo'roz, baliq) qiyofasiga kirib Siyovushni quvib kelayotganlarni chalg'itmoqchi bo'lar? Orom usuli o'ldirilgan va yana qayta tiriladigan ulug' ilohning dam olishi haqida bayon qilmasmikan? Dupoya deb atalgan usulni ikki buta va ikki oyoq deya tushunish mumkin. Bu erda ikki buta deyilsa to'g'riroq bo'ladi. Chunki Katta o'yinda ham Duchava, ya'ni ikki tayoq deb atalgan usul bor. Bu nom zardo'shtiy kohinlar qo'llaydigan muqaddas o'simlikka ishora emasmikan?

O'tgan asrning ustoz san'atkorlaridan biri Ahmadjon Umrzoqovning aytishlaricha, Katta Soma usulining lug'aviy ma'nosi bugungi kunda aniq sharhlanmagan bo'lsa-da, ammo qadimda uning "Oyning buyuk tantanasi" degan nomi bo'lgan ekan.

Ma'lumki, o'rta asrlardagi diniy marosimlarning birortasi ham forscha transkripsiyada Xaoma, hindchada Soma deb o'qiladigan Oy – Somani ifodalovchi iloh sharafiga bag'ishlangan muqaddas ichimliksiz o'tmas edi. Keyinchalik Anaxitaga aylangan O'rta Osiyoga xos Ona, zardo'shtiylik dini ilohlari qatoriga qo'shilib, hindcha Somaga o'xshab ketdi.

Biz bundan keyin ham ko'plab afsona va asotirlar, harakat va pozalarning tug'ilishiga sabab bo'lgan, deb taxmin qilishimiz mumkin.

Lirik raqslar birmuncha soddalashtirilgan ko'rinishda bo'lgan. Barcha viloyatlar aholisi orasida iste'dodli doirachilar va nog'orachilari bo'lgan. SHuningdek, dutor cholg'usi ham keng tarqalgan.

Xorazm va Buxoroda qayroq tosh va zang bilan raqs tushganlar. Farg'onada esa ularning o'rniga son-sanoqsiz va turli balandlikdagi qarsaklar ishlatilgan. Biroq, xalq va professional o'zbek lirik raqsi o'rtasidagi keskin farq, hashamatli kiyimlar yoki mukammal musiqa jo'rligida emas, balki ijro uslubidadir. Aynan uslubida, chunki bu ijro sifatini Manera yoki Xarakter deb bo'lmaydi.

Raqs ijrochiligi xalq orasida "Poybozi" (oyoq o'yini) va "Qo'l bozi" (qo'l o'yini) kabi turlarga bo'lingan. Bunday tasnif Marg'ilon, Farg'ona, Buxoro, qisman Qo'qon kabi madaniy markazlarning shahar raqslarida aniq ko'zga tashlanmaydi. Vujudga kelgan o'ziga xos shahar madaniyatini ustoz san'atkorlar qat'iy saqlaganlar. Qolgan hududlarda esa lirik raqslarning ikki turga bo'linishi so'z bilan belgilanibgina qolmay, balki ijro vaqtida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida ayollar va erkaklar raqs tushayotganda qo'llarini engil musht tugib, bosh barmoqlarini tepaga chiqarib qo'yadilar. Qo'lning bunday holati faqat uyg'urcha raqslarda kuzatiladi. Lekin asosiy tana harakatlari majmuasi va ijro uslubi Farg'ona raqslariga xos. Umuman olganda, Toshkent raqslari Farg'ona maktabiga kiradi, lekin ijro uslubi, harakatlarning keskinligi, qomatning tik turishi bilan Farg'ona raqsidan farq qiladi.

Deyarli butun Farg'ona vodiysi hududida erkaklar va ayollarning lirik raqslari qo'l o'yin turiga mansub, ya'ni raqs asosan qo'l harakatlariga quriladi, oyoqlar harakati esa soda bo'ladi.

Farg'ona xoreografiya maktabi kasbiy ustozona va xalq ijro uslublarida butun O'rta Osiyo bo'yicha noyob sanalgan, aniq ishlov berilgan va sayqallangan o'ziga xos qo'l harakatlari mavjud. Shuningdek, bu hudud shahar va qishloqlarida Poy o'yin, ya'ni oyoq o'yin ham keng tarqalgan. Bularning orasida eng soddasi – childirma bilan, shuningdek, ikkala qo'lda ro'molcha bilan ijro etiladigan raqslar bo'lgan. Raqqos yoki raqqosa childirma Bilan o'ziga o'zi jo'r bo'lgan; yoki usulni ro'molcha bilan belgilab borgan. Bunday raqsda eng oddiy

ritmik harakatlar – mayda qadamlar bo'lib, oyoqlar birlashtirilgan holda erda surilib, daryo to'lqinlarini ifodalovchi harakatlar alohida ko'zga tashlanib turgan va raqsning asosiy ifodali shakliga aylanib borgan.

Namanganda erkaklar "Katta o'yin"dagi murakkab ritmik usullardan foydalangan holda raqsning badiha uslubini yaratganlar; ya'ni, etiklarining maxsus ishlangan baland poshnalari bilan misgarning zarb bilan misga naqsh solishini tasvirlovchi o'ziga xos "Misgar raqsi"ni ijro etganlar. Bunda qo'llar e'tiborni jalb etmaslik uchun faqat asosiy holatini o'zgartirib turgan xolos.

Shu o'rinda Farg'ona - Toshkent mahalliy musiqiy uslublarining zabardast vakillaridan Usta Olim Komilov va Yusufjon qiziq SHakarjonov hayoti va ijodiga qisqacha to'xtalamiz.

Usta Olim Komilov (1875-yilda Marg'ilonda tug'ilgan, 1953 yilda Toshkentda vafot etgan) – atoqli musiqachi, doirachi, usulchi – "Katta o'yin"ning ritmik-plastik usullari asoschilaridan biri, ustoz raqqos. Usta Olim Komilov maqom raqslarining Farg'ona maktabini davom ettirganlardan biri bo'lib, o'zbek sahna raqsi yaratuvchilaridan biri hisoblanadi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-yilda Marg'ilonda tug'ilgan, 1959-yilda shu erda vafot etgan) – atoqli o'zbek an'anaviy Qiziqchi teatri va qo'g'irchoq teatri artisti, askiyaboz, doirachi, usulchi va raqqos.

Katta mumtoz raqslarning "Katta o'yin" turkumi, Xona bazm Kichik raqslari Farg'ona maktabi va teatr tomoshalaridagi satirik plastik raqs –sahnalar ustasi. Uning "Katta o'yin" Maqom usullaridan tuzilgan Katta raqslarni ijro etish uslubi mardona oliyjanoblik, noyob temperament va barcha harakat shakllarining mohirona ijro etilishi bilan ajralib turadi. Yusufjon qiziq ko'pgina raqslarni nafis ijro etgan: raqs harakat chiziqlarining salobati, to'xtovsiz bir-biriga o'tib turuvchi raqs iboralari hammani hayratga solgan.

Tadqiqotchi I.Vaxta ta'kidlaganidek: "Yusufjon qiziq barcha

o'zbek musiqa asboblarini egallagan, biroq doira va nog'ora chalishda alohida mahoratga erishgan. Agar uning mahorati Usta Olimniki bilan solishtirilsa, shuni aytish kerakki, Usta Olim ijrosining aniq va nafis ekanligiga qaramasdan, uning ijrosidagi ohanglar Yusufjon qiziqning ehtirosli ijrosidagiga nisbatan quruqroq chiqadi. Yusufjon qiziq – ulkan temperament sohibi edi. Uning doira chalishi, harakatlari va raqqosona imo-ishoralari haqiqatdan ham ulug'vor, “ritmik ifodasi”ning kuchi tomoshabinni butunlay lol etib, buyuk iste'dod ne'matidan bahramand etar edi”.

Yusufjon qiziq Shakarjonov XIX asr oxirlarida Markaziy Osiyo, eron, Afg'oniston va Turkiyada ko'plab tomoshalar ko'rsatgan. 1909-yilda Petergof yozgi teatrida Peterburglik xoreograflarni o'z san'ati bilan lol qoldirgan. Usta Olim Komilov va Yusufjon qiziq SHakarjonov «Katta o'yin” farg'onacha raqs maqomini bizning davrimizgacha etkazib kelganlar va ular 30-yillarning oxirida I.Baxta va E.Romanovskaya tomonidan yozib olingan. Ular yangi raqqoslar avlodiga Farg'ona vodiysidagi barcha raqs usullarini “topshirganlar”.

Buxorocho ustozona raqsning aniq ishlov berilgan, mohirona murakkab shakllari xalq lirik raqslarida o'ziga xos ravishda aks etgan. Bunda qadamlar avvalgi holatida bo'lsa ham qo'llar murakkab harakatning bir yoki ikki unsurini takrorlagan.

Samarqandcha raqslarda ayollar va erkaklar qo'l barmoqlari murakkab naqshlarni chizmagan, chunki raqsning asosiy mazmuni tananing sekin, cho'ziq yoki keskin, belning engil burama harakatlarida mujassam bo'lgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog' va vodiylaridagi qishloq ayollarining raqsleri shakli bo'yicha buxorocho va tojikcha raqslarga o'xshab ketadi. Biroq, ularning ijro uslubi butunlay boshqacha, ya'ni, engilligi bilan farg'onacha ijro uslubiga o'xshab ketadi. Bu raqslarda dekorativ holatlar, tananing engil egilishlari, umuman, tananing maxsus harakatlari kuzatilmaydi.

Hozirgi Navoiy shahri o'rnida qadimda mavjud bo'lgan qishloqlarning erkaklar raqsi ayniqsa e'tiborni tortadi: bu raqs aynan to'qqiz marotaba chalinadigan qarsak jo'rligida ijro etiladi. Raqqos qanday raqs harakatlarini bajarayotgan bo'lmasin, u qo'llarini oldin chap yoniga, keyin o'ng yoniga tushirgan holda uch martadan qarsak chaladi. Keyin esa qo'llarini keskin yuqoriga ko'tarib, yana uch marta qarsak chaladi. Qarsaklar chalinayotgan paytda bir oyoq erni to'liq bosib turgan bo'lsa, ikkinchisi yarim bosib turgan holda qarsakka jo'r bo'ladi. Davra bo'lib turgan tomoshabinlar qarsakka “ha-ha-ha”, deb jo'r bo'ladilar. Raqsning yumshoq, keng qadamlari tovondan boshlanadi. Qadam esa katta-katta olingan, yumshoqqina, bamisoli hiylakor bo'ladi. Raqs oddiygina qilib “Ufori” deb ataladi.

“Dashtliklar” raqsleri, ya'ni, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xalqining hozirgi davrgacha etib kelgan qadimiy raqslerida harakatlari turfa xil emas. Butun raqs ikki tomonga uzatilgan qo'llar, tananing “yassi” holati, titrab turgan mushaklar, qo'llar holatining keskin o'zgarib turishidan iborat. Lekin bu harakatlarda juda ko'p quvvat mujassamlashganligi tufayli tana mushaklariga berkingan, jilovlangan kuch timsoli vujudga keladi. “Dashtliklar” raqsida qadimiy o'yinlar kuchi hali ham yashab kelmoqda. Bu raqsning texnikasi oddiy emas. Qo'llar, barmoqlar, oyoqlar, oyoq uchlari, tananing har bir mushagi raqsda faol ishtirok etadi, yashaydi, kurashadi; bunda quvvat tashqariga intiladi, lekin qandaydir ko'rinmas kuch uni tutib turgandek bo'ladi. Biroq bu “kuch” eng ibtidoiy shakllarga joylangan. Lekin baribir dashtliklar o'yini o'zining sof “lirik” kuchi bilan, yurak-mushaklar uyg'unligi bilan ifodalidir.

Xorazmda xalq raqsi va kasbiy ustozona lirik raqs o'rtasida o'yinni raqsdan farqlovchi umumiy xususiyatlardan tashqari keskin farq yo'q.

Xorazm raqslerini qo'l raqsi va oyoq raqsi deb ajratish mumkin emas. Tizzalarni ikki tomonga burib, pastroq cho'kib ijro etiladigan raqsler xorazmliklarda yo'q.

Buxoro maqom raqslari, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqom raqslari bilan o'zaro qiyosiy tahlil qilinsa, ularda quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin:

Buxoro maqom raqsi:

-birinchidan, Maqom ufori (Maqom raqsi)ning asosiy qismlarida qo'shiq va raqs sintezidir;

-ikkinchidan, unda saroy raqslarining muayyan ijro uslublari mavjud;

-uchinchidan, tana yuqori qismining alohida holati va qo'llar holatining ikki xil ko'rinishi – oldinga uzatilgan va tirsakdan bukilgan holatlari bilan ajralib turadi;

-to'rtinchidan, barcha harakat shakllarining ikki xil ko'rinishi – keskin va egiluvchan shakllarni o'zida mujassam etgan;

-beshinchidan, oyoqlar holatida oyoq uchlarining o'rtacha va to'la ochilishi kuzatiladi;

-oltinchidan, keskin va sekin bajariladigan harakatlar qo'llaniladi;

-ettinchidan, qadam tashlanganda oyoqlar erga qattiq tiraladi;

-sakkizinchidan, joyida va davra bo'ylab gir aylanganda qo'llar statik holda qoladi, lekin tananing yuqori qismi bel chizig'i bo'ylab aylanaveradi.

Buxoro maqom raqsi Katta va Kichik o'yin ijro uslublari asosiy shakllariga muvofiq ravishda Farg'ona va Xorazm maqom raqslaridan keskin farq qiladi. Biroq, Xorazm maqom raqsidan farqli o'laroq, Buxoro maqom raqsi xuddi Farg'ona maqom raqsi kabi, mohirona gir aylanishlarga boy, lekin ular boshqacha ijrochilik uslubida bajariladi.

Xullas, o'zbek xalq raqslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan oltita turga bo'linadi: ya'ni, taqlidiy raqslar, tasviriy (maishiy) raqslar, predmetli raqslar, lirik raqslar, tarixiy raqslar va marosim raqslari.

Raqs san'ati asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechiruvchi qadimiy xalqlarning sayil va bayramlarida vujudga kelgan va rivojlangan. Raqs musobaqalarini ko'p joylarda Xinoband ("xandonidan" so'zining buzib aytilishi) deb ataydilar.

Turkiy tilli va qadimdan o'troq hayot kechiruvchi xalqlarda va yarim ko'chmanchi chorvadorlarda ham raqs xuddi shu tarzda, ya'ni umumxalq bayramlarida vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Bunda raqs ko'p sonli yakkaxon ijrochilar musobaqasi sifatida o'tkazilib, atrofda ko'plab tomoshabinlar qarsaklar yordamida "beshqarsak" va "chorqarsak" ritmik andozalari bilan jo'navoz vazifasini bajarganlar.

Shuningdek, forsiy tilli xalqlar madaniyati va keyingi 14 asr davomida shakllangan turkiy tilli xalqlar madaniyati o'zbek mumtoz musiqasi va raqs san'atining shakllanishiga yordam berdi. Professional raqs san'ati Mumtoz raqs san'ati bo'lmish - "Maqom raqsi", "Maqom ufori", "Katta o'yin" kabilarga bo'linadi. Shu o'rinda eslatish joizki, qadim zamonlardan shakllanib kelgan Professional raqs va Xalq raqsi o'rtasidagi doimiy muloqot ularni deyarli tenglashtirdi va Professional raqsni Xalq raqsidan keskin tarzda uzoqlashib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Tayanch so'zlar: raqs, xoreografiya, kasbiy, xalq, lazgi, o'yin, mumtoz, ritm.

Nazorat uchun savollar

1. Raqs nima?
2. O'rta Osiyo xududida raqs qachon paydo bo'lgan?
3. Kasbiy darajadagi raqs shakllanish davrlarini ayting?
4. "Katta o'yin"ning o'ziga xos jihatlarini so'zlab bering?
5. "Lazgi" haqida.
6. "Buxorocho" raqs haqida.
7. Xalq raqslari haqida so'zlang.
8. Usta Olim Komilovning ijodi.

Mustaqil ish mavzulari

1. Hind klassik raqslari.
2. M.Turg'unboeva ijodi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Avdeeva L. Tanovar raqsi jilolari. –T.: 2002.
2. Авдеева Л. Из истории узбекской национальной хореографии. – Т., 2001.
3. Авдеева Л. Танец Мукаррам Тургунбаевой. – Т., 1989.
4. Avdeeva L., Kodirov M., Ismatova Yu., “Tanovar” raqsi jilolari. – Т.: 2007.
5. Karimova R. O'zbek raqslari. – Т.: “Cho'lpon”, 2003.
6. Matyoqubova G. Ofatijon “Lazgi”. –Т.: 1993.
7. Shokirov O'. Shokirova I. O'zbekiston madaniyati namoyandalari. –Т.: 2005.

Lazgi – Widespread dancing type in the Khorezm region of Uzbekistan.	Lazgi – Uzbekistonning Xorazm xududida keng tarkalgan raks turi.
Pantomime – a ramatic entertainment, originating in Roman mime, in which performers express meaning through gestures accompanied by music.	Pantomima – biror voqe'lik yoki tuyg'ularni so'zsiz. tana harakati orqali aks ettirish.
“Olovbozi” – Type of dance with fire.	Olov bozi – olov bilan tushiladigan raks.
“Ufar” – section in makam.	O'yin maqomlari – Maqomlarning ufor qismlari.
“Poyo'yini” – the type of dance that developed in Fergana Valley.	Poy o'yini – Oyoq o'yini. Farg'onada rivojlangan raqs turi.
Classical dance – a popular dance, considered as part of the tradition or custom of a particular people.	Mumtoz raqs – raqs san'atida turli harakatlarni guruhlashtirishga asoslangan tizim.

Xalq tomosha teatri

Mavzu rejasi:

1. Teatrning vujudga kelish tarixidan.
2. Mahalliy xalq teatlari va ularning bir-biridan farqlanib turuvchi belgilari.
3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek teatri repertuarlari.



Teatr o'zbeklarga juda qadimiy zamonlardan beri qadrdon, keng yoyilgan ommaviy va sevimli san'at turi bo'lgan. U shakl, saviya va vositalar jihatidan Yaqin Sharq mamlakatlaridagi teatlarga o'xshab ketadi. O'z ijodiy-estetik tamoyillariga va mehnatkashlar ommasi manfaatlariga xizmat qilishiga ko'ra uni xalq teatri yoki an'anaviy teatr deb atash mumkin.

XVIII asr oxiri – XIX asr hamda XX asr boshlarida O'zbekistondagi har qaysi xonlik hududida o'ziga xos xalq teatri bo'lgan. Xonliklardagi o'ziga xos tarixiy va ijtimoiy-siyosiy hayot, xalq mehnati va jug'rofiy sharoitning o'ziga xosligi, mahalliy an'analar teatlarga alohida xususiyat, alohida mazmun, alohida jilo

bag'ishlagan. Natijada ayrim belgi va ko'rinishlari bilan bir-biridan ajralib, farq qilib turuvchi Buxoro, Farg'ona va Xorazm xalq teatrlari maydonga kelgan. Bunday ayirma va o'ziga xoslik umuman xalq san'atining barcha turlarida, jumladan, raqs va musiqada yaqqol ko'rinib turadi.

Buxoro, Farg'ona va Xorazm xalq teatrlari o'rtasidagi farq, ayirma, o'ziga xoslik birinchi galda repertuarida ko'rinadi. Har qaysi teatring o'z repertuari bo'lgan, shuningdek tematika, tur va janrlarda ham ayrim farqlar uchragan. Chunonchi, bir qadar durust o'rganilgan Buxoro xalq teatri quyidagi umumiy xususiyatlarga ega. Avvalo shuni aytish kerakki, unda o'z belgilari bilan bir-biridan ajralib turuvchi shahar va qishloq teatri bo'lgan. Undan keyin Buxoro teatri turli mazmundagi muqallidlar, hayvonot va qushlar dunyosidan olingan hajviy sahnalar va "Qarsak o'yin" deb atalgan badiiy turkum muhim o'rin tutgan. Shu bilan birga Buxoro teatri tojik xalq teatri bilan bir qator umumiyliklarga ega bo'lgan. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda Xorazm teatrining asosiy xususiyati shundan iborat ediki, unda sahna niqoblari muhim rol o'ynagan. Teatr tomoshalari dialogning muallaqchilik va nayrangbozlikka birikib ketishi bilan xarakterlanadi. Ana shu mahalliy farq va belgilar mazkur teatrlarni alohida-alohida o'rganishni taqozo qiladi.

Farg'ona an'anaviy teatrlarini o'rganish XX asrning 20-yillaridan keyingina boshlandi. Bu xususda so'z borar ekan, avvalo yozuvchilardan G'ulom Zafariy bilan Abdulla Qodiriyning xizmatlarini tilga olish zarur. G'ulom Zafariy Turkiston Maorif Komissariati Ilmiy Kengashi O'zbek komissiyasining topshirig'iga binoan Farg'ona vodiysi va Toshkentda teatr, ashula va raqs san'ati namunalarini yozib ola boshlagan, qiziqchi va o'yinchilarhaqida ma'lumotlar to'plagan. Ammo ulardan faqat qisqacha kirish so'zi bilan "Maqtanchoq kishi", "Er va xotin" komediyalari e'lon qilingan bo'lib, qolgan materiallarning qaerdaligi hozirgacha noma'lum.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romani uchun material to'plash sababi bilan xalq teatri tomoshalarini kuzatganligi, qiziqchi va askiyachilar ijodini o'rganganligi va og'zaki dramaning bir qator ajoyib namunalarini yozib olganligi haqida ham dalillar bor. Bunga "Mehrobdan chayon" romanidagi "Xon ko'ngil ochmoqchi", "Qiziqqlar" boblarida Qo'qonning Zokir gov, Bahrom kabi ulkan qiziqchlari tomonidan ijro etilgan tomoshalarining juda jonli va haqqoniy tasvir va ta'rif qilinishi yorqin dalildir. Shunday qilib, G'ulom Zafariy va Abdulla Qodiriy ma'lum adabiy mafqsadlar uchun birinchi bo'lib xalq teatri asarlarini yozib ola boshlaganlar.

Farg'ona an'anaviy teatri tur jihatidan Buxoro va Xorazm teatridan kam farq qiladi. U ham asosan ikki turdan, ya'ni jonli teatr (masxarabozlik va qiziqchilik) va qo'g'irchoq teatri (qo'g'irchoq o'yin)dan iborat bo'lgan. O'z navbatida jonli teatr erkaklar va ayollar teatrlariga bo'lingan. Ular xususida quyida alohida to'xtalamiz.

Erkaklar teatrlarini masxaraboz va qiziqchilar teatri deb atalishining sababi bor. Shu kungacha mutaxassislar tomonidan bu san'at asosan qiziqchilik, qiziqchilar teatri deb kelingan. Lekin yozma manbalar va bir qator ustoz san'atkorlarning aytishlaricha, bu atama bir yoqlama bo'lib, XIX asrda qiziq (qiziqchi), "qiziqlik" (qiziqchilik) so'zlari bilan bir qatorda "masxara" (masxaraboz), "masxarabozlik" atamalarining keng qo'llanganini ko'rsatadi. Teatr va uning sahna asarlari masxarabozlik, qiziqchilik deb, aktyor esa masxara (masxaraboz), qiziq (qiziqchi) deb atalgan. Shunga ko'ra ikkala atamani ham teng ravishda qo'llash mumkin.

Ayol masxaraboz va qiziqchilar repertuarida mitti komediyalar, kulgi-hikoyalar, hajviy qo'shiqlar, qiziqarli o'yinlar va turli muqallidlar uchraydi. Aksariyat komediyalarda erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tengsizlik qoralanadi; egrilik, ikkiyuzlamachilik, aldamchilik, ig'vo tanqid qilinadi. Chunonchi "Zambur", "Loy sovun", "O'sma qo'yish", "Kundoshlik", "Podachi", "Gung", "Malla devona" kabi bir qator qiziqchiliklarda o'tmishdagi ayollarning

hayotidan lavhalar tasvirlanadi. Ayollar komediyasi ham qurilishi, uslubi, badiiy vositalari bilan erkaklar komediyasiga o'xshaydi. Masxaraboz va qiziqchi ayollar repertuarida muqallidlar ham katta o'rin egallaydi. Sezgir, kuzatuvchi, badiiy to'qimaga usta komik ayollar kundalik turmush, kishilar fe'l-atvoridagi ayrim kulguli jihatlarni ko'ra bilganlar hamda ularni ustalik bilan gavdalantira olganlar. Odatda, aniq shaxslar va voqealar hajv qilinganligi tufayli bunday o'yinlar tomoshabinlarda zo'r qiziqish tug'dirgan. "Jodi olish", "Folbinlik", "Ko'knori", "Boy o'g'li", "Nazira oyim", "Matchoyi", "Moxovning xayr so'rashi", "Xolmat qoraning o'tin yorishi", "Kuyov to'ra domla", "Ilik qoqish" kabi muqallidlar shu jumladandir. Ulardan ayrimlari davr o'tishi bilan sayqal topib tanqid tipidagi umumlashgan komediyaga o'sib chiqqan.

Komik ayollar o'z og'zaki komediyalarini yaratishda umuman an'anaviy teatrga xos uslub va tasviriy vositalardan foydalanadilar. Ba'zan erkaklar dramaturgiyasidagi syujetlardan oziqlansalar, ba'zan ularning milliy komediyalarini to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatishgan. Chunonchi, ayollar o'ynab kelgan "Kiyik o'yin", "Ko'knori", "Juvozkashlik" komediyalari aslida erkak mazxarabozlar tomonidan yaratilgan. Ammo bundan qat'i nazar, ayollar teatri va og'zaki dramaturgiyasi – o'ziga xos mustaqil san'at. U xotin-qizlarning orzu-istaklarini ifoda etib, manfaatlarini himoya qilib kelgan. Xotin-qizlar hayoti va taqdir dramaturgiyasining yana bir xususiyati shundaki, unda ba'zida psixologik vositalar, qahramonning ichki kechinmasini yoritish hollari uchraydi. Bunga ayol mazxaraboz va qiziqchilar lirik qo'shiqlar va o'yinlardan o'rinli foydalanish tufayli erishadilar.

O'zbek tilida "o'yin" so'ziday serma'no so'z bo'lmasa kerak. San'atkorning mahorati, harakati va texnikasi bilan sahnaviy tomosha shaklida yuzaga keladigan masxarabozlik, raqs, nayrangbozlik, dorbozlik, chavandozlik, muallaqchilik, ayiq, echki, ilon o'ynatish, yog'och ot, yog'och oyoq tomoshalari – qo'yingki, xalq teatri, raqsi va tsirk san'atining barcha ko'rinishlari bir so'z bilan "o'yin" deb,

mazkur san'atlarning namoyandalari esa "o'yinchi" deb yuritilgan. Xuddi shuning kabi xalq professional qo'g'irchoq teatri – qo'g'irchoqbozlik ham "qo'g'irchoq o'yin" deb, qo'g'irchoqboz esa "o'yinchi" deb atalgan. Bunda "o'yin" so'zi iste'dod va mohirlik bilan etilgan tomosha, san'at, ijrochilik ma'nosini beradi. "O'yin" so'zi bilan qadimgi teatr, raqs va tsirk san'atining bir-biriga yaqinlashtirilishida jon bor, negaki ularning asosida o'yin, ya'ni ijro, harakat, tomoshaviylik, mahorat yotadi. Shunday qilib, xalq professional qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoq o'yini yoki qo'g'irchoqbozlik deb atalgan.

Qo'g'irchoq o'yin bilan xalq professional teatri – masxarabozlik o'rtasida ko'pgina mushtaraklik mavjud. Masxarabozlar o'z tomoshalarida niqob ishlatganlarida go'yo qo'g'irchoqqa aylanganlar, chunki goh qotib, goh jonlanib turuvchi sahnaviy qo'g'irchoqlar vositalarini ishga solishga to'g'ri kelgan. Masxarabozlar niqobsiz o'ynagan paytlarida ham qo'g'irchoq teatriga yaqin turganlar. Shartlilik, badiha, tazod, hajviylik, ekstsentriklik, tomoshaviylik kabi ijodiy tamoyillar ikkala teatrga ham barobar taalluqlidir. Qahramonlaridan biri qo'g'irchoq bo'lgan spektakllarni namoyish qilganlarida esa masxarabozlar ham qo'g'irchoqboz, ham korfarmon vazifasii bajarib, o'ziga xos qo'g'irchoq tomoshasini maydonga keltirganlar. Bugina emas, kelib chiqishi, mehnat va turmush sharoiti, usta-shogird munosabatlari, jamiyatda tutgan o'rmi, vazifa va muddaolari, mayl va intilishlari bilan ham masxarabozlar-u, qo'g'irchoqbozlar o'zaro qondosh va hamkor bo'lishgan. Shu sababdan masxaraboz qo'g'irchoqbozga korfarmonlik qilib, qo'g'irchoqboz esa masxarabozlarning tomoshalariga aralashib ketavergan. Ammo bu masxarabozlar teatri bilan qo'g'irchoqbozlar teatri bir san'at degani emas. Ular o'rtasidagi yaqinlik va mushtarakliklar bilan bir qatorda jiddiy spetsifik ayirmalar borligini unutmashlik kerak.

Qo'g'irchoq teatri spetsifikasini belgilovchi asosiy farq shundan

iboratki, agar boshqa teatrlarda qahramonlar qiyofasida aktyorlarning o'zlari ko'rinsa, bunda ijrochilar tomoshabinlarga pinhon qolgani holda qo'g'irchoq – personajlar namoyon bo'ladi. Shu o'rinda aytish joizki, qo'g'irchoqboz, bir tomondan o'zini ko'rsatolmasa-da, ikkinchi tomondan, dramatik aktyorga nisbatan bir qancha afzallik va imtiyozlarga ham egadir. Chunonchi, qo'g'irchoq teatri uchun bo'y, qad, yosh va jismoniy kamchilikning ahamiyati bo'lmaganligi sababli, bunda qobiliyati to'g'ri kelsa, yoshi o'tgan aktrisa qizcha rolini, oqsoq kishi bahodir rolini bemalol o'ynayveradi. Qo'g'irchoq teatrining sharti shu: xohlagan rolingini o'ynayver, iste'doding, mahorating va ijodiy harorating bo'lsa bas. Ikkitagina qo'g'irchoqboz muvaffaqiyat bilan ko'p personajli katta bir spektaklni namoyish etishi mumkin.

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrining "chodir jamol", "chodir xayol" va "fonus xayol" degan turlari mashhur bo'lgan. Shundan "chodir jamol" bizning davrimizgacha etib kelgan.

"Chodir jamol"da beliga boshi uzra o'yin maydoni hosil qiluvchi chodir bog'lab olgan qo'g'irchoqboz tik turib, ba'zan cho'kka tushgan yoki uzala tushib yotgan holda, odatda boshi yog'ochdan ishlangan qo'g'irchoqlarni qo'llariga kiyib tomosha ko'rsatgan. Tili tagiga pishiq yog'och payraxasidan yasalgan safil degan moslama qo'yib, qo'g'irchoqlarga mos chiyildoq, o'tkir tovush hosil qilgan. Har dafa bir juft qo'g'irchoq o'ynatilib, bir ko'rinish yaratilgan. Bir tomoshada esa ko'pi bilan 4-5 xil qo'g'irchoq ishlatilib, 4-5 ko'rinish hosil qilingan va ularni mantiqan ham da ritmik bir-biriga bog'lab olib borilgan. Har qanday tomosha Polvon Kachal deb atalgan xalq qahramonining sarguzashtlari markaziy o'rinni egallaydi, qolgan voqealar ham shunga bog'liq holda tasvirlanadi.

"Chodir jamol" teatrining bosh qahramoni Polvon Kachaldir... Uning xarakteri murakkab. U bir tomonidan engiltak, maishatparast, yalqov bo'lsa, boshqa tomondan sodda va beg'ubor, haqiqat va to'g'rilik uchun kurashuvchi odam. Polvon Kachal – mehnatkash xalq vakili. Shu sababli u ezilgan va tahqirlanganlar manfaati va huquqini

himoya qilib, mahalliy amaldorlar va ruhoniylarni, shuningdek, chor hukumati vakillarini masxara va fosh qilib keladi"¹⁷⁰.

Polvon Kachal – chinakam xalq qahramoni. U mohiyatiga ko'ra Nasriddin Afandi, Yozi kal, Aldarko'sa, Soqi bulbul kabi xalq ijodi qahramonlariga o'xshab ketadi.

Shunday qilib, buyuk Navoiy zamonida mahorat cho'qqisiga ko'tarilgan, mazmunan o'tkirlashgan qo'g'irchoq teatri keyingi asrlarda turg'unlikka uchragan. Zotan mamlakatda kuchayib ketgan reaksiya, sinfiy ziddiyat, qirg'in urushlar xalq san'atining rivojiga to'siqlik qilgan, putur etkazgan. XVI-XVII asrlarda qo'g'irchoq teatrining qo'lga kiyib va iplar vositasi bilan o'ynatiladigan turlari mavjud bo'lgan. XVIII asrga kelib qo'g'irchoq teatrida biroz jonlanish yuz bergan. Ayniqsa, XIX asr boshidan uning hajviy tig'i o'tkirlashib, real voqelikni aks ettirish borasida jiddiy muvaffaqiyat qozongan va ijtimoiy hayotda tobora salmoqliroq o'rin egallay borgan.

Tayanch so'zlar: tomosha, san'at, teatr, masxaraboz, Kachal, qo'g'irchoq.

Nazorat uchun savollar

1. Xalq tomosha teatri qachondan shakllanishni boshlagan?
2. Qo'g'irchoq teatri haqida so'zlab bering.
3. Xalq teatrlarida musiqaning ahamiyati.
4. Qo'g'irchoq teatrining qanday turlarini bilasiz?
5. Kachal Polvon va Aldar Ko'sa kimlar?
6. "O'yin" so'ziga ta'rif bering.
7. Buxoro, Xorazm va Farg'ona teatrlarining farqli jihatlari haqida qisqacha gapiring.
8. "Qiziqchilik" teatriga ta'rif bering.

¹⁷⁰ Qodirov M. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun. – T.: "Mumtoz so'z". 2011, 261-b.

Mustaqil ish mavzulari

1. Masxarabozlar teatri haqida.
2. Rus, Italyan xalq teatrlari haqida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadim zamonlardan XVIII asrga qadar. – T.: “Fan”, 1975.
2. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati (Farg'ona an'anaviy teatri). – T.: 1971.
3. Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri (O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri). – T.: 1972.
1. Qodirov M. O'zbek teatri an'analari. – T.: 1976.
2. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: 1981.
3. Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
4. Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – T., “SAN'AT”, 2007.

Theatre – a building or outdoor area in which plays and other dramatic performances are given.	Teatr – tomoshalar uchun joy; san'atning tomosha turi, unda san'atning turlari sintez qilinadi.
Clown – is a performer in a circus who wears funny clothes and bright make-up, and does silly things in order to make people laugh.	Masxaraboz – komediya yunalishidagi teatr akteri.
Chodir jamol – The oldest type of a puppet theatre, originated in ancient times in Asia.	Chodir jamol – qul barmoklariga kiyiluvchi ko'g'irchoklar teatri. Teatr voqe'liklari kundalik hayotdan olinadi.

Kachal Polvon – Personage of a puppet theatre.	Kachal Polvon – kug'irchok teatri personaji.
Chodir hayol – Another oldest kind of a puppet theatre, originated in ancient times in Asia.	Chodir xayol – «Chodir hayol» «Chodir jamol»ga nisbatan murakkab teatr turi. Bunda kug'irchoklarning kuli va oyoqlari bor. Ular nisbatan mukammal ishlangan. Bu teatrdan tarixiy shaxslarni ko'rsatuvchi personajlar xam bor.

Fanga oid test savollari

1. Qadimgi dunyo madaniyati qaysi manbalarga tayangan holda o'rganiladi?

- A. Qadimgi kitoblar
- b. Arxeologik topilmalar
- v. Arxeologik topilmalar, xalq ijodiyoti namunalari, qadimiy yozma manbalar
- g. Qadimgi aytilmalar

2. Kushonlar davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?

- A. VI-IX asrlar
- b. er.av. I-III asrlar
- v. I-IV asrlar
- g. XVIII-XIX asrlar

3. Ilk o'rta asrlarga oid arxeologik topilmalarda nisbatan kuproq uchraydigan cholg'u tasviri...

- A. Kifara
- b. Tanbur
- v. Doyra
- g. Rubob

4. Sarkash, Nakiso, Robust – kimlar?

- A. Kushonlar davrida yashagan haykaltaroshlar
- b. Somoniylar davrida yashagan tasviriy san'at ustalari
- v. Sosoniylar davrida yashagan musiqachilar
- g. Ahamoniylar davrida yashagan shoirlar

5. Shashmaqom – maqomlar turkumimi yoki tizimmi?

- A. Adabiy-musiqiy turkum
- b. Tizim
- v. Turkum
- g. Barcha javoblar to'g'ri

6. Kimning asarida Borbad qissasi bayon etilgan?

- A. Abulfaraj Isfaxoniyning "Kitab ul- ag'oniy" asari

- b. Saolibiyning "Yatimat at-daxr" asari
- v. Navoiyning "Majolis un-nafois" asari
- g. Firdavsiyning "Shoxnoma"si

7. Terrakota – nima?

- A. Xom gisht
- b. Daraxt po'stlog'i
- v. Ohak va loy aralashmasi
- g. Kuydirilgan loy

8. Dalvarzintepa qaysi hududdan topilgan?

- A. Surhondaryo
- b. Qashqadaryo
- v. Sirdaryo
- g. Hindiston

9. Avesto:

- a. Zardushtiylarning diniy matnlari jamlangan kitob
- b. Qadimiy din turi
- v. Zamonaviy badiiy kitob
- g. O'rta asrlar musiqiy risolasi

10. Qadimgi musiqiy cholg'ular qanday materiallardan yasalgan?

- A. Temir, alyuminiy
- b. Gips, tilla
- v. Shisha, kumush
- g. Suyak, loy, daraxt, chig'anoq

11. Bozguy –

- a. Kuy ijrosi jarayonida takrorlanmaydigan kuy bo'lagi
- b. Musiqiy janr
- v. Musiqiy shakl
- g. Kuy ijrosi jarayonida bir necha bor takrorlanadigan kuy jummalari

12. "Ayritom frizi" O'zbekistonning qaysi hududidan topilgan?

- A. Xorazmdan
- b. Surhondaryo viloyati hududidan
- v. Samarqand viloyati hududidan

g. Buxoro viloyati hududidan

13. Eftalitlar davridan lavhalar qaysi manbalarda saqlanib qolgan?

A. Video tasmlarda

b. Kitoblarda

v. Xalq qo'shiqlari, eposlarda

g. Turli o'yinlarda

14. Borbadning "Musiqiy yilnoma"si qanday asar?

A. Turkumli asar

b. Qo'shiq

v. Cholg'u kuy

g. Ilmiy asar

15. Bastakor – kim?

A. Ijodkor

b. Shoir, hofiz, cholg'uchi

v. Kompozitor

g. Kuy ijod qiluvchi, kuyga yangi she'r bog'lovchi

16. Maqom - ?

a. Musiqiy asar

b. Istiqomat o'rni, parda

v. Ashulalar turkumi

g. Turkumli musiqiy asar

17. Bolaliqtepadan topilgan musiqa soxasiga oid materiallar...

a. Tanbur

b. Musiqiy cholg'u bo'laklari

v. Doyra

g. Barcha javoblar to'g'ri

18. Tuproqqal'a devorlarida qaysi cholg'ularning tasviri tushirilgan?

A. Karnay, tanbur

b. Dutor, doyra

v. Arfa, nog'ora

g. Qumsoat shaklidagi urma cholg'u, arfa va udsimon cholg'u

19. "Ayritom frizi"da qanday syujet tasvirlangan edi?

A. Zardushtiylik dini bilan bog'liq lavhalar

b. Buddaviylik dini bilan bog'liq lavhalar

v. Qadimiy odamlar hayotidan lavhalar

g. Saroy ahli hayotidan lavhalar

20. Barelyef – nima?

A. Arxitektura uslubi

b. Tasviriy san'at janri

v. Haykaltaroshlik turi

g. Musiqiy uslub

21. Kushonlar davrida qaysi dinlar san'at rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan?

A. Islom, zardushtiylik

b. Buddaviylik, xristianlik

v. Buddaviylik, zardushtiylik

g. Barcha javoblar to'g'ri

22. Jam' - ?

a. Pentaxord

b. Tetraxord

v. Tovushqator

g. Interval

23. Turkiston o'lkasida musiqiy folklor va etnografiyani birinchilar qatorida o'rgana boshlaganlar:

a. A.Eyxgorn, V.Leysek

b. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani

v. E.Romanovskaya, V.Belyaev

g. T.Toshmuhamedov, A.Rasulov

24. Kasbiy darajadagi doston ijrochiligining rivojlanishida kaysi an'ananing ahamiyati katta?

A. Badiiy an'ana

b. Ijodiy an'ana

- v. Ijrochilik an'anasi
- g. Ustoz- shogird an'anasi

25. Doston janrining eng keng rivoj topgan davrlar:

- a. XX asr
- b. XVIII- XIX asrlar
- v. X- XI asrlar
- g. XV asr

26. Dugohi Husayniy - ?

- a. O'n ikki maqom tizimiga kiruvchi maqom nomi
- b. Ikkinchi guruhga kiruvchi sho'baning nomi
- v. Toshkent, Farg'onada mashhur maqom yo'llaridan biri
- g. SHashmaqomning cholg'u bo'limi

27. Qadimgi raqslarga qaysi javobda to'g'ri tushuncha berilgan?

- A. Marosim raqslari
- b. Mavsumiy raqslar
- v. Ritmik pantomimalar
- g. Klassik raqslar

28. Qavl - ?

- a. CHolg'u kuy
- b. Maqom nomi
- v. Usul nomi
- g. Ashula

29. Xusayniyning "Qonun" asari qaysi shoirga bag'ishlangan?

- A. Adruraxmon Jomiy
- b. Alisher Navoiy
- v. Abdulla Oripov
- g. Daqiqiy

30. Darvish Ali Changiyga tegishli asarni ko'rsating.

- A. "Xamsa"
- b. "Tuhfatus-surur"
- v. "Duvozdahmaqom"
- g. "Shohnoma"

31. Qaysi davrda Samarqand va Xirot shaharlari asosiy madaniy markazlari bo'lgan edi?

- A. Sosoniylar davrida
- b. Qoraxoniylar davrida
- v. Temuriylar davrida
- g. Somoniylar davrida

32. Alisher Navoiyning musiqadagi ustoz kim bo'lgan?

- A. Abdulla Marvarid
- b. Abduraxmon Jomiy
- v. Xoja Yusuf Burxon
- g. Maxmud Sheroziy

33. "Maqom" iborasi birinchi bo'lib qaysi olim tomonidan qo'llanilgan?

- A. Alisher Navoiy
- b. Safiuddin Urmaviy
- v. Darvish Ali Changiy
- g. Maxmud Sheroziy

34. Safiuddin Urmaviyning musiqaga oid asari qaysi javobda berilgan?

- A. "Majolisun-nafois"
- b. "Mezonul-avzon"
- v. "Kitab ul-advor"
- g. "Kitabul musiqiy al-Kabir"

35. Mushkilot - ?

- a. Ikkinchi guruh sho'balarning nomi
- b. Xorazm maqomlarining cholg'u bo'limi
- v. Shashmaqom turkumining cholg'u bo'limi
- g. Shashmaqom turkumining ashula bo'limi

36. Forobiyning ta'riflashicha "bo'd", "i'qo" atamalarining ma'nosi:

- a. Teraxord, pentaxord
- b. Oktava, tovushqator

v. Interval, ritm (usul)

g. Interval, tovush

37. Katta ashula janri qaysi xududda keng rivojlangan?

A. Farg'ona vodiysida

b. Xorazmda

v. Samarqandda

g. Qashqadaryoda

38. O'n ikki maqom tizimida nechta sho'ba va ovoz bor?

A. 2 ta sho'ba va 4 ta ovoz

b. 24 ta sho'ba va 6 ta ovoz

v. 22 ta ovoz va 6 ta sho'ba

g. 20 ta sho'ba va 5 ta ovoz

39. O'zbekistonning qaysi hududida baxshilar dostonlarni tor jo'rligida kuylaydilar?

A. Xorazm

b. Farg'ona

v. Surhondaryo- Qashqadaryo

g. Samarqand- Buxoro

40. "Avesto" kitobining "olqishlov qo'shiqlari" qanday nomlanadi?

A. Yashtlar

b. Yasna

v. Vendidad

g. Vispered

41. Shashmaqom turkumiga qaysi maqomlar kiradi?

A. Zirafkand, Rohaviy, Hijoz, Zangula, Rost, Iroq

b. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq

v. Isfahon, Husayniy, Ushshoq, Buslik, Navo, Kuchak

g. Uzzol, Muxayyar, SHahnoz, Gardoniya, Salmak, Navro'z

42. Rudakiy qaysi janrning ustasi bo'lgan?

A. Qasida

b. G'azal

v. Tazkira

g. Ruboiy

43. Mahmud Sheroziyning "Durratut-toj..." qomusiy asarining musiqaga bag'ishlangan qismi qanday nomlangan edi?

A. "Risolai musiqiy"

b. "Dar ilmiq musiqiy"

v. "Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy"

g. "Jami' ul-alhan"

44. "Kitab ul- musiqiy al- kabir"ning tarjimasini...

a. Katta musiqa kitobi

b. Ilmlar kitobi

v. Musiqiy usullar kitobi

g. Musiqiy estetikaga doir kitob

45. "Maqosid il-alhon" kimning asari?

A. Abdurahmon Jomiy

b. Safiuddin Urmaviy

v. Abdulqodir Marog'iy

g. Mahmud Sheroziy

46. A.Navoiyning qaysi asarida musiqachi, sozanda, xonanda va musiqashunoslar haqida ma'lumotlar keltirilgan?

a. "Xamsa"

b. "Majolis un-nafois"

v. "Holoti Pahlavon Muhammad"

g. "Lison ut-tayr"

47. Sharq mamlakatlarida "Al-muallim as-soniy" ulug' nomiga qaysi alloma sazovor bo'lgan?

A. Al- Farg'oniy

b. Al- Xorazmiy

v. Abu Ali ibn Sino

g. Abu Nasr Farobiy

48. "Lazgi" O'zbekistonning qaysi hududiga tegishli raqs?

A. Farg'ona

b. Toshkent

v. Buxoro

g. Xorazm

49. Qadimda odam nimalarga taqlid qilib pantomimik harakatlarni amalga oshirgan?

A. Hayvon harakatiga, qushlarning uchishiga

b. Ilon sudralishiga

v. Hasharotlarning harakatiga

g. Qushlarning uchishiga

50. Doston- nima?

A. Yirik xajmli folklor janri

b. Ashula

v. Aytim

g. Turkumli vokal asar

51. Petroglif – nima?

A. Qoyalarga chizilgan rasmlar

b. Saroy devorlariga chizilgan rasmlar

v. Zamonaviy foto-suratlar

g. Qadimgi yozuv

52. “Ayrptom frizi”da qaysi cholg‘ular tasvirlangan?

A. Avlos, arfa, likopchalar, baraban, udsimon cholg‘u

b. Lira, kifara, gong, dutor, karnay

v. Pipa, g‘ijjak, doyra, nog‘ora, tanbur

g. Avlos, arfa, karnay, kifara, dutor

53. Borbad – kim?

A. O‘rta asrlarda yashagan hofiz

b. Kushonlar davrining musiqachisi

v. Ilk o‘rta asrlarda yashagan bastakor

g. e.av. davrlarda yashagan cholg‘uchi

54. Xusrav Dehlaviy kim?

A. Shoir, olim, sozanda

b. Dehli sultoni

v. O‘rta asrlar matematik olimi

g. Barcha javoblar to‘g‘ri

55. Borbad musiqa ilmi va hofizlik san‘atini qaerda o‘rgandi?

A. Xurosonda

b. Arabistonda

v. eronda

g. Marvda

56. Afrosiyob va Panjiktendan bir-biriga o‘xshash, musiqa soxasiga oid nima topilgan edi?

A. G‘ijjak chalayotgan musiqachi

b. Arfa cholg‘usini chalayotgan farishta qiyofasi

v. Kifara cholg‘usini ushlab turgan erkak qiyofasi

g. Musiqiy ansambl tasviri

57. Hozirgi kunda “Ayrptom frizi” qaysi muzeyda saqlanmoqda?

A. Toshkent San‘at muzeyida

b. Ermitaj

v. Luvr

g. Surhondaryo muzeylarining birida

58. Musiqaning paydo bo‘lishi haqidagi gipotezalar:

a. Hayvonlar va qushlar ovozig taqlid qilishi jaoayonida

b. Chaqiriq ohanglaridan

v. Musiqiy ohanglarning paydo bo‘lishidan avval ritm paydo bo‘lgan

g. Barcha javoblar to‘g‘ri

59. Dastlab qanday cholg‘ular paydo bo‘lgan?

A. Torli

b. Urma

v. Damli

g. Barcha javoblar to‘g‘ri

60. O‘rta osiyo tarixini o‘rganilishida muhim bo‘lgan qadimiy kitob:

a. Veda

b. Qadimgi xronikalar

- v. Avesto
- g. Injil

61. O'rta Osiyo hududidagi qadimgi bayramlar:

- a. Gullar bayrami
- b. Navro'z, Mexrjon
- v. Lola sayli

g. Musiqa bayrami

62. Insoniyat hayotining ilk davrlari:

- a. Paleolit
- b. Mezolit
- v. Eneolit
- g. Paleolit, Bronza davri, Temir davri

63. "Chodir jamol" va "Chodir xayol" nima?

- A. Tojikistondagi qo'g'irchoq teatrlarining turlari
- b. O'zbekistonda qo'g'irchok teatrlarining turlari
- v. Masxarabozlar teatri
- g. Komediya teatrlari

64. Ishqiy mavzudagi dostonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. "Farhod va Shirin", "Yusuf va Zulayxo", "Vomiq va Uzro", "Shoxsanam va G'arib"
- b. "Siyovush", "Manas", "Alpomish", "Go'ro'g'li"
- v. "Alpomish", "Rustam".
- G. "Layli va Majnun", "Siyovush".

65. Doston ijrochilari kimlar?

- A. Dirijyor
- b. Baxshi, shoir
- v. Ijrochi
- g. Aytimchi

66. Termachilar kimlar?

- A. Dostonni to'liq ijro etuvchilar
- b. Dostondan parchalar ijro etuvchilar

v. "Shoxsanam va G'arib" dostonining ijrochisi

g. Xorazmda baxshilar shunday nomlanadi

67. Dostonlar qaysi cholg'ular jo'rligida ijro etiladi?

- A. Do'mbra, dutor, qobuz
- b. Doira, tanbur, dutor
- v. Chang, g'ijjak, rubob

g. Qayroqlar va nog'ora

68. Katta ashula ijrosi davomida cholg'ular jo'rsoz bo'ladimi?

- A. Yo'q
- b. Ha
- v. Ashulaning boshlanishida cholg'ular kirish qismini ijro etadilar
- g. Butun ashula davomida doira jo'rsoz bo'ladi

69. Xalfalar san'ati qaysi xududda rivojlangan?

- A. Buxoro-Samarqandda
- b. Xorazmda
- v. Surxondaryo-Qashqadaryoda
- g. Farg'ona-Toshkentda

70. Pantomima nima?

- A. Tana harakati
- b. Biror voqe'lik yoki tuyg'ularni so'zsiz, tana harakati orqali aks ettirish
- v. Sakrama rqs harakatlari
- g. Lirik tuyg'ularni aks ettiruvchi raqs elementi

71. "Chang" cholg'usi o'tmishda qanday shaklda yasalgan?

- A. Qonunsimon
- b. Setorsimon
- v. Arfasimon
- g. Oysimon

72. Xalq cholg'u sozi dutorni ilk bor o'zining risolasida ta'riflagan alloma.

- A. Alisher Navoiy
- b. Abdulqodir Marog'iy

- v. Darvish Ali Changiy
- g. Zaynulobiddin Xusayniy

73. “Mug‘om ” atamasi qaysi millatga tegishli?

- A. Arab millatiga
- b. O‘zbek millatiga
- v. Ozarbayjon millatiga
- g. Uyg‘ur millatiga

74. Temuriylar davrida “mextar” deb kimlarni atashgan?

- A. Masharabozlarni
- b. Chavandozlarni
- v. Karnaychi va nog‘orachilarni
- g. Otliq askarlarni

75. Amir Temur davrida xarbiylar yurishida qaysi cholg‘ulardan foydalanishgan?

- A. Karnay, nog‘ora
- b. Surnay
- v. Rubob, doira
- g. Nog‘ora, doira

76. Alisher Navoiy musiqa ijodiyotiga bevosita aloqadorligini qaysi shoh e‘tirof etgan?

- A. Shoxruh Mirzo
- b. Xusayin Boyqaro
- v. Zaxiriddin Bobur
- g. Mirzo Ulug‘bek

77. Ud cholg‘usi g‘arbda qanday atalgan?

- A. Qonun
- b. Arg‘anun
- v. Arfa
- g. Lyutnya

78. “Mutrib va mug‘anniylar” haqidagi ma‘lumotlarni qaysi alloma o‘zining asarida keltiradi?

- A. Ibn Sinoning “Shifo” kitobida

- b. Forobiyni “Musiqqa xaqida katta kitobi”da
- v. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida
- g. Zaxiriddin Muxammad Boburning “Boburnoma”sida

79. Forobiy qaysi cholg‘ularda musiqa ijro etgan?

- A. Nay, Tanbur
- b. Mavjud bo‘lgan barcha cholg‘ularda
- v. Dutor, Sato, G‘ijjak
- g. Tanbur

80. Forobiy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy ilmlarning barcha sohalarida nechta asar yaratgan?

- A. 14 ta
- b. 50 ta
- v. 160 ta dan ortiq
- g. 10 ta

81. Mumtoz adabiyotda birinchi bo‘lib “Xamsa” (Besh doston) ni kim ijod qilgan edi?

- A. Alisher Navoiy
- b. Abduraxmon Jomiy
- v. Nizomiy Ganjaviy
- g. Zaxiriddin Muxammad Bobur

82. “Risolai dar bayoni Duvozdahmaqomi”ning muallifi kim?

- A. Najmiddin Kavkabiy
- b. Zahiriddin Bobur
- v. Kamoliddin Binoiy
- g. Zaynullobiddin Husayniy

83. XV asrda qaysi musiqiy janrlar keng rivojlandi?

- A. Amal, savt, naqsh, tarona
- b. Qo‘shiq, ashula
- v. Peshrav, qavl
- g. Aytim, g‘azal

84. Qaysi janr ijrochiligida likobcha qo‘llaniladi?

- A. Katta ashula

b. Qo‘shiq

v. Maqom

g. Doston

85. Ushshoq, Zirafkand, Rohaviy, Zangula kaysi maqom tizimiga kiradi?

A. O‘n ikki maqom

b. Shashmaqom

v. Xoraz maqomlari

g. Ozarbayjon mug‘omlari

86. A.Jomiyning “Risolaiy musiqiy” asari kimning tavsiyasiga binoan yozilgan edi?

A. Alisher Navoiy

b. Amir Temur

v. Bobur

g. Shoh Xusrav Parvez

87. Sharq musiqa nazariyasining asoschisi kim?

A. Abu Nasr Forobiy

b. Abdurahmon Jomiy

v. Darvesh Ali CHangiy

g. Safiuddin Urmaviy

88. Xorazm xalq teatrining muhim xususiyati:

a. Pantomima harakatlari

b. Musiqiy chohlularning ishlatilishi

v. Maxsus kiyimlar

g. Sahna niqoblari

89. Firdavsiyning “Shohnoma” asarida yozilishi bo‘yicha Borbad qaysi shoh davrida yashagan?

A. Shoh Baxrom go‘r davrida

b. Qayumars davrida

v. Xusrav Parvez II davrida

g. Shoh Jamshid davrida

90. “Qarsak o‘yin” deb atalgan badiiy turkum qaysi xudud xalq teatriga tegishli?

A. Kushonlar davri

b. Buxoro xalq teatri

v. Somoniylar davri

g. Ashtarxoniylar davri

91. Usta Olim Komilov - ?

a. Bastakor

b. Musiqachi, doirachi, ustoz raqqos

v. Musiqashunos

g. Hofiz

92. “Katta o‘yin”da syujet bormi?

A. Qisman bor

b. Yo‘q

v. Bor

g. To‘g‘ri javob yo‘q

93. Avj –

a. cho‘qqi

b. Ashulaning bir qismi

v. Ashulaning boshlang‘ich bo‘lagi

g. Ashulaning yakuniy qismi

94. XX asrda ijod qilgan mashhur doston ijrochilari kimlar?

A. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, ergash Jumanbulbul o‘g‘li

b. Tilla kampir, Sulton kampir, Yo‘ldosh bulbul

v. Yodgor baxshi, Bo‘ron shoir, Suyar shoir

g. Begijon baxshi, Bibi shoira, Amin baxshi

95. Qaysi javobda torli cholg‘ular ko‘rsatilgan?

A. Doira, qayroq, nog‘ora

b. Karnay, surnay, bo‘lamon

v. Dutor, sato, tanbur

g. Nay, tuyduk, sibizg‘i

96. Temuriylar davrida bayram, o'yinlar va tomoshalar haqida "Badoe'ul vaqoe'" asarida berilgan: ushbu asar muallifini aniqlang?

- A. Zayniddin Vosifiy
- b. Abdulqodir Marog'iy
- v. Darvish Ali Changiy
- g. Zaynulobiddin Xusayniy

97. "Osori ul baqiya" ("Qadimgi xalqlarning qolgan yodgorliklari") asari qaysi muallifga tegishli?

- a. Abu Nasr Farobiy
- b. Abu Rayxon Beruniy
- v. Abduraxmon Jomiy
- g. Umar Xayyom

98. Shashmaqom shakllanish jarayoni qaysi asrlarga to'g'ri keladi?

- A. XIII-XIV asrlar
- b. XV-XVI asrlar
- v. XVIII-XIX asrlar
- g. XVII-XVIII asrlar

99. "Bozurgoniy", "Guluzorim", "Samarqand Ushshog'i", "Qurbon o'lam" asarlari qaysi bastakorning ijodiy merosidan?

- a. Mulla To'ychi Toshmuhamedov
- b. Yunus Rajabiy
- v. Hoji Abdulaziz Rasulov
- g. Orifxon Xotamov

100. Qaysi maqom turkumida qismlar faqat raqamlar bilan belgilanadi?

- A. O'n ikki maqomda
- b. Xorazm maqomlarida
- v. Shashmaqom turkumida
- g. Farg'ona-Toshkent maqomlarida

MUNDARIJA

Kirish.	3
O'rta Osiyo xalqlarining madaniy-musiqiy merosi	5
Avesto – O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy yozma yodgorligi	15
O'zbekiston antik davri musiqa madaniyati (miloddan avvalgi IV asr – milodning I asri)	20
Kushon saltanati davri musiqa madaniyati (milodning I-IV asrlari)	32
IV-VII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati	44
Borbad va uning ilmiy-ijodiy merosi	56
Arab xalifaligi davrida musiqa madaniyati (VII-X asrlar) Islom dini va musiqa. Ixvanus-safo va xullan-ul vafo (Soflik birodarlari va vafo do'stlari)	71
Somoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (IX-X asrlar) Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Forobiy, Xorazmiy.	94
Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XII asrlar) Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ibn Sino, Ibn Zayla, Safiuddin Urmaviy, Ma'sud Qutbiddin SHEROZIY.	118
XIII asrning ikkinchi yarmi - XVI asrning birinchi yarmi musiqa madaniyati Jaloliddin Rumiy, Amir Husrav Dehlaviy	140
Temuriylar davri musiqa madaniyati Kamolliddin Behzod, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy.	151
Alisher Navoiy va musiqa	173
XVI-XVII asrlarda madaniy musiqiy hayot Najmiddin Kavkabi Buxoriy, Darvish Ali Changiy.	184
XVIII-XIX asrlarda madaniy va musiqiy hayot	202
O'zbek dostonchilik san'ati	212
O'zbek xalq raqs san'ati	225
Xalq tomosha teatri	239
Fanga oid test savollari	248

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov

O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI

(Darslik)

**Muharrir – Jamalov L.O.
Musahhih – Islomova H.S.
Texnik muharrir – Gulomov A.T.**

«Fan ziyosi» nashriyoti. Litsenziya № 3918

Nashriyot manzili: Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: pachaxanovich@mail.ru. +998933764407.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «TimesNewRoman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 16.75 Adadi 50. Buyurtma № 12

“Fan va talim poligraf” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy



ISBN: 978-9943-7469-1-6



9 789943 746916